

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**D. A. Abdurahimova**

**PEDAGOGIK MAHORAT**  
**O`QUV QO`LLANMA**

**Ta'lim sohasi: 5141600 Boshlang`ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish**

**TOSHKENT - 2012**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**(O`QUV QO`LLANMA)**

**TOSHKENT - 2012**

## **Annotatsiya.**

Mazkur o`quv qo`llanma boshlang`ich ta`lim fakulteti talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, qo`llanmada Markaziy Osiyoda muallimlik kasbi odobining tarixiy ildizlari, o`kituvchining muhim axloqiy fazilatlari, kasb odobining tuzilishi, pedagogik faoliyatining axloqiy tavsifi yoritilgan. Ta`lim- tarbiya jarayonida, maktab amaliyotida va pedagogik fikr tarixida o`kituvchining mahorati masalalari, pedagogik qobiliyat, o`kituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati, pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari, dars va tarbiya jarayonida o`kituvchi mahorati, o`kituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning ilmiy asoslari, pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta`lim muassasalarida ilg`or pedagogik g`oyalar, tajribalarning taraqqiyoti tarixi, mustaqil malaka oshirish va o`z - o`zini nazorat qilish, o`quv- tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, o`kituvchi faoliyatida sharqona muomala madaniyati masalalari yoritib berilgan.

**Tuzuvchilar: Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Dilfuzaxon Abdurahimova.  
Pedagogika fanlari doktori, professor  
Rahimaxon Mavlonova.**

### **Taqrizchilar:**

**O`zbekiston davlat Jahon tillari universiteti  
professori, pedagogika fanlari doktori  
S.X. Fayzulina**

**Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti  
«Umumiy pedagogika» kafedrasining dotsenti, pedagogika  
fanlari nomzodi G.Sultonova**

O`quv qo`llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi «Ta`lim» o`quv – metodik birlashmasida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan.

200 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_sonli majlis bayoni.

Oliy va o`rta maxsus kasb - hunar ta`limi o`quv- metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning  
200 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_sonli qaydnomasi bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

## SO`Z BOSHI

O`zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o`zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishni boshlab berdi.

Endilikda barcha sohani mamlakatning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib avlod- ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf - odatlari hamda tarixiy tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu esa respublikaning milliy davlat sifatida ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy- madaniy kamol toptiruvchi o`z taraqqiyot yo`lini rivojlantirish, milliy istiqloq mafkurasini qaror toptirish va uni barcha xalq ommasi ongiga singdirish zaruriyatini taqozo etadi. Bu nafaqat hozirgi avlod taqdiri, balki kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog`liq ekanligini anglatadi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog`liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo`lib, o`z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko`ra yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni esa asosan xalq ta'limi tizimidagi muassasalar va bu muassasalarda faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchi- murabbiylar bajara oladi.

O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» ko`p sonli o`qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay- tolmay xizmat qila oladigan, buyuk Vatan yo`lida o`z jonini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalashdek mas'uliyatli talabni qo`ydi. Bu talablar boshlang`ich sinf o`qituvchisida ayniqsa to`la mujassamlangan bo`lishi lozim. Zero, maktabga ilk bor qadam qo`ygan bola dunyoning, hayotning sir - asrorlarini o`qituvchidan o`rganadi. O`qituvchi esa bolaga o`z bilganini o`rgatadi. Agar bolani chuqur bilimli, e`tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo`lsak, shu fazilatlar o`qituvchida mujassamlangan bo`lmog`i zarur.

«Dunyoda nufuzli kasblar ko`p, ammo ular orasida o`qituvchilik kasbi alohida mavqega ega. Ayni zamonda o`qituvchi kasbiga nihoyatda katta talablar qo`yiladi, chunki biz murabbiy, muallim qo`liga farzandlarimiz taqdirini ishonib topshiramiz»- degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Shunday ekan, o`qituvchi, umuman boshlang`ich sinf o`qituvchisi qanday pedagogik - psixologik tayyorgarlikka, pedagogik bilimlarga, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat va fazilatlarga ega bo`lishi kerak? degan savol tug`iladi. Bu savolga pedagogik mahorat fanini o`rganish jarayonida javob topishimiz mumkin.

«Pedagogik mahorat» fani talabalarga bo`ljak o`qituvchi ixtisosligi bo`yicha bilimlarni egallashlari davomida o`qituvchi shaxsidagi ma'naviy- axloqiy tarbiyani; o`z kasbi doirasida odob va axloq normalariga rioya qilish xususiyatini,

uning mohiyatini; muallim – ustoz odobining bola shaxsiga ta'sirini anglab, turli vaziyatlarda o'z xulqini idora qilishning zaruriyatini; bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik mahoratni, ko'nikma va malakalarni, pedagogik texnika elementlarini o'zlashtirib, egallab borishlarini o'rgatadi.

«Pedagogik mahorat» fanidan o'qiladigan ma'ruzalar talabalarni o'qituvchi mahoratiga doir dolzarb muammolar bilan tanishtiradi, bu borada olib borilishi zarur bo'lgan tadqiqot va izlanishlar, uning asoslari, kasbdoshlar, ota-onalar va o'quvchilar bilan muloqotga kirisha bilish usullari, o'qituvchi ishidagi texnika uning asrori bilan tanishtiradi.

Fanni o'qitish davomida talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarida o'rganilgan bilimlarga muvofiq pedagogik mashqlar o'tkaziladi. Bu bo'lajak o'qituvchi shaxsida amaliy ko'nikmalarning shakllanib borishini ta'minlab, pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslarini egallab olishga xizmat qiladi.

# **I.BO`LIM. PEDAGOGIK MAHORAT FANINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING O`QITUVCHI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI.**

## **1- Mavzu O`QITUVCHI ATAMASI, UNING SHAXSI, KASBI VA PEDAGOGIK FAOLIYATI**

O`zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan xalq ta`limi sohasi bo`yicha o`rtaga quyilayotgan vazifalarni bajarish ko`p jihatdan o`qituvchi shaxsiga bog`liq. Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida ta`lim- tarbiyadan ko`zda tutilayotgan maqsadga erishish, o`kuvchilarning xilma- xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e`tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o`stirish o`qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O`zbekistonning istiqboli ko`p jihatdan o`qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o`kitish va tarbiyalash ishiga bo`lgan munosabatiga bog`liq.


O`qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o`qituvchi bo`lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o`zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o`kitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun- qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g`oyalar bayon etiladi, o`kuvchilarning Yosh va individual xususiyatlarini e`tiborga olish ta`kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma- xil va murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko`p uchrab turadi. Bu esa o`qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo`lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma`lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo`lishi kerak.


Pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo sog`lom bo`lishi, so`zlarni to`g`ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo`lishi, boshqalar bilan muomalada o`zini tuta olishi zarur. Shuningdek, o`qituvchida bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay

olish, tashkilotchilik, o`ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo`lishi zarurdir.

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta`lim- tarbiya beri shishi bilan shug`ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. «Tegishli ma`lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo`lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish huquqiga ega», - deyiladi «Ta`lim to`g`risida»gi qonunda. O`qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O`qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Har bir bola o`z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o`ziga xos xususiyatlarini xisobga olish, o`rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko`rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O`qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning kasbnomasida ifodalanadi.




**O`qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o`z ichiga  
oladi:**




- -



## Kasbiy pedagogik sohada



## Bilish sohasida



O`qituvchining psixologo- pedagogik tayyorgarligiga qo`yiladigan talablar: Bilim egallash sohasida; pedagogikaning metodologik asoslarini, shaxsning rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini bilish; tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini tushunish, bolalar va o`smirlar anatomo- fiziologik rivojlanishlarining asosiy qonuniyatlarini bilish: o`kuvchilar gigienik tarbiyasining nazariy, tabiiy- ilmiy asoslari va vositalarini bilish: bolalar rivojlanishining psixik

qonuniyatlarini, har xil yoshda shaxsning individual- psixologik xususiyatlarini bilish.

Ko`nikma va malakalar hosil qilish sohasida: pedagogik vaziyatni tahlil qilish; pedagogik ta'sirlarni rejalashtirish va natijalarini mo`ljallay olish, ijtimoiy-pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo`lish va rivojlanish sababalarini, shart- sharoitlarini tahlil qila bili shva baholay olish; o`quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini aniqlash; shaxs va jamoaning rivojlanishini belgilay olish; ta'lim va tarbiya jarayonida o`kuvchilarda uchrashi mumkin bo`lgan qiyinchiliklar va xatolarni kura bilish; aniq pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish; o`quvchilarning sinfdagi va sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish; o`kuv- tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlay olish; rejalashtirilgan pedagogik ta'sirlarga o`kuvchilarning javob harakatlarini oldindan chamalay bilish ko`nikmalari.

O`quv- tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida: o`quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o`kuv materi alani tanlash, uni analiz va sintez qila olish ko`nikmasi; ilmiy materiallarni qayta ishlab, o`quv materialaiga aylantira olish ko`nikmasi: ma'lum didaktik vazifaga muvofiq o`kuvchilar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o`kuv materialini o`zlashtira olish ko`nikmasi; darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko`nikmasi.

Bolalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida:

Tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o`kuvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, quyilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o`zgartira olish ko`nikmasi; bolalarga ta'sir o`tkazi va ular faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishni rejalashtirish ko`nikmasi; ta'lim va tarbiya uslublarini pedagogik maqsadga muvofiq qullash ko`nikmasi; o`quvchilar xulqi va faolligini boshqarish ko`nikmasi; bolaning tashqi ko`rinishi va qiliqlaridan uning ruhiy holatidagi o`zgarishlarni aniqlash, ma'lum vaziyatda bolalar xulqining xususiyatlarini anglash

va izohlash ko`nikmasi; o`zini xayolan tarbiyalanuvchi o`rniga qo`ya olish ko`nikmasi; o`kuvchilarni shaxs uchun va ijtimoiy qimmatli istiqbollarga qiziqtirish va jalb qilish ko`nikmasi; umumiy vazifalarni bajarish uchun o`kuvchilarni guruhlarga bo`lib, ularning o`zaro munosabatini hisobga olish ko`nikmasi va boshqalar.

O`kituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, kata natijalarga erishadi, o`z ishining natijasi bilan mo``jizalar yaratadi, ijodkor bo`ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste`dodli kishidagina pedagogik mahorat bo`lishi mumkin.

Jamiyatimizning ma`naviy yangilanishi ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jahon hamjamiyatiga qo`shilishini ta`minlaydigan, demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustivor mezon sifatida muhim rol o`ynaydi.

«Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro`yobga chiqarishning sharoitlarini va ta`sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq - atvorning andozalarini o`zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir - deb aytgan edi I.A.Karimov.

Xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o`tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O`zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo`lib qoldi.

Mana shu ma`noda bugungi mustaqillik sharoitida kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro`yobga chiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta`lim – tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlik hissini yuragiga tuya oladigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish,

rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida 1997 yilda Oliy Majlisning IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida» Qonun va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» qabul qilindi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ishlab chiqishning asosiy omillaridan biri, respublikamizning demokratik va huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan izchil ilgari lab borayotganligi; davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi; milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vataniga iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmatning ortib borayotganligidir. Yana shu narsani alohida qayd etish joizki, endilikda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro' - e'tiborining tobora ortayotganligi ham mazkur islohotlarni tezlikda amalga oshirish lozimligi pedagogik zaruriyat bo'lib qoldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan barcha tadbirlar uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan.

Ya'ni:

Birinchi bosqichda (1997-2001 yillar) pedagogik va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish asosida milliy dasturni ro'yobga chiqarish, yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb -hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish hamda ta'lim xizmatini ko'rsatish bozorni shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinishi ko'zda tutiladi.

Uchinchi bosqichda (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirish

istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim jahon axborot tarmog`iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog`i bilan to`liq qamrab olinadi.

Bizga ma'lumki, kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosatini insonni intellektual va ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog`liq bo`lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasb bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga oshiriladi.

Demak, bu g`oyalar ilmiy - nazariy umumlashmalar, xususan, kadrlar tayyorlashning milliy modeli shaxs; davlat va jamiyat; uzluksiz ta'lim; fan; ishlab chiqarish uyg`unlashtirilganda ko`zlangan maqsadga erishish mumkin bo`ladi. Zero, davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafolatlari yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg`unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko`rsatadi. Uzluksiz ta'lim esa kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Chunonchi, uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Fan o`z navbatida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi sifatida yuzaga chiqadi.

Ishlab chiqarishning kadrlarga bo`lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy - texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi bo`lib hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va qo'yiladigan ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlashning milliy modelining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limini joriy etishdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi dasturlariga izchil intilishni ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV-sinflar), umumiy o'rta ta'lim (V-IX-sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining o'z ichiga qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni o'z tarkibiga oladi.

Ma'lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o'rgatadi. Dastlabki saboqni ham o'qituvchi beradi. Dastlabki ona - Vatan so'zlarining ma'nosini, mohiyatini ham o'qituvchi o'rgatadi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o'qituvchilik- muallimlik kasbi o'ta sharaflil va mas'uliyatli hisoblanadi. Mana shu o'rinda tabiiy ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, o'qituvchi kim? U qanday sifatlarga ega bo'lmog'i kerak? Xususan, bugungi kun o'qituvchisi qanday malakalar bilan qurollanmog'i darkor? va boshqalar.

O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim – tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Shuning uchun ham respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql – idrokini

o`stirish, ma`rifiy ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo tarbiyachining o`zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo`lishi kerak» - degan edi. Darhaqiqat o`qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o`z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borishga ishtiyoq bo`lmas ekan, u yaxshi ustoz - o`qituvchi bo`la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg`a surilayotgan barcha islohatlarning ijobiy yechimi ana shu ko`p minglik ziyokorlik ishining samarasiga bog`liq. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o`qituvchilik kasbiga bo`lgan e`tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shuning bilan birga o`qituvchi oldiga qo`yiladigan talablar ham o`zgacha bo`lmoqda. Chunki, bugun O`zbekiston mustaqil Davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog - o`qituvchilarning o`z o`rni, o`ziga xos mohiyati borligini aslo unutmaslik lozim.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko`tarilgan barcha tadbiri - amallar respublikamizning aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan. Bu eng avvalo o`qituvchi kasbiga bo`lgan munosabatni tub jihatdan o`zgartirishni, uning ma`naviy - axloqiy va aqliy kamolotini oshirish lozimligini taqozo etadi.

Demak, bu fikrlarni ilmiy – nazariy tahlil qilish, shunday xulosalarga olib keladi:

**Birinchidan** - o`qituvchi pedagogik faoliyatga qobiliyati bor, ijodkor, ishbilarmon, bolajon bo`lmog`i

**Ikkinchidan** – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi angelaydigan va mukammal egallagan, diniy va dunyoviy bilimlardan ogoh, ma`naviy – axloqiy barkamol inson sifatida obro` - e`tiborga ega bo`lmog`i;

**Uchinchidan** – imon –e`tiqodi butun, har qanday oqimlarga va ko`rinishlarga o`zining qat`iy munosabatini bildira oladigan, eng muhimi O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida maydonga chiqishiga ishonadigan va boshqalarni ham ishontira oladigan bo`lishi;

**To`rtinchidan** - o`qituvchi vatanparvarlik g`oyasi bilan sug`orilgan bo`lmog`i va o`z tarbiyalanuvchilarini ham ana shu yo`lda fidokorlikka undamog`i;



**Beshinchidan** – pedagogik kasbiga doir bilimlarni ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi;

**Oltinchidan** – bolalarni sevish, ular ruhiyatini yaxshi bilishi, shuningdek, ularning yoshi va individual xususiyatini hisobga olgan holda ular bilan muomalaga kirisha olishi;

**Ettinchidan** - o'qituvchi erkin va ijodiy fikrlay olishi, talabchan, adolatli bo'lmog'i;

**Sakkizinchidan** - o'qituvchi odobli, iboli va hayo sohibi bo'lish bilan birga, o'z tarbiyalanuvchilarini ham ana shunday sifatlar bilan qurollantirishga harakat qilmog'i;

**To'qqizinchidan** - o'qituvchi o'z so'ziga va qilayotgan ishiga bolalarni ishonтира oladigan, obro' - e'tiborli shaxs bo'lmog'i;

**O'ninchidan** - o'qituvchi o'tkir suxandon, mantiqiy fikrlovchi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan ma'lumotni izchil va ketma – ketlik printsipli asosida yetkazishi;

**O'n birinchidan** - o'qituvchi madaniyatli, estetik didli bo'lishi bilan o'zining tarbiyalanuvchilari uchun ibrat bo'lib qolmog'i kerak.

Agar o'qituvchi ana shunday sifatlarni o'zida mujassam qila olsa kadrlar tayyorlash milliy modelida qayd etilgan o'qituvchi tamoyiliga qo'yilgan talablarga to'liq javob bera oladi deyish mumkin.

O'qituvchilik kasbini egallash uchun, albatta, tabiiy qobiliyatlar bilan birga, jismoniy ham ruhiy xislatlar ham shakllangan bo'lmog'i darkor. Aks holda o'qituvchilik kasbini tanlagan bunday shaxslardan na jamiyatga, na o'zgalarga hech qanday manfaat bo'lmasligi turgan gap.

Pedagogik faoliyatning mazmuni asosan yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga tarbiya berish uchun, layoqatli, talab doirasida barcha aqliy va axloqiy salohiyatga ega bo'lgan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslarning alohida faoliyatiga aytiladi.

Aniqroq qilib aytganda o`qituvchilarning mehnat faoliyati komil insonni tarbiyalashga qaratilgan murakkab, ziddiyatli va uzoq davom etadigan jarayondir.

O`qituvchilik kasbini egallagan har bir inson avvalo o`qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o`zida mujassam etishi; shuningdek, o`qituvchining ruhiy – pedagogik tayyorgarligiga qo`yiladigan talablarni atroflicha o`zlashtirgan bo`lishi; tanlangan ixtisos yuzasidan kerakli doirada pedagogik mahorat, texnika, takt, ziyraklik, kuzatuvchanlik, bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo`lmog`i juda muhim.

O`qituvchi go`zallik sohibidir. U olijanob sharafli kasb egalari haqida ne-ne aziz odamlar qo`llariga qalam olib jo`shqin hislarini, eng yaxshi ezgu tilaklarini oq qog`ozlar betiga bitmagan deysiz. Hayot abadiy. Ammo u yosh avlod bilan barhayot. Avlod bor ekan, unga ta`lim va tarbiya beradigan mehri daryo o`qituvchilar ham abadiy barhayot yashayveradi. Hayotning bu sharafli kasb egalari bo`lgan ehtiyoji ham abadiydir. O`qituvchi bamisoli bog`bon. U yoshlik gulshanining bog`boni. Maktab, o`quv yurti - yoshlik gulshani, yosh avlod uning bebaho nihollari, ustoz o`qituvchilar bu bog`ning oqil, mirishkor, mehribon bog`bonlaridir. U o`z bog`idagi mevalarning rango-rang va sog`lom bo`lishi uchun kurashadi. Har bir shogirdini baxtiyor ko`rishni orzu qiladi. Daraxtni shirin meva, o`qituvchini esa oqil, barkamol shogird bezaydi.

Bu kasbning faxru - iftixori shundaki, o`qituvchi tarbiyalab o`stirgan nihollarning hosili qanchadan-qancha avlodlarni bahramand qiladi. Eng baxtiyor, piri badavlat odamlardan biri o`qituvchi. U dunyodagi har qanday javohirdan ham qimmatli bo`lgan inson farzandini voyaga yetkazib, uni ulug` ishlarga voris qiladi. O`qituvchilik kasbi kasblar ichida alohida faxr va iftixor bilan tarona etiladigan kasbdir. Chunki biror soha yo`qi, unga o`qituvchining bevosita yoki bilvosita qo`shgan hissasi bo`lmasin. O`qituvchining bilimidan, aql-zakovatidan, mehr-muhabbatidan bahramand bo`lmagan kishi yo`q.

Zamonamizning zabardast olim va shogirdlari, shoir va san`atkorlari, fazogirlari, ishchisi, o`rmonchisi, shifokori, quruvchi-injeneri - hammasi o`qituvchidan ta`lim olgan. Shuning uchun ham xalqimiz –tog` cho`qqilaridan

yuksak mehr-muhabbatini, quyosh nuridek jo`shqin qalb haroratini "o`qituvchi" degan so`zga singdirgan va bu nomni katta ezoz bilan tilga oladi.


Biz o`qituvchilar kasbimiz bilan qancha faxrlansak, umrimizning bebaho hosili - sevgan kasbimizning durdona mevasi, faxru iftixorimiz bo`lgan shogirdlar bilan baxtiyormiz. Ulug` Vatanimizning qaysi yeriga borsak, "Salom, ustoz, o`qituvchim", deb shogirdlarimiz peshvoz chiqishadi. Biz shunda o`zimizni qanchalik baxtiyor inson ekanligimizni chuqurroq, his etamiz. Umrimizga yana umr qo`shilgandek o`zimizni tetik sezamiz. Ana shu narsa bizga yana kuch-quvvat va kasbimizga beqiyos muhabbat baxsh etadi. O`qituvchi mehnatini taqdirlash "Xalq o`qituvchisi" degan yuksak unvonning ta`sis etilishida yana bir yorqin ifodasini topdi.


O`qituvchi o`ziga bo`lgan bu hurmat bilan birga unga yosh avlodni tarbiyalash kabi faxrli, ayni zamonda juda murakkab va mas`uliyatli vazifa ishonib topshirilganligini juda yaxshi biladi.


Ilmiy-texnika taraqqiyoti katta sur`at bilan rivojlana borayotgan bir sharoitda hayot bizning oldimizga yangidan-yangi vazifalarni qo`ymoqda.


Dars bizdan bola tarbiyasiga atroflicha yondashishni, yosh avlodni har taraflama rivojlantirishni talab etmoqda. Shunday sharoitda o`qituvchining o`ziga xos o`rni va mavqei qanday bo`lishi kerak. Bu kasb egasi o`ziga xos ijtimoiy, siyosiy, pedagogik va shaxs talablariga javob bera olishi uchun u qanday sifatlarni o`zida mujassamlashtirishi kerak? degan qonuniy savol tug`iladi.


**BOSHLANG'ICH SINF O`QITUVCHISINING MA'NAVIY QIYOFASINI BELGILOVCHI FAZILATLAR**

















**MAFKURAVIY SOHADA**



**Ilmiy dunyoqarash va e'tiqod**

**Ijtimoiy ehtiyoj**

**Fuqarolik burchini anglash**

**Ijtimoiy faollik**

**KASBIY PEDAGOGIK SOHADA**



**Bolalarni sevish, bolalar bilan ishlashga qiziqish.**

**Pedagogik ishni sevish**

**Pedagogik – psixologik ziyraklik va kuzatuvchanlik**

**Pedagogik takt**

**Pedagogik tasavvur**



**Tashkilotchilik qobiliyati**


**Haqqoniylik, dilkashlik**

**Talabchanlik**

**Qat'iylik**

**Maqsadga intilish**

**BILISH SOHASIDA**



**Keng ilmiy saviya**

**Ma'naviy ehtiyoj va siziqish**

**Yangilikni his qila bilish**

**Pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish**

**Vijdonan pok**

**MUSTAHKAM  
IRODALI**

**ANIQ  
MAQSADLI**

**Ma'naviy olami  
boy**


**ISTE'DOD**

**Qat'iy harakat qila  
oladigan**

**Fikrlovchi**

**Ruhan tetik**

**Ijodkor**



O`qituvchi quyidagi fazilatlarga ega bo`lishi kerak: insoniy g`oyaviylik, insoniy e`tiqodlilik, vatanga sodiqlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy burchni chuqur anglash, inson manfaati singari ulug`vor maqsad yo`lida mumtoz niyatlar, temir iroda bilan kurasha bilish, haqqoniylik, printsiyallik, mudom mehnatkash xalq bilan hamdam va hamkorlik, xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo`yish, hayotda faol pozitsiyada turish, yangiliklarni sezish va ularni hayotga joriy etishda tashabbuskorlik ko`rsatish, axloqiy poklik va yosh avlodga mehribonlik, oqilona talabchanlik, yuksak madaniy xulq, nafosat, til va dil birligi, fan asoslarini, jamiyat, tabiat va inson tafakkuri qonuniyatlarini chuqur bilish va amalda qo`llay olish, har sohada yosh avlodga o`rnak ko`rsata bilish.

O`qituvchining jamiyatdagi muallimlik vazifasi ana shu fazilatlarni o`zida to`la mujassam bo`lishini taqozo etadi.

### **Q`OYAVIY BARKAMOL, FAOL JAMOATCHI**

O`qituvchi, eng avvalo, yo`l ko`rsatuvchi yorqin yulduz bo`lib, u o`z faoliyatida yuksak axloq-odob qoidalariga tayanib ish ko`radi va uni ijodiy ravishda boyitishga o`z hissasini qo`shib boradi.

Ma`lumki, kishi o`z-o`zidan e`tiqodli bo`lib qolmaydi. Kishidagi insoniy e`tiqod tabiat taraqqiyoti, jamiyat taraqqiyotiga oid fanlar asoslarini chuqur egallash va olingan bilimlarni va ulug` hayot tajribalari bilan uzviy bog`lab tahlil qilish va umumlashtirish orqali haqiqatni, borliqni anglash va uni go`zal qilish uchun kurash natijasida shakllanadi. Ulug` goyalarga e`tiqodini kuydira oladigan o`t, ulug` maslak yo`lida kurashayotgan insonning irodasini buka oladigan kuch yo`q.

o`yosi sayoz kishi hayot ummonining tubiga yeta olmaydi va undan javohirlarni terishga ham qodir bo`lmaydi, qanoti qisqa qushlar uzoqqa parvoz qila olmaganidek, hayotning rivojlanish qonuniyatlaridan bexabar kishi, xususan, shunday o`qituvchining kelajakni ko`ra olish imkoniyati cheklangan bo`ladi.

Hayotda inson o`z oldiga sharaflil va muqaddas orzu - istaklarni qo`ya bilishi zarur. Bu ezgu orzu - istak esa faqat mehnat va matonat bilan jamlanishi mumkin. Yana shu haqiqatni unutmasligimiz lozimki, kishining o`z oldiga qo`ygan

maqsad va unga erishish yo`lida foydalanadigan vositalari uning aqlu idrokining qandayligidan dalolat beradi.

Iroda ulug` hayotda, mehnat va kurash jarayonida shakllanadi, sayqal topadi va sinovdan o`tadi. Qiyinchiliklardan qo`rqish, chekinish kamolotning to`xtashidan nishona. Chunki kamolotning zamiri qiyinchiliklarni yengib o`tishda, hayotda uchraydigan qiyinchiliklarni va ziddiyatlarni yengib o`tishida. Aziz kasbdoshim, hayotda ko`p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan va ziddiyatlarni yengib o`tgan insonga chuqur nazar solasan, uning aqliga va ichki dunyosi ham go`zal ekaniga ishonch hosil qilasan. Umar Xayyom aytganidek:

Qiyinchilik kechib odam hur bo`lur,

Sadafda qamalib qatra dur bulur.

Sharafli va yaxshi ishlar og`izda emas, balki amalda bajariladi. Ayniqsa, o`qituvchining e`tiqodi va tilak - orzulari uning amaliy faoliyatiga aylanmog`i lozim. Agar kishining ulug`vor fikr va g`oyalariga, go`zal his – tuyg`ulariga, dildagi ezgu niyatlariga monand amaliy xatti - harakati qo`shilsa, nur ustiga a`lo nur bo`ladi.

Ziyokor o`qituvchi halol mehnat qilishi, o`z burchini to`liq, ado etishi, aytgan so`zlariga amal qilishi zarur. Shunda xalq unga ishonadi.

O`qituvchi – ziyo tarqatuvchi. U zamon bilan hamnafas odim tashlashi, fan - texnika yutuqlarini, barcha yangiliklarni targ`ib etishi kerak. O`qituvchi xalqdan bir qadam oldinda yurib, odamlarni o`z ortidan ergashtirishi darkor.

## **TARBIYAGA MUHABBAT**

O`qituvchilik kasbiga qadam qo`yish niyatida bo`lgan odam o`z-o`ziga: shu kasbni sevamanmi, dilimda bu havas o`ti bormi? men bolajonlik fazilatiga egamanmi? bir umr ana shu nihoyat murakkab, lekin sharafli kasbning jozibali sehri bilan yashay olamanmi? degan savollarni o`ziga berib, o`z qalbi bilan gaplashib olmogi lozim.

Insonni el hurmatiga sazovor etuvchi yaxshi fazilatlardan biri tanlagan kasbida sadoqat bilan ishlay bilishdir. Kasbda qo`nimli bo`lish insonni bezovchi

ziynat bo`libgina qolmay, ishni unumli qiladi. Bir yerda, bir kasbda uzoq ishlashda hikmat ko`p. Dono xalqimiz: "Daraxt bir yerda ko`karadi", - deb bejiz aytmagan. Umuman har bir inson bir kasbda, iloji boricha bir joyda qo`nim bilan ishlashi uning o`zi uchun ham, jamiyatimiz uchun ham foydali. Bil`aks ishda, kasbda qo`nimsizlik odamning o`ziga ham, jamiyatga ham foydasizdir.

Ming afsuski, ayrimlarning ish faoliyatini kuzatar ekansiz, uning mehnat daftarchasida o`nlab ish joyini almashtirganligini ko`rib, goho fikrga tolasiz. Bir yerda unolmaydigan, ishda qo`nimsiz bunday chittak nusxalar ko`pincha jamiyatimiz tartib - qoidalariga rioya qilmayotgan, intizomsiz kishilardir. Hatto, qanday bo`lmasin bir amallab diplom olishnigina ko`zlab, pedagogika oliy o`quv yurtlariga kirayotgan, keyinchalik ishdan-ishga ko`chib yurgan kishilar anchagina uchrab turadi. Bunday kishilar o`qituvchilikka o`z xohishi bilan emas, balki ota-onalarining va boshqalarning gapi bilan kirib qolgan bo`ladi. Chunki ularning tarbiyachilik kasbiga mehri yo`q, bu kasbning shavq-zavqini sezmaydilar. Shuning uchun uni ardoqlamaydilar.

Davr biz pedagoglardan, ota-onalardan, tarbiyashunos olimlardan bola iste`dodini yoshligida, bog`chada va maktabda aniqlash, jamiyatning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni o`stirish shakl va metodlarini yaratishni talab etmoqda. Har qanday kishi ham o`qituvchi bo`la olmasligini ilmiy tadqiqotlar ko`rsatmoqda. O`qituvchilik kasbini egallash uchun kishida qobiliyat, muayyan malaka va ma`lum tayyorgarlik bo`lishi lozim.

Ko`pgina o`qituvchilar o`zlarining kasbiga fidoiyligi va madaniyati, go`zal ma`naviy fazilatlarini bilan el hurmatiga sazovor bo`ladilar.

## O`QITUVCHI BILIMI

O`qituvchi bo`lish uchun kasbni sevishdan tashqari, o`z fani bo`yicha chuqur, shuningdek yondosh fanlar sohasida ham keng bilimga ega bo`lish kerak. Bola bilimdon o`qituvchini hurmat qiladi. Yosh inson qoshida obro`yini qozonishni istagan o`qituvchi o`z kamoloti ustida muttasil, doimiy ishlamo`g`i lozim.

Hayot, fan va madaniyat juda katta sur'at bilan rivojlanmoqda. Hozir axborotlar nihoyatda ko'paygan davr. Axborotlar oqimi ichidan o'zi uchun eng muhimini topa olish biz o'qituvchilardan tinmay o'qishni talab etmoqda.

Afsuski, oliy o'quv yurtida olgan bilimi bilan cheklanayotgan, bilim doirasi darslikdan nariga o'tmaydigan o'qituvchilar ham ko'p. Bunday o'qituvchi o'z o'quvchilaridan orqada qolmoqda. Chunki o'quvchi boy va ko'p qirrali axborotdan bahramand. Bu o'qituvchining obro'yini tushirmoqda.

O'qituvchi o'z ustida ishlamasligining yomon oqibati shundaki, u o'quvchilar umrini zoe ketkizadi. O'quvchining oltin vaqtini behuda oladigan o'qituvchi esa bir umr ziyo bermay, dudlab yotgan chiroqni eslatadi. Ziyokor o'qituvchi esa mudom porlab nur bermog'i, o'z ziyosidan avlodni bahramand qilishi lozim.

Inson boshqa birovga nur berishi uchun o'zi porlashi kerak. O'z ustida ishlaymay, hayotdan orqada qolayotgan ayrim o'qituvchilarning ishlari ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, aziz o'qituvchi, sinfda senga termilib turgan va sendan ruhiy oziq kutib o'tirgan qora ko'zlar oldiga aslo tayyorlanmay kira ko'rma! Aks holda, u cho'lpon ko'zlarda o'zingga nisbatan g'azab va nafrat o'tini yoqqan bo'lasan.

### **Savol va topshiriqlar**

- 1. Pedagogik faoliyatning mazmuni nimalardan iborat?**
- 2. O'qituvchi bilimiga qanday talablar quyiladi?**
- 3. Tarbiyaga muhabbat deganda nima tushuniladi?**
- 4. O'qituvchida qanday fazilatlar mujassam bo'lmog'i lozim?**

## **2 – Mavzu. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNHA, UNING O`QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI**

Pedagogik san`at vaziyat bilan bog`liq. Bu yerda har gal hamma narsa yangidan sodir bo`lganday tuyuladi. Binobarin, kishi o`zining har bir qadamini oldindan ko`rishi, rejalashtirishi, amalda mumkin bo`lmaydi.

Pedagogning mehnati – bu behad izlanish va azob - uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko`pdan- ko`p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo`lish va bolalar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogik san`at – bu qandaydir qo`l bilan tutib bo`lmaydigan, fahm - farosat bilan amalga oshiriladigan narsadir, degan taassurot tug`iladi.

Har qanday ijodkorlik, buning ustiga pedagogik ijldkorlik quruq joyda faqat hissiy ta`sirlar asosida boshlanishi mumkin emas. Tarbiya san`atida o`zining pedagogik texnikasi, o`zining «bir qolipdagi» mehnat madaniyati borki, ularni bilib olish zarur. Pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishning butun tizimi ana shu bilib olishga qaratilishi kerak. Biroq, hali hech kim oliy o`quv yurtida o`qib yoki o`qituvchilar malakasini oshirish kursini tamomlagandan keyin mahoratli, usta pedagog bo`lib qolmagan. Pedagogik mehnat ustalari maktabda vujudga keladi, bolalar bilan muoamalarda tarbiyalanadi.

Xo`sh, pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi? Bu fahm - farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo`lgan nufuzli rahbarlikning, bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo`lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va jiddiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga ega bo`lgan qobiliyat mujassamidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko`proq natijalarga erishish imkonini beradi. Shuning bilan birga, pedagogning mahorati erishilgan narsalar chegarasidan tashqariga chiqishga doimo intilishni ham nazarda tutadi.

Shu kunga qadar pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o`zicha, paypaslab



ijodiy izlanish olib boradi, ayni bir xil savollarni: bolalar bilan, pedagoglar jamoasi bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Bolalarni pedagogik talablarni bajarishga qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o'z kuch- quvvatini oqilona sarflash mumkin? degan savollarni muttasil takrorlaydi.

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning ishida zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur masalalarni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirishish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini, o'z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi.

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon ma'nodagi eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq zaonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi- maxsus bilimlar va malakalar: bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir- biriga o'tishi dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Ishni endigina boshlayotgan o'qituvchi va tarbiyachi uchun iloji boricha ko'proq mohir pedagoglar ish tajribasi bilan keng tanishib borish g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Eng yaxshi namunalar asosida o'qib- o'rganish hamisha

muvaffaqiyatliroq bo`ladi. Shu sababli, ancha tajribali o`qituvchilar va tarbiyachilar tashkil etadigan darslarga, to`g`arak va klub mashg`ulotlariga, mehnat ishlariga kirib turish uchun vaqtni ayamaslik kerak.

O`qituvchi eng yangi ilmiy asarlarni o`rganar ekan, o`zining hayotiy bilimini, his etgan va anglagan narsalarini, o`z tajribasini aslo kamsitmasligi kerak. Pedagogik jarayonda yosh o`qituvchilarni keng va dadil tajribachilik ishlariga yo`llash zarur.

Nima uchun kishi o`ziga va o`zining o`qituvchilik imkoniyatlariga dadil munosabatda bo`lishi kerak? Chunki, bundan boshqa yo`l yo`q: yosh o`qituvchilar maktabda, bolalar bilan muomala- munosabatdagina mahoratli pedagog bo`lib yetishishi mumkin.

Pedagogik mahorat – izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat hamma o`qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o`qituvchining o`z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigan jarayondir.

Mahoratli pedagog deganda - ravon va ta'sirchan nutqqa ega bo`lgan, o`tilayotgan mavzuga o`quvchi diqqatini torta oladigan, qobiliyatli, mavzuga mos ko`rgazmalar ijod qilib, undan unumli foydalana oladigan, har qanday sharoitda ham o`quvchi qalbiga yo`l topa oladigan, har bir darsi jarayonida bolaning qiziqishi va faoliyatini oshiri oladigan kishini tushunamiz.

V. A. Suxomlinskiy o`zining «Chin insonni qanday tarbiyalash kerak» degan asarida «O`qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo`lmaydi». To`quvchi bir soatdan keyinroq o`z ishining hosilini ko`radi., po`lat erituvchi bir necha soatdan so`ng olovda metal oqimidan shodlanadi. Bu uning orzusini yuksak cho`qqisi; yer haydovchi, don sepuvchi g`allakor bir necha oydan keyin dalada o`stirgan boshoqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O`qituvchi esa o`z ijodining mahsulini ko`rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O`qituvchi har bir minut, har bir daqiqada o`zining o`ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisidan har birini ko`rib turishi, u shu daqiqada nimalar o`ylayotganligini, qanday g`am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak-degan fikrlarni bayon etadi.

Pedagogik mahorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi.

Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu – kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar tizimning mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Qobiliyat esa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyatli va mahoratli o'qituvchi oldida esa hozirgi kun talabi asosida vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qila oladigan, buyuk vatanni dildan sevadigan va bu yo'lda o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni vatanga mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi turadi.

Oliy majlisning to'qqizinchi sessiyasi «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur to'g'risida» qonunlarni qabul qildi. Bu qonunlar uzluksiz ta'lim tizimining o'zbek modelini aniqlab berdi.

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish muammolari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov: «O'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag'batlantirish, ularning o'z ishi, kasbidan mamnun bo'lishini ta'minlashimiz lozim va ... bu masalani yechmasdan turib, kelajak avlod tarbiyasi to'g'risida gapirishning o'zi mutlaqo nomaqbuldir»,- deb ta'kidlagan edi.

«Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» o'qituvchilar oldiga juda katta va mas'uliyatli vazifalar yukladi. Bu esa o'qituvchilardan o'z

ustlarida muntazam tinmay ishlashlari va yosh avlodni o`z Vataniga, xalqiga munosib insonlar qilib tarbiyalashni talab etadi.

O`qituvchilik kasbi ulug` va sharaflı, murakkab, o`z o`rnida mas`uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni komil bo`lib yetilishiga o`qituvchi sababchi bo`ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmi, olimu-fuzalolar o`qituvchining mehnati samarasidir. O`qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo`lmaydi. O`qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o`zida avvalo iroda, sabr-matnat, pedagogik mahoratni, o`qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko`nikmalarni egallashi lozimdir.

O`qituvchi o`zini mahorat egasi sanasa u quyidagi bilim, ko`nikma, malakalarni egallagan bo`lishi zarurdir.

1.O`qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarurdir.

2. Mustaqil O`zbekistonimiz o`qituvchisi birinchi galda o`zi o`qitadigan fanni chuqur egallagan bo`lgandagina o`quvchilarda umumiy va kasbiy ta`lim sifatini oshira oladi va ularda fan - texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi.

3.O`qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har minutidan unumli foydalanishi zarur.

4.O`qituvchi yaxshi o`qituvchi bo`lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo`shib, o`z fanining metodikasini yaxshi bilmog`i lozim.

5.O`qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo`lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san`at sohasidagi bilimlarga ega bo`lishni talab qiladi.

6.O`qituvchi pedagoglik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagoglik odobi o`qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo`lib, u o`qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi mahorati oshadi.

7. O`qituvchi pedagoglik mahoratiga va har tomonlama bilimga ega bo`lishi kerak, chunki unga o`quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.

Va nihoyat o`qituvchida o`qituvchiga xos bo`lgan qobiliyatlar mujassam etgan bo`lishi zarur.

## Savol va topshiriqlar

**1. Nima uchun kishi o`ziga va o`zining o`qituvchilik imkoniyatlariga dadil munosabatda bo`lishi kerak?**

**2. Pedagogik mahorat qanday komponentlardan tarkib topadi?**

**3. Pedagogik mahoratning asosiy negizi nima?**

### **3 – Mavzu. PEDAGOGIK FIKR TARIXI VA MAKTAB AMALIYOTIDA O`QITUVCHI MAHORATI MASALALARI.**

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo`lib, ular pedagogika fanidagi o`zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog`liq holda atroflicha o`rganishni taqozo etadi. Pedagogika tarixi ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo`lishi, inson kamoloti haqidagi g`oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etadi.

Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o`tgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, respublika boshqaruvi o`rnatilgan. Bu yerda o`ziga xos ta'lim – tarbiya tizimlari va pedagogik ta'limotlar yaratilgan. Yunonistonlik olimlar – Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflotun (427-347), Arastu (383-322); shuningdek, mashhur Rim pedagogi Kvintilian (42—118)lar o`z asarlarida ta'lim – tarbiya, o`qituvchi axloqiga doir pedagogik nazariyalar yaratganlar.

Masalan, **Demokrit** tarbiyaning tabiatga mosligi g`oyasini o`rtaga qo`ygan. O`qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini uqtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o`zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o`qitishda majburlash usulidan ko`ra, ishontirish vositasidan foydalanish afzalligini, salbiy namunalarning zararligini ta'kidlagan edi.

U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko`rsatib, pedagoglar, ota-onalar bolani yomon o`rnakdan ehtiyot qilib, yaxshi xulq hosil qilish uchun foydali xatti - harakatlarni ko`proq mashq qildirishlari lozim, degan edi.

**Aflotun** bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi to`g`risidagi g`oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish; uning yaxshi, itoatkorligini rag`batlantirish, itoatsizlik qilsa qo`rqitish va urib bo`lsa ham to`g`ri yo`lga solish lozimligini ta`kidlaydi. «Agar pedagog yoki ota-ona,-degan edi u,- bolaga: mana bu adolatli, bu esa — adolatsiz, bu ishni qilish yaxshi, bu esa - uyat, bu narsa — muqaddas, bu esa — nopoklik: bu ishni qilish kerak, buni qilmaslik lozim, deb aytmasa va ko`rsatmasa bolani tarbiyalay olmaydi» (Xrestomatiya po istorii zarubejnoj pedagogiki. Moskva, «Prosveщenie», 1981, 19-bet).

Arastuning «Iskandarga nasihat»i (qarang: «O`zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent, «O`qituvchi». 1995, 39-46-betlar) da bayon etilgan pedagogik g`oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan hamon qimmatini yo`qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan (qarang: Pisarenko V. I., Pisarenko P. Ya. Pedagogicheskaya etika. Minsk, 1977. 10-11-betlar) afinaliklarning o`qituvchilarni saylash taomili ham o`qituvchi bobida diqqatga sazovordir. Chunonchi, muallimdan yoshlarda sinfiy burchga sadoqat, intizomlilik, davlatni boshqara olish kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalash talab etilgan. Saylab qo`yish-o`qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga katta majburiyatlar yuklagan. Bu taomil Afina davlatida pedagoglik ishining ommaviyligini, unga katta e`tibor berilganini ko`rsatadi. O`qituvchi etib saylangan kishi unga davlatning kelajagi - yoshlarni tarbiyalashdek ulug` vazifa ishonib topshirilganidan faxrlangan. Davlat va tarbiyalanuvchilar bilan o`qituvchi o`rtasidagi muomala, munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga amal qilish talab etilgan.

Rim pedagoglaridan eng mashhuri — **Mark Fabiy Kvintilian** «Notiqni tarbiyalash to`g`risida» nomli asarida pedagogik muammolarni, shuningdek, o`qituvchi odobiga doir masalalarni ham bayon etadi. Kvintilian o`z zamonasidagi Grek va Rim pedagogik g`oyalarini yaxshi o`rganib, notiqlar maktabida ko`p yillar o`qituvchilik qilib orttirgan katta tajribasini umumlashtiradi. Uning fikricha, bola maktabda ta`lim-tarbiya olishi lozim. O`qituvchi o`zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotlik bilan va e`tibor berib muomala qilishi kerak, chunki befohi va

qobiliyatsiz bola kamdan-kam uchraydi. O`qituvchining o`zi o`qimishli bo`lishi, bolalarni sevishi, o`zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo`lar-bo`lmasga maqtayvermasligi yoki jazolayvermasligi, o`z shogirdlari uchun o`rnak bo`lishi va ularni sinchiklab o`rganishi lozim. Har bir o`qituvchi o`qitishning hamma bosqichlarini o`tishi kerak. Yuqori tipdagi maktab o`qituvchisi, avvalo ,boshlang`ich maktabda muallimlik qilishi maqsadga muvofiq. Muallim va tarbiyachilarning talaffuzi yaxshi bo`lishi kerak

O`qituvchi odobining tarixiy ildizlari haqida gap borar ekan, qadimgi Yunoniston va Rim pedagoglarining yuqorida keltirilgan g`oyalarini tilga olish o`rinli deb hisoblaymiz. Chunki Markaziy Osiyoda yashagan mutafakkirlar Hindiston, Xitoy kabi sharq mamlakatlari madaniyati, ilm-fani, pedagogikasi bilan bir qatorda qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati, falsafasi, pedagogikasiga ham e`tibor berganlar. Jahon allomalarining ilmiy aloqalari, ma`rifatparvarlik, pedagogik, axloqiy ta`limotlari Markaziy Osiyoda pedagogika sohasidagi fikrlar taraqqiyotining tarixiy ildizlaridan biridir.

Islom ta`limoti o`tmishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni. insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o`zida mujassamlantirdi. Qur`oni karim va Hadislarda bayon etilgan axloqiy g`oyalar insoniyat madaniyati xazinasiga qo`shilgan ulkan hissa ekanligi jahon miqyosida allaqachon tan olingan. Qur`on — falsafiy, huquqiy bilimlar majmuigina bo`lib qolmay, axloqiy tarbiyani qudratli manbai, vositasi, kishilarni halollik, poklik, axloq-odob, insofdiyonatga da`vat etuvchi muqaddas kitobdir. Qur`on suralarida kishilar Alloh nomidan ezgulikka, halollikka. poklikka da`vat etiladn. Yovuzlik yo`lidan qaytmagan kishilar uchun do`zax azobi muqarrarligi eslatiladi. Bu, esa kishilarni yomon hulqlardan o`zini tiyishga, yaxshilikka undaydi.

Islom ta`limotida yoshlar barkamol inson bo`lib yetishishlari, ayol va erkak turmushda, jamiyatda o`z mavqelarini, vazifalarini bilib, pokiza hayot kechirishlari lozimligi ta`kidlanadi. Erkaklarda g`urur, ayollarda – sharm - hayo, qizlarda - iffat, bolalarda - mehr - oqibat, halol bilan haromning farqiga borish kabi fazilatlarni tarbiyalash islom ilmining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Hadislarda kishilarning axloqiga qo'yiladigan shar'iy talablar bayon etilgan. Ular insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga asos bo'ladi. Hadislarda farz, vojib, harom, halol kabilar bilan bir qatorda insoniy fazilatlar, axloqiy yo'l-yo'riqlar talqin etiladi, insonlik sha'niga dog` tushiradigan illatlar qoralanadn. Insoniy fazilatlar — ilm egallash, halollik, to`g`ri so`zlik, adolatlilik, mehr-oqibat, ota-onani hurmat qilish, yetimlarga, kambag`allarga g`amxo`rlik, saxiylik, poklik, omonatga xiyonat qilmaslik, diyonat kabi ijobiy axloqiy sifatlar ulug`lanadi. Masalan, yoshlarni ilm olishga, axloqli bo`lishga da'vat etuvchi Hadislarda bunday deyilgan: «Ilm egallang! Ilm sahroda do`st, hayot yullarida — tayanch, yolg`izlik damlarida — yo`ldosh, baxtiyor daqiqalarda — rahbar, qayg`uli damlarda — madadkor, odamlar orasida — zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. Mo`minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridur. Sadaqaning afzali – mo`min kishi ilm o`rgannb so`ng boshqa mo`mn birodarlarga o`rgatishdir. Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar» kabilar yoshlarni axloqiy tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, Hadislarda yomon xulq, razolat, kibr-havo adovat, hasad, xiyonat, yolg`onchilik, munofiqlik, poraxo`rlik, buzuqlik kabi illatlar qoralanadi.

Islom ta'limotida yaxshilik qilish insonning tabiiy vojiboti bo`lishi kerakligi tushuntirilib, Alloh insonga o`z ne'matlarini ehson qilganidek, inson ham boshqalarga yaxshilik qilishi, sahovatli bo`lishi kerakligi ta'kidlanadi. «Alloh senga yaxshilik qilganidek, sen ham (o`zgalarga) yaxshilik qil» (Qasos surasi, 77-oyat). «Agar chiroyli amallarni qilsangizlar o`zingizga yaxshilik qilgan bo`lursizlar. Agar yomon, gunoh amallarni qilsangiz ham o`zingiz uchundir» (Isro surasi, 7-oyat). «Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o`n barobar qilib qaytarilur» (An`om, surasi, 160-oyat). Qur`onda ota-onaga ko`proq yaxshilik qilish vojibligi ko`rsatiladi. Shu bilan birga boshqa kishilarga ham, qarindoshlarga, qo`shnilarga, musofirlarga, xizmatkorlarga, do`stu birodarlarga va boshqalarga ham yaxshilik qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Islom ta'limotida sabr-qanoatli bo`lish yuksak axloqiy fazilat sifatida ulug`lanadn. Sabr hamma fazilatlarining onasi, har bir fazilatning asosidir. Islomda



targ`ib qilinayotgan sabr-qanoat, bu - haqiqatni o`rgatish va botilni yo`qotish yo`lida uchraydigan har narsaga chidamlilik, insonlardan kelayotgan aziyatga toqat qilish va kambag`allik, kasallik, aziz kishini yo`qotish kabi qiyinchiliklarga bardoshli bo`lish fazilatidir.

Insonga xos olijanob axloqiy sifatlardan biri kechirimli bo`lishdir. Bu sifat keng qalbli, birovlarining adovati va aziyatiga chiday oladigan kishilarda bo`ladi. Insonlar ko`pincha xato qiladilar va xatolarining kechirilishiga muhtojlik sezadilar. Agar biz yomonlik qilgan kishini (xato qilgan kishini) kechirmaydigan bo`lsak, o`zimizga ham kelajakda kechirim bo`lmay qolishi mumkin. «Yomonlikni yaxshilik bilan qaytaringlar» deyiladi Ra`d surasining 22-oyatida. Ba`zilar adovat qilishga o`rganib qoladilar. Bunday kishilarga nisbatan islom ta`limotida -qilgan adovatiga munosib ravishda, oshirib yubormasdan, zulm qilmasdan javob qaytarish tavsiya etiladi.

Rostgo`ylik jamiyatning barqarorligi va kishilar o`rtasidagi ishonchni ta`minlaydigan eng muhim sifatdir. Yoshlarda bu fazilatni tarbiyalashga oila ham, maktab ham, butun jamiyat ham katta e`tibor berishi kerak. «Ey mo`minlar, Allohdan qo`rqingiz va iymonlarida rostguy bo`lgan zotlar bilan birga bo`lingiz».(Tavba surasi, 119-oyat): «. . .Haq so`zni so`zlangiz!» (Ahzob surasi, 79-oyat.) Hadisda «Rostgo`y bo`ling! Rostto`ylik ezgulikka boshlaydi. Yolg`ondan ehtiyot bo`ling! Yolg`on buzuqlikka boshlaydi» deyilgan.

Kishilar o`rtasidagi munosabatlarda ko`pgina muammolar o`ylamasdan ehtiyotsizlik bilan aytilgan qo`pol so`zdan kelib chiqadi. Chiroyli so`z esa yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir. Islom ta`limoti kishilarni shirinso`zlikka chaqiradi. Shirinso`zlik va xushmuomalalikning shartlaridan biri ovozni baland ham, past ham qilmay. me`yorida gapirishdir. Islom ta`limotida baqirib gapirish qoralanadi.

Imom Buxoriyning «Al-jomi` as-sahih» asarining «Ilm kitobi» bo`limi (Hadis. Birinchi kitob. Toshkent, 1991, 28-51-betlar) ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o`rganish va o`rgatish odobi to`g`risida bahs etadi. Bu yerda ilm egallash odobining 54 qoidasi haqida hikoyat qilingan. Ularda Muhammad

payg`ambarimizning ilm o`rgatish va o`rganishga doir pand-nasihatlarini bayon etilgan. Islom dini qabul qilingan mamlakatlarda maktab va madrasalarda saboq bergan mullalar (muallimlar), mudarrislar va tolibi ilmlar bir necha asrlar davomida bu pand-nasihatlariga amal qilganlar. Ularning tahlili ilm o`rgatuvchi va o`rganuvchilarga nisbatan quyidagi didaktik talablar, pedagogik – axloqiy g`oyalarni ifodalashga imkon beradi:

- ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitilishi, me`yorida bo`lishi;

- ilm mazmunini «aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar» kabi samimiy yoqimli so`zlar bilan ifodalash;

- biror ta`limiy yoki tarbiyaviy masalani o`rtaga tashlab, muhokama, munozara yo`li bilan o`rgatish;

- ilm o`rganish va o`rgatish uchun ma`lum kunlarni qat`iy belgilab qo`yish; ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o`rganish, esda mustahkam saqlash;

- teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilimlarni yod olish:

- ilm o`rgatish jarayonida bolaga, lozim hollarda, tanbeh. berish mumkinligi;

- kishi ilmni o`zi o`rganib, o`zgalarga ham o`rgatishi, ilmga o`zi amal qilishi zarurligi;

- ilmning susayishi, ilmga e`tiborsizlik jamiyatni muqarrar inqirozga yetaklashini tushunish;

- ilmni oson, yengil qilib, odamlarni bezdirmay o`rgatish;

- ilmni so`rab bilib olish, ilm o`rganishda uyalmaslik, o`zi uyalsa, boshqa birov orqali so`rab bilib olish lozimligi;

- ilmga doir savol bergan odamga so`raganidan ko`ra ko`proq javob qaytarish;

- bilim tinglovchiga tushunarli bo`lsin uchun har bir gapni bir necha marta (uch bor) qaytarishning afzalligi;

- ilmni ishtiyoq bilan o`rganishning afzalligi;

- ayollarga ham ilm o`rgatish lozimligi;
- eshitganni yaxshiroq bilib olish, mukammal tushunish uchun qayta so`rash joizligi;
- ilmni bilgan kishi bilmaganga, eshitganlar eshitmaganlarga yetkazish lozimligi;
- ilm berayotgan ulamoning so`zlariga jim turib, diqqat bilan quloq solishning ma`qulligi;
- odamlarga juda oz bilishlarini anglatish;
- ilmni tushunishni, ilm olishni istamagan kishi o`rniga ilmni tushunadigan qavmga (kishilarga) o`rgatish joizligi.

Islom ta`limotida bayon etilgan bu didaktik g`oyalar musulmon maktablarida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi muomala munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar sifatida amaliyotda qo`llanilgan. Ular Markaziy Osiyoda yashagan allomalarning tarbiyashunoslikka doir ta`limotlari uchun ilmiy zamin vazifasini ham bajargan.

## **IX—XVI ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TARBIYASHUNOSLIK VA O`QITUVCHI ODOBI G`OYALARI**

Markaziy Osiyo mamlakatlarida islom dini qabul qilingandan so`ng ming yildan ortiqroq davr mobaynida o`qituvchi odobi g`oyalari islom ta`limoti ta`sirida shakllandi va rivojlandi. Ma`lumki, islom har bir musulmondan avvalo, iymonli bo`lishni talab etadi. Bu, Allohni, Muhammad uning rasuli ekanini tilda va dilda tan olish, barcha olamlarni, insonni ham tangri yaratganiga, oxirat kuni muqarrarligiga ishonishni nazarda tutadi. Shubhasiz, bu, musulmon maktablarining muallimlariga qo`yiladigan axloqiy talablardan eng birinchisi va muhimidir. Shu bilan birga Markaziy Osiyoda yashagan allomalar yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash, shuningdek, o`qituvchilik faoliyati va odobiga doir ta`limotlarni ham yaratdilar.

Abu Nasr al-Forobiy (873—930) o`z asarlarida har bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson bo`lishi uchun ta`lim va tarbiya olishi lozim deb

hisoblaydi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug`um qilmasligi, shuningdek, haddan tashqari ko`p yon berishga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug`um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg`otadi, bordi-yu, shogird ustozning juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimdan sovishga olib keladi.

Forobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining fe'l - atvoriga qarab tarbiya ikki usul - ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bordi-yu tarbiyalanuvchilar fan va hunar o`rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan ilhomlantirish, rag`batlantirish usuli qo`llaniladi: aksincha, mabodo ular o`zboshimcha va itoatsiz bo`lsalar, majburiy usulni qo`llash mumkin (O`zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, «O`qituvchi», 1995, 108-109-betlar).

Musulmon maktabida ishlaydigan kishilardan ziyrak, aqlli va axloqli odam bo`lish talab etilgan. Xalq aqlli kishilarni dono deb ataydi. Forobiyning ko`rsatishicha, aqlli kishi o`tkir zehn, idrokli, fazilatli bo`lishi, o`zining qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarga yo`naltirishi, yomon ishlardan o`zini saqlashi lozim. Forobiy «Aql to`g`risida»gi risolasida o`zida o`n ikki xislatni birlashtirgan kishinigina axloqli odam deb hisoblaydi. Bu xislatlar qatoriga: odamda barcha organlar mukammal taraqqiy etgan bo`lishi, barcha masalalarni tezda va to`g`ri tushuna oladigan, xotirasi baquvvat, zehni o`tkir, so`zlari aniq, fikrni ravon bayon eta oladigan, o`qishga muhabbatli, me'yorga amal qila oladigan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, yolg`onchilarga nafrat bilan qaraydigan, g`urur va vijdonini qadrlaydigan, mol-dunyoga mukkasidan ketmagan, adolatni sevadigan, jabr-zulm o`tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan, adolatli bo`lish, qat'iylik ko`rsatish qo`rqmas va jasur bo`lish kabilarni kiritadi. Ta'lim-tarbiya beruvchilar o`z bilimlari va axloqiy darajalarida bir-birlaridan farq qiladilar, deb hisoblaydi u.

**Abu Ali Ibn Sino** (980—1037) ning fikricha tarbiya yagona jarayon bo`lib yoshlarga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy tarbiya berishni va hunar o`rgatishni nazarda tutadi. «Tib qonunlari» asarida bolani olti yoshdan o`qitish va tarbiyalash uchun muallimga topshirish haqida so`z yuritiladi. Ibn Sino ta'lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi: o`qitishda oddiydan

murakkabga qarab borish; bolaning qobiliyat va mayllarini e'tiborga olish; bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish; ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi.

Bolaga ta'lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim. Barkamol inson qilib yetishtirish uchun tarbiyachi bolani o'zni bilan rag'batlantirishni ham, o'zni bilan jazolashni ham bilsin. Vaqti-vaqti bilan bolani maqtab, yomon hulqini qoralab, yaxshi qiliqlarini o'z vaqtida rag'batlantirib ham turish kerak.

Abu Ali Ibn Sino bolalarni yakka - yakka o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim berishni afzal deb hisoblaydi. U jamoada o'qitishning afzalliklari haqida gapirib, ta'kidlaydiki, bunday holatda bolada ilmga intiluvchanlik ortadi; sheriklarining bilimiga havas qilib, o'z bilimlari bilan g'ururlanadi; boshqalardan orqada qolishga bolaning g'ururi yo'l qo'ymaydi: birga o'qiganda bolalar bir - birlari bilan gaplashib nutqi o'sadi, xotirasi mustahkamlanadi: ta'lim jarayonida o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlashadi, bir - birlarini hurmat qilishga odatlanadi, munozara qilishni o'rganadi, o'zaro musobaqalashishadi, o'zlarining huquqi va burchlari haqida fikr almashadilar. Bu esa bolalarning hulqini yaxshilashga axloq normalarini egallab olishlariga ko'maklashadi.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha, muallim avvalo bolaga Qur'on ta'limotini o'rgatishi lozim, so'ngra bolaning nimaga qizqishini, qaysi kasbga yoki san'atga mayli borligini aniqlashi zarur. Bilim va hunarni bola hayot kechirish va yashash vositasi deb bilsin. So'ngra biror kasb-hunarni mukammal o'rganishi kerak. Ilm va hunar o'rganayotganda bolaning talanti, qiziqish va maylini e'tiborga olish zarur. Aks xolda ta'lim va tarbiya kutilgan natijani bermaydi. Bolalarning bir xillari til o'rganishga qobiliyatli bo'lsa, ba'zilar boshqa fanlarga, masalan, tibbiyotga, geometriyaga qobiliyatli bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham muallim bolaga ta'lim berishga kirishishdan oldin o'quvchining xarakterini o'rganishi va bilim darajasini aniqlashi kerak. Bunda avvalo bola diqqatining xususiyatlarini, qiziqishi

va qobiliyatlarini e'tiborga, olib, unga qaysi hunar yoki san'atni o'rganishi mumkinligini ko'rsatish kerak.

**Kaykovus** (XI asr) «Qobusnoma» asarida bolalarga hunar va fazl o'rgatmak to'g'risida farzandiga qilgan nasihatida ota-onaning va muallimlarning bolaga muomala-munosabati masalasiga ham to'xtaladi. Chunonchi, u ota-ona o'z bolasiga ilm va axloqiy fazilatlarni singdirish uchun bolani muallim qo'li bilan jazolashi mumkinligini uqtiradi va deydi: «... Va har ilmni o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun (bolani) ursalar, sen (ota) shafqat ko'rguzgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o'g'lon ilm va adabni tayoq bilan o'rganur va o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o'z qo'ling bila urmagil, muallimlarning tayog'i bila qo'rqutgil. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o'g'lingning ko'nglida gina qolmasun» (Qobusnoma. Toshkent, «Meros», 1992, 83-bet.)

**Burxoniddin Zarnudjiy** XII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan. Marg'ilonidagi madrasada ta'lim olgan va shu yerda musulmon qonunshunosligidan talabalarga dars bergan. O'zining ko'p yillik pedagogik tajribasini umumlashtirib, «O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma» nomli pedagogik asar yaratdi. Bu asar o'z vaqtida Sharq mamlakatlarida ko'p marta nashr etilib, keng tarqalgan.

Unda pedagoglik kasbi, o'quvchi va muallim muomala odobiga doir bir qancha kasbiy –axloqiy talablar ifodalangan. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

- o'rganish uchun fanlar orasidan eng muhimlarini tanlash: bolalar nimaga qiziqishlari, nimani o'rganmoqchi ekanligi va kelgusida hayotda qaysinisiga ehtiyoj tug'ilishini hisobga olish; eng avvalo Allohni bilish yo'llari haqida fanlarni tanlash;

- muallim tanlaganda, eng avvalo bilimlisiga eng olijanob iga va tajribalisiga to'xtalmoq;

- har bir kishi qanoat, sabr muruvvatni egallashga intilishi, bilimlarni takrorlashga e'tibor berishi;

- o`quvchi muallimdan o`rganayotgan fani, kasbidan to`la qanoat hosil qilishi;

- bilimlarni mukammal o`zlashtirish uchun aql – farosatlilik, istak, chidamlilik o`rgatuvchi o`qituvchi, bilim olish uchun yetarli vaqt bo`lishi;

- o`quvchining sherigi (o`rtog`i, do`sti) sof dil, pok fe`l –atvorli bo`lishi; yalqov, ishyoqmas, ezma bo`lmasligi; jinoyatchi va qo`li egrilardan uzoqroq yurish;

- o`quvchining muallim - ustozga hurmati uchun undan oldin yurmaslik, uning o`rniga borib o`tirmaslik, mashg`ulotlar paytida unga yaqinroq joyda o`ltirishida bilinadi (O`zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent «O`qituvchi», 1995. 206-bet.)

**Muslihiddin Sa`diy Sheroziy** (1184-1292)ning asarlari Markaziy Osiyoda, jumladan, o`zbeklar orasida ham keng tarqalgan. «Guliston», «Bo`ston» kabi pedagogik - axloqiy kitoblari eski o`zbek maktablarida darslik sifatida o`qitiladi. (Sh. Shomuhamedov. «Bir dasta gul» maqolsiga qarang: Sa`diy. «Guliston», Toshkent, 1968, 5-bet.) «Guliston» asarining «tarbiyaning ta`siri bayonida» deb nomlangan yettinchi bobida tarbiyachilik faoliyati, tarbiyashunoslik ilmi, o`qituvchi odobining bir necha muhim qonun-qoidalari qiziqarli hikoyatlar shaklida bayon etiladi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

- ta`lim – arbiya berish uchun bolada avvalo qobiliyat bo`lishi kerak:

Qobiliyat bo`lsa aslida,  
Tarbiyat unga qiladi asar.  
Qancha urinma bo`lmas sayqali,  
Temir aslida bo`lmas javhar.

(O`sha asar, 143 - bet)

- kishi yoshlikdan ilm - hunar o`rganishi kerak.

Hunar qaynar buloq, tuganmas davlatdir.

Istar esang otangdan meros, qo`ygil otang ilmiga ixlos.

(O`sha asar, 144-bet)

- muallim bolalarni odobli qilib tarbiyalashi, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o`rgatishi lozim. Muallimning so`ziga amal qilmagan shahzodalarga jazo ko`proq berilishi joiz, chunki ularning gapirgan gaplari, qilgan ishlari tillarda doston bo`ladi (O`sha asar, 145 - bet).

- muallim tili achchiq, badjahl, fosiq, haddan tashqari qattiqqo`l bo`lmasligi; shuningdek, o`ta sodda, muloyim tabiatli kishi ham bo`lmasligi joiz:

Agarda muallim bo`lsa beozor,  
Bolalar sinfni qilishar bozor.  
Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:  
«Ota mehribon afzal jabri ustod».

(O`sha asar, 146 -bet)

- mabodo tarbiyalanuvchi muallimning to`g`ri nasihatiga quloq solishni istamasa ham tarbiyachi bilganini unga aytishi joiz.

Bahorda bargi mo`l daraxtlar nochor  
Yalang`och qolar qish izg`irinida.  
Past nodon mastlikda o`ylamas aslo  
Ne kechar ahvoli yo`qlik kunida.

(O`sha asar, 148 - bet)

- tarbiyaning natijasi, samarasi bolaning tabiatiga bog`liq.

Tilla –kumush barcha chiqsa ham toshdan,  
Barcha toshda oltin bo`lmog`i gumon.

(O`sha asar, 149 - bet)

**Alisher Navoiy** (1441- 1501) o`zbek adabiyotining asoschisidir. Shu bilan birga, u pedagog-mudarris hamdir. O`z asarlarida, ayniqsa, «Mahbub-ul-qulub» asarida kasb axloqi, turli guruh kishilarining odob masalasini maqolalar shaklida yoritadi. U ta`lim - tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq - odob talablarini ko`rsatadi. Ta`limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi tamoyillarni asos qila oladi. O`z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O`qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar va ta`lim



berayotgan fanini sevishi zarur deydi. O`ziga ham o`quvchi jamiyatda obro`li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e`zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Alisher Navoiy o`z zamonasidagi maktabdorlar (muallimlar) haqida gapirib, ular bolalarga azob berish, kaltaklashga o`rganib qolishganini tanqid qiladi. Ular toshbag`ir, darg`azab, gunohsizlardan achchiqlanishga odatlanishgan. Muallimlardagi bu salbiy sifatlar tarbiya jarayonining qiyinchiliklaridan, bolalarning tabiati, fe`l –atvori, fahm – farosati turli-tumanligi ta`sirida vujudga keladi, deb hisoblaydi.

Navoiyning fikricha, ba`zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir to`da bolalarga ilmu adab o`rgatadi. Bu jarayonda muallim ko`p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo`lida senga bir harf o`qitmish ranj ila,

Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiyning «Mahbub-ul - qulub» asarida o`qituvchi odobiga doir quyidagi talablar bayon etilgan:

- mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;

- muallim bolalarga bilgan narsalarini o`rgatishi, bilmagan ilmlarini o`rgatishga urinmasligi kerak;

gerdayish, manmanlik, ta`magrlik, nodonlik kabi illatlar o`qituvchi axloqiga yet sifatlardir:

- muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yiroq bo`lishi kerak;

- xalq nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, fisqu fasoddan o`zlarini tiya bilishlari zarur.

## **XVI-XX ASR PEDAGOGLARINING O`QITUVCHI ODOBI HAQIDAGI TA'LIMOTLARI**

Evropa mamlakatlarida bu davrda yashagan pedagoglar o`qituvchining professional faoliyati va axloqiy fazilatlarini haqida o`z qarashlarini bayon etganlar, pedagogik ta'limot yaratganlar. Chunonchi, XVI asrda Ukraina va Belorusda birodarlik maktablari ochiladi. 1586 yilda Lvov shahrida ochilgan birodarlik maktabi nizomiga ko`ra maktabning rektori va o`qituvchilari jamoaning umumiy majlisida saylab qo`yilgan. Nizomda o`qituvchining qanday axloqiy fazilatlarga ega bo`lishi ham bayon etilgan. O`qituvchi – «insof-tavfiqli, o`ylab ish qiladigan, yuvosh qobil, kamtar, qanoatli bo`lmog`i lozim. Araqxo`r, firibgar, safsatoboz va dahriylikni yoqlovchi bo`lmasligi lozim». (Konstantinov N.A. va boshqalar. Pedagogika tarixi. Toshkent, «O`qituvchi», 1976, 198-bet).

O`qituvchi bolalarni qattiq ushlamoq`i, lekin ularga muhabbat bilan qaramoq`i kerak. O`qituvchilarga axloqiy sog`ligi haqida qayg`urmog`i, o`yinlar, musobaqalardan foydalanib, ularga jismoniy tarbiya ham berishi kerak.

Chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** (1592-1670) ning asarlarida o`z davrining yangi g`oyalari aks etadi. Komenskiy o`qituvchilikni yer yuzidagi har qanday kasbdan yuqori turadigan juda faxrli kasb deb hisoblab, o`qituvchiga katta ahamiyat beradi. Komenskiy bir tomondan, aholining o`qituvchiga hurmat bilan qarashi lozimligini talab qiladi, ikkinchi tomondan esa, o`qituvchining o`zi ham jamiyatda qanday muhim vazifani bajarayotganligini tushunib olishi va o`z qad - qimmatini yaxshi bilib ishlashi lozimligini uqtirib o`tadi. O`qituvchi, uning fikricha, sof vijdonli, ishchan sabotli, o`quvchilarga o`zi singdirishi lozim bo`lgan fazilatlarning jonli namunasi bo`lishi, keng ma'lumotli va mehnatsevar bo`lishi lozim. U o`z ishini behad sevishi, o`quvchilarga bamisoli otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug`dirishi zarur. O`zi namuna ko`rsatib, o`quvchilarni o`ziga ergashtirishi o`qituvchining eng birinchi vazifasidir. Komenskiy dindorlik o`qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir deb hisoblaydi.

Nemis pedagogi **Adolf Disterveg** (1790-1866) demokratik pedagogikaning ilg'or namoyandasidir (qarang: Pedagogika tarixi. Toshkent, «O'qituvchi», 1976, 122-128 betlar). Uning pedagogik asarlarida o'qituvchilik faoliyati va odobiga qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan. Distervegning fikricha, o'qitish chog'ida bolalarning tashabbuskorligini o'stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchi rahbarlik rolini o'ynagandagina mumkin bo'ladigan ishdir. Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi oqibat natijada darslik yoki metodga emas, balki o'qituvchiga bog'liq deb ta'kidlaydi. Yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi, o'z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog'ida hamma bolalar tetik bo'lib turishi, o'qituvchi g'ayrat bilan dars berib, o'quvchilarning aqliy kuchini uyg'otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, xarakterini tarkib toptirishi kerak. Yaxshi o'qituvchi, Distervegning ko'rsatishicha, o'zining tarbiya printsiplarini qat'iyat bilan og'ishmay o'tkazib boradi. Bu printsiplardan hech qachon qaytmaydi. O'qituvchi o'z ustida muttasil ishlashi lozim. Shundagina u o'quvchilarni bilim egallashda matonatli bo'lishga o'rgatadi. Va ularni o'z yo'llarida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga oladigan etib tarbiyalaydi. Disterveg o'qituvchining mustahkam xarakteri va o'tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi qattiqqo'l va o'tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi qattiqqo'l va talabchan bo'lish bilan birga adolatli bo'lishi ham kerak, faqat shundagina u o'z o'quvchilari orasida obro' qozonishi mumkin. Disterveg o'qituvchi fuqaro bo'lishi, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishi va mard bo'lishi lozim, deydi.

XIX-XX asrlarda ayrim Yevropa mamlakatlarida o'qituvchilar amal qilishi uchun professional kodekslar ishlab chiqildi. Ularda o'qituvchilik faoliyati va pedagogik axloqiga doir talablar ko'rsatilgan. Bu kodekslarda, jumladan, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri, o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabati; muallim o'z kasb mahoratini oshira borishi zarurligi; muallim o'z kasb mahoratini oshira borishi zarurligi; pedagoglarning turli uyushmalarida faol qatnashishi kabi talablar ko'rsatilgan.

## **1917 –1991 YILLARDA O`QITUVCHILIK KASBI VA O`QITUVCHI ODOBI MUAMMOSI**

Sobiq Sovet davlati maorif sohasida yangi siyosatni amalga oshirdi. Ta'lim va tarbiya dindan ajratildi. Maktablar bolalarga faqat dunyoviy ilmlarni o`rgatadigan, materialistik dunyoqarash, marksistik sinfiylik g`oyasini singdiradigan qilib qayta qurildi. Eski maktablarda ishlab kelgan o`qituvchilarni qayta tarbiyalash va yangi sovet o`qituvchilarini tayyorlash ishiga kirishildi.

Sovet davlati maktab va o`qituvchilarni jamiyatning sinflarga bo`linishini tamomila yo`q qilish quroliga, jamiyatni kommunistik asosda qayta qurish vositasiga aylantirish vazifasini kun tartibiga qo`ydi. Bunday usul ma`naviyatimizga qanchalik ziyon yetkazgani tarixdan ma`lum. Sobiq ittifoqda buyuk davlatchilik, ruslashtirish, boshqa millat kishilari o`zligini anglashiga yo`l qo`ymaslikka intilishdek siyosat amalga oshirildi. Keyingi 30-40 yil davomida xalq ta'limi sohasida mablag` ajratishning ilmiy printsiplari buzildi. Maktablarda ta'lim yil sayin pasaya bordi. Qobiliyatli kishilar, ayniqsa erkaklar xalq xo`jaligining boshqa sohalariga ishga o`tib ketdilar. Pedagogika o`quv yurtlariga kiruvchi va uni bitiruvchilarga nisbatan talabchanlik bo`shashtirildi. Natijada pedagoglikka qobiliyati yo`q, bilimi past yuzlab yoshlar har yili respublika o`qituvchilari tarkibiga qo`shildi.

Insoniyat yaratgan bilimlarni egallagan taqdirdagina kommunist bo`lish mumkin, degan ta'limot asosida sovet o`qituvchilari yoshlarga ko`proq nazariy bilimlar berishga intildilar, maktablar borgan sari bolalarni hayotga, mehnatga tayyorlashdan uzoqlasha bordi. O`qituvchi odobi sohasida sovet pedagogikasi gumanizm, demokratizm, kollektivizm, vatanparvarlik, internatsionalizm printsiplariga asoslanish lozimligini e`lon qildi. Go`yoki bolalarni hurmatlash, o`z kasbini sevish, o`qituvchilik burchini anglash, halollik, vijdonlilik, adolatli bo`lish kabi jahon pedagogikasida asrlar davomida shakllangan va tajribada isbotlangan pedagogik axloqiy talablarni ilgari surdi. Lekin bu yuksak umuminsoniy axloqiy normalar milliy zamindan ajratilgani, bir yoqlama kommuniistik mafkuraviylikka asoslangani tufayli amalga oshmadi, balandparvoz gap, erishish amri mahol

boʻlgan orzuga aylanib qolaverdi. Oʻqituvchilarning amaliy faoliyati, taʼlim – tarbiya ishlari markazda tuzilgan yagona oʻquv rejalari, yagona dastur, hamma respublikalar uchun bir xil darsliklar, bir yoʻnalishdagi ish shakllari va usullarini qoʻllash lozimligi bilan cheklab qoʻydi. Oʻqituvchilarning erkinligi, ijodkorligi amalda yoʻqqa chiqarilgan edi. Pedagogik axloq qoidalarida haqqoniylik, halollik, adolat talablari koʻrsatilgan boʻlsa ham amalda har bir oʻqituvchidan toʻliq (yuz foiz) oʻzlashtirish berish, «Ikkisiz va ikki yilliksiz» ishlash talab etildi. Muallimlar insonparvarlik, odamgarchilik koʻrsatish niqobi ostida axloq qonuniyatlariga, odo normalariga zid ravishda harakat qilishga daʼvat etildi. Natijada oʻquv dasturi materialini oʻzlashtirmagan bolaga, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarida taʼmagirlik, manfaatdorlik illatlari avj oldi, kadrlar tayyorlash sifati juda pasayib ketdi.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach mamlakatimiz xalqi oldida iqtisodiy va maʼnaviy mustaqillikka ham erishish vazifasi kun tartibiga qoʻyildi. Oʻzbekistonda uzluksiz taʼlim tizimining tarkibiy qismi sifatida, umumiy taʼlim maktablari va oʻqituvchilarining maqsadi - har bir bolada mavjud boʻlgan qobiliyat va layoqatlarni erkin rivojlantirish, ilm asoslarini, umuminsoniy va milliy – maʼnaviy, madaniy, qadriyatlarni oʻrganish, yuksak axloqiy fazilatlarini, fuqarolik burchini, milliy gʻurur tuygʻusini oʻstirish, yoshlarni mehnat faoliyatiga, mustaqil hayot kechirishga yoʻnaltirishdan iborat.

Hozirgi davr taraqqiyotidan kelib chiqsak Oʻzbekistonda taʼlim-tarbiya tobora rivojlanmoqda, oʻqituvchi kadrlar tayyorlash saviyasi davlatimiz koʻrsatmalariga muvofiq ravishda ortib bormoqda.

Pedagoglik alohida kasb boʻlib, u har bir mutaxassisdan yuksak darajada gʻoyaviy-siyosiy yetuklikni intellektual barkamollikni va entsiklopedik maʼlumotlilikni, insoniy aql va ezgulik urugʻini tarqatuvchi dehqon va bogʻbon sifatida olijanob shaxs boʻlishini taqozo etadi. Hozirgi zamon pedagogikasi fani har bir oʻqituvchidan kasbiy jihatdan yetuk boʻlishni va pedagogik mahorat va qobiliyatni, mahoratni toʻliq egallagan boʻlishlikni talab etmoqda. Pedagogik mahoratga va qobiliyatga, texnikaga ega boʻlmasdan turib haqiqiy oʻqituvchi

bo`lish mumkin emas degan tushuncha kelib chiqadi. O`zida pedagogik mahoratni va qobiliyatni umumlashtirgan inson bolalarni seva oladi, ular uchun jonini fido qila oladi, ularga haqiqiy ustoz bo`la oladi.

Ta`lim – tarbiyada o`qituvchi – murabbiylarning pedagogik mahoratini mukammal egallashi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bois jahonning barcha oliy yurtlarida bu masalaga alohida yondashuv amalga oshirilmoqda.

Pedagogik mahorat pedagogik ixtisosligi faoliyatini mustaqil tarzda yuqori darajada tashkil etishni ta`minlovchi shaxsiy xususiyatlar majmuasidir.

## **UNING TARKIBLARI**

### **I. Gumanistik**

(insonparvalik yo`nalishi)

qiziqishlar

qadriyatlar

ideallar

### **II. Ixtisoslik bilimi.**

Fanni, uni o`qitish metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilish.

### **III. Pedagogik layoqatlar:**

- kommunikativlar, so`z, fikr – tuyg`u orqali munosabat, o`zaro fikr almashuv;
- fahm- idrokli bo`lish;
- turli qobiliyat (ko`rinishlari) qirralari iqtidorligi (ega bo`lish);
- dinamizm (harakatchanglik), faollik, olg`a siljish;
- emotsionallik (his –tuyg`u jo`shqinlik);
- qat`iyatlik;
- qunt, sabot chidamlilik;
- kelajakka ishonch (kelajakni ko`ra bilish);
- e`tiborli nufuzli bo`lish (o`z ta`sirchanligi bilan mahliyo, maftun eta bilish);

### **IV. Pedagogik texnika**

-o`z-o`zini boshqara olish;

-boshqalar bilan aloqa – munosabat o`rnata olish;

Qadimdan ustoz – murabbiylar xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinadi. «Ustoz – otangdan ulug'», - degan maqol ham bejiz aytilmagan. Qaysi bir olim yoki yozuvchi, shoir bo'lmasin ularning hammasi mana shu ustozlar qo'lida kamol topgan voyaga etgan. Alisherni Alisher qilgan, Boburni butun dunyoga tanitgan mana shu ustozlar hisoblanadi.

Shuning uchun ham ustozlar haqida mana bunday fikrlar bildirilgan:

Daraxtni – shirin meva, ustozni – oqil shogird bezaydi.

Ma'lumki, bugungi kun talabi yangi pedagogik texnologiyani yaxshi biladigan va dars jarayonida qo'llay oladigan mahoratli o'qituvchilar bugunda ta'lim tizimini isloh qilish uchun asosiy rolni bajaruvchilar hisoblanadi.

Mahoratli bo'lish o'qituvchining boshqa xususiyatlaridan tashqari psixologik, pedagogik qobiliyatlarining shakllanganligi bilan ham namoyon bo'ladi.

O'qituvchilardagi aynan kommunikativ qobiliyat bu kasb uchun juda muhimdir. Sababi o'qituvchining o'quvchilar bilan muomila munosabatida, ta'lim – tarbiya jarayonida o'z bilganlarini, qoidalarni nutq ya'ni - og'zaki yoki yozma nutqda ifoda etadi. Imo – ishora orqali fikr bayon etiladi, ammo ko'p hollarda imo-ishora yordamchi vazifasini bajaradi.

### **Savol va topshiriqlar**

**1. Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o'tgan davrda qanday voqealar sodir bo'ldi?**

**2. IX—XVI asrlarda markaziy osiyoda tarbiyashunoslik va o'qituvchi odobi g'oyalari to'g'risida qanday bilimlarga egasiz?**

**3. 1917 –1991 yillarda o'qituvchilik kasbi va pedagoglik kasbi muammosi.**

#### **4 – Mavzu. O`QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT.**

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o`rtaga qo`yayotgan vaziflarni bajarish ko`p jihatdan o`qituvchiga bog`liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o`tish sharoitida ta'lim - tarbiyadan ko`zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o`quvchilarning xilma - xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqotli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o`stirish o`qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

O`zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo`shayotgan ijodkor o`qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Har yili eng yaxshi o`qituvchini aniqlash uchun o`tkazilayotgan maktab, tuman, viloyat, Respublika ko`rik tanlovlari ana shu yutuqlarga omil bo`lmoqda. Maktablarda "O`zbekiston qahramoni», «metodist o`qituvchi", "katta o`qituvchi", "O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan o`qituvchi", "O`zbekistan halq o`qituvchisi" unvonlariga sazovor bo`lgan o`qituvchilar soni tobora ko`paymoqda.

Xalqimizning kelajagi, mustaqil O`zbekistonning istiqboli ko`p jihatdan o`qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash ishiga bo`lgan munosabatiga bog`liq.

So`nggi yillarda pedagogika institutlarida, universitetlarida, kas - hunar kollejlarda o`qituvchilar tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan ko`pgina ishlar amalga oshirildi. Bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisosiga doir fanlarni chuqur o`rganish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llashga o`rgatish masalalariga e'tibor kuchaydi. Bo`lajak o`qituvchilarga pedagogika, ruhshunoslik, metodikaga doir fanlarni o`rgatish ko`lami yanada kengaydi. Ta'limning bakalavr hamda magistr sohalari joriy etildi.

O`qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o`qituvchi bo`lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o`zigina yetarli emas.

O`zbekiston davlatining umumiy ta'lim maktabida ishlaydigan o`qituvchi:  
- pedagogik faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;



- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol:

- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;

- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;

- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchisi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;

- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota - onalar va bolalarning izzat - hurmatiga sazovor bo'lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmli kishilarni tanlab olish kerak.

Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli, boshqalar bilan muloqat qila olishi, xushmomilaligiga, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi. Bu sifatlar kishida bor- yo'qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og'zaki va yozma savol - javoblar yordamida aniqlay oladi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim - tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1). O'qituvchi shaxsining xususiyatlari;
  - 2). O'qituvchining ruhiy – pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
  - 3). Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;
  - 4). Ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.
- O'qituvchi shaxsining xususiyatlari.

g'oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish; ijtimoiy va grajdanlik burchini anglash; ijtimoiy - siyosiy faollik.

Pedagogik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; ruhiy - pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik; dilkashlik; o'zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

O'qituvchining o'tkir qobiliyat egasi bo'lishi haqida xalqimiz tomonidan ajoyib rivoyatlar yaratilganki bular hali - hanuz ta'lim – tarbiya ishida katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.


«Bir vaqtlar Mavlono Tanburiy degan ustod mashshoq o'tgan ekan. U kishi tambur, dutor, nay, changni shunday mahorat bilan chalar ekanki, eshitgan kishi erib, sel bo'lib ketarkan. Ustod ko'plab shogirdlar ham tayyorlagan ekan. Ammo shogird tanlashda qiziq bir odatlari bo'lib kim shogird bo'laman desa, qo'lga cho'p yo xassalarini tutqazar ekanlar. Bir boy «qobiliyati zo'r, muzikachi bo'ladi», deb ustoz Tanburiyga farzandini ko'rsatibdi. Tanburiy bergan hassani bola bir qarich-ikki qarich deb o'lchayotganini ko'rgan ustoz: «Yo'q bolangizdan mashshoq emas, bozingar - savdogar chiqadi» debdi. Yana bir kishining bolasi berilgan yog'ochni kesa boshlaganini ko'rgan ustoz undan musiqachi emas, duradgor usta chiqajagini aytibdi.

Shunday qilib, ustoz, shogird bo`laman deb kelgan bola sinash uchun berilgan cho`pni yerga tiqsa bog`bon, «qilich» qilsa sarboz bo`ladi, deb jo`natib yuboraveribdi. Keyin bolalarni yig`ib. qo`llariga cho`p berib poylab o`tiribdi. Ulardan biri yana qilich qilib o`ynabdi, ikkinchisi ot qilib minibdi... Faqat bir usti yupun bola cho`pni nayga o`xshatib chala boshlabdi. Buni ko`rib Tanburiy bag`oyat xursand bo`libdi-da, bolani o`ziga shogird ham o`g`il qilib olib, unga bor hunarini qunt, sabr, matonat bilan o`rgata boshlabdi. Kechani-kecha, yozni-yoz, qishni-qish demay ta`lim beribdi. Bola ham zehqli ekan, ustozning aytganlarini darrov anglab olib, qayta- qayta takrorlab keyinchalik mashhur naychi bo`lib etishibdi.

Qarang-a ustodning topqirligi, bilimi, donoligi, ustozlik mehri tufayli oddiy bir dehqon bolasi xalq orasida mashhur naychi bo`lib yetishibdi».

**Qobiliyat, faoliyat jarayonida paydo bo`ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o`qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa iste`dod, layoqat, zehn, ya`ni inson asab tizimida anatomo- fiziologik xususiyat ham bo`lishi zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Qobiliyat – kishining muyyan faoliyatga bo`lgan layoqatidir.**

**O`qituvchilik ishiga layoqatlilik- pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodirlik va ma`naviy- psixologik jihatdan mustahkam tayyorlikdir. Kasbga layoqatlilik shaxsning eng muhim tomonlarini- uning umumiy madaniy saviyasini, aql- idroki va ongini, qiymatlar mezonini, yo`nalishini aks ettiradi. Shaxsning yo`nalishi voqelikdagi narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo`lishdan iboratdir, u kishining yashirinib yotgan kuchlarini harakatga keltiradi va ishga soladi, unda tegishli qobiliyatni, kasb uchun ahamiyatli bo`lgan tafakkur, tuyg`u va xarakter xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik faoliyatning samarali bo`lishi uchun o`qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo`lmog`i va tarbiyalanmog`i lozim:**



1. **Bilish qobiliyati** - fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. **Tushuntira olish qobiliyati**- o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, material yoki muammoni aniq va tushunarli qilib gapirib berish, o'quvchilarni mustaqil ravishda fikrlashga o'rgatish,

zarur holatda o`kuv materialini o`zgartira olish, soddalashtira olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o`quvchilarga yetkazishdir. Qobiliyatli pedagog o`kuvchilarning ruhiyatni, bilim va qobiliyat darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo`yganliklarini tasavvur etadi. Ba`zi o`qituvchilarga, ayniqsa, tajribasi kam o`qituvchilarga o`quv materiali oddiy, tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o`kituvchilar o`kuvchilarni emas, balki o`zlarini nazarda tutadilar. Qobiliyatli, tajribali o`kituvi o`zini o`kuvchining o`rniga qo`ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo`lgan narsaning o`kuvchiga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo`lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakteri va shaklini alohida o`ylab rejalashtiradi.

Qobiliyatli o`qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida turli o`quvchilarning qanday o`zlashtirayotganliklarini qator belgilar asosida payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o`zgartiradi. Shuningdek, qobiliyatli o`qituvchi o`quvchilarni materialni o`zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o`tishlari, bo`shashish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun biroz vaqt ajratish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar darsni boshlamaydi.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - o`quvchining. tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish, o`quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog`liq bo`lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday qobiliyatli o`kituvchilar kichkinagina alomatlar, uncha kata bo`lmagan tashqi belgilar aosida o`kuvchilarning ruhiyatidagi ko`z ilg`amas o`zgarishlarni ham fahmlab oladi. O`quvchilar bunday o`qituvchi haqida: "Qaramayotganga o`xshaydi - yu, hamma narsani ko`rib turadi!", "O`quvchining xafa bo`lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko`zidan biladi!", - deydilar.

4. Nutq madaniyati – nutq yordamida, shuningdek, imo - ishora vositasida o`z fikr - tuyg`ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o`qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O`qituvchining nutqi darsda hamisha o`quvchilarga qaratilgan bo`ladi. O`qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o`quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo`lsa ham, uning nutqi hamisha o`zining ichki kuchi, ishonchi, o`zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o`quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo`ladi.

O`qituvchining bayoni o`quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faolashtirishga qaratiladi: o`qituvchi o`quvchilar oldiga savollar qo`yib, ularni asta – sekin to`g`ri javob berishga undaydi, o`quvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi ("Mana bu yerga alohida e`tibor bering!", "o`ylab ko`ring!" kabi). Shuningdek, o`rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o`quvchilar tez o`zlashtiradilar.

O`qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his - hayajonli bo`lib, unda stilistik grammatik, fonetik nuqsonlar uchrasmaligi lozim. Bir xildagi cho`ziq, zeriktiradigan nutq o`quvchilarni juda tez charchatadi, ularni loqayd qilib qo`yadi. Ayrim o`quvchilar tez gapirishga, boshqalarini sekin gapirishga moyil bo`ladilar. Biroq o`quvchilarning o`zlashtirishlari uchun o`rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloqlik materialni o`zlashtirishga xalaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo`yadi. Xaddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo`ladi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o`quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo`yadi, o`qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi. Nihoyatda ko`p takrorlanadigan bir xildagi imo - ishora va harakatlar tinglovchining g`ashini keltiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan, o`quvchilar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o`z ishini to`g`ri uyushtirishni nazarda tutadi.

O`z ishini tashkil etish deganda ishni to`g`ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish ko`zda tutiladi. Tajribali o`qituvchilarda ishni vaqtga qarab to`g`ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo`ladi. Dars davomida ortiqcha vaqt sarflash hollari ba`zan uchrab turadi. Ammo tajribali o`qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o`zgartira oladi.

6. Obro` orttira olish qobiliyati - o`quvchilarga bevosita emotsional - irodaviy ta`sir ko`rsatish va shu asosda obro` qozona olishdir. Obro` faqat shu asosdagina emas, balki o`qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o`qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig`indisiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga, shuningdek, o`quvchilarga ta`lim hamda tarbiya berish mas`uliyatini his etishga, o`zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o`quvchilarga yetkaza olishiga ham bog`liq.

O`quvchilar qo`pollik qilmaydigan, qo`rqitmaydigan, to`g`ri talab qo`ya oladigan o`qituvchini juda hurmat qiladilar. O`qituvchining bo`shangligi, laqmaligi, printsipsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

O`qituvchi sinfda jamiyatning vakili sifatida o`quvchilar jamoasi bilan yolg`iz ish olib boradi. Bunday sharoitda o`qituvchining mas`uliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o`quvchilarga ta`sir o`tkazish darajasining asosiy mezoni hisoblanadi.

O`qituvchi deyarli har kuni o`quvchilar bilan uchrashadi, savol - javob qiladi, ularning yaxshi ishlarini ma`qullaydi, bilimni baholaydi, nojo`ya xatti - harakatlari uchun tanbeh beradi. Albatta, o`qituvchining bunday xatti - harakatida mulohazalarida nisbiylik, sub`ektivlik alomatlar mavjud. U hamma bilan aynan birdek juda to`g`ri munosabatda bo`la olmasligi mumkin. Lekin u hamma o`quvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil bo`lmog`i darkor. Sinfda o`qituvchi "yaxshi ko`radigan", "yomon ko`radigan" o`quvchilar bor degan taassurot tug`ilmasligi kerak.

Xullas, obro' o'qituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obro' kishining chuqur bilim, yuksak axloqiy sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'siri nufuzidir.

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat tarbiyaning qudrati va odamga bo'lgan ishonch bilan bog'liq.

9. Diqqatni taqsimlab olish qobiliyati - bu qobiliyat turi o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilinishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlay olish qobiliyati o'qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmuni va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni ko'rib turadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini tez payqab oladi, intizomsizlik hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat, o'z hatti-harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi, bordi-yu o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikr kalavasini yo'qotib qo'yadi.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga - aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi fazilatlarga ham ega bo'lishi kerak.



## **5 - Mavzu. O`QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI**

O`qituvchining faoliyatida eng muhim narsa – bu uning nutqi va o`quvchilar bilan muloqatidir. Nutq - bu og`zaki kommunikatsiya, ya`ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron – bir mohiyatni anglatadigan so`zlar og`zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So`zlar eshittirib yoki ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo`yilishi yoki kar – soqov kishilarda biron - bir mohiyatga ega bo`lgan imo - ishoralar bilan almashtirilishi mumkin.

Odamlar o`rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o`xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog`lovchilarning his - hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan bo`ladi. U kommunikatsiyaning mazmuni hisoblanishi narsaga ham, munosabatga kirishganlarga nisbatan ham taalluqli bu his- hayajonli munosabatda o`zgacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga qo`l, barmoq va yuz harakatlari, imo - ishora, ohang, pauza, tark - tarovat, kulgu, ko`z yosh qilish va shu kabilar kiradiki, bular og`zaki kommunikatsiya vositalari – so`zlarni to`ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba`zan esa o`rnini bosuvchi belgilar sistemasini hosil qiladi.

Og`zaki kommunikatsiya ta`sirini kuchaytirishda munosabatga kiruvchilarning fazoda joylashuvi muhim ahamiyatga egadir. Sira o`ylanmasdan tashlangan luqma kommunikatsiyaning ya`ni komminkatorning retseptiga aniq munosabatini ifodalaydi. Ta`limning ba`zi turlarida o`qituvchi o`quvchilarni sinfda qabul qilinganidek bir - birining orqasidan emas, balki doira shaklida, bir - birlariga yuzma - yuz o`tkazishini afzal ko`radi.

Nutqsiz kommunikatsiyada qo`llanilayotgan vositalarining - axborotning so`z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bunday muvofiqlik ham og`zaki va nutqsiz kommunikatsiya vositalari kasb faoliyatining quroli hisoblangan pedagog uchun juda muhimdir. Forobiy bitta so`zning o`zini goho,

buyruq, goho iltimos, goho nasihat va ma'no baxsh etgan holda turli ohangda, talaffuz eta bilishi kerak deb ta'riflagan edi.

Ayni paytda nutqsiz kommunikatsiyada imo - ishora, pantomimika, nutqning ohangdagi rang – barangligi rivojlana boradi.

Maktabda o`qish va yozish keyinroq esa til va adabiyot darslarida bolalarda muomala vositasi sifatida tilga va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til o`qituvchi tomonidan maxsus uyushtirilgan tahlil predmetga aylangan holda o`quvchilar oldida ijtimoiy jihatdan shakllangan qonunlar ta'siriga bo`ysunadigan murakkab belgilar sifatida namoyon bo`ladi.

A. Jomiy «o`qituvchining nutq madaniyati o`quvchilarning darsdagi aqliy mehnatining samaradorligini hal qiluvchi darajada belgilaydi", deb ta'kidlagan va bunday madaniyatni shakllantirish o`qituvchi so`z yordamida hosil qilishga urinadigan va oddiydan murakkablikka, yaqindan olislikka, aniqlikdan umumliylikka o`tib bo`lmaydigan tushunchalar tafsilotidagi noaniqlikni sabab va oqibatlarini aniqlash yo`llarini ko`rsatib bergan edi. Yuksak nutq madaniyati - o`qituvchi tomonidan vaqtdan oqilona foydalanishning muhim shartidir.

Jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o`qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o`qituvchining qo`liga yosh avlodni, ya'ni o`z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o`qituvchining dunyoqarashi, ongi madaniyati hamda nutqi belgilovchi vosita sanaladi.

Kommunikativ qobiliyat ham o`qituvchilar va bo`ljak o`qituvchilar egallashlari zarur bo`lgan qobiliyat jumlasiga kiradi.

Kommunikatsiya tushunchasi ijtimoiy ma'noga ega bo`lgan insonlarning fikr yoki ongida paydo bo`lgan tushunchalarni boshqa insonlarga yetkazib berishdir. Boshqacha qilib aytganda yuzaga kelgan axborotni yetkazib berish hisoblanadi. Bu yerda axborotni o`zga kishiga yo`llayotgan shaxs kommunikator, axborotlarni qabul qilayotgan kishi retsipient deb ataladi.

O`qituvchining bolalar bilan muomilasi muvaffaqiyatli bo`lishi ko`p jihatdan unda pedagogik qobiliyatni mavjudligidadir. Psixologiyada qobiliyatlar deganda,

insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar o`sha o`qituvchi vazifasidagi bolalarni o`qitish va bolalarga ta`lim berishda yuksak natijalarni qo`lga kiritishning sharti hisoblanadi. Ma`lumki shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o`ynaydi, boshqalari esa yordamchi vazifasida bo`ladi.

Birinchi navbatda peretseptiv, ya`ni idrok qilishga hamisha taaluqli bo`lgan xususiyatlar (ulardan eng muhim kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol o`ynaydi. Shu o`rinda o`qituvchining kommunikativ qobiliyati eng oldingi o`rindagi ta`sir qilish vositasi ham hisoblanadi.

Kommunikativ qobiliyat faqat birgina o`qituvchi yoki birgina tegishli hodisa emas balki, bu hammada yuzaga keladigan jarayondir.

Kommunikatsiya jarayoni hammada yuzaga keladi-yu, ammo uning sifat darajasi har xil bo`ladi, ya`ni odamlardagi hayotiy tajriba, bilim, malaka ko`nikmalari qobiliyatlarni bir-biridan farqlab turadi.

O`qituvchida kommunikativ qobiliyatning mavjudligi, uning mahoratli ekanligidan dalolat beradi.

Kommunikativ qobiliyat fikrni, yoki biror tushuncha, belgini anglatuvchi psixologik jarayon bo`lib, uning namoyon bo`lishi uch xildir.

Ular og`zaki kommunikatsiya, nutq. Yozma kommunikatsiya va imo-ishora, xatti harakatli kommunikatsiya turlaridir.

Nutq bu og`zaki kommunikatsiya ya`ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so`zlar og`zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So`zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo`yilishi yoki kar-saqov kishilarda biron - bir mohiyatga ega bo`lgan imo – ishoralar bilan almashtirilishi (buni harf barmoqlar harakati bilan ifoda etiladigan daktilologiya va imo ishorali nutq deb ataladi) mumkin.

Quyidagi nutq turlari farq qilinadi; yozma va og`zaki nutq. O`z navbatida og`zaki nutq dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi.

Og`zaki nutqning eng sodda turi dialog, ya'ni allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi.

Gaplashayotganlarning bir – birlariga luqmalarni, suhbatdoshdan keyin iboralarni va ayrim so`zlarni takrorlash, savollar berish, qo`shimchalar berish, izoh berish, faqat so`zlashayotganlar tushunadigan shamalar qilish turli xil yordamchi so`zlar va undovlar so`zlashuv nutqi uchun xos xususiyatdir. Bu nutqning o`ziga xos xususiyatlari ko`p jihatdan hamsuhbatlarning hamjihatligi darajasiga, ularning o`zaro munosabatlariga bog`liq bo`ladi. Aksariyat hamma joyda ham pedagog oilaviy muhitdagi dialogni hech qachon sinfda o`quvchilar bilan munosabatda bo`lgani kabi olib bormaydi. So`zlashuv chog`ida hissiy hayajonlanish darajasi katta ahamiyatga ega bo`ladi. Iymangan hayratlangan, quvongan, qo`rqqan jahli chiqqan kishi xotirjam holatidagi kabi gapirmaydi, o`zgacha ohangdagina gapirib qolmasdan, balki ko`pincha boshqa so`zlarni iboralarni ishlatadi.

Og`zaki nutqning ikkinchi bir turi monolog nutq bo`lib, uni bitta kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko`plab kishilarga qarata gapiradi: bunga o`qituvchining hikoyasi, o`quvchining kengaytirilgan javobi ma'ruza va shu kabilar kiradi. Monologik nutq tuzilishi jihatidan juda ham murakkab bo`lib, fikrning tugallanganligini, grammatik qoidalarga ancha qat'iy amal qilinishini, monolog aytayotgan kishining bayon etmoqchi bo`lgan fikrda qat'iy mantiq dialogik va izchillik bo`lishini taqozo etadi. monologik nutqni egallash nutqqa nisbatan katta qiyinchiliklar tug`diradi, uning kengaytirilgan shakllari antogenezida (yuzaga kela boshlaganidan takomillashuviga qadar) kechikibroq rivojlanadi, o`quvchilarda bu nutqni shakllantirish maxsus vazifa hisoblanadi va pedagoglar uni ta'limning qator yillari mobaynida bajarishlariga to`g`ri keladi.

Qiynalmasdan, bermalol suhbatlasha oladigan, lekin oldindan yozilgan matndan foydalanmasdan monologik harakterga ega bo`lgan og`zaki axborot (ma'ruza, keng ma'ruzalar va shu kabilar) bilan chiqishga qiynaladigan katta yoshli odamlar ham uchrab turish tasodifiy hol emas. Ko`pincha bu

o`qituvchilarning o`quvchilarda monologik nutqni shakllantirish ishiga yetarli e`tibor bermaganliklari oqibati hisoblanadi.

Yozma nutq insoniyat tarixida og`zaki nutqdan ancha keyin paydo bo`ldi. U bir- birlaridan makon va zamon bilan ajralib turuvchi odamlar o`rtasida munosabat qilish ehtiyojining natijasi sifatida paydo bo`ldi va fikr shartli sxematik suratlar yordamida ifoda etiladigan paytlardagi piktografiyadan yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlandi.

Yozuv tufayli odamlar to`plagan tajribani avloddan avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkoni tug`ildi.

Negaki og`zaki nutq yordamida o`tkazilgan taqdirda u buzilishi, o`zgarib va hatto beiz yo`qolib ketish mumkin edi. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarning rivojlantirilishida, badiiy timsollarni yetkazishda muhim rol o`ynaydi.

Odamlar o`rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berilganda kommunikator bilan retseptient og`zaki muomilaga kirishadilar. Odamlar munosabatiga aloqa bog`lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan bo`ladi. u kommunikatsiyaning mazmuni hisoblanishi narsaga ham, munosabatga kirishganlarga nisbatan muayyan tarzda taaluqli bo`lib, nutqiy fikr – mulohazalar bilan qo`shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his - hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida, nutqsiz jihati, o`zgacha, nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga qo`l, barmoq va yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza turq - tarovat, kulgi ko`z yoshi qilishi va shu kabilar kiradiki, bular og`zaki kommunikatsiya vositalari – so`zlarni to`ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba`zan esa o`rnini bosuvchi belgilar sistemasini hosil qiladi.

Nutqsiz kommunikatsiya vositalari bamisoli o`ziga xos his-tuyg`u tili bo`lib, so`z bilan ifodalanadigan til kabi u ham ijtmoiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi va turli milliy madaniyatlarda bir-birlariga o`xshamasligi mumkin.

Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh guruhlarda turlicha vositalar tanlanadi. Jumladan, bolalar yig`idan ko`pincha katta

yoshdagilarga ta'sir qilish va ularga o'z istaklari hamda kayfiyatini yetkazish vositasi sifatida foydalanadilar.

Og`zaki kommunikatsiya ta'sirini kuchaytirishda munosabatga kirishuvchilarning fazoda joylashuvi muhim ahamiyatga egadir.

Nutqsiz kommunikatsiyada qo'llanilayotgan vositalarning axborotni so`z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Ayni paytda nutqsiz kommunikatsiya – imo – ishora pantomimika, nutqning ohangidagi rang – baranglik ham rivojlanishi mumkin.

Bo`lajak o`qituvchilar faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmasdan amaliy malaka va ko`nikmalarni ham egallash zarur, ya'ni bular pedagogik, psixologik bilimlar asosida o`quvchilarni ilmiy bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurolltira bilish dars bera bilish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtira bilish, o`quvchilarning jamoa, usullarini tanlay bilish, o`quvchilarni individual, jamoa ishlarini tashkil qila olish, sifndan va maktabdan tashqari ishlarni uyushtira bilish va ularga rahbarlik qilish, ota-onalar, jamoatchilik o`rtasidagi ishlarga rahbarlik qila olish, sport, sayohat, va boshqa tarbiyaviy malaka va ko`nikmalarni olib borishlaridan iboratdir.

So`z mahoratli o`qituvchining egallashi lozim bo`lgan bilish malaka ko`nikmalari ustida ekan, o`qituvchining kommunikativ ko`nikmalari haqida to`xtalishimiz va mohiyati ahamiyati haqida fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq va muhim ahamiyatga egadir.

Mahoratli o`qituvchining kommunikativ ko`nikmasi –bu o`qituvchilik kasbiga ilk tayyorgarlik ko`ra boshlagan davrdan, umuman hayotda odamlardagi o`z fikrini ifoda etish usullarini bilish, o`zida mana shu hislatlarni namoyon qila olishdir.

O`qituvchidagi kommunikativ ko`nikmalar bular oldindan o`qituvchining og`zaki va yozma nutq, imo – ishora orqali fikr ifoda etishni bilish va kishilarni ifoda etayotgan fikrini to`g`ri anglay olishdir.

Yuzni o`qish san`ati – boshqa kasblar singari o`qituvchilikka ham xos bo`lgan sifatlardan biridir.

Yuzni o`qish, ya`ni biror shaxsning o`z fikrini namoyon (ya`ni og`zaki va yozma holatda) qilmaganda uning yuz tuzilishi, yuzidagi a`zolarining ba`zi bir harakatlaridan anglash, tushuna olishdir. Yuzni o`qish avvalo psixologik jihatdan idrok, diqqat va kuzatuvchanlikka bog`liqdir.

Insonlarning xursandligini uning yuzidagi ko`rinib turgan tetiklik, xushchaqchqlikdan anglashimiz yoki xafalikni esa yuzlarning mayus tortganligi, ko`zlarning toliqib ko`rinishdan bilishimiz mumkin.

O`zgaralar holatini tushuna olish o`qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o`sgan o`quvchilarga dars berayotganligini bilish lozimdir. O`qituvchilarning yurish – turishi, o`tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini bilish mumkin.

O`zini namoyon qila olish-bu bir qiyin yoki narsa orqali emas, balki bilim, malaka, ko`nikma, odob – axloq muomila, nutq, munosabat orqali o`zini namoyon qila olishdir.

O`quvchilarning yangi materialni tushunib va o`zlashtirib olishlari uchun o`qituvchi nutqining takomillashganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Bolalar pedagogning nutqiy ma`lumotlariga sezgir bo`ladilar. Biror bir tovushlarni noto`g`ri talaffuz qilinishi bolalarda kulguni chaqiradi.

Nutq insonning ongida paydo bo`lgan fikrning nutq tovushlariga til yordamida ko`chishidir. Nutq ta`sirli yoki ta`sirsiz, to`g`ri yoki noto`g`ri bo`lishi mumkin.

Nutq orqali kishi holatini tushunish – kishilar o`z nutqlarida o`zlarida kechayotgan jarayonni namoyon qiladilar. Shu holatni tushunishdir.

Monoton nutq bolani zeriktiradi, noaniq intonatsiya esa yaxshi o`zaro yaqin suhbatning uyushtirilgandan baland ton bolalarda ishonchsizligini kelitirib chiqaradi.

Tovush odamlarda tabiatan beriladi, ammo bu esa juda ham ko`p uchraydi. Hamda yaxshi tovush maxsus mashqlarsiz yillar o`tgan sari buziladi, o`zgaradi.

Pedagogik nutq quyidagilarni ta'minlab berishi mumkin:

A) pedagog va o'quvchilar orasida o'zaro ta'sir etish va muloqatning natijaliligini;

B) faoliyat motivlarini, tushunchalarni to'g'rilash va shakllantirish maqsadida o'quvchi, bolalar tafakkuriga, his – tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish kerak;

V) ta'lim berish jarayonida bilimlarni to'liq tushuntirish va mustahkamlash, o'zlashtirib olish;

G) o'quvchilarning amaliy va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish;

O'qituvchi nutqining o'ziga xosligi - o'quvchilarga yo'nalganligi bilan bog'liqdir. Kuzatuvchan o'qituvchi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga qanday ta'sir etishni hisobga olgan holda ish yuritadi.

O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar, quyidagilardan iborat funktsiyalar bilan belgilanadi. Asosiy funktsiyalardan biri bu bilimlarni to'liq uzatishni ta'minlab berish. Yangi bilim berishda o'qituvchi o'z nutqi orqali faqatgina yangi bilimlarni berib qolmasdan, balki his – tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak.

Boshqa funktsiyalaridan biri bu o'quvchilarni o'quv faoliyatini samaradorligini ta'minlab berish:

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qitishning muvaffaqiyatlariga asosan o'qitishning muvaffaqiyatlariga asosan, o'qitishning muloqotga kirilishida uchraydigan pedagogik nizolarni keltirib chiqarmaslik, xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikdir.

Bu xato va kamchiliklar bolalarni to'g'ri, tushuna olmaslikdan nutqni to'g'ri tuza olmaslikdan, muomilada hammani bir nazar bilan ko'ra olmaslikdan kelib chiqadi.

Ularni oldini olish yo'llari turli xildir.

Buning uchun eng avvalo o'quvchilarni fanga qiziqtirish shart. O'qituvchi o'z shogirdlaridan doimo hech bo'lmaganda bir necha pog'ona yuqori turishi, kerak aks holda bolalar oldida uning obro'si bo'lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o'qituvchi javob beraolmasdan qolish mumkin. Holbuki, bola sezgir



bo`ladi va juda tez fursatda o`qituvchining kamchiliklarini bilib oladi. O`qituvchilar oldida yo`qotilgan obro`ni tiklash juda qiyin hatto ba`zi vaqtlarda mumkin ham emas.

Yosh avlod tarbiyalash murakkab va olijanob vazifa bo`lishi bilan birga ayni zamonda u g`oyat darajada murakkab, mas`uliyatli ishdir. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun eng avvalo o`qituvchi o`z ishining shaydosi bo`lishi, bolalarni sevishi, mas`uliyatlarini, burchlarini, hulqlarini anglab yetishlari lozim.

#### Savol va topshiriqlar

- 1.Pedagogik qobiliyat bilan pedagogik mahorat qanday bog`liqlikda bo`ladi?
- 2.Pedagogik qobiliyatlarning qanday turlarini bilasiz?
- 3.Pedagogik qobiliyatlarning o`qituvchi faoliyatidagi rolini qanday baholaysiz?
- 4.O`qituvchilik kasbida kommunikativ qobiliyat nima uchun zarur?

## **II BO`LIM. MULOQOT – PEDAGOGIK MAHORATNING NAMOYON BO`LISH JARAYONI OB`EKTI SIFATIDA**

### **6 – Mavzu. O`QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI.**

O`qituvchilik faoliyatida pedagogik muomalaning muvaffaqiyatli bo`lishi ko`p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagoglik nazokati (odobi) ni egallaganiga bog`liq bo`ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlari deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o`qituvchi vazifasida bolalarni o`qitish va bolalarga ta`lim berishda yuksak natijalarni qo`lga kiritishining sharti xisoblanadi.

Ma`lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o`ynasa, boshqalari yordamchi vazifasini bajaradi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o`zaro fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlari yetakchi rol o`ynaydi. Birinchi navbatda pertseptiv, ya`ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo`lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog`i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol o`ynaydi, o`qituvchiga o`kuvchining psixologiyasini, uning psixik holatini o`xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman sinf jamoasining axvoliga va xususan mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoliga to`g`ri baho berish imkonini beradi. O`qituvchi shaxsining o`zaro fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlari tarkibiy qismi sifatida empatiyaga, ya`ni o`kuvchilarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti bolalarga bo`lgan muhabbatdir. Nihoyat, o`qituvchi shaxsining o`zaro fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o`zaro harakatga bo`lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin, u bilimlarni boshqalarga berishga, bolalar bilan muomala qilishga intilishda, bolalar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo`ladi. Tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatlarning tarkibiy qismidir. U barcha o`kuvchilarning har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har

bir o`kuvchiga ta'sir ko`rsatish quroliga aylanishida, har bir o`kuvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishda namoyon bo`ladi. O`qituvchida ijtimoiy o`zaro harakatga bo`lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo`lib, unda mavjud bo`lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu, avvalo, aql – idrokning muayyan xislatlari: hozirjavolik, tanqid ko`z bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O`qituvchining nutqi: notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so`z boyligi va hokazolar ham muhim rol o`ynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik xususiyatiga ega bo`lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham o`kuvchilar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o`ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar – faqat pedagogik faoliyat samarali bo`lishining shartigina emas, balki ko`p jihatdan o`qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o`qituvchining o`zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadni ko`zlab tarkib topishi va rivojlanishi kata rolo`ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko`rsatmoqda. Masalan, shaxs pertseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo`lgan kuzatuvchanlik o`qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch g`ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O`qituvchi o`zining ijtimoiy – psixologik kuzatuvchanlini, ya'ni o`kuvchilarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyatinigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo`lish sabablarini bilib olish, ularga bu sabablarning paydo bo`lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodir.

O`qituvchi o`z o`kuvchilarini, ular muhitidagi o`zaro munosabatlarni, o`zining ular bilan o`zaro munosabatlarini hozirgi daqiqada qanday bo`lsa, xudi shunday idrok etish va ko`rish mahoratini, ya'ni ta'lim – tarbiya jarayonida ro`y berayotgan narsalarni ichdan idrok etish mahoratini doimo takomillashtirib borishi lozim. Bu esa osonlikcha qo`lga kiritilmaydi. Pedagogning idrok etishi har qanday kuzatuvchining idrok etishiga o`xshaydi, chunki pedagog hamisha o`qituvchilarga

nisbatan tashqi vaziyatda turadi, hamisha ma'lum darajada ulardan, ular faoliyatidan uzoqlashgan bo'ladi. Shu sababli pedagog o'zi ko'rayotgan narsalarga o'zining ijtimoiy rivojlanish jarayonida idrok qilgan mulohazalarini ongli va ongsiz ravishda qo'shib boradi. Bu narsa shunga olib kelishi mumkin, pedagog uchun yangi bo'lgan xodisalar uning o'zida mavjud bo'lgan tasavvurlar asosida an'anaviy tarzda talqin etilishi mumkin. Bundan tashqari, pedagogning muayyan masalaga javob izlashga intilishi unda ahamiyatli biror xolatni o'tkazib yubormaslik uchun qulay yo'nalish hosil qiladi. Lekin bu yo'nalishning o'zi ayrim hollarda oldindan yangilish fikrga olib kelishi va ko'rgan narsalarini o'zi kutgan narsalar ruhida talqin etishga majbur qilishi mumkin.

Pedagogik vaziyatlar tez- tez o'zgarib turadigan sharoitda o'qituvchining vazifasi ro'y bergan vaziyatda tez mo'ljal olib, unga to'g'ri baho bera bilish, zarur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan to'g'ri qarorga kelishdan iboratdir. Agar o'qituvchi bolalarning xatti- harakatlarini faqat to'g'ri idrok etib, baho bera bilsa, ularni vujudga keltirgan sabablarni chuqur ko'ra olsagina, shu bilan birga o'zida sabot, o'zini tuta bilish, sabr – toqat, sezgirlik kabi fe'l – atvor xususiyatlarini rivojlantira olsagina, yuqoridagi vazifaga erishishi mumkin. Bu pedagogik nazokatga rioya qilishning zarur shartidir.

Nazokat me'yor tuyg'usi yoki odob qoidalariga rioya qilishni bildiradi. Pedagogik nazokat me'yor tuyg'usi va o'z o'quvchilari bilan to'g'ri munosabatga amal qilishdir. Pedagogik nazokatning psixologik asoslari deb bir qolipdagi fikrlar (barqaror tasavvurlar), ijtimoiy yo'l – yo'riqlar va shaxsiy xislatlarning jamini aytish mumkin, ular o'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi sohasidagi xulq - atvorini belgilab beradi. Biroq, bu tarkibiy qismlar qandaydir berilgan yoki o'zgarmaydigan narsalar emas. Ular o'qituvchining butun faoliyati mobaynida qaror topib boradi va odatda tugallangan shaklga ega bo'lmaydi, ya'ni o'qituvchining o'zi ularning biror tarkibiy qismini ma'lum darajada o'zgartirishga moyil bo'ladi, pedagogik nazokatni ko'proq egallashga intiladi, o'quvchilar bilan o'zining o'zaro munosabatlarini eng qulay shaklga keltirishga harakat qiladi.

O`qituvchidagi pedagogik nazokatning mazmuni va uning namoyon bo`lish shakllarini belgilab beradigan ayrim ijtimoiy yo`l – yo`riqlarni ko`rib chiqamiz. O`qituvchining o`zi o`kuvchilar bilan munosabatlari dialog (muloqot) tarzida bo`lishi lozimligini tushunishi muhimdir. Agar o`qituvchida o`quvchilar bilan munosabatlarining ishonch asosiga qurilishiga erishishga yo`l – yo`riq bo`lsagina bunday muloqot ro`y beradi. Tarbiya tajribasida bunday yo`l -o`riqni amalga oshirish qiyin ishdir, lekin unga butunlay erishish mumkin. Albatta, kata yoshdagi kishining bolalar muhitiga uzviy ravishda qo`shilib ketishi nihoyatda qiyin narsa. Lekin bu muhitga u yaqinlasha oladi, ancha yaqinlashib boradi. Pedagogda bolalar bilan o`zaro ishonch va do`stlik munosabatlari vujudga kelgandagina bunga erishish mumkin. Natijada bolalar bilan ma`naviy muomala uchun imkoniyat vujudga keladi. Bunga shuning uchun ham erishish mumkinki, bolalarda kata yoshdagi do`stga ega bo`lish va u bilan muomala qilishga qat`iy ehtiyoj mavjud bo`ladi.

Tabiiyki, pedagog batamom aniq va muayyan nuqtai nazarda turgan taqdirdagina uning o`kuvchilar bilan o`zaro munosabatlarida ishonch vaziyati vujudga kelishi mumkin. Bunda gap pedagogning tashqi holati haqida emas, balki jamoadagi ichki holati haqida boradi. U shundan iboratki, pedagog bolalarning kattalar bilan muomalada bo`lishga yuqorida eslatib o`tilgan ehtiyoji asosida ularning munosabatlari tizimiga ma`lum darajada kirib borishga muvaffaq bo`ladi. Bunday holda u bolalar muhitida ro`y beradigan va tashqi kuzatishdan yashirin bo`lgan jarayonlarni o`rganish imkoniga ega bo`ladi. U o`z oldida turgan vazifalarni hal qilishga bolalarning o`zini ma`lum darajada jalb qila oladi. Bu narsa suhbatlarda u bolalar bilan birga ularning hayotidagi turli voqealarni tahlil qilish, ro`y berayotgan narsalarga ularning qarashlarini, tevarak – atrofdagi narsalarga beradigan bahosini aniqlab olishi mumkinligida ko`rinadi. Agar bolalar bilan o`kituvchi o`rtasida ishonch munosabatlari o`rnatilgan bo`lsa, ular hayotning og`ir damlarida uning huzuriga yordam so`rab keladilar, o`z quvonchlarini u bilan baham ko`radilar. Nihoyat, ishonch munosabatlari pedagogning bolalarni turli vaziyatlarda ko`rish imkonini beradi. Masalan, bolalar bilan shunday vaziyatlarda

muomalada bo`lish juda muhimki, bunda ularning xulq - atvorini maktab sharoitidagidan boshqa andazalar boshqaradi. Bunda pedagog o`quvchilar bilan norasmiy sharoitda muomala qilish uchun har gal o`zining qanday yo`l tutishini aniqlab olishi zarur.

O`qituvchining o`z o`quvchilarini: ularning fe'l – atvorini, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini, turli voqealarga muammolarga munosabatlarini doimo o`rganib va bilib borishga intilishi muhimdir. O`qituvchi bolalarni qanchalik yaxshi bilib olsa, unda bolalar bilan munosabatlarda xushmuomala bo`lish imkoniyatlari shu qadar ko`proq bo`ladi. Lekin o`qituvchi o`z o`quvchilari bilan yaqinroq bo`lishga harakat qilar ekan, ba`zan tegishli daqiqalarda o`zi eshitmasligi lozim bo`lgan narsalarni eshitmasdan o`tib ketishni bilishi zarur. Bunga sabab eshitish odobsizlik bo`lishi mumkinligi, yoki vaziyat noaniq bo`lib turganda, eshitish darhol aniqlik kiritish zarurligini taqozo qilishidir. O`quvchilar bilan o`z muomalasini baqiriq va mayda – chuyda narsalarga aralashishiga aylantirib yubormaslik uchun kundalik ishlarda nimanidir sezmay qolishni o`rganish muhimdir. Nihoyat, ba`zan biror narsani tushunmay qolish ham foydali bo`ladi. Bularning hammasi o`qituvchining o`quvchilar bilan bo`ladigan kelishmovchiliklarga tegishli darajada odob bilan aralashuviga yordam beradi. Bu keyingi holat ayniqsa muhim va murakkabdir. Pedagog bolalar ayniqsa, katta yoshdagi o`quvchilar o`rtasidagi ziddiyatlarga juda ehtiyotkorlik bilan aralashuvi lozim. U shuningdek ziddiyatlarning shunday sohasi borki, unda pedagogning aralashuvi nihoyatda cheklangan bo`lishi, hamma kelishmovchiliklar va ziddiyatlar ham jamoada muhokama qilish ob`ekti bo`lmasligi mumkin.

O`qituvchining muhim ijtimoiy yo`l – yo`riqlaridan biri dilkashlikdir. An'anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o`ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy holdir. Lekin bunday yondashuv bir tomonlamadir. U dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning o`ziga xos xususiyatlarigina bo`lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan xulq - atvori hamdir, ya`ni ijtimoiy yo`l – yo`rig`idir.

Shaxsning xususiyati boʻlgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida taʼriflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa oʻrnatish bilan birga qoʻshib olib boriladi.

#### **7 – Mavzu. O`QITUVCHI VA O`QUVCHI O`RTASIDAGI MULOQOT.**

Oʻquvchilar bilan muomala qilish pedagogning oʻz tarbiyalanuvchilari bilan muloqat olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi zarur. Gapirishni, muloqot olib borishni doimo oʻrganib borish kerak.

Bu oʻrinda ikki savol tugʻiladi: «nimani oʻrganish kerak?» va «qanday oʻrganish kerak?»

Pedagog jamoa bilan, bolalar guruhlarining ayrim oʻquvchilari bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, maʼruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun taʼlim – tarbiya jarayonida oʻquvchilar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻya olishi kerak. Oʻquvchilar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda) muayyan qoidalarni bilishni va bu qoidalarni amalga oshirishning nazarda tutadi. Ularni qarab chiqamiz.

Oʻquvchilar jamosi bilan muomala koʻpincha suhbat, maʼruza, axborot va hokazolar shaklida boʻladi. Bu muomala samarali boʻlishi uchun nimalar zarur?

Birinchi navbatda suhbatni qanday boshlash, qanday qilib darhol oʻqituvchining gaplariga bolalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida gapirib oʻtamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qoʻyilishidan boshlash mumkin, bu masalada boʻlajak suhbatning maʼnosi mujassamlashgan boʻladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib koʻrish ham mumkin, bunda gapni yorqin, qiziqarli maʼlumotni maʼlum qilishdan boshlasa boʻladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli maqola yoki biror jumla keltirish ham muvaffaqiyatli boʻlib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, darhol bolalarga boʻlajak suhbat ularning qiziqishlari bilan bogʻliq ekanligini aytib oʻtsa ham boʻladi.

Mana, suhbatga bolalarning diqqati jalb qilindi, ham deylik. Endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin yetarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Masalan, suhbatni tuzishning bunday

varianti bo'lishi mumkin. Dastlab pedagog o'quvchilar ongi va hissiyotiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi, buning uchun misollar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda yorqin taqqoslashlar, kutilmagan o'xshatishlardan foydalanish juda foydali bo'ladi. Shundan keyin xulosa chiqarish, ya'ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so'zlar bilan takrorlash mumkin.

Suhbat bolalarda doimiy qiziqish uyg'otishi uchun bir qator murakkab bo'lmagan usullardan foydalanish zarur, eng muhim so'zlar va iboralarni intonatsiya bilan ajratib ko'rsatish va aksincha, intonatsiyani o'zgartirish, unchalik muhim bo'lmagan mavzuni bayon qilish kerak, ovoz va nutq ohangini o'zgartirish foydalidir (masalan, muhim iboralar, fikrlardan oldin va keyin to'xtalish qilishi zarur).

Suhbatni qanday tugallash ham muhim ahamiyat kasb etadi. U turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy g'oyalarni yana bir marta qisqacha bayon qilib berish mumkin. Uni she'riy satrlar bilan ham tugallasa ham bo'ladi. Agar pedagog bolalarning o'zlari eshitgan narsalari haqida fikr yuritishlarini xohlasa, javobsiz savol bilan ham tugallash mumkin. Suhbatning yakuni barcha ko'rsatib o'tilgan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan variant ham bo'ladi.

Bu qoidalarga rioya etish pedagogning so'zlari o'quvchilarga zarur ta'sir ko'rsatish uchun shart – sharoit yaratadi. Chunki pedagogning tarbiyalanuvchilar bilan har qanday muomalasining ma'nosi ana shundan iboratdir.

Har qanday suhbat jarayonida pedagogning asosiy maqsadi bolalarni qiziqtirishdir. Buning o'rniga ba'zan ayrim o'kituvchilar shu qadar berilib ketadilarki, bolalarga deyarli yoki butunlay hech narsa qoldirilmaydi. Albatta, bunda muomala maqsadiga erishib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, pedagog eski fikr uchun yangi so'zlarni izlashi va topishi darkor, ya'ni ayni bir fikrni turlicha bayon qilishni bilishi zarur. Agar bu hol ro'y bermasa, shunday vaziyat hosil bo'ladiki, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: yaxshi audio yozuvini birinchi bor eshitib ko'rganda kutilmagan bir hodisa bo'ladi,



ikkinchi marta tinglaganda – nasihat, keyingi eshitib ko`rishda esa ichki, ba`zan esa tashqi qarshilik keltirib chiqaruvchi zo`rlik bo`ladi.

Hozirga qadar fikr pedagogning o`kuvchilar jamoasi bilan muomalasi haqida borgan edi. Endi o`kuvchilardan har biri bilan muomalani qanday qilib maqsadga muvofiq tashkil etish shakllari haqida to`xtalamiz.

Birinchi navbatda quyidagilarni esda tutish kerak: suhbat samarali bo`lishi uchun dastlab suhbatdoshni moyil qilib olish zarur. Agar pedagogning o`zi bunga moyil bo`lsa va bundan tashqari, suhbatdoshiga o`zining moyilligni yaqqol ko`rsatsagina bunga erishish mumkin.

O`zaro moyillikka erishish uchun bir qator murakkab bo`lmagan usullardan foydalanish mumkin. Birinchi navbatda o`kituvchi o`kuvchi bilan o`zini shunday tutishi kerakki, unda men pedagog uchun ahamiyatliman degan hissiyot paydo bo`lishi kerak. Shunday hissiyot uyg`otish uchun xar bir o`quvchida ustun afzal tomonlarni, boshqalardan farqni topish muhimdir, faqat topishgina emas, shu bilan birga unga buni aytish ham kerak. Bundan tashqari, suhbatdosh o`kuvchiga, uning ishlariga, hissiyotlariga, kayfiyatiga, kechinmalariga samimiy qiziqishni his qilishi lozim.

Suhbat har ikkala suhbatdosh uchun qiziqarli bo`lishi uchun u muloqot tarzida bo`lishi zarur. Shu maqsadda birinchi navbatda suhbatdoshning hissiy holatini hisobga olishi va shunga muvofiq ravishda suhbatni boshlashi kerak. Masalan, agar o`kuvchi hayajonlanib turgan bo`lsa, yaxshisi u bilan o`zi uchun yoqimli bo`lgan narsa haqida gaplashishdan boshlash yoki uning kechinmalari sababiga va suhbat mavzuiga aloqador bo`lmagan begona bir narsa haqida gaplashish kerak. Agar, aksincha, o`kuvchi xafa ko`rinsa, oldiniga uning diqqatini uning kayfiyatini buzgan narsadan chalg`itishga urinish va hatto qandaydir maroqli narsa haqida gap boshlab, uni bir muncha ovutishga harakat qilish muhimdir.

Shuni nazarda tutish kerakki, agar pedagog hamma vaqt gapirib, so`rayversa o`quvchi faqat eshitib, bir xildagi javoblarni beraversa, muloqot vujudga kelmaydi.

O`quvchilar bilan ham, sinf bilan ham, guruhlar bilan ham, ayrim bolalar bilan ham muomala qilganda ba`zi umumiy usullarni esda tutish va ulardan

foydalanish foydalidir, ular muomalani dialogli, samarali, kam ixtilofli qilishga imkon beradi. Birinchidan, pedagogning boshqa kishilar tomonidan qilingan u yoki bu murojaatni tasavvur etishi foydalidir. Shunda o`kuvchilar bilan suhbatlarda buyruq berish huquqini suiiste'mol qilish kerak emasligi, yaxshisi – ko`proq iltimos shaklidan foydalanish kerakligi ma'lum bo`lib qoladi – chunki har qanday kishining buyruqdan ko`ra iltimosni bajarishi oson va yoqimliroq bo`ladi. Shunda o`quvchilar bilan suhbatlar tez –tez «marhamat», «rahmat», «baraka toping» degan so`zlardan foydalanish, ko`pincha ularga shart fe'li bilan: «siz manna bunday qilsangiz bo`lmasmikin. . .», «sizningcha, bunday qilsak yaxshiroq bo`lmasmikin . . .» deb murojaat qilish foydali ekanligi ma'lum bo`ladi. Nihoyat, bolalarga biror narsa deganda, ulardan biror narsa talab qilganda, ularga biror narsa taklif etganda, pedagogning o`z - o`ziga: «nima uchun?», «nega?», «buning boisi nima?» degan savollarni berishi nihoyatda foydali bo`ladi.

O`quvchilar o`zlari bilan bo`layotgan butun muomalasi hatto jahl bilan aytilsa –da, do`stona bo`layotganini ko`rib turishlari lozim. Jahl - o`tkir, nihoyatda o`tkir quroldir. U shifobahsh bo`lishi ham, javob tariqasida jahl uyg`otishi ham, g`azabni qo`zg`ab, asossiz janjalga olib kelishi ham mumkin. Lekin pedagogning o`quvchilar bilan muomalasida jahlga o`rin bo`lmasligi kerak, deb o`ylash qiyin. Bu jahlning qanday namoyon bo`lishi – boshqa masala. Jahlni chiqargan sababni o`kuvchining shaxsiy sifatleri bilan aslo bog`lamaslik kerak. Bunday jahl munosabatni buzadi, o`quvchini g`azabga keltiradi.

O`quvchilarning pedagoglarga nisbatan eng ko`p tarqalgan shikoyatlaridan biri: «Ular bizning gapimizga e'tibor bermaydilar!» degan gapidir. Tabiiyki, o`z suhbatdoshing gapiga quloq solmasang, u bilan muloqot qilish mumkin emas, samarali muomala qilib bo`lmaydi. Shu sababli pedagog bu bilimni egallay olishi nihoyatda zarurdir. Birovning gapini eshita olish qobiliyati va mahorati inson tabiatining boshqa ko`pgina qimmatli sifatlariga qaraganda ancha kamroq uchraydi. Shu sababli birovning gapini tinglay oladigan, binobarin, odatda tushuna oladigan kishilar ancha qadrlanadi.

Birovning gapini eshita bilish degani nima? Birinchidan, har qanday o`quvchi nima gapirsa ham, noto`g`ri fikrga bormay uni eshita olishi, uning gaplari mohiyatini anglashga o`zini chog`lab, uni tushunishga harakat qilishi zarur. Bunda pedagog o`quvchini tinglab, u gapirgan narsalarni, u bayon qilgan ma`lumotlarni o`zining ular haqidagi fikridan va bu o`quvchiga, u ma`lum qilgan ma`lumotlarga o`z munosabatidan ajratishga erishsagina real voqelikka aylanadi. Ikkinchidan, o`quvchi so`zlarining mohiyatini anglashga harakat qilishi kerak. Buning ma`nosi shuki, faqat u aytgan narsalarni tushunishga harakat qilib qolmay, u ularni qanday aytgani, uning so`zlari ostida nimalar borligi, haqiqatda u nima demoqchi, u nimani hohlaydi yoki nimani aytmoqchi emas – ana shuni bilib olishga intilish kerak.

Pedagog savollar berishni – asosiy, aniqlik kirituvchi, yo`lga soluvchi savollarni berishni bilish muhimdir. Lekin bu savollarni shunday berish kerakki, ular o`quvchini savollarga batafsil javob berishga rag`batlantirsin. Savollar uni o`zi haqida, qandaydir voqealar to`g`risida, o`z – fikr mulohazalari, hissiyotlari, kechinmalari haqida gapirib berishga undashi lozim, ya`ni o`qituvchining savollari ortida suhbatlashishga bo`lgan chinakam qiziqish turishi kerak. Bu nihoyatda muhimdir, chunki pedagog o`quvchi uchun qiziqarli suhbatdosh bo`lib qolishi uchun u ana shu o`quvchining hayoti bilan juda qiziqadigan kishi bo`lishi lozim.

O`zbekiston maktablarida ta`lim-tarbiya ishlari, pedagogik faoliyatning samaradorligi, ta`sirchanligi o`qituvchilar, ota-onalar jamoasi, oila va mahallada shakllangan axloqiy munosabatlarga, muomala odobiga bog`liq. Muallim ta`lim-tarbiya ishlari jarayonida o`quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan muomalada bo`ladi. Barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan o`quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar muallimning har bir harakati, barcha ishlarini inson sifatida kuzatib boradi, his etadi, axloqiy jihatdan baholaydi, qabul qiladi yoki rad etadi. Xullas, ta`lim-tarbiya ishlarining natijasi, o`qituvchi faoliyatining ta`sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo`ladigan muomala odobiga, pedagogik jarayon ishtirokchilarining axloqiy-ruhiy xolati, kayfiyatiga bog`liqdir.

Muomala odobi o`z tabiati, mohiyatiga ko`ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo`ladi. Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma`naviy, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o`rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o`ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega. Bu xususiyat va mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim bo`lgan axloqiy qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi o`rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bog`lanishlarga asoslanadi.

Muomala odobi bevosita baho beruvchilik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning hulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o`z hulqi va faoliyatida axloqiy printsiplar, qoidalar, talablar, an`analarga, urf-odatlarga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik jarayonda sodir bo`ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o`ziga, o`z kasbiga, o`quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat davlat o`qituvchiga, ta`lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo`yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi.

Pedagogik jarayonda muomala odobi o`qituvchining faoliyatida namoyon bo`ladi. O`qituvchilik faoliyatiga qo`yiladigan axloqiy talablar, o`z navbatida. O`zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-ma`naviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo`yayotgan vazifalarga bog`liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida unda qatnashayotgan kishilarning hulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta`lim-tarbiya maqsadi, vazifalari usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo`ladi.

Muomala odobining tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda sub'ekt-ob'ekt munosabatlari shaklida ifodalanadi. Sub'ekt-ob'ekt munosabatlari muallim o'zining professional burchini bajarayotganida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o'qituvchi o'rtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, o'zaro g'amxo'rlik, har birlarining inson sifatida qadr qimmatini e'zozlash kabilarda namoyon bo'ladi. Ular o'qituvchining pedagogik faoliyatda boshqalar bilan muomalasining xarakterini baholashga xizmat qiladi. O'zaro ta'sirlar o'quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarning xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud. Masalan, o'quv ishlari sohasida, jamoat topshiriqlarini bajarishda, o'quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish paytlaridagi muomala, shuningdek, o'qituvchining Vatanga, xalqqa bo'lgan munosabati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, agar o'qituvchining bu muomala-munosabati o'z professional vazifasini, burchini bajarish jarayonida sodir bo'lsa, jamiyat o'qituvchining va pedagoglik kasbining ijtimoiy mavqeini, unga ma'lum bir huquq va vakolatlar berilganligini nazarda tutadi.

Pedagogik etikada muomala odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi — bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-xarakatlarida, hulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o`qituvchi axloqiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi — figurasi sifatida o`quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo`ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o`qituvchi asosiy figuradir. O`quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o`qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob'ekti hisoblanadi. Ular bilan bo`ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo`ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo`lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o`zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Pedagogik muomala-munosabatlarda hissiyot aralashgani uchun ularning axloqiy va ruhiy jihatlarini bir-biridan ajratish qiyin bo`ladi. Shuning uchun ham bunday hodisalar haqida gapirganda, odatda, pedagogik jamoadagi axloqiy-ruhiy vaziyat tushunchasi ishlatiladi.

Demak, o`qituvchining muomala odobi - u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o`z professional vazifasini bajarayotganda sodir bo`ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondoshuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: o`qituvchi bilan o`quvchilar o`rtasidagi muomala; o`qituvchi bilan pedagogik jamoa o`rtasidagi muomala; o`qituvchi bilan ota-onalar o`rtasidagi muomala; o`qituvchi bilan maktab rahbarlari o`rtasidagi muomala.

Muomala odobida o`qituvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo`nalishlari, so`zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtai nazari namoyon bo`ladi.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o`qituvchi bilan o`quvchi o`rtasidagi muomala-munosabatlar katta o`rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to`plagan bilimlarni, axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o`qituvchiga, uning axloqiy

sifatlari, hulqiga, o`quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo`yiladi:

Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar — yosh bolalar bilan muloqotda bo`ladi. Bolalar ta`lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini (mezonlarini) o`zlashtiradi. O`quvchi muomala odobini asosan o`qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo`lib qolishi ham mumkin.

Respublikamiz o`qituvchilari orasida o`z ishining ustasi, Xalq o`qituvchisi, Xizmat ko`rsatgan o`qituvchi deb tan olingan, ota-onalar, yoshlar e`zozlab Ustoz deb ataydigan mo``tabar insonlar ko`plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik ko`rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go`zallik, haqiqat, odob axloq nurini singdira olganliklari, xushmuomal bo`lganlari uchun ham bunday obro` va hurmatga erishganlar.

Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo`lmaydi. O`zining dag`al muomalasi bilan bolaning ko`nglini o`qishdan sovutib, dilini o`rinsiz ranjitadiganlari ham uchrab turadi. Pedagogik tajribada bunga misollar ko`plab topiladi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta`sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo`lgan darajada ziyon yetkazadilar.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta`sir o`tkazish shartlaridan biri bolaga bo`lgan ishonch bilan unga nisbatan qo`yilayotgan talablarning birligidadir. Bu qoida pedagogik amaliyotda ko`p marta sinovdan o`tgan va o`zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o`tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala o`qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga xuda-behuda do`q urib, baqirib muomala qiladigan muallimlar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy normalarga to`g`ri kelmaydi. Bunday o`qituvchilar bolalar orasida obro` orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba'zan istasa-istamasa qo`pollik qilishga «majbur» bo`ladi, o`quvchi muallimning o`rinli talablarini bajarmayotgan paytlarida u o`zini tutolmay qoladi. Muallim o`z talablarini, hatto, qo`pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilyapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to`g`ri yo`lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotganiga ishonadi. Sa'diy Sheroziyning «Guliston» (Toshkent, 1968) asarining «Tarbiyaning ta'siri bayoni» bobidagi hikoyatlarda; Alisher Navoiyning «Mahbub-ul-qulub» asaridagi «Mudarrislar to`g`risida», «Maktabdorlar to`g`risida»gi maqolatlarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizga hamohangdir.

Bunday holatlar ko`pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomala-munosabatlar jarayonida sodir bo`ladi. Shuni ham unutmash lozimki, bunday bola odatda, nosog`lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo`lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xush muomalaga, e'tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan sabr-toqatli, bardoshli, kechirimli bo`lish zarurligini ham ta'kidlaydilar.

Jismoniy jarohat olgan bolani o`qituvchi jazolamasligini hamma biladi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog`ii jarohatlangan boladan yugurish musobaqasida qatnashishni talab etmaydi. Bola ba'zan qalbi, ruhi jarohatlangan holda maktabga kelishi mumkin. Ta'lim jarayonida buni hamma o`qituvchilar e'tiborga oladimi? Afsuski, yo`q. «Bola javob berishni xohlamayapti, dars tayyorlashni istamagan» deb hisoblab, hamma o`quvchilarga bir xil talab qo`yish, bir xil muomala qilish hollari ko`plab uchraydi. Ba'zan boladan hatto u bajara olmaydigan ishlar ham talab etiladi. Ayrim o`qituvchilar bolaning oilasidagi, ota-onasidagi nuqsonlari uchun ham uni ayblashga urinadilar.

**Voqeiy hikoyat.** To`qqizinchi sinf o`quvchisi Karim bir kuni darsni tayyorlamay keldi. Muallima unga «ikki» baho qo`ydi. Oilada Karim onasi bilan yashaydi, otasi boshqaga uylanib ketgan. Muallima Karimga «yomon» baho qo`ygani yetmagandek, unga zarda bilan: «Otang sizlarni bekorga tashlab



ketmaganga o`xshaydi, bunday boladan qochib qutulishdan boshqa chora yo`q»,- deb uni sinfdan chiqarib yubordi. Muallimning bu muomalasi o`quvchini tahqirlash bilan birga sinfdagi boshqa o`quvchilarning ham noroziligiga, nizo kelib chiqishiga sabab bo`ldi.

Talabchanlik o`qituvchi odobining normalaridan biri hisoblanadi. O`qituvchining bolaga qo`yayotgan talabi adolatli bo`lmog`i kerak. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo`lgan chuqur ishonchi ifodalanadi. Bu insoniylikning namoyon bo`lishi, ya`ni rivojlanayotgan bola shaxsi to`g`risida, o`ziga va jamiyatga foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to`g`risidagi g`amxo`rlikdir. Odatda, bolalar murosasozlik va oliftagarchilikni—betayinlik, o`ta muruvvatni — mas`uliyatsizlik, printsipsizlik deb tushunadilar. Aksincha, yaxshi niyat bilan qilingan oqilona talabchanlik — qattiqqo`l muallimga bolaning hurmati va minnatdorligini oshiradi.

**Voqeiy hikoyat.** To`lqin maktabda quyi sinflarda past baholar olib o`qirdi. Sakkizinchi sinfga o`tganida fizika o`qituvchisi D. Sh. juda talabchan, hech kimni erkalatib qo`ymaydigan kishi bo`lib chiqdi. Muallim uni doskaga chiqaradi. To`lqin fizikaga doir masalani yecha olmaydi. O`qituvchi unga boshqa masalani beradi va o`sha boshlagan usuli bilan yechishni aytadi.

Nihoyat u, masalani to`g`ri yechadi. O`qituvchi: «Mening fikrimcha To`lqin, sen uchun bu oddiy masala. Sen murakkabroq masalalarni ham yecha olasan, faqat, ko`proq ishlash kerak» deydi. Bu gap bolaga ijobiy ta`sir etadi, u darslarni ko`proq tayyorlaydigan bo`ldi, ayniqsa fizikaga qiziqib qoldi. Maktabni bitirgach, texnika universitetiga o`qishga kirdi. Muhandislik kasbini egalladi. Bir kuni To`lqin o`quvchilik yillarini eslab bunday dedi: «Fizika o`qituvchimiz kattiqqo`l, talabchan edi. U bizni boshqa fanlarga qaraganda fizikani ko`proq o`qishga majbur etardi. Biz uning aytganlarini bajarar edik, chunki u yaxshi odam, hatto do`stimiz edi».

O`qituvchi avvalo, o`ziga talabchan bo`lmog`i kerak, shundagina bolaga nisbatan qo`yayotgan talablari o`rinli, samarali bo`ladi. Aks holda uning «talabchanligi» bolaning g`ashini keltirishi va o`quvchilar uni bajarmasliklari

mumkin. Bolaga biror topshiriq berayotganda u o`quvchining kuchiga mosligi, bola uni bemalol bajara olishiga muallimning ishonchi komil bo`lsin. Bola oldiga qo`yiladigan talablar, unga berilayotgan vazifalar sekin-asta murakkablashtirila borishi, o`quvchilarning qobiliyati, individual xususiyatlarini hisobga olib tabaqalashtirilishi lozim.

Muallim har qancha hushyor, ehtiyotkor bo`lsa ham sinfdagi hamma bolalarning ruhiy holatini, iztiroblarini bilmasligi mumkin. Bu ishda muallim sinf bolalar jamoasining ko`magiga tayanmog`i lozim. Sinf jamoasi boshiga tashvish tushgan bolaning holidan xabardor, unga hamdard bo`lishiga erishmoq kerak. Shunda muallim bilan o`quvchi o`rtasidagi muomala natijasida sodir bo`ladigan ayrim xatolarning oldini olish imkoni tug`iladi.

**Voqeiy hikoyat.** Sanobarning oilasida uning otasi bilan onasi o`rtasida kelishmovchilik, janjallar bo`lib turishini sinfdoshlari biladi. Bugun u darsga ko`zlarining atrofi qizargan, ma'yus holda keldi. Kecha ularning uyida bo`lgan janjal tufayli uy vazifasini ham bajarolmay kelgani, kitobni o`qisa ham boshiga hech narsa kirmayotgani ko`rinib turardi. Sinfdoshlaridan biri unga sezdirmay bu holatni sinf rahbariga ma'lum qilib, yaxshisi muallimlar bugun Sanobarni doskaga chiqarmasliklari, undan uy vazifasini ham so`ramasliklari lozimligini aytdi. Sinf rahbari o`z darsi jarayonida bevosita usullar bilan Sanobarga tasalli berishga harakat qildi. Shu tariqa sinf jamoasi qalbi jarohatlangan Sanobarga nisbatan to`g`ri muomala qilishda o`qituvchilarga yordamlashdi.

Bolaning ruhiy holatini tushunish, sinfdoshlarida unga nisbatan xayrixohlik, g`amxo`rlik xis-tuyg`usini uyg`otish o`qituvchining yuksak pedagogik, axloqiy madaniyatidan dalolat beradi. Odobli, madaniyatli muallim bolalar bilan qo`pol muomala qilmaydi, o`quvchining «sirini» oshkor etmaydi, uning ustidan kulib, qalbini jarohatlamaydi. Aksincha, fikr-mulohazasi qotib qolgan, bolalarning qalbi, ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olmaydigan, hammaning xulqini bir xil qolipda baholaydigan muallim ko`pincha pedagogik muomala odobi normalarini buzadi, bolalar orasida obro` ham ololmaydi. Bunday muallim odatda, agar bola mo`min-qobil bo`lsa, uni yaxshilar qatorida ko`radi, agar tanqidiy fikrlaydigan bo`lsa -

manman, takabbur deb hisoblaydi. Qobiliyatli, lekin sho`x bolalarni xush ko`rmaydi, natijada o`qituvchiga hurmatsizlik, konflikt - mojarolar kelib chiqadi.

O`qituvchi bilan o`quvchi o`rtasidagi nizolar ko`pincha bolaga nisbatan adolatsizlik qilish, unga qo`yilayotgan talablar mavhumligidan kelib chiqadi. Bunday o`qituvchi bolani asossiz ayblayotganini talabchanlik, pedagogik jamoa rahbarlarining unga qo`ygan to`g`ri talabini esa adolatsizlik deb qaraydi. Bolaning mustaqil harakatlarini - uning obro`sini to`kishga intilish, itoatkorligini esa eng yaxshi hislat deb biladi. Muallim bilan o`quvchi o`rtasidagi nizolar haqida gap borganda shuni esda tutish lozimki, ta`lim-tarbiya juda murakkab, qarama-qarshiliklarga to`la jarayondir. Ularni bartaraf etish muqarrar ravishda nizolar chiqishiga ham sabab bo`lishi mumkin. Bu nizolarni oqilona hal etish uchun muallim ularning mohiyati va sabablarini aniqlashi, bilishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda axloqiy tarbiya jarayoniga xos qarama-qarshiliklar manfaatdorlik, axloqiy-ruhiy omillar, shuningdek, muhit ta`sirida sodir bo`lishi mumkin. Bunday faktorlar qatoriga quyidagilar kiradi:

— bola tarbiyalanayotgan muhitdagi axloqiy tajriba, xulqiy odatlar jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy, milliy axloq mezonlariga mos kelmasligi;

— bolada ilgari shakllangan qiziqish va istaklar axloqiy tarbiyaning maqsadiga to`g`ri kelmasligi;

— bolaning irodasi, o`zini tuta bilish darajasi bilan tarbiyachi-o`qituvchining talablari bir-biriga to`g`ri kelmasligi;

— bolaning jamoada o`z o`rnini topishga bo`lgan intilishi bilan o`z manfaatlarini jamoaning manfaatlariga bo`ysundirish zarurligini bir-biriga mos kelmasligi;

— tarbiyachi, o`qituvchining pedagogik, axloqiy madaniyat darajasi o`quvchilarni axloqiy tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo`yilayotgan vazifalar, talablarga mos kelmasligi. Bu qarama-qarshiliklar ob`ektiv yoki sub`ektiv harakterga ega bo`lishi mumkin. Tarbiya jarayonida ular sub`ektivlikdan ob`ektivlikka o`tishi yoki aksincha bo`lishi ham mumkin. Masalan, ota-onalarning

axloqiy madaniyat darajasi sub'ektiv faktor hisoblansa ham u bola uchun ob'ektivlik xarakteriga ega, chunki ota bilan onani tanlab olish mumkin emas.

Sub'ektiv qarama-qarshiliklar ham, ob'ektiv qarama-qarshiliklar ham jiddiylashib, nizolar chiqishiga olib kelishi mumkin. Burch bilan istak o'rtasidagi, zarurat bilan erkinlik o'rtasidagi ob'ektiv qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga keladigan nizolarni, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, ko'pincha, rivojlanish usuliga aylanadi. Bunday konfliktlarni ijobiy hal qilish natijasida shaxs o'z tajribasida jamiyat o'rtaga qo'yayotgan axloqiy talablarni jamoatchilik va o'qituvchi ta'sirida anglab oladi.

Quyidagilar axloqiy tarbiya jarayonida vujudga keladigan ob'ektiv (asosiy) qarama-qarshiliklar sirasiga kiradi: tarbiya tizimi va yosh avlod erishishi zarur bo'lgan yuksak axloqiy namunalar (ideallar) kun tartibiga qo'yayotgan vazifalar bilan tarbiyalanuvchilarning hayotiy tajribasi o'rtasidagi qarama-qarshilik; o'quvchi egallashi lozim bo'lgan axloqiy qoidalar bilan bolaning o'tkinchi ehtiyojlari va xohishlari o'rtasidagi qarama-qarshilik; axloqiy erkinlik bilan axloqiy mas'uliyat o'rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish silliq kechmaydi, ularni to'g'ri hal etish natijasida bola axloqiy kamolotga erisha boradi. Odatda, bunday nizolar, yo o'quvchini yuksak axloqiy ideallarga yo'naltiruvchi o'qituvchi foydasiga, yoki bolaning o'tkinchi xohishlari foydasiga hal etilishi mumkin. Ikkala holatda ham «sakrash», «portlash» yo'li bilan yangi holatga o'tiladi: yo o'quvchining hulqida ijobiy o'zgarish bo'ladi, yoki salbiy holat mustahkamlanadn. O'qituvchi har bir nizoni yechayotganida buni nazarda tutmog'i kerak.

Ob'ektiv qarama-qarshiliklar natijasida vujudga kelgan konfliktlarni oqilona bartaraf etish o'qituvchining pedagogik madaniyatiga, muomala odobiga, tanlagan vositalarining to'g'riligiga bog'liq. Sub'ektiv sabablarga ko'ra paydo bo'lib, janjallarga olib kelgan qarama-qarshiliklar salbiy natijalar beradi, o'qituvchiga nisbatan ishonchsizlik tug'diradi o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida ruhiy to'siqlar hosil qiladi. Bunday nizolar shaxsning axloqiy rivojlanishiga turtki bo'la olmaydi, chunki bu holat muallimning axloqiy madaniyati pastligidan sodir etiladi. Bu

qarama-qarshilikni bartaraf etish yo`li – ularni o`z vaqtida aniqlab, nizoga aylanib ketishiga yo`l qo`ymaslikdir. Bunga erishish uchun muallim hayotni yaxshi bilishi, sezgir, vijdonli bo`lish bilan birga bolalarning ruhiy rivojlanish qonunlarini, axloq normalarini ham bilishi, voqealarni oldindan ko`ra bilish fazilatiga ham ega bo`lmog`i kerak.

Pedagogik axloqda ta`lim-tarbiya jarayonida vujudga kelib, an`anaga aylanib qolgan ayrim qoidalar sub`ektiv qarama-qarshiliklar va konfliktlarning kelib chiqishiga sabab bo`lishi ko`rsatilgan. Masalan, shunday qoidalardan biri - har qanday holatda ham o`quvchi oldida muallimning obro`sini saqlash kerak, degan tushunchadir. Bu qoidaga amal qilaman deb, muallim ba`zan o`z vijdoniga qarshi ish tutadi, kasbdoshi noxaq bo`lsa ham uning harakatlarini to`g`ri deb isbotlashga, o`quvchini esa ayblashga, yomonlashga urinadi. «Muallimni o`quvchi tanqid qilishi mumkin emas», degan axloqiy qoida ham o`qituvchining obro`sini saqlash uchun o`ylab topilgan.

Majlis borayotganda o`quvchiga muallim haqidagi fikrlarini, mulohazasini aytishni ta`qiqlash mumkindir, lekin bola o`z tengqurlari davrasida kattalarning hulqi, xatti-harakatlari haqida o`z fikrini aytishi, baho berishini ta`qiqlab bo`lmaydi-ku. Natijada o`quvchilarning ayrim o`qituvchi haqidagi fikrlari, tushunchalari shakllanish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarib bo`lmay qoladi. Ba`zan buning natijasida o`quvchilar talabchan muallimni - adolatsiz kishiga, bolaning kamchiligi va sho`xliklariga e`tibor bermaydigan muallimni yaxshi odamga chiqarib qo`yadilar.

Muallimning biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o`quvchilarda u haqda sodir bo`lgan noto`g`ri fikr ham ta`lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta`sir etishi, muallimning ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday konfliktlar uzoq davom etadi va o`qituvchi foydasiga «hal» etiladi. Muallimning obro`sini saqlayman deb, kattalar ba`zan bolaning qadr-qimmatini yerga uradilar, o`qituvchidan kechirim so`rashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o`qituvchining noto`g`ri xatti-harakati sabab bo`lgan. Muallimlarning bu ishi axloqiy tarbiya talablariga to`g`ri kelmaydi. Yaxshi pedagogik an`analarni saqlash

va ularga amal qilish bilan mutaassiblik o`rtasidagi farqni, o`qituvchilik burchini bajarish bilan o`taketgan rasmiyatchilikni ajrata bilmoq lozim.

Muallim o`quvchilar bilan o`zaro muomalasida ko`tarinki ruh, yaxshi kayfiyatni saqlay bilishi pedagogik axloqning muhim talablaridan biridir. O`qituvchi dars o`tayotgan yoki tarbiyaviy tadbirni bajarayotganida bolalarning do`sti, maslahatchisi ekanligini esda tutmog`i lozim. Bu, muallim hamma vaqt bolalar bilan oshna-og`aynigarchilik qilaveradi degan gap emas. Bolalar ko`p o`tmay muallimning hulqidagi bu kamchilikni payqab olib, uning ustidan kulib yuradilar.

Pedagogik axloq normalariga amal qilishda muallim odob-muomala qoidalarini buzmasligi, shu bilan birga muallimning hulqi o`quvchilarning xatti-harakatlarini, o`zaro munosabatlarini ham tartibga solib borishi haqida g`amxo`rlik qilmoq kerak.

**Voqeiy hikoya.** Ikkinchi sinfga boshqa maktabdan yaqinda kelgan Diloromni muallim o`qish uchun doskaga chiqardi. Dilorom harflar va bo`g`inlarni zo`rg`a o`qiyotgani, o`qiy olmay qiynalayotganidan uyalib qizardi, to`xtalib qoldi. Sinfdagi bolalar kulib yubordilar. Chunki bu sinfdagi bolalarning hammasi yaxshi o`qiydigan bo`lib qolgan edilar. Bolalarning bu kulgusi Diloromga qattiq salbiy ta'sir etdi. Muallim qiynalib zo`rg`a o`qiyotgan Diloromni o`qishdan to`xtatib, kulgan bolalarga tanbeh berdi. Bolalarning bu qilig`i odob qoidalariga to`g`ri kelmas edi.

Muallim bolani doskaga chaqirayotganda ham, yoki o`quvchi bajargan ishni boshqalarga namuna qilib ko`rsatayotganida ham me'yorga amal qilmog`i lozim. Agar yaxshi o`qiydigan bola hadeb doskaga chiqarilaversa yoki har safar bir bolaning bajargan ishi boshqalarga namuna sifatida ko`rsatilaversa bu, axloqiy jihatdan salbiy oqibatlariga olib keladi.

O`quv ishining shunday o`ziga xos axloqiy jihatlari borki, ular muallim bilan o`quvchi o`rtasidagi muomalaga bevosita yoki bavoosita ta'sir etadi. Masalan, ta'lim jarayonida ishonchning o`z o`rni bor: o`quvchi muallim berayotgan bilimlarning to`g`riligi, haqqoniyligiga ishonadi, muallim bolaning bu ishonchiga

munosib bo'lishi kerak. O'qituvchi ham bolalar uning aytganlarini hech ikkilanmay qabul qilayotganlariga ishonadi. Bu muomala odobining umumiy tamoyillaridan biridir. Respublikamiz maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bir-birlariga ishonishlariga asoslanmog'i zarur. Muallim bilan o'quvchining muomala-munosabatlari ijodiy xarakterga ega. Ishonch yo'q joyda ijodkorlik ham bo'lmaydi. Ishonch, hurmat, mehribonlik, xayrixohlik talabchanlikni inkor etmaydi, balki nazarda tutadi. Muallimning qattiqqo'lligi va talabchanligi bolaga axloqiy ta'sir o'tkazishning zarur shartlaridan biridir. Bolada hayotiy tajriba yo'qligi, irodaviy sifatlar yaxshi shakllanmaganligi tufayli ham muallim unga nisbatan talabchan bo'lmog'i darkor.

O'qituvchi bolaning imkoniyatlarini, qobiliyatini hisobga olgan taqdirdagina undagi kamchiliklarni bartaraf eta oladi, uning pedagogik talablarini bola bajarishi mumkin. Muallimning talablari bolaning imkoniyat darajasidan past bo'lsa, undagi qobiliyatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi; agar muallimning talablari bolaning qobiliyati va imkoniyatlaridan ortiq bo'lsa, bolada o'z kuchiga ishonmaslik, ishdan o'zini chetga olish his-tuyg'usini paydo qiladi. Muallimning qattiqqo'lligi va talabchanligi axloqiy tarbiyaning boshqa vositalari bilan birga olib borilishi kerak.

Muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalani tartibga soluvchi talablardan biri bolaning hulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Bolaning hulqi, muomalasi ko'pincha u qilgan biror ish bilan tenglashtiriladi. Lekin xatti-harakat axloqiy muomalaning bir qismidir, xolos.

Hulqi, muomalasida esa bolaning biror kishi yoki narsaga munosabati ham ifodalanadi. Bolaning hulqi, muomalasi axloqiy jihatdan baholanishi mumkin. Bolaning qiligi deganda uning xatti-harakatiga berilgan baho ham nazarda tutiladi. «Karim yaxshi ish qilmadi. O'ktam ishni qoyil qildi», degan iboralar ko'p ishlatiladi.

Muomala o'z mohiyati va tuzilishiga ko'ra murakkab axloqiy hodisadir. Unda kishining axloqiy ongi (motiv, istak, unga erishish yo'lini tanlash), axloqiy faoliyat (xatti-harakat), axloqiy munosabat (baholash) va kishining unga

munosabati namoyon bo`ladi. Shaxsning niyati (mayli) zamirida uni u yoki bu maqsadga undovchi manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar ijtimoiy va shaxsiy qimmatga ega bo`lib, ma'lum bir ehtiyojlardan hosil bo`ladi. Insonning maqsadi doimo asoslangan bo`ladi. Sabab (vaj) muomala odobining, xatti-harakatning, qiliqning bir qismi bo`lib, biror harakatni bajarishga, uning yaxshi yoki yomon ekanligini baholashga asos bo`ladi. Motivlar (sabab, vaj) ijtimoiy qimmatli yoki xudbinlik xarakteriga ega bo`lib, ko`zlangan maqsadga erishish uchun vositalar tanlashga ta'sir etadi. Lekin axloqiy maqsadga faqat axloqiy vositalarni qo`llash bilangina erishish mumkin.

**Voqeyi hikoya.** Shahardagi maktablardan birida uchinchi sinfda shunday hodisa sodir bo`ldi. Sinfdagi o`quvchilar ikki guruhga bo`linib, tuvaklarda gul o`stirib, sinf xonasini bezatish uchun musobaqa o`tkazishdi. Bolalar uylaridan gul tuvak, gul ko`chat keltirib, gul o`stirishga kirishdilar. Musobaqa (o`yin)ni yakunlashga bir hafta qolganida birinchi tuvakdagi gullar so`lib qoldi. Bolalar har qancha urinsalar ham foydasi bo`lmadi. Maktabning biologiya o`qituvchisiga murojaat qilishga to`g`ri keldi. Biolog muallim gul ko`chatlaridan birini tortib ko`rsa, uning ildizi kesilgan ekan. Bu ishni ikkinchi guruhning yetakchisi Salima qilganligi ma'lum bo`ldi. Salima buni, nima qilib bo`lsa ham, o`z guruhi g`olib chiqishi uchun qilgan ekan. Bu voqeaning tahlili shuni ko`rsatadiki, bolalarning hammasida bir xil maqsad – gul o`stirib, sinf xonasini bezash maqsadi bo`lgan. Lekin ular musobaqa jarayonida turli sabablarga ko`ra harakat etganlar. Guruhdagi bir bolaning xudbinligi tufayli ko`ngilsiz hodisa ro`y berdi.

Bolalar hayotida, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar (faoliyatida va hulqida hissiyotning ta'siri kuchli bo`ladi. Ular holi o`z xatti-harakatlarining motivlarini to`la anglab yetmaydilar. Katta yoshdagi o`quvchilarning hulqida ham vaj - sabablar hamma vaqt ijobiy xatti -harakatlarga olib kelavermaydi. Bolalarning hulqini baholashda xatti-harakatlarning natijasiga qarab xulosa chiqarish lozim. Muallim o`quvchining o`z xatti - harakatlariga, hulqiga shaxsiy munosabatini ham e'tiborga olishi kerak. O`qituvchi bolaning xulqini, xatti-harakatini ob'ektiv



baholash uchun bolani bu ishga nima da'vat etganini, nimalar sabab bo'lganini ham aniqlashi lozim. Shundagina axloqiy baho tarbiyaviy qimmatga ega bo'ladi.

Bola harakat qiladigan hayotiy vaziyatlarni, kutilmagan holatlarni oldindan aniqlash juda qiyin. Bolalarni xatolardan mutlaqo saqlab qolish ham muammo. Muallimning vazifasi o'quvchiga o'z xatti- harakatlarining natijasini ko'z oldiga keltira bilishni va o'z hulqi uchun mas'ul ekanligini tushuntirish, anglatishdan iborat. Bu muallimning dam olish paytlarida ham, o'qishdan tashqari vaqtlarda ham o'quvchilar bilan o'zaro muomala odobida ma'lum axloqiy normalarga rioya qilishni talab etadi.

Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalaning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlar o'z xususiyatiga ko'ra darsdan keskin farq qiladi. Bu ishlar dars singari qat'iy tartibga tushirilmaganligi uchun ham muallim va o'quvchilardan o'zaro nazoratni kuchaytirishni, halollik va vijdonlilikni, xolislikni, axloqiy mas'uliyatni ko'proq talab etadi. Shanbaliklar, safarlar, sayohatlar, kino-teatrlarga jamoa bo'lib borish muallim bilan o'quvchilarning muomala odobiga qo'proq bog'liq bo'ladi.

Axloqiy munosabatlar tizimida muallimning o'quvchilar jamoasi, o'z-o'zini boshqarish organlari bilan muomalasi muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning o'z - o'zini boshqarish tashkilotlari bolalarni amaliy faoliyatga jalb etishning muhim yo'nalishidir. Pedagogik faktlar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o'quvchilar bilan muomalada ma'lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur. Bulardan eng muhimlari quyidagilar: - pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o'quvchining qadr - qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o'quvchiga nisbatan ishonch;

- o'quvchining bilimi va hulqini baholashda talabchan, adolatli bo'lish. Muallimning bolaga pedagogik talablari aniq, uning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga mos bo'lishi, bolalarda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatni o'stirish;

- muallimning bolaga mehribon, g`amxo`r bo`lishi, bolaning shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo`lish;

— bola mushkul vaziyatga tushib qolganda unga ko`maklashish. Muallimning yordami xolis, beg`araz, beminnat bo`lishi;

— pedagogik jarayonda sodir bo`lib turadigan konfliktlar - nizolarni ma`muriy yo`l bilan emas, balki axloqiy mezonlar asosida murosaga kelish yo`li bilan hal etish;

— sinf jamoasining fikr-mulohazalarini e`tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolaning xulqiga baho berganda uning sabablarini – motivlarini e`tiborga olish;

— sinfda muallim «yaxshi ko`radigan», «yomon ko`radigan» o`quvchilar bo`lmasligi; o`quvchini biror xato xatti-harakati uchun yomon ko`rib qolmaslik; har bir bolaning yaxshi fazilatlarini aniqlash, o`stirish va tarbiyaviy ta`sir o`tkazishda unga tayanish;

—o`qituvchi o`zining butun hayoti va mehnat faoliyatida yomonlikka, adolatsizlikka, nopoklikka, hulqi buzuvchilikka nisbatan murosasiz ekanligini ko`rsatishi;

— bolaning ishonchini suiste`mol qilmaslik, uning qalb «sir» larini oshkor etmaslik, oldin yo`l qo`ygan xatolarini ta`na qilmaslik;

— muallim tarbiyachi sifatida, tajribali inson sifatida o`quvchilarga axloqiy yo`l-yo`riqlarni o`rgatishi, ularda xayrli voqealar va faktlarga ijobiy munosabatni, axloqsizlik faktlariga murosasiz bo`lish tuyg`usini o`stirishi;

— bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondoshish, pedagogik takti saqlash.

### **PEDAGOGLAR JAMOASIDA MUOMALA ODOBI**

Pedagoglar jamoasida o`qituvchilar o`rtasidagi muomala, munosabatlar insonparvarlik, demokratiklik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda, ikki xil bo`lib, biri - rasmiy, ikkinchisi - norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala, munosabatlar O`zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning (o`qituvchi

odobining) qonuniyatlariga asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari, qoidalari, talablari pedagoglar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish - bir kishining ishi emas, uni pedagoglar jamoasi bajaradi. Yolg'iz o'qituvchi har qancha urinsa ham, qobiliyatli, tirishqoq, ishchan bo'lsa ham bir o'zi ko'zlangan pedagogik maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Maktab oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali hal eta olmaydi. Ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun maktab, o'quv yurtining butun jamoasi, hamma o'qituvchilar birlashib harakat qilishlari lozim. Har bir muallimning xatti - harakati, hulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi, talablariga mos bo'lmog'i kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, jamoaning o'quvchiga ta'siri pedagoglar jamoasida shakllangan muomala odobi, munosabatlariga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirish talab etiladi. Bu o'z navbatida pedagoglar jamoasidan har bir bolaning tarbiyasi uchun yuksak mas'uliyatni, bolaga nisbatan bir xil talablar qo'yib, birgalikda tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni taqozo etadi. O'qituvchi odobida muallimlar o'zaro muomala - munosabatlarida amal qilishlari zarur bo'lgan axloqiy talablar ishlab chiqilgan.

Har bir bolaning tarbiyasi uchun mas'uliyatning birligi pedagoglar jamoasining o'quvchiga nisbatan talablari ham bir xil bo'lishini taqozo etadi. Bu o'qituvchi odobining qonuniyatlaridan biridir. Maktab pedagoglar jamoasining maqsadi, intilishlari, talablari yagona pedagoglar jamoasining maqsadi, intilishlari, talablari ham yagona bo'lmasa, tarbiyaviy ishlarning ta'siri, samarasi bo'lmaydi. Buning uchun pedagogik talablarning xarakteri, mazmuni, shakli va usullari hamma muallimlarning fikr - mulohazalariga mos kelishi lozim. Ma'lumki, pedagogik talabning mazmuni maktab jamoasining maqsadi, vazifalaridan kelib chiqadi. Lekin bu talablarning xarakteri, shakl va usullari har bir muallimning muomala odobiga, shaxsiy fazilatlariga, uquvi, pedagogik mahoratiga borliq.

Darsda o`quvchilarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi, axloqiy munosabatlar darajasini ko`rsatadi. Maktabda o`quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamoasining ishi. Pedagogik amaliyotda esa har bir muallim o`quv intizomini saqlash uchun o`zicha yo`l tutadi: ba`zilar — darsni jonli, qiziqarli tashkil etish bilan; ba`zilar esa «ikki» baho qo`yish, qattiqqo`llik bilan dars jarayonida tartib intizomni ta`minlashga intiladilar. Bolaga do`q - po`pisa qilish, baqirish, hulqiga yomon baho qo`yish bilan uni vaqtincha tiyish mumkin, lekin bu, ongli intizomni tarbiyalash usuli emas va pedagogik odob talablariga to`g`ri kelmaydi.

Dars jarayonida bir o`quvchi uchun boshqasi pichirlab, sekin javob berishi, bir o`quvchi bajargan ishni ikkinchisi ko`chirib olishi, ko`chirmachilik kabi masalalar pedagogik axloqiy muammolar qatoriga kiradi. Bir maktabning o`zida ham o`qituvchilar bu muammoni turli muomala usullari bilan yechadilar: bir muallim o`sha pichirlagan bolaga «yomon» baho qo`yadi, ikkinchisi- zaharxanda so`zlar aytadi. Uchinchisi - darsdan chiqib ketishini talab etadi, boshqasi buni vijdon amriga havola qiladi va hokazo. Vaholanki, maktab pedagoglar jamoasida bu muammolarga doir yagona axloqiy talablar ishlab chiqilgan va qaror topgan bo`lishi maqsadga muvofiq.

Pedagoglar jamoasi ma`lum talablar qo`yish, faoliyatiga axloqiy baho berish yo`li bilan o`qituvchining hatti-harakatlarini yo`naltirib, o`zgartirib, to`g`rilab beradi. Pedagogik jarayonda muallimning erkin bo`lishi bilan birga intizomga ongli ravishda rioya qilishi, ijodkorlik bilan bo`ysunish birga olib borilgan taqdirdagina pedagoglar jamoasining fikrini, axloqiy talablarini muallim ixtiyoriy ravishda bajaradi. Bunday muhit o`qituvchida o`z kuchiga ishonch tuyg`usini o`stiradi.

Pedagoglar jamoasida o`zaro yordam va ishonchning mavjudligi muomala odobiga amal qilishning muhim shartlaridan biridir. O`zaro yordam va bir-biriga ishonch pedagogik, metodik adabiyotlardan bilib olingan yangliklarni o`zaro baham ko`rish, tajriba almashish kabilarda yaqqol namoyon bo`ladi.

Kishi bir so'm pulini sherigi bilan baham ko'rsa, uning cho'ntagidagi pul miqdori kamayadi. Lekin kishi o'zidagi bilimni boshqaga o'rgatsa, bilimlar soni ko'payadi, o'rgatgan kishining bilimi kamayib qolmaydi, aksincha mustahkamlanadi. Pedagoglar jamoasida yangi g'oyalar, bilimlarni o'zaro almashish muomala odobining qonun-qoidasi darajasiga ko'tarilishi har bir muallim buni o'z xohishi, qalb amri bilan bajarishi hamma uchun foydalidir.

Muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadiga, o'qituvchilarning axloqiy saviyasiga bog'liq. Bu jarayonda muallimlar orasida o'zaro fikr almashish, o'rtoqlarcha munozaralar qilish natijasida har bir o'qituvchining bilim darajasi ortadi, o'zaro aloqalari mustahkamlanadi. Maktablarda muallimlarning o'zaro aloqa shakllari xilma-xildir. Muomala odobini shakllantirishda o'qituvchilarning o'zaro ijodiy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda muallimlar bir-birlarini darhol tushunadilar, yutuqlaridan quvonib, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning muammoli masalalarini birgalashib hal etadilar. Bunday hamkorlik ko'pincha bir xil fanlardan dars beradigan muallimlar o'rtasida mavjud bo'ladi. Pedagoglar jamoasida o'zaro tajriba almashish bir-birlarining darslariga kirish, tarbiyaviy tadbirlarini kuzatish shaklida amalga oshiriladi. Afsuski, ayrim hollarda maktab ma'muriyati o'zaro darslarga kirish natijalari yozilgan daftardagi kamchiliklarni ro'kach qilib, pedagogik kengashlar va yig'ilishlarda o'qituvchilarni tanqid qiladilar. Bu bilan muomala odobi mezonlariga, axloqiy munosabatlarga ziyon yetkazadilar. Vaholanki, muallimning faoliyatiga kuzatilgan bitta darsning natijasiga qarab baho berib bo'lmaydi. Bunday kuzatish daftarlariga muallim darsda erishgan yutuqlarni, yangi usullarni yozib, tahlil etib, boshqalarga namuna sifatida ko'rsatish muomala odobi talablariga mos bo'lib, jamoada axloqiy vaziyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchi bilan pedagoglar jamoasi orasida qarama-qarshilik vujudga kelishi mumkin. Ma'lumki, o'qitish jarayonida muallim o'qituvchilar bilan yakkama-yakka holda muloqotda bo'ladi. Shuning uchun ham ayrim kishilarda ta'limning samarasi pedagoglar jamoasiga emas, faqat o'qituvchining o'ziga bog'liq, degan xato

tushuncha hosil bo`ladi. Bunday tushunchada bo`lgan muallim pedagoglar jamoasidan ajralib qoladi. Shuning uchun ham pedagoglar jamoasi har bir o`qituvchining hulqini to`g`ri yo`naltirib borishi lozim. Chunki bolalarga ilm, tarbiya beradigan kishining o`zi odobli bo`lmog`i shart. Maktabda ta`lim-tarbiya ishlarining samarasi ayrim o`qituvchigagina emas, avvalo, maktabda inoq, ahil pedagoglar jamoasi yaratilganligi, ularning yuksak axloqiy - ma`naviy darajasiga bog`liqdir.

Sog`lom va ahil pedagoglar jamoasi yosh o`qituvchilarni axloqiy tarbiyalash, ularning pedagogik mahoratini oshirish maskanidir. Maktabda ahil pedagogik jamoa bo`lsa, ayrim o`qituvchilarning xudbinligiga barham beriladi. Pedagoglar jamoasi o`zining har bir a`zosiga hurmat bilan qarashi, uning yutuqlari va kamchiliklaridan ogoh bo`lishi, ularni tuzatishga ko`maklashishi zarur. Pedagoglar jamoasining muallimga qo`yayotgan talablari, muomalasi adolatli bo`lmog`i kerak. O`quv yurtlarini bitirib, maktabga endigina kelgan yosh o`qituvchi haqida alohida g`amxo`rlik ko`rsatishi zarur. Va o`z o`rnida ishga yangi kelgan yosh o`qituvchining pedagoglar jamoasi bilan muomalasi, o`zini tuta bilishi ham axloqiy munosabatlar shakllanishida muhimdir.

Pedagogik jamoaning a`zolari mayda-mayda to`dalarga bo`linib guruhbozlik yo`liga kirib ketsa, jamoada muomala odobi qoidalari, ma`naviy-axloqiy vaziyat buziladi, bo`lar-bo`lmasga o`qituvchilar orasida nizolar chiqaveradi. Ma`lumki, tarbiyaviy jarayon konfliktlarsiz sodir bo`lmaydi. Demak, pedagoglar jamoasining ijodiy faoliyatida fikrlar to`qnashuvi bo`lishi ham mumkin. «Qovun qovundan rang oladi», «Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga» kabi hikmatlar bejiz aytilmagan. Ijodiy munozaralarda, pedagogik jarayonda vujudga keladigan tortishuvlarning ba`zilari o`qituvchilar o`rtasidagi yaxshi muomala-munosabatlarni buzmasdan turib hal etiladi. Bunday holda jamoatchilikning fikri odob normalariga binoan umumiy manfaatni himoya qilayotgan, jamoaning ishiga ijodiy ruh, yangilik kiritayotgan o`qituvchi tomonida bo`ladi.

Ayrim hollarda esa bunday konfliktlar ijobiy hal etilsa .ham og`ir asoratlar qoldiradi. Shunday nizolar ham bo`ladiki, pedagoglar jamoasi sha`niga dog` tushiradi.

Pedagogik jarayonda sodir bo`layotgan qarama-qarshiliklar, nizolarning sabablari xilma-xil bo`ladi. Bulardan biri, maktab ma`muriyati o`qituvchilarning fikri, tanqidiy mulohazalariga e`tibor bermasligi, noto`g`ri muomala qilishi natijasida yuz beradi. Bu ko`pincha, maktab rahbarlarining ish uslubiga bog`liq. Maktab rahbari o`z sha`niga aytilgan tanqidiy fikrlarni to`g`ri tushunib, qabul qilsa, o`z kamchiliklarini bartaraf etishga intilsa o`qituvchilarning kamchiliklarini ko`rsatish va tuzatishni talab qilish borasida axloqiy huquqqa ega bo`ladi.

Pedagogik odob nuqtai nazaridan tanqid shu kamchilikni sodir etgan kishining shaxsiga emas, balki kamchilikni bartaraf etishga, ta`lim-tarbiya ishini, pedagoglarning o`zaro muomalasini yaxshilashga yo`naltirilgandagina to`g`ri hisoblanadi. Muomala odobini shakllantirishda tanqid va o`z-o`zini tanqidning roli kattadir. O`ziga, o`z faoliyatiga tanqidiy yondoshmaydigan rahbar oqibatda mag`rurlikka, o`zboshimchalikka muhtalo bo`ladi. Mas`uliyat hissi pasayib ketadi. Odatda, bunday maktab rahbarlari o`z martabasi, shuhrati va mansabini saqlab qolish uchun ko`zbo`yamachilikka yo`l qo`yadi. Afsuski, o`qituvchilar va maktab rahbarlari orasida o`z faoliyatiga tanqidiy qaray olmaydiganlar, ko`zbo`yamachilikka yo`l qo`yayotganlar anchagina uchraydi, o`z-o`zini tanqid esa yo`q darajada, ayrim o`qituvchilar tanqidga noto`g`ri munosabatda bo`ladilar. Pedagogik jamoada xush.muomalalik, o`zaro do`stlik va hamkorlik pedagogik mahoratni oshirishga, ta`lim-tarbiya ishlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bunday muhit ishni yaxshilashga qaratilgan printsiplial tanqid va o`z-o`zini tanqidni rad etmaydi. O`qituvchining xato, kamchiliklarini to`g`ri ko`rsata bilish, kasbdoshining mulohazalarini hamdardlik sifatida qabul qilish lozim. Kishi o`z sha`niga aytilgan tanqidni to`g`ri tushunishi - o`qituvchining axloqiy madaniyatidan, pedagoglik burchini yuksak darajada anglashidan dalolat beradi.

Pedagoglar jamoasida o`zaro muomala – munosabatlar kollegiallik va yakka boshchilikka, intizomni saqlashga asoslanadi. Muallimning umumiy ish uchun

mas'uliyat hissi va odob qoidalari kishidan jamoada o'zini tuta bilish, intizomga bo'sunishni talab etadi. Bu muallimning axloqiy fazilatlarini bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyat muallimdan o'z - o'ziga, kasbdoshlariga talabchan bo'lishni taqozo qiladi. Bunday talabchanlik xolis, beg'araz, umuminsoniy va milliy axloqqa mos bo'lmog'i lozim.

Jamoatchilik fikri, pedagogik nuqtai nazarlarning xarakteri, yagona talablarga ixtiyoriy ravishda rioya qilish, odob normalarini ongli bajarish - pedagoglar jamoasidagi ma'naviy-axloqiy vaziyatni yaxshilaydi. Bunday axloqiy muhitda o'zaro muomalada xayrixohlik, ijodiy hamkorlik, yaxshi kayfiyat, yuksak mehnat intizomi vujudga keladi. Pedagogik faoliyat zavqli, samarali bo'ladi. Bunday pedagogik jamoada muallim ilhom bilan ishlaydi, o'z ishidan qanoat hosil qiladi.

Pedagogik jamoada sog'lom axloqiy-ruhiy muhit mavjud bo'lsa, axloqiy norma va yo'l - yo'riqlar bajarilibgina qolmasdan, balki ular har bir muallimning e'tiqodiga, odatiga aylanadi. Pedagoglar jamoasidagi tartib-qoidalarga, urf-odatlariga ongli ravishda amal qilish uchun muallimlik ishida erkinlik bilan ongli intizom, ijodiy faollik bilan bo'sunish oqilona mujassamlashgan bo'lishi zarur. O'zaro bir-birini tushunadigan, hurmat qiladigan ijodiy muhit bor joydagina o'qituvchi o'ziga yuklatilgan vazifalarni ishonch bilan faol bajaradi. Pedagoglar jamoasining shaxs va jamoa uchun foydali ishlariga asoslangan ta'siri natijasida muallimning ma'naviy qiyofasida chuqur ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, ijtimoiy burchni to'g'ri anglash, o'z hulqini (xatti-harakatlarini) to'g'ri baholay olish odati shakllanadi, jamoada o'zaro muomala yaxshilanadi.

Pedagoglar jamoasidagi muomala, munosabatlar bu, oddiy do'stlik yoki qo'shnichilik emas, balki umumiy ish uchun javobgar jamoa a'zolarining mas'uliyatli bog'lanishlaridir. Pedagoglar jamoasidagi muomala, munosabatlar axloqiy qoidalar, huquqiy normalar bilan, jamoaning an'analari, urf-odatlari bilan tartibga solib turiladi.

Pedagoglar jamoasida ijodkorlik muhiti muomala odobini shakllantirishning muhim shartidir. Jamoaning ijodkorligi murakkab, qiyin vazifalarni ham yechishga



imkon beradi. Bunday jamoada ishlash har bir muallim uchun ko'pgina qulayliklar tug'diradi, o'z qobiliyatlarini namoyish etishga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda ko'plab maktab jamoalarida ishchanlik, xayrixohlik muhiti yaratilgan bo'lib, bu o'zaro yordam va talabchanlikka, har bir muallimning yaxshi ishlarini qadrlashga, qo'llab-quvvatlashga yordam berayotir. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish ham pedagoglar jamoasida o'zaro muomalamunosabatlarni yaxshilaydi. Maktabdagi axloqiy-ruhiy vaziyatni jamoa a'zolarining kayfiyatidan bilib olish mumkin. Ko'pchilikning kayfiyati chog', ruhi baland bo'lsa, muallimlarning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shiladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi.

Pedagoglar jamoasida kelishmovchiliklar, qarama- qarshiliklar bo'lib turishi ham qonuniy hodisa. Chunki bolalarni o'qitish va tarbiyalash murakkab jarayon bo'lib, konfliktlarni taqozo qiladi. Vujudga kelgan nizolarni uz vaqtida tahlil qilib, bartaraf etish yo'llarini izlash lozim. Xayrixohlik bilan adolatli hal etilgan kelishmovchiliklar muomala odobiga ijobiy ta'sir etadi. Ayrim muallimlarning xarakteridagi xudbinlik, ko'rolmaslik, manmanlik, o'zboshimchalik kabi qusurlar yo'q joydan ham nizolar chiqarishga sabab bo'lib, mojarolarni bartaraf etishni qiyinlashtiradi. Bundaylar ba'zan biror kasbdoshlarining obro'si ortayotganini ko'rolmay ham janjal chiqaraveradilar.

**Voqeyiy hikoya.** Bir maktabda ikki o'qituvchi ko'p yillar davomida birga ishlaydi. Tashqaridan qaragan kishi ular bir-birlarini yoqtirmasliklarini sezishi qiyin. Lekin mana qariyb olti yildan beri ularning o'zaro muomalamunosabatlarida adovat yashirin. Sababi keksa muallimaning xudbinligi yosh, tajribasi kamroq bo'lsa ham qobiliyatli muallimaning obro'si ortib borayotganini ko'rolmasligida. Axir, keksa muallima maktabning eng birinchi o'qituvchisi-ku, nega endi ota-onalar, maktab ma'muriyati u kishiga e'tibor bermay qo'ydi. Chorak, o'quv yili oxirida yakun chiqarish, mukofotlarga taqdim etish, rag'batlantirish paytlarida ular o'rtasidagi muomala ayniqsa, yomonlashadi. O'quvchilarning muvaffaqiyatini ham o'z raqiblari ustidan g'alaba deb tushunadilar. Mojaro

girdobiga boshqa o`qituvchilar ham tortildi, maktabda nosog`lom axloqiy vaziyat vujudga keldi.

Pedagoglar jamoasida qarama-qarshiliklar chiqishiga, ko`pincha, biror o`quvchining noto`g`ri xatti - harakatini baholash; tanqidni to`g`ri tushunmaslik; pedagoglar jamoasi yoki ularning bir qismi bilan maktab ma`muriyati, jamoat tashkilotlari rahbarlarining kelishmovchiligi; oila bilan maktab o`rtasidagi mojarolar kabilar sabab bo`ladi. Bunday hollarda nizoni keltirib chiqargan sabab, motivlarni sinchiklab o`rganish, aniqlash va shunga qarab hal etish lozim.

Pedagoglar jamoasida paydo bo`layotgan mojarolarning ko`proq uchraydigan sabablaridan biri ba`zi muallimlarning xudbinligidir. Pedagogik amaliyotda buning uchun real imkoniyatlar mavjud. Buning ko`rinishlaridan biri obro`ni saqlash uchun intilishdir. Obro` uchun kurash - ustunlik uchun kurashga, manmanlikka aylanib ketadi. Bunday hollarda pedagogik madaniyati, mahorati pastroq muallim bolalar yaxshi ko`radigan kasbdoshini ko`rolmaydigan bo`lib qoladi.

Natijada pedagoglar va o`quvchilar jamoasining fikri, muomalasida, axloqiy baholashlarida tafovutlar paydo bo`ladi. Bolalar yaxshi ko`radigan qobiliyatli muallim ba`zan yakkalanib qoladi. O`ziga ortiqcha bino qo`ygan, o`ziga nisbatan tanqidiy qaray olmaydigan muallimlar bunday illatga kuproq chalinadigan bo`ladilar. Bundaylar o`zlarining jamoadagi mavqeilariga ortiqcha baho beradilar. Ko`pincha, ular o`zlarining injiqligi va toshbag`irligini – talabchanlik va qattiqqo`llik hisoblab, o`zlariga qo`yilayotgan qonuniy talablarni esa adolatsizlik deb qaraydilar. Professional xudbinlik yuqumli illat bo`lib, muallimlar orasidagi yaxshi muomala-munosabatlarni buzadi, zaharlaydi, tarbiyaviy ishlarga putur yetkazadi. Guruhbozliklarni keltirib chiqaradi. Guruhbozlik, xudbinlik qusurlari pedagogik jamoani bo`lib - bo`lib yuboradi, asosiy, muhim ishlarni bajarishdan chalg`itadi, odamlarning tinkasini quritadigan nizolarni keltirib chiqaradi, pedagoglar jamoasida nosog`lom axloqiy – ruhiy vaziyat paydo qiladi. Bu illatlarni bartaraf etish uchun pedagoglar jamoasining kuch - g`ayratini muallimlarning

pedagogik madaniyati, mahorati, mas'uliyatini oshirishga, o'quvchilar bilimini, o'quv intizomini yaxshilash yo'llarini izlashga safarbar etish lozim.

Pedagoglar jamoasidagi muomala -munosabatlarni tartibga keltirib turuvchi muhim vosita bu, tanqid, o'z-o'zini tanqiddir. Lekin, tanqid qilish kishidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo'pol tanbeh, noto'g'ri tanqid muallimlar o'rtasidagi yaxshi muomalani buzishi, kishini o'rinsiz xafa qilishi mumkin. Bundan pedagoglar jamoasi ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham muallimning biror ishiga baho berish, muomala qilishda pedagogik odob talablariga rioya qilish, muallimning insoniy qadr - qimmatini, obro'sini saqlashga intilishi zarur.

Maktab jamoasida muomala odobining muhim vazifasi pedagoglar orasida ma'naviy vaziyatni yaxshilashdir. Buning uchun maktab va jamoat tashkilotlarining rahbarlari pedagoglarning hayoti, faoliyati, muomala -munosabatlari qaysi omil (faktor) va shart - sharoitlarga bog'liqligini aniqlab, bilib olishlari zarur. Xarakteriga ko'ra ob'ektiv yoki sub'ektiv sharoitlar, omillar bo'lishi mumkin.

Muomala odobining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli kattadir. Ular muallimning obro'sini oshirish, jamoat ishlariga faol qatnashtirish yo'li bilan o'qituvchining axloqiy va pedagogik madaniyati, mas'uliyatini oshirishga ko'maklashadi. Jamoat tashkilotlari maktabda mehnat intizomini mustahkamlashi, o'qituvchilarga talabchanlikni, ularning mas'uliyat hissini oshirish, qadr - qimmatini saqlash, qobiliyat va iste'dodini namoyish etishiga ko'maklashishi zarur. Muallim aytadigan so'zini o'ylab gapirishi, boshqalarning, kasbdoshlarining so'zi, fikri, mulohazalarini tinglay bilish ham pedagogik jamoada o'zaro muomala-munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Xullas, pedagoglar jamoasida muomala odobi quyidagilarni taqozo qiladi:

- muallimning o'z ishidan ma'naviy qoniqish hosil qilishi;
- o'qituvchilar va barcha pedagogik xodimlarning o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z bilimlarini oshira borishi;

— pedagoglar jamoasidagi har bir muallimning ruhiy xususiyatlarini eʼtiborga olib, uning faoliyatini, ishchanligini pedagogik odob nuqtai nazaridan nazorat qilib borish;

— nizoli vaziyatlarni qatʼiyatlilik asosida, tahlil etib, oʻzaro nizolarni adolat va muallim shaxsini hurmatlash asosida bartaraf etish;

— muallimlar mehnatini ragʻbatlantirishda adolatli boʻlish;

— kadrlarni tanlash va joy-joyiga qoʻyishda ruhiy xislati, feʼl –atvorlarining bir - birlariga mos kelishini eʼtiborga olish;

— pedagoglar jamoasini boshqarishni insonparvarlik va demokratiklik tamoyillari asosida takomillashtirish kabilar.

### **OTA-ONALAR BILAN MUOMALA ODOBI**

Maktabda taʼlim - tarbiya ishlarining samaradorligi faqat oʻqituvchining tayyorgarligi, maʼnaviy qiyofasi va oʻz vazifasini qanday bajarishigagina bogʻliq boʻlib qolmasdan, bola yashaydigan muhit va oilaning taʼsiriga ham borliqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning maʼnaviy – axloqiy yoʻnalishlarini shakllantirishning muhim omilidir. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa boʻlib, bola unda axloqiy qoidalar. Urf - odatlarni bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba orttiradi.

Har bir inson yoshlikda ona qoʻlida tarbiya oladi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni oʻrganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil boʻladi. Oilada shaxsning ijtimoiy fazilatlarini tarkib topadi. Bola maktabga qadam qoʻyganda yaxshi va yomon narsalar haqida tasavvurga ega boʻladi. Oʻqituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va bu tushunchalar, axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmogʻi kerak. Shuning uchun ham muallim oʻquvchilarning ota-onalari bilan aloqa bogʻlab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyishi lozim.

Bolani maktabga, o`qishga qabul qilayotganda muallim uning ota - onasi bilan tanishadi. O`qituvchi bilan ota - onaning muomalasi, aloqalari ana shu tanishuvdan boshlanadi, muallim bilan ota - onalar o`rtasida axloqiy - pedagogik munosabatlar bola maktabni bitirguncha davom etadi. Pedagogik amaliyot shuni ko`rsatadiki, o`qituvchilar ko`pincha tarbiyasi qiyin bolalarning ota - onasi bilan aloqa o`rnatadilar. Muallimning ota - onaga e`tibori ko`pincha bolaning yomon hulqi, salbiy qiliqlari bilan bog`liq bo`ladi. Agar bola mo`min - qobil, odobli bo`lsa, ayrim muallimlar uning ota - onasi, oiladagi tarbiyasiga deyarli e`tibor bermaydi.

Tarbiyaning samaradorligi ko`pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo`ya bilishiga bog`liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqqa o`qituvchi bilan ota - onalarning o`zaro munosabatlari, muomalasi masalasiga katta e`tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki salbiy sifatlarni qayta tarbiyalashi lozim bo`ladi.

Otasi yoki onasidan ajralgan bola bilan muallimning o`zaro muomalasi jiddiy, nozik ish. Ota yoki onaning vafot etishi bolaga og`ir qayg`u, iztirob keltiradi, bunday kulfatga ko`nikish bola uchun juda qiyin kechadi. Bunday bolalar o`z dardi, o`z qayg`usi bilan ovora, atrofda sodir bo`layotgan voqealar, hodisalarga befarq qaraydigan bo`lib, yakkalanib qoladi. Muallim bunday bolaga g`amxo`r bo`lishi, yaxshi muomala qilishi uning ruhini ko`taradi. Bunday paytda muallimning o`ta rasmiy muomalasi yaxshi oqibatga olib kelmaydi, bolaning irodasini bo`shashtirib, qiyinchiliklarga bardosh berolmaydigan qilib qo`yadi. Yarim yetim bolalar orasida shundaylari ham borki, bular otasi yoki onasi tashlab ketganlardir. Eng ishongan va yaxshi ko`rgan, eng yaqin odamidan ajralib qolgan bolaga qo`pol muomala qilish uni ranjitadi, qalbini jarohatlaydi. Kichkinagina haqsizlikka ham chiday olmaydigan, har bir narsadan xavfsiraydigan, kattalarning gapiga quloq solmaydigan, qo`rs, o`jar, o`zboshimcha bo`lib qoladi. Muallimning

o`ta xushyorlik, e`tibor bilan to`g`ri muomala qilishi natijasidagina ularda kattalarga ishonch tuyg`usi qayta tiklanishi mumkin.

**Voqeyi hikoya.** Karim beshinchi sinfda ikkinchi yilga qoldirildi. Yangi sinf rahbari Sh. ayrim o`qituvchilar va bolaning o`qishiga kasal onasi e`tibor bermay qo`yganliklarini aniqladi. Karim darslarni muntazam qoldirar, uy vazifalarini bajarmas edi. Muallima Karimning oilasiga borib, u har kuni ertalab maktabga ketishi va uyga kech qaytishini bilib oldi. Onasi esa kasalligi tufayli bolasi nima ish bilan shug`ullanayotganini nazorat etolmas edi. Bir kuni sinf rahbari Karimning uyiga ertaroq borib, uni maktabga birga olib ketmoqchi bo`ldi. Dars boshlanishiga hali bir soatdan ko`proq vaqt bo`lishiga qaramay Karim uyda yo`q edi. Karimlar oilasi yashaydigan tuman qo`rg`oni uncha katta bo`lmaganligi uchun o`smirlar ko`proq boradigan bozorchaga kirib o`tdi. Ne ko`z bilan ko`rsinki. Karim darvozadan kirgan joyda shaftoli sotib turgan edi. Karim bir necha kundan beri bozorda meva sotayotgani ma`lum bo`ldi. Bu mevalarni Karim shahar chekkasidagi jamoa xo`jaligining bog`idan o`g`irlab olib kelayotgan bo`lsa kerak, deb o`yladi sinf rahbari. Shanba kuni sinf rahbarining bir soatgina darsi bor edi. Maktabga borishdan oldin u yana bozorga yo`l oldi. Karim bozorda ham, uyida ham yo`q edi. Sinf rahbari jamoa xo`jaligining bog`iga qarab yurdi. Karimni kiyimlari yirtilgan, qo`l – oyoqlari kir, iflos, yig`lagan, nochor ahvolda uchratdi. Qorovul uning qo`lidan mahkam ushlab, ismi, familiyasi kimligini, qaysi maktabda o`qishini surishtirayotgan ekan. Qorovulxonada kichikroq xaltada Karim daraxtdan uzib olgan olmalar turardi. Muallimasini ko`rgach bola:

— Nega hadeb mening orqamdan yurasiz, mendan nima istaysiz? — deb baqirdi.

— Bu sizning bolangizmi? — qorovul muallimadan so`radi.

— Ha, mening o`g`lim, — dedi sinf rahbari.

— O`g`lingiz uchun tovon to`lashingiz zarur.

Qorovul bunday paytda ota - onaga aytish lozim bo`lgan gaplarni aytdi. Bu og`ir gaplarni eshitganidanmi, Karimga rahmi kelibmi yoki kasal onasiga rahmi kelganidanmi muallimaning ko`zlariga yosh keldi.

— Mayli, uzilgan mevalar uchun tovonni to'layman. U boshqa bunday qilmaydi. To'g'rimi, bolam? - deb Karimga qaradi. Bola ishonib - ishonmay muallimaning ko'zlaridagi yoshga hayratlanib qaradi. Muallima sumkachasidan pul chiqarib uzatdi. Bu voqea Karimga qattiq ta'sir etdi. Sinf rahbari bolaning qo'lidan ushlab, yo'lda unga hech nima demay, o'z uyiga olib bordi, yuvintirdi, maktabga birga borishdi. Maktabda oxirgi dars bo'layotgan edi. Darsdan so'ng ular birga bolaning uyiga bordilar. Karim muallimaga «Bu voqeani onamga ayt mang, men bu ishni boshqa qilmayman», — dedi. Darhaqiqat, bu voqea sinf rahbari bilan o'quvchi orasida sir bo'lib qoldi. Shundan buyon ko'p yillar o'tdi. Karimning onasi vafot etdi. U maktabni bitirib, qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirdi. Sinf rahbarining qilgan muomalasi, yaxshiligi bir umrga uning yodida qoldi.

Har bir bolani yaxshi odam qilib tarbiyalashda muallim ham, ota - ona ham manfaatdor. Maqsad birligi o'qituvchini ota - onalar bilan bog'lab turadi.

Bolani yoqtirsa ham, yoqtirmasa ham ota - onasi bilan aloqada bo'lish muallimning vazifasi. Muallimning ota - onalar orasidagi obro'si ko'pincha o'quvchining fikri, mulohazalari asosida shakllanadi. Vaholanki, bolaning fikri xato bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, muallimning ota - onalar to'g'risidagi fikri ham bolaning suvrati va siyratidan olgan taassurotlariga asoslanadi.

O'qituvchi odobi muallimda ham, ota - onada ham xato fikr, noto'g'ri taassurot qoldirmasligini taqozo qiladi.

Bu printsipga avvalo muallim amal qilishi lozim, chunki u pedagog - tarbiyachi sifatida o'zini tutishi, mabodo ota - onalarning u haqidagi biror fikri xatoligini sezsa ham, mayda - chuyda o'tkinchi gaplarga berilib ketmasligi zarur. Muallim ko'nglida kek saqlashi bola bilan muomalasida axloq qoidalarining buzilishiga sabab bo'ladi.

Muallimning ota - onalar bilan to'g'ri muomala qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota - onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqti matbuot, televidenie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. Mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi ham muomala odobiga ta'sir etadi. Bu hol muallimdan yuksak pedagogik madaniyatli bo'lishini taqozo qiladi.

Turli sabablarga ko`ra bolaning bir maktabdan ikkinchisiga o`tib o`qish hollari pedagogik amaliyotda uchrab turadi. O`quvchi bolalarning yangi jamoasiga qo`shilib ketgunicha ancha vaqt o`tadi. Bu davrda sodir bo`ladigan voqealar o`qituvchi bilan ota – onalarning muomala, munosabatlariga ham o`z ta'sirini o`tkazadi.

**Voqeyi hikoya.** Boshlang`ich maktabni a'lochilar qatorida bitirgan Shahlo beshinchi sinfda o`qishni boshqa shahardagi maktabda davom ettirdi. Shahloning kundalik daftarida matematikadan nuqul «uch» baholar paydo bo`layotgani ota - onasini tashvishga solib qo`ydi. Shahlo bir hafta darsga bora olmagan kunlari o`tilgan mavzularni bilmasligi bunga sabab bo`lgan, muallimga esa bu gapni aytishga cho`chiyotgan ekan. Shahloning onasi maktabga borib, sinf rahbari bilan maslahatlashdi. Ertasi kuni matematika o`qituvchisi: «Uyingda mening haqimda har xil bo`lmag`ur gaplarni tarqatibsan», — deb Shahloga gapirdi. Onasining matematika o`qituvchisi bilan uchrashuvi ham dilsiyohlik bilan tugadi.

- Qizingiz «uch» olayotgani nega sizni buncha tashvishga solyapti. Bu yerda hatto, eng qobiliyatli bolalar ham matematikadan besh» ololmaydi, - dag`dag`a iddao qildi muallima.

— Mening qizim hali siz uchun qobiliyatsiz o`quvchi bo`lib qoldimi? — bo`sh kelmadi Shahloning onasi.

Natija shu bo`ldiki, Shahloning matematikadan bilimi ham, baholari ham pasayib ketdi. Muallimning adolatsizligi o`quvchining qalbidagi ishonchni ham barbod qildi, matematikani o`rganishdan ixlosi qaytdi. Pedagogik - odobning muhim tamoyillaridan biriga - maktab bilan oilaning hamfikrliligi, hamkorligiga putur yetdi.

Muallimning ota - onalar bilan aloqa qilish yo`llari, vositalari xilma - xildir. O`quvchining kundalik daftariga baho qo`yish, turli xabarlarini bitish, xat yozish, ota - onalar majlisi yoki boshqa yig`inlarda uchrashish, o`quvchining uyiga borish kabilar shular jumlasidandir.

O`quvchining kundalik daftaridan muallim axloqiy tarbiyaning, bolaga ta'sir o`tkazishning muhim vositasi sifatida foydalanishi mumkin va lozim. Aks holda u



dars jadvali va uy vazifalari yoziladigan oddiy bir daftarga aylanib qoladi. Ayrim o`qituvchilar bolaning kundalik daftariga hatto, olgan bahosini qo`yishga ham e`tibor bermaydilar, sinf rahbarlari ham bu masalaga turlicha yondoshadilar: ba`zilar bolaning hafta davomida olgan hamma baholarini yozib qo`ysa, ba`zilari faqat «ikki» yoki faqat «to`rt», «besh» baholarini va qoldirgan darslarinigina yozib, to`g`risiga imzo qo`yadilar. Shu bilan birga kundalik daftarga bolaning hulqi va o`qishda erishgan yutuqlari, maslahat va takliflarini yozadigan sinf rahbarlari ham bor. Bolaning kundalik daftarida uchraydigan: «Darslarda faolroq qatnashadigan bo`lding, muallimlaring sendan mamnun», «Fizika va biologiyadan dars qoldirgan kunlaringda o`tilgan mavzularni o`zlashtirib ol, boshqa fanlardan biliming tuzuk», «Jamoatchilik ishlariga, mehnatga munosabatingni o`zgartir, faolroq bo`l», «Sinfdoxlaring bilan xushmuomala bo`l, o`zingni tuta bil, irodangni ishga sol», «Uyda nima ishlar qilishingni menga aytib tur» kabi yozuvlar shundan dalolat beradi. Muallim o`quvchi bilan gaplashayotgandek tuyulsa ham, aslida bu yozuvlar ota - onalar uchun ham eslatmadir.

**Voqeiy hikoya.** Beshta bolasi bor oila boshlig`i bunday degan edi: «Katta o`g`limiz birinchi sinfda o`qiganda uning muallimasi juda yaxshi kishi bo`lib chiqdi. U mudom o`g`limizni uy-ro`zg`or ishlariga jalb etishni va bu haqda har kuni uning kundalik daftariga yozib borishimizni talab qilardi. Hatto bir kuni, ikkinchi sinfga o`tgan kezlari edi, muallima rafiqa o`g`limiz bajarayotgan ishlarni ko`paytirish zarurligini jon kuydirib tushuntirayotganining guvohi bo`lganman. Biz o`g`limiz uyda muntazam bajarishi lozim bo`lgan ishlarni belgilab qo`ydik. U magazinga borib non va sutni har kuni o`zi olib kelishga, yotayotgan joyini yig`ishtirib qo`yishga, oyoq kiyimini o`zi tozalab, moylab, yamoqchiga yamatib kelishga ham odatlandi. Keyinchalik unga uyni yig`ishtirish, hovlini tozalash, gullarni, ekinlarni sug`orish, parvarish qilish kabi ishlarni ham topshiradigan bo`ldik. Ukalariga ham o`zi qaraydigan bo`ldi. Muallima uyimizga ko`p kelmasa ham, vaqti - vaqti bilan telefon qilib turardi. O`g`limiz yaxshi o`qigani uchun bo`lsa kerak ko`proq bolaning uy ishlarida onasiga qanday yordamlashayotgani haqida maslahatlashardik. Natijada maktabni bitirguncha

o`g`limiz ukalariga g`amxo`r, mehnatsevar bo`lib qoldi. Akasidan o`rnak olib, boshqa bolalarimiz ham kattasi kichiklariga qaraydigan, ishlarni ham o`zlari bilib, o`z vaqtida bajaradigan bo`lishdi. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi boshlagan ish yaxshi natijalar berdi». Afsuski, keyingi o`n yilliklarda ayrim ota – onalar o`zlari ikkinchi jahon urushi yillarida va undan keyingi davrda boshdan kechirgan qiyinchiliklaridan noto`g`ri xulosa chiqarib: «Biz ko`rgan qiyinchiliklarni bolamiz ko`rmasin», deb hamma narsani muhayyo qilish yo`liga o`tib oldilar. Ayrim oilalarda bolalarni mehnatga jalb etishga e`tibor kamaydi. Hatto, bolasi 17 - 20 yoshga kirsa ham, go`dak o`rnida ko`rib muomala qildilar. Hali katta bo`lsa ishlashga ulguradi, deb o`yladilar," erkatoiy qilib o`stirdilar. Bu bilan ayrim ota - onalar o`z bolalarini o`zini - o`zi eplay olmaydigan, oilasini tebrata olmaydigan, boqimanda «uy qurib ber, mashina olib ber, ishga joylashtirib qo`y, nabiralaringga ham o`zing qaray ber» deydigan qilib qo`ydilar.

Bunday pedagogik xatolarning oldini oliimda, maktab bilan oilaning o`zaro hamkorligi, munosabatlarini yaxshilashda ota - onalar majlislari, o`qituvchilarning uyiga muallimning borishi, ota - onalarning pedagogik bilimi va axloqiy madaniyatini oshirish muhim rol o`ynaydi. Buning uchun maktab rahbarlari, muallimlar pedagogik muomala odobi qoidalarini o`zlari yaxshi egallagan bo`lishlari va targ`ibot qilishlari zarur.

**Voqeiy hikoya.** Shahardagi maktablardan birida 10 - sinf ota-onalar majlisida Dilbarning onasi yonida turgan ayolga:

- o`g`lingiz qizimni tinch qo`ysin, qachongacha mening qizimga gapiradi. Sizlar bizning tengimiz emassizlar, - dedi dabdurustdan jahl bilan.

— Nima, o`g`lim biror yomon ish qilibdimi? — dedi uning yonida turgan ayol, - Gapirsa, gapirgandir. Eringiz katta bo`lsa o`ziga, menga nima!

Bunday vaziyatlarda sinf rahbari oilaviy odob qoidalari, o`spirinlik davrining o`ziga xos xususiyatlari, kuyov, kelin bo`lish odobi, mustaqil oila qurish, ro`zg`or tutish odobi haqida ota-onalarga to`g`ri maslahat berishi, ularni o`g`il - qizlarining tarbiyasiga oqilona qarashlari, ehtiyot bo`lishlari zarurligini uqtirishi lozim edi. Afsuski, unday bo`lmadi. Vaholanki, bu maktabda shu sinf o`quvchilari

orasida o`zaro muomala, munosabatlar o`ta yomonlashib borayotgan edi. Buning oldini olish o`rniga sinf rahbari: sinfda Dilbar bilan K. o`rtasida «sevgi-muhabbat» boshlangani, ular yaxshi o`qimay qo`yganliklarini aytdi. «Buning oldini olmasangizlar, nevaralik bo`lib ham qolishlaringiz mumkin», — dedi loqaydlik bilan. Ota - onalar majlisi dilsiyohlik bilan tugadi. Dilbar o`qishni bitirdi, uni boshqa bir yigitga turmushga berishdi. Lekin oradan ko`p va o`tmay, Dilbarning hayoti fojea bilan tugadi.

Albatta, hamma o`qituvchilarni muomala odobini buzishda ayblab bo`lmaydi, ko`pgina muallimlar ota - onalar majlisidan tarbiyaning vositasi sifatida o`rinli foydalanadilar. Maktab bilan oila o`rtasidagi muomala - munosabatlar jarayonida konfliktlar, nizolar sodir bo`lishi tabiiydir. Chunki bolalarning individual xususiyatlari, xarakteri juda xilma - xildir. Ular bilan muomalada hech kutilmagan hodisalarga duch kelinadi. Bola tajribasizligi tufayli xato qilishi mumkin. Bunday paytlarda maktab rahbari va pedagoglar muomala odobi qonuniyatlariga qat`iy amal qilishlari talab etiladi.

Shunday vaziyatlar ham bo`ladiki, o`g`il yoki qiz bola maktabda o`zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga quloq soladi. yoki aksincha. Oilada muomalasi qo`pol, o`zboshimcha, maktabda esa o`zini xushmuomala, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to`g`ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo`lishi mumkin. Demak, o`qituvchi va ota - onalarning maqsadlari bir xil bo`lsa ham, ularning hamkorligi, bir - birini tushunishi, muomala - munosabatlari qarama - qarshiliklarsiz bo`lmaydi. Shuning uchun ham bunday vaziyatlarda muallim ota - onalar bilan muomalasida quyidagi odob mezonlariga amal qilmog`i lozim: muallim ham, ota - ona ham bolada ro`y berayotgan o`zgarishlarga befarq qaramasligi; bolaning hulqida uchragan nuqsonni yashirmasliklari; maktab bilan oila orasidagi muomala samimiy bo`lishi; bolaning hulqi maktabda ham, uyda ham bir xil bo`lishiga erishish, muallim ham, ota - ona ham bola haqida ko`proq bilishga intilishlari; muallim ota - onalarning xis - tuyg`ularini e`tiborga olishi, qadr - qimmatlarini e`zozlashi darkor.

Muallim bolaning ota - onasiga yolg`on gapirishi kerakmi? Yo`q, albatta. Lekin Hadislarda ta`kidlanganidek, foydali yolg`on joyi kelganda zararli haqgo`ylikdan afzaldir. Pedagogik jarayonda o`qituvchi bu muammoga bolani axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan vaziyatga qarab yondoshmog`i lozim.

**Voqeyi hikoya.** Yettinchi sinf o`quvchisi To`lqin darslarni qoldiradigan odat chiqardi. Sinf rahbari bilan qo`pol muomala qiladigan bo`lib qoldi. Muallim «Onangga ayt, maktabga kelsin», — deb tayinladi unga. Lekin onasi maktabga kelmadi. Sinf rahbari bo`layotgan voqealarni ochiq - oydin aytish uchun To`lqin bilan birga uning uyiga bordi. To`lqinning onasi og`ir kasalga chalinib qolganini ko`rib, bu fikridan qaytdi. Onasiga To`lqin qo`li gul bola ekanligini aytib, uning uyidan xabar olish, oilasiga qanday yordam kerakligini bilish uchun kelganini aytdi. Muallimning bu so`zlarini eshitib, To`lqin qattiq ta`sirlandi. Sinf rahbari hovlidan chiqib ketayotganida izidan yetib kelgan To`lqin hayajondan ko`ziga yosh olib, sinf rahbaridan kechirim so`radi va boshqa o`zboshimchalik, intizomsizlik qilmasligini aytdi; shundan so`ng uning yurish - turishi, hulqida katta o`zgarish bo`ldi. Ayrim sho`xliklari uchrab tursa ham muallimlar bilan yaxshi muomalada bo`lib, o`qishni bitirdi. U Qarshi shahridagi zavodlardan birida katta usta bo`lib ishlamoqda.

Shunday ota - onalar ham borki, bo`lar – bo`lmasga bolasini jazolayveradi. Bunday vaziyatlarda muallim bolaning barcha xatolarini hadeb ota - onasiga aytaverishi shart emas. Shuningdek, hal etilgan mojarolar, ilgari bo`lib o`tgan voqealarni ham ota - onaga yetkazaverish yaxshi natija bermaydi.

Tarbiya masalasida muallimning va ota – onalarning fikrlari bir - biriga to`g`ri kelmasa ham bu sohada ular birga bajargan yaxshi ishlarini yo`qqa chiqarmaslik lozim. Pedagogik odob muallimdan ota – onalar bilan faqat ularning ko`magi zarur bo`lgan paytlardagina emas, balki muntazam ravishda aloqada, yaxshi muomalada bo`lib turishni talab etadi. Shu bilan birga ota -onalar jamoatchiligining yordami bilan muallim bolaning hulqiga, axloqiy tarbiyasiga salbiy ta`sir etayotgan yoki maktab, muallimlar haqida nojo`ya so`zlarni aytib yuradigan ota - onalarga ta`sir etishi mumkin. Ayrim noqobil ota - onaning

xatosini tashkil qilishga sinf ota - onalar jamoasini jalb etish ham maqsadga muvofiqdir. Ayrim jamoatchi faollar ularga muallimdan ko`ra ko`proq ta'sir o`tkazishi mumkin.

**Voqeyi hikoya.** Sanjar uy vazifalarini bajarmaydigan, darsga kechikib keladigan odat chiqardi. 5-sinf rahbari Sanjarning uyiga borib yashash, dars tayyorlash sharoitlarini bilib kelish uchun ota - onalar komitetining a'zosi Jo`raevni uning uyiga yubordi. Jo`raev Sanjarning uy sharoitidan xabardor bo`lgach, ota - onalar majlisida shunday dedi: «Bolani uyda nima qilayotganini otasi ham, onasi ham nazorat qilmas ekan. Uy vazifalarini ham Sanjar esiga tushganida va xohlaganida tayyorlaydi. Ba'zan uylariga mehmon kelib, ayniqsa, ziyofatbozlik, ulfatchilik avjiga chiqqan paytlarda dars tayyorlaydimi, o`qishga boradimi - bunga e'tibor beradigan odam uyda topilmas ekan. Majlisda qatnashayotgan Sanjarning otasi norozilik bildirmoqchi bo`ldi: «Men ertadan kechgacha ishda bo`lsam, nima qilishim kerak?» — dedi. Ota - onalardan boshqa biri o`rnidan turib: «Nima, siz boshqalarni ishlamaydigan, bekorchi odamlar deb o`ylaysizmi?» — deb unga e'tiroz bildirdi. Bu majlisda noqobil otaga sinf rahbarining bir o`zidan ko`ra ota - onalarning ta'siri kuchliroq bo`ldi.

Ayrim ota - onalarda, muallim mening o`g`lim yoki qizimga nisbatan noto`g`ri muomala, adolatsizlik qilyapti, degan taassurot mavjud bo`ladi. Bola, ko`pincha, o`zining biror nojo`ya xatti - harakatini, yomon qilg`ini o`zicha izohlab, tug`ri deb hisoblab, muallimning tanbehini esa o`ziga nisbatan adolatsizlik deb, xato o`ylaydi va bu o`zining xato fikrini ota - onasiga yetkazadi. Ota- ona ham bolaning so`ziga ishonib, voqea nima ekanligini aniqlamay, muallimni yomonlash yo`liga o`tadi. Pedagogik odobning talablaridan biri shundan iboratki, muallim ota - onalar bilan muomala qilganida bu holatni e'tibordan qochirmasligi lozim. Pedagogik muomala odobining talablaridan biri o`qituvchining sabr – toqatli bo`lishidir. Ota - onaning maktab va boshqa o`qituvchilar haqidagi tanqidiy fikr – mulohazalarini diqqat bilan eshitish, xatto bunday tanqid noto`g`ri bo`lgan taqdirda ham, muallim ota - ona bilan muomalada o`zini tuta bilmog`i shart.

Lekin bunday muallim ota - onaning u haqida yoki boshqa muallimlar haqida aytayotgan fikrlariga befarq qarashi kerak, degan xulosa chiqmaydi. Bunday paytlarda printsipsizlik ko`rsatish jamoatchilik orasida o`qituvchi haqida noto`g`ri fikr paydo bo`lishiga olib keladi. Ayrim ota - onalarning bunday fikr – mulohazasi xatoligini asoslab, odob qoidalarini saqlagan holda rad etish, muallimning gapi haq ekanligiga ishontirish kerak.

Ba`zi ota - onalar bolasining o`zlashtirishi to`g`risida gaplashish uchun maktabga kelib, bolasi go`yo qobiliyatli-yu, u yoki bu muallim yaxshi o`qitmayotganidan arz qila boshlaydi. Bunday vaziyatda ba`zan o`qituvchi jahli chiqib turgan ota - onaga ahvolni yotig`i bilan tushuntirish, bu xatoni tuzatish yo`llarini birga izlash o`rniga jahl qilib, e`tiroz bildirish yo`liga o`tadi. Ota - ona bilan muallim o`rtasidagi nizolar ana shunday vaziyatlarda kelib chiqadi, uni bartaraf etish maktab rahbarlarining zimmasiga tushadi. Bunday voqealar sodir bo`lmasligi yoki ularning oldini olish uchun muallim bolaning qobiliyati va bilimlarini to`g`ri, asosli baholashi, bolalarning ba`zilarini hadeb yomonlayvermasligi, ota - onalar bilan odob doirasidan chiqmay muomala qilishi talab etiladi. Muallim ota - onalar bilan muomala jarayonida bolaning taqdiriga befarq emasligini, uni kelajakda yaxshi odam bo`lib yetishishiga tilakdosh ekanligini tushuntirish lozim. Ayrim ota - onalarga bolasini haddan tashqari erkalatishlari zararli ekanligini, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntirish kerak. O`qituvchi xushmuomalalik bilan ayrim ota - onalarga jamiyat oldidagi burchini, bolani kelajakda o`z mehnati bilan yashaydigan, ishbilarmon qilib tarbiyalash zarurligini ko`rsata olishi darkor. Muallimning asosiy vazifalari, pedagogik odobning muhim talablaridan biri o`quvchiga ota – onasining yaxshi fazilatlarini aytib, bolada ota - onasiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg`usini o`stirish, mustahkamlashdan iborat.

Pedagogik odobning muhim talablaridan biri muallim ham, ota - ona ham, maktab rahbarlari ham o`smir yoshidagi bolalar bilan muomala qilganda pedagogik odobni saqlashi, bolaning izzat-nafsiga tegmasligidir. Bu sohadagi xato, ba`zan, fojiaga olib kelgan hollar ham uchrab turadi.

**Voqeyiy hikoya.** N. ismli qiz sakkizinchi sinfda o`qirdi. U o`z sinfdoshiga muhabbat izhor qilib, xat yozdi. Xat sinfdoshlaridan birining qo`liga tushdi. Va uni sinfda ovoz chiqarib o`qiy boshladi. Bundan xabar topgan muallim xatni bolaning qo`lidan tortib olib, baland ovoz chiqarib zaharxanda kulgi bilan butun sinfga o`qib berdi. Direktorning tarbiyaviy ishlar bo`yicha muovini qizni va onasini chaqirib, o`qituvchilar xonasida barcha o`qituvchilar oldida xatni o`qidi. Onasining jahli chiqib barcha tengdoshlari oldida qizini urishdi, uning sha`niga haqoratli so`zlar aytdi. Kechqurun uyga borgach, oilada ham bu mojaro davom etdi. Tahqirlarga chiday olmagan o`quvchi ertasiga hammadan oldin maktabga keldi, o`zi o`qiydigan xonaga kirib, joniga qasd qildi (o`ziga o`zi o`t qo`ydi).

Bunday hodisa kamdan - kam uchraydi. Lekin bu fakt muallim va ota - onalarning pedagogik johilligi nimalarga olib kelishi mumkinligini ko`rsatadi. Demak, o`qituvchigina emas, balki ota-onalar ham odob qoidalariga amal qilishlari, o`quvchilar bilan bilib, o`ylab muomala qilishlari, bunday paytda jahлга erk bermasliklari, aql bilan ish tutishlari zarur.

Muallimning ota - onalari bilan, oila bilan muomala, aloqalari faqat salbiy holatlar yuz bergandagina emas, balki muntazam ravishda bo`lmog`i lozim. Pedagogik odob ota - onalarning bolaning ko`zi oldida maktab haqida, muallim haqida yomon so`z, salbiy fikrlar aytmaslikni, muallimning obro`sini, maktabning nufuzini saqlash, maktab sha`nini yerga urmaslikni talab etadi.

Muallim ota - onalar orasida olib borayotgan targ`ibot muomala odobini kengroq yoyishga xizmat qilishi kerak. Muallimning bola haqidagi tanqidiy gaplari, bolasi qanday bo`lishidan qat`i nazar, ota - onaning nafsoniyatiga tegadi. Muallim bilan ota - onalar o`rtasida nizolarga sabab bo`ladi. Shuning uchun muallim bolaning xatosini bo`rttirib ko`rsatmasligi kerak. Bunday paytlarda odob qoidalariga qat`iy rioya qilish, aql - idrok hissiyotdan ustun turishi zarur.

## **MAKTAB RAHBARINING O`QITUVCHILAR BILAN MUOMALA ODOBI**

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan maktab rahbarlarining o'qituvchilar va o'quvchilar bilan muomala odobiga, rahbarlik qilish uslubiga bog'liq. Bu sohada muomala odobining murakkabligi shundan iboratki, unda rahbarlik va bo'ssunish, erkinlik va ijodkorlik tamoyillarini uyg'unlashtira bilish talab etiladi.

Pedagogik jarayonni boshqarish tarbiya nazariyasi va amaliyotida eng murakkab muammolardan hisoblanadi. U eng avvalo pedagoglar jamoasi uchun rahbar kadrlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yishga bog'liq. Maktab rahbarining eng muhim vazifasi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida pedagoglarning axloqiy mas'uliyatini oshirish, o'zaro muomalani o'qituvchi odobi qonuniyatlari asosida amalga oshirishdan iborat. Buning uchun esa maktabning butun jamoasi - barcha o'qituvchilar va o'quvchilar bir kishi atrofida, ya'ni maktab direktori atrofida ahil, inoq, ishchan, ijodkor pedagogik jamoaga jipslashishlari zarur.

Ma'lumki, maktab jamoasi qobiliyati va axloqiy, ruhiy darajasiga ko'ra turli toifadagi, xarakteri va hulqi turlicha kishilardan iborat bo'ladi. Ta'lim - tarbiya ishida samaraga erishish uchun ularning hammasini yagona pedagoglar jamoasiga aylantirish lozim. O'qituvchilar bilan muomala qilish, ularni boshqarishning murakkab jihatlaridan biri shundaki, ular o'quvchilar jamoasini boshqaradi va maktab rahbariga bo'ssunadi. Pedagoglar jamoasini to'g'ri boshqarish uchun o'zaro talabchanlik bilan bo'ssunish me'yorlarini topa bilish va unga amal qilish, shu bilan birga har bir muallimning erkinligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini qo'llab - quvvatlash kerak. Bu, maktab rahbari pedagoglar jamoasi bilan muomalasida amal etishi zarur bo'lgan axloqiy talablardan biridir. Pedagogik muomala odobining mohiyati pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatidan, ya'ni o'quvchi va o'qituvchilarni yagona bir jamoaga birlashtirish maqsadidan kelib chiqadi. Bu, o'z navbatida, maktab rahbarlari va o'qituvchilarning o'zaro muomala-munosabatlariga talabchanlikni oshiradi.



Maktab jamoasiga rahbarlik, ular bilan muomala qilishda pedagogik ishning psixologik jihatlarini nazardan qochirmaslik kerak. Pedagogik jarayon o`qituvchilar va o`quvchilar jamoasidagi mavjud tartiblarga, muomala odobi qoidalariga amal qilishni talab etadi. Ta'lim - tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun pedagogik xodimlarning butun kuch va g`ayratini safarbar etish talab qilinadi. Maktab rahbarlari pedagoglar jamoasi, o`quvchilar bilan muomalasida muammoning ana shu axloqiy - pedagogik jihatlarini e'tiborga olishi zarur.

Ishchan pedagoglar jamoasining shakllanishi ko`p jihatdan maktab direktorining faoliyatiga bog`liq. Maktabda ahil, yagona jamoa tuzish uchun pedagoglarning o`zaro axloqiy munosabatlarini, maktabda mavjud bo`lgan an'analarni, o`qituvchilarning axloqiy darajasini o`rganish, bilish zarur. Yagona, ahil, ishchan pedagoglar jamoasining shakllanishi asta - sekinlik bilan amalga oshiriladi. Buni quyidagi mezonlar asosida aniqlash mumkin.

Maktab rahbarining o`qituvchilar bilan muomala odobida pedagoglar jamoasidagi xayrixohlik va ijodkorlik vaziyati muhim rol o`ynaydi. Ta'lim - tarbiya ishlarini yuqori saviyaga ko`tarish avvalo, maktab rahbarining muomala odobiga, ahil, inoq pedagoglar jamoasini asta - sekin shakllantira borishga, jamoadagi o`zaro munosabatlarni o`qituvchi odobi normalari, talablari asosida yo`naltirishga bog`liq. Jamoa shakllanishining dastlabki paytlarida bu jarayon umumiy va axloqiy normalar va mavjud shart - sharoitlarni bilib olishdan boshlanadi. Bu davrda maktab rahbari va pedagoglarning hulqi, xatti - harakatlarida bir - biriga, o`zaro moslashish sodir bo`ladi. Maktab direktori har bir muallimning ijodkorligi, individual xususiyatlarini, o`qituvchilarning bilim darajasini o`rganadi, aniqlaydi. Bu jarayonning tezlashuvi maktab direktorining rahbarlik uslubiga ko`proq bog`liq bo`ladi. Agar pedagoglar jamoasi yangidan tashkil etilgan bo`lsa, maktab rahbarining vazifasi avvalo, o`qituvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash, rahbar kadrlarni tanlab, joy-joyiga qo`yish, pedagoglar jamoasini birlashtirish yo`llarini izlashdan iborat bo`ladi.

Maktab direktori pedagoglar jamoasida shakllangan axloqiy munosabatlar, muomala odobini mustahkamlash, rivojlantirish, yaxshilash uchun intilishi kerak.

Bunday sharoitda muallimlar o'z kasbdoshlarining yaxshi tajribalarini o'rganib, o'z ish faoliyatlarida tadbiiq eta boshlaydilar. Turli fan o'qituvchilari orasida, shuningdek, fan o'qituvchilari bilan sinf rahbarlari, o'qituvchilar bilan o'quvchilar tashkilotlari orasida aloqalar yo'lga qo'yiladi va mustahkamlanadi. Maktab rahbari bunday aloqalarni qo'llab -quvvatlash lozim. Ijodkor, tajribali o'qituvchilarning ochiq darsiga tajribasi kam, yosh muallimlarni taklif etish va birgalashib muhokama qilish, ularga bu hamkorlikni davom ettirishni maslahat berish yo'li bilan maktab rahbari o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro muomalani yo'lga qo'yadi, yaxshalaydi. Maktab rahbarining har bir xatti - harakati, muallimlar orasidagi o'zaro muomala munosabatlar o'qituvchi odobi qoidalariga asoslanishi kerak.

Ishchan, pedagogik jamoaning shakllanishi pedagogik adabiyotlarda umumlashtirilgan ta'lim – tarbiya sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ayni maktabda joriy etish bilan bog'liq. Muallimlar orasida kitoblarda tasvirlangan ish shakllari va usullari bizning sharoitimizga to'g'ri kelmaydi, deb o'ylaydiganlari ham topiladi. Maktab rahbari bunday paytda ishni, avvalo, o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini oshirishdan boshlashi; pedagogika, psixologiya, axloq ilmlarini, ta'lim – tarbiyaning dolzarb muammolarini jamoa bo'lib (seminar, konferentsiya) va yakkama – yakka tartibda o'rganish lozim. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga e'tiborsizlik, muallimlarning vaqti va imkoniyatlarini hisobga olmaslik maktab rahbari bilan ayrim pedagoglar o'rtasida nizo chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham maktab rahbari o'qituvchilar bilan muomala qilganda ularning kun tartibini qulaylashtirish, moddiy – maishiy sharoitlarini yaxshilash sog'lig'ini himoya qilish, bo'sh vaqtini ko'paytirish kabilarni nazarda tutishi zarur. Bunday g'amxo'rlik maktab rahbarining axloqiy fazilati, o'qituvchi odobining normalaridan biri bo'lib, boshliqning pedagogik jamoasida obro'yini oshiradi, o'zaro bir-birlarini to'g'ri tushunish vaziyatini hosil qiladi.

Ishning ko'zini biladigan tashabbuskor rahbar pedagoglar jamoasi oldiga ta'lim – tarbiya amaliyotida paydo bo'layotgan muammolarni to'g'ri, oqilona yechish yo'llarini topish kabi murakkab vazifalarni ham qo'yadi. Muammoli masalani to'g'ri tanlash, uni hal qilishni qo'lidan keladigan kishilarga topshirish,

an'anaviy qo`lidan keladigan kishilarga topshirish, an'anaviy ish usullaridan voz kechish jarayoni oson kechmaydi. Bunday paytlarda pedagoglar jamoasida ajralish ro`y beradi: rahbarni qo`llaydiganlar bilan birga, natija nima bo`lishini kutib (poylab) turadiganlar ham topiladi. Ular yangilikka to`g`ridan – to`g`ri qarshi chiqmasalar ham, topshiriqni xushlamayroq bajaradilar. Maktab direktorining diqqati bunday hollarda ikkilanayotgan muallimlarni tezroq faollashtirishga qaratilishi lozim. Buning uchun ularning ish – faoliyat motivlari (sabablari)ni, qiziqish va ehtiyojlarini maqsadini o`rganish zarur. Bu o`qituvchi odobining qonuniyat darajasidagi talablaridan biridir.

Maktab rahbarining pedagoglar jamoasi bilan muomala – munosabatlarida ma'muriyatning talablari va farmoyishlarini bajarishga ochiq qarshi chiqadigan muallimlar ham topiladi. Maktab rahbari ular bilan muomala qilganda pedagogik takti (odobni) saqlashi, o`z talablariga tanqidiy ko`z bilan ham qarashi, ularning mulohazalarini ham o`ylab ko`rishi foydadan holi emas.

Ijodiy hamkorlikda ishlaydigan pedagoglar jamoasining muhim belgilaridan biri barcha muallimlar o`quvchilarga nisbatan qo`yayotgan talablarining birligi va maktab rahbarining talab, farmoyishlarini pedagoglar jamoasi to`g`ri tushunib, to`g`ri qabul qilishidir. Bunday jamoa yetuk pedagogik jamoa hisoblanadi. Yetuk pedagogik jamoa a`zolari yagona maqsad yo`lida birlashgan bo`lib, ishchanlik fazilatlarini, pedagogik mahorat va axloqiy madaniyatni oshirishga, ta`lim – tarbiya ishlarining samarali yo`llarini topishga intiluvchanligi bilan ajralib turadi. Bunday jamoada axloqiy vaziyat yaxshi bo`lib, o`qituvchi odobi qoidalariga amal qilinadi. Lekin uni boshqarish maktab direktoridan yuksak darajada bilimdonlik va ishchanlikni, pedagogik va boshqarish madaniyati yuqori bo`lishini, eng muhimi – yuksak axloqiy saviyali bo`lishini talab etadi. Maktab rahbari pedagoglar jamoasi bilan muomala – munosabatlarida quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

-direktorning muallimlarga talabchanligi bilan ularga ishonch va hurmatning birligi;

-hamma o`qituvchilarga bir xil talab qo`yish bilan birga har bir muallimning individual qobiliyati va iqtidorini hisobga olish;

-maktab jamoasi qabul qilgan qarorlarni bajarishda har bir muallimning mas'ulligi;

- pedagogik madaniyat va mahoratni oshirishning xilma-xil usul va shakllarini qo'llash;
- maktab rahbariyati muallimlarning mehnat qilishi va dam olishi haqida g'amxo'rlik qilishi;
- direktorning tashabbusi o'qituvchilar tomonidan faol qo'llab - quvvatlanishi lozim.

Maktab rahbarining o'qituvchilar bilan muomalasi, o'zaro munosabatlarida ijodkorlik muhitini yaratish muhimdir. Ijodkorlik muhiti o'z-o'zidan yuzaga kelavermaydi, balki rahbariyatning oqilona xatti -harakatlari, urinishlari natijasida yaratiladi. Boshliq muallimlarga ta'lim – tarbiyaning samarali usullarini taklif etish, qiziqarli tadbirlar tashkil etish bilan bu maqsadga erishishi mumkin. Hayot, jamiyat o'zgarishi bilan vujudga kelayotgan pedagogik nazariy va amaliy muammolarni o'rta qo'yish va hal etish shu maqsadga xizmat qiladi. Maktab rahbarining pedagoglar jamoasi bilan muomala – munosabatlarida Markaziy Osiyoda yashagan donishmandlarning ma'rifiy merosidagi ilg'or tarbiyaviy g'oyalaridan foydalanish qo'l keladi. Boshliqning o'zi bu muammolardan xabardor bo'lishi, tushunishi, ularni pedagoglar jamoasi bilan birgalikda muhokama qilishi o'zaro muomala- munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Maktab rahbarlari muomala odobining talablaridan biri pedagoglar jamoasining kuch-g'ayratini birlashtirishdir. Bu, barcha o'qituvchilarni umumiy pedagogik vazifalarni, muammolarni hal qilishga safarbar eta olishda namoyon bo'ladi va har bir muallimning, ayniqsa, maktab rahbarining qadr-qimmati, ish uslubi to'g'risida jamoatchilik fikrining yakdilligidan dalolat beradi.

Muomala odobi, maktab rahbarining odilligi va beg'arazligi muallimlarning foliyatini nazorat qilishda, ularni rag'batlantirish va jazolashda yaqqol ko'rinadi. Muomala odobida pedagogik nazoratning axloqiy jihati juda muhimdir. Bu muammoning murakkabligi shundaki, o'qituvchining ko'p qirrali va takrorlanmas mehnati natijalarini aniq baholaydigan mezonlarni topish juda qiyin. Bu har bir

muallimdan yuksak axloqiy ongli bo`lishni, intizomli, halol, vijdonli, axloqiy e`tiqodli bo`lishni talab etadi. Pedagogik nazoratda muallimning qobiliyati va aqliy imkoniyatlari rasmiy baholanadi, ular o`z navbatida, kishining qadr - qimmatini bilan bog`liq.

Pedagogik nazorat o`quvchilarni axloqiy tarbiyalash masalasi bilan ham bog`liq. U muallimning o`quvchilar bilan, o`z kasbdoshlari va maktab rahbarlari bilan muomala o`dida ham namoyon bo`ladi. Muallim o`quvchilar faoliyatini muntazam nazorat qiladi. Shu bilan birga muallimning faoliyati ham ota –onalar va maktab ma`muriyatining muttasil nazorati ostidadir. Shuning uchun ham pedagogik nazoratning shakli va usullari muomala o`dida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nazorat kishidan chuqur bilim va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo`lishni talab etadi. Pedagoglar jamoasida nazoratning xususiyatlaridan biri – ko`pincha, tekshiruvchi bilan tekshiriluvchining ma`lumot darajasi, professional (kasbiy) tayyorgarligi bir xil darajada bo`ladi, ba`zan tekshiriluvchining pedagogik mahorati tekshiriluvchilikidan ustunroq ham bo`ladi. Pedagoglar jamoasida nazorat obro`yi baland, ma`naviy - axloqiy jihatdan yuksak kishi tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Maktab direktori, uning o`rinbosarlari, inspektor, nazoratchilar ta`lim – tarbiya ishlarining sifati bilan birga muallim o`z ijtimoiy burchini qanday bajarayotganini ham nazorat qiladilar. Bu ularga, nisbatan yuksak axloqiy talablar qo`yadi: o`z ishiga sadoqat, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg`unligi, maqsadga intiluvchanlik, qat`iy e`tiqodli, yuksak axloqiy madaniyatli bo`lish shular jumlasidandir.

Muomala o`dida pedagogik nazorat nihoyatda adolatli bo`lishini talab etadi. Adolatsizlik qilish pedagogik jamoaning bo`linib ketishiga, ba`zan axloqiy tanazulga olib keladi. Pedagogik nazoratda muallimlarga nisbatan – «buning tajribasi, xizmatlari katta, bu esa – hali yosh; bu -o`zimizniki, bu -begona» qabilida yondoshish mumkin emas. Bu, muomala o`dida mutlaqo ziddir.

Pedagoglar jamoasida muomala odobi demokratik xarakterda bo`lishi lozim, o`zaro bir-birini nazorat qilish yakka nazoratga nisbatan samaraliroqdir.

Pedagogik odob maktab direktorining o`qituvchilar bilan o`zaro muomalasi yuksak axloqiy madaniy darajada bo`lishini taqozo qiladi. Yuksak axloqiy madaniyat – maktab rahbarining o`z ishini yaxshi bilishini muallimlarga ishonch bilan qarashni, har bir o`qituvchining faoliyatida ijobiy jihatlarni ko`ra bilishni, xushmuomalalikni, birgalashib ishlashni, ayrim o`qituvchilar tajribasizligi tufayli yoki bilmasdan yo`l qo`ygan xatolarga nisbatan bardoshli bo`lishni; shu bilan birga ishga beparvo qaraydigan, vijdotsiz kishilarga nisbatan murosasiz bo`lishni taqozo qiladi.

O`qituvchilarda pedagogik va axloqiy madaniyatni tarbiyalash maktab rahbarining muhim vazifasi bo`lib, bu ishni butun pedagoglar jamoasining ishtiroki va qo`llab - quvvatlashi bilangina bajarish mumkin. Pedagogik mahorat tug`ma talant talab qiladigan alohida san`at emas, balki har bir kishi o`rganib, egallab olishi mumkin bo`lgan malakadir. Agar muallim pedagogik va axloqiy madaniyatni, pedagogik mahoratni egallab olishdan manfaatdor bo`lsa va bunga intilsa o`z maqsadiga erisha oladi.

Maktab rahbari o`qituvchilar bilan muomalasida quyidagi axloqiy normalarga amal qilishi zarur:

-maktab rahbari o`qituvchiga nisbatan insoniy munosabatda bo`lishi, muallimning yutuqlari ham, xatolari ham bo`lishi mumkin deb qarash;

-boshqarish faqat rahbarning ishi bo`lmay, pedagoglar jamoasi rahbar bilan birga umumiy vazifani bajarayotganini anglash;

maktab rahbari qattiqqo`l, talabchan, lekin adolatli bo`lishi, talablari asosli va maslahat shaklida ifodalanishi;

-muallimning ishlarini tekshirib tahlil etayotganda uning shaxsiga tegmaslik va qadr - qimmatini yerga urmaslik;

-maktab rahbarlari va o`qituvchilar o`zaro bir – birlarining obro`larini oshirishga intilishi;

-do`stona murojaat qila bilish, bir-birlarining fikr-mulohazalarini diqqat bilan tinglay bilishi;

-maktab rahbari pedagoglarning kayfiyati (hissiyoti), ruhiyatini seza bilishi, jamoada ishchanlik vaziyatini yarata olishi;

-jamoatchilik fikrini boshqara bilish, u yoki bu masalalarni hal etayotganda unga asoslanish.

Maktab rahbari pedagoglar jamoasi bilan muomalasida pedagogik odobning quyidagi talablariga amal qilishi lozim;

- muallimga nisbatan talabchanlikni unga bo`lgan hurmat bilan birga olib borish;

- o`qituvchiga yordam berish, lekin uning ishini bajarib qo`ymaslik;
- jamoadagi hamma muallimlarning faoliyatiga diqqat – e`tibor bilan qarash, ayirmachilik qilmaslik;
- o`qituvchining mehnatini qadrlash va odilona baholash;
- o`z bilimlarini oshirish va o`z-o`zini tarbiyalashda o`qituvchiga ko`maklashish;
- ishdagi yutuqlarni ma`qullash, yaxshi tajribalarni ommalashtirib borish;
- muallimning obro`sini saqlash va mustaxkamlash;
- o`qituvchiga nisbatan muruvvatli, himmatli bo`lish;
- muallim bilan muomalada nasihatgo`ylikka berilmaslik;
- pedagogning ish usulini o`rganish, yaxshi ishlarini rag`batlantirish;
- muallimning ayrim xatolarini bo`rttirib, betiga solavermaslik;
- kishi darhol tuzata olmaydigan kamchiligini aytaverib, uning diliga ozor bermaslik;
- muallim bilan suhbatlashganda uning ruhini ko`tara bilish.

Maktab rahbari o`qituvchiga nisbatan e`tiborsizlik, ishonchsizlik, beparvolik, nazoratsizlikka yo`l qo`ysa, u ishni bo`shashtirib yuboradi. Muallimga nisbatan beg`araz talabchanlik esa ishni ular o`rtasidagi muomala munosabatlarni yaxshilaydi. Maktab direktorining rasmiyatchilik, qo`rqitish, jazolashga asoslangan ish uslubi ziyon keltiradi, o`zaro muomala odobini buzadi.

Ahil hamjihat, xushmuomala pedagoglar jamoasida eng murakkab pedagogik masalalar ham osoyishtalik bilan hal etiladi. Ishda biror kamchilik ro`y bersa, «gunohkor»ni qidirib ovora bo`lib yurilmaydi, balki uning sabablari aniqlanadi va bartaraf muhitda o`qituvchilarda o`z kuchiga va bir-birlariga ishonch bo`ladi, kasbdoshining mulohazasiga quloq solinadi, har kimning umumiy ishga qo`shgan hissasi to`g`ri baholanadi.

Ta`lim – tarbiya ishlarini bajarish jarayonida maktab rahbarlari bilan muomalada har bir muallim pedagogik odobning quyidagi qoidalariga amal qilishi zarur:

-O`zbekiston davlati ta`lim – tarbiya ishlarini nazorat qilish sohasida maktab direktori zimmasiga yuklagan mas`uliyat, javobgarlikni anglash;

-maktab oldida turgan ijodiy vazifalarni bajarishga pedagoglar jamoasini safarbar etish uchun rahbar qanday imkoniyatlarga ega ekanligini bilish;

- maktab rahbarining yaxshi tashabbusini qo`llab - quvvatlash;
- o`z sha`niga aytilayotgan tanqidiy fikrlarni tinglay bilish, agar muallim haq bo`lsa, xushmuomalalik bilan asoslab berish;
- o`qituvchi o`zining nojo`ya hulqi, xatti - harakatiga rahbarning xatosi yoki kamchiligini ro`kach qilishi odobsizlik ekanini anglash;
- o`quvchilar, ota-onalar oldida maktab rahbarlarini obro`sizlantirishga yo`l qo`ymaslik;
- maktab jamoasi ishini tanqid qilayotganda odob doirasidan chiqmaslik.

Maktab rahbarining obro`yi pedagoglar jamoasining, o`quvchilarning, maktabning obro`yidir. Rahbarning ma`muriy obro`yi uning ma`naviy – axloqiy obro`si bilan qo`shilsa, katta tarbiyaviy ta`sir kuchiga ega bo`ladi. Maktab jamoasining rahbarlari va a`zolari o`z huquqlari va burchlarini yaxshi bilishlari lozim. Jamoada har bir kishining huquq va burchlari aniq belgilab qo`yilishi pedagogik odob talablariga mos keladi.

Xullas, maktab rahbarlari, o`qituvchilar o`zaro muomalada pedagogik odobning qonuniyatlari, tamoyillari, normalari va talablariga amal qilishlari pedagogik jarayonining fayzli, samarali bo`lishini ta`minlaydi.



## **Savol va topshiriqlar**

- 1. Pedagogik muomalaga qanday talablar qo`yiladi?**
- 2. Muomala odobining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli qanday?**
- 3. O`quvchi shaxsining shakllanishida o`qituvchining muomalasi qanday rol o`ynaydi?**

## **8- Mavzu. PEDAGOGIK NAZOKAT VA PEDAGOGIK ODOB – AXLOQ.**

O`qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo`lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy – axloqiy fazilatlar barchasi kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o`qituvchi – tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Aхлоqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining hulqi, fe`l atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta`sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma`lum axloqiy talablar qo`yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o`z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O`qituvchi umuminsoniy va milliy –axloqiy fazilatlarini o`zlashtirib olishi, tajribada qo`llashi, o`zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etishi, turmushda sinab ko`rish natijasida umuminsoniy va milliy – axloqiy sifatlari, qoidalar, normalar o`qituvchi o`z axloqiy fazilatiga e`tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo`shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o`rni va rolini belgilaydi.

O`qituvchi odobining normalari har bir muallifning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e`tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e`tiqod va sifatlari o`qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o`qituvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida kundalik turmushda o`zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta`sir o`tkazishida ko`zga tashlanadi. Pedagogik takt o`qituvchi axloqining amaliy ko`rinishlaridan biridir. Muallif xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta`sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarda namoyon bo`ladi.

O`qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyati bilan boQliq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy Qurur baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo`ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o`qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan boQliq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o`qituvchilik burchi, o`qituvchilik sha'ni, kabilar o`qituvchi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o`zlashtirish bo`lajak o`qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

## YAXSHILIK QILISH

Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o`rin egallaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi – «Avesto»da ezgu fikr, yaxshi so`z va yaxshi ishlar insoniy fazilat sifatida uluqlanadi. Islom ta'limotida boshqalarga yaxshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji, vojiboti bo`lishi kerakligi tushuntiriladi, ayniqsa, ota-onaga, ayollar, yosh bolalarga yaxshilik qilish juda qadrlanadi.

Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O`zlaridan yaxshi nom qoldirishga intilganlar. «Yaxshilarga – yaxshilik qildim, yomonlarni esa o`z yomonliklariga topshirdim» (Amir Temur o`g`itlari. Toshkent, «Navro`z», 1992, 17 bet).

Kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati, gap-so`zi ularning hulqiga boQliq. Yaxshi hulq egasi bo`lgan kishi odamlarga yaxshilik qila oladi. Abdulla Avloniy yaxshi hulqlar qatoriga: fatonat, diyonat, islomiyat, nazokat, Qayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr; ilm; intizom, miqyosi, vijdon, vatanni suymoq, haqqoniyat, ibrat, iffat, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat, avf kabilarni kiritadi. «Emdi bu yaxshi hulqlarni qo`lga olmak uchun ota-ona, muallif, ustozlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon quloQi birla, tinglab doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo`lmak, axloqi buzuk, yomon kishilardan

qochmoq lozimdir» (Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent, «O`qituvchi», 1992, 16-bet).

Ulfat Mahkamovning «Axloq - odob saboqlari» (Toshkent, «Fan» 1994, 134-bet) asarida: adolat, aql, baxt, burch, vatanparvarlik, vafo, do`stlik, iymon, insof, insonparvarlik, kamtarlik, latofat, lafz, mardlik, mehmondo`stlik, mehnatsevarlik, milliy Qurur, odamiylik, poklik, sabr-qanoat, saxiylik, to`Qrilik, yaxshilik, hayo, himmat kabi umuminsoniy va milliy - axloqiy sifatlarning mazmuni ochib berilgan. Ular kishilarni yaxshilikka da'vat etuvchi fazilatlaridir. «Inson dunyoga yaxshi ish qilish, yaxshi iz qoldirish uchun keladi, yaxshi farzandlarni tarbiyalab, qilgan yaxshi ishlari va qoldirgan yaxshi so`zlariga munosib vorislar tayyorlaydi». (Karimov I.A. Xalqning otashqalb farzandi. Toshkent, «O`zbekiston», 1992, 28-bet).

Yaxshilik – ijobiy axloqiy fazilat bo`lib, hulqiy sifatlarning majmuini, inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijodiy munosabatning yiqindisini aks ettiradi. Yaxshilik – kishining axloqiy ongi va axloqiy tajribasida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib, shaxsga va jamiyatga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.

## O`QITUVCHILIK BURCHI

Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o`z vazifasini to`liq bajarishi, boshqalarga to`Qri munosabatda bo`lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo`lgan munosabati namoyon bo`ladi. O`z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro`, shon-sharaf keltiradi. Kishining o`z burchiga sodiqligi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo`lgan munosabatida bilinadi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda burchlari ham belgilangan. Qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilish; O`zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini avaylab asrash; atrof – tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lish har bir fuqaroning burchidir. Burchga

sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ko`rsatadi. Katta yoshdagi kishilarni hurmatlash yoshlarning burchidir.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o`qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga o`rgatadigan Qoyalar uning qalbidan joy olib, dunyoqarashning asosi bo`lishi zarur. Har bir ishda, har bir masalada muallim o`z burchiga sodiq, qat`iy printsipli bo`lishi, har qadamda unga amal qilish zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan suQorilgan bo`lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, xatti-harakatlarini nazorat qila bilish; kamtarlik, insonparvarlik, o`z qadr-qimmatini to`Qri baholay olishga imkon beradi.

O`qituvchi yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish sohasidagi o`z burchini o`ziga yuklatilgan majburiyat emas, balki o`z hayotining ma`nosi, ishonch va vijdon da`vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etish butun xalq va O`zbekiston davlatining buyuk kelajagi to`Qrisida Qamxo`rlik qilishni taqozo etadi. Davlat oldidagi burchni yuksak anglagan, mafkuraviy pok barkamol muallim insonga izzat-hurmatli, yoshlarga Qamxo`r, mehribon, boshqalarga yordam qo`lini cho`zishga doimo tayyor turadigan kishidir. O`qituvchi axloqida burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun Qamxo`rlik qilishni talab etadi. O`qituvchi odobida vatanparvarlik burchi baynalmilalchilik tuyQusi bilan chambar - chas boQliqdir.

O`qituvchilik burchi ta`lim - tarbiya ishlarini bajarishga va muallimning shaxsiga nisbatan jamiyat qo`yadigan axloqiy talablar va yo`l-yo`riqlar majmuidir. O`qituvchilar, kasbdoshlari, ota - onalar bilan xushmomala, yaxshi munosabatda bo`lish, tanlagan kasbi uchun pedagoglar jamoasi va jamiyat oldidagi mas`uliyatini his etish shular qatoriga kiradi. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalasho`qituvchilik burchining asosini tashkil etadi.

O`qituvchilik brchining mazmuni ta`lim-tarbiya jarayonining mohiyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda o`kuvchilar insoniyat asrlar davomida to`plagan bilim, ko`nikma va malakalarni egallab oladilar. Shuningdek, o`qitish jarayonida muallimning bajarayotgan ishiga munosabati ham, uning shaxsiy fazilatlari va

qo`yiladigan axloqiy talabalari aks etadi. O`qituvchilik kasbini tanlagan kishi bu axloqiy talablar va yo`l-yo`riqlarni albatta, bajarishi zarur.

Pedagogik amaliyotda muallimlar o`z pedagoglik burchlarini bajarishga halol intilsalar ham ish sharoitlari turlicha bo`lgani uchun bir xil natijaga erishavermaydilar. Buning oqibatida shaxs bilan jamiyat o`rtasida ma`lum darajada qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu kelishmovchiliklar turlicha bo`lishi mumkin. Kishi o`qituvchilik burchini anglasa ham biror shaxsiy mulohazaga ko`ra o`z burchini bajarishni istamasligi mumkin. Bunday hollar kamroq uchrasa ham umumiy ishga, o`quvchilar tarbiyasiga zarar yetkazadi. Jamoatchilik ta`siri va ma`muriy yo`llar bilan uni bartaraf etish lozim.

Ba`zan muallim burchi nima ekanligini va uni bajarish zarurligini tushunadi, lekin uni amalga oshirishga – masalan, har kuni o`z bilimini oshirish ustida ishlashga, boshlangan ishini oxirigacha yetkazishga irodasi chidamaydi yoki o`zini safarbar etolmaydi. Natijada jamiyatning muallimga qo`ygan axloqiy talabiga putur yetadi. Maktab jamoasi bunday hollarda o`qituvchiga nisbatan talabchanlikni oshirishi zarur.

O`qituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Muallim kasbiga nisbatan qo`yiladigan talablarning mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun muhimligini anglasa, bu vazifalarni bajarish uchun o`zida qobiliyat birligini sezsa, pedagog uchun zarur fazilatlarni tarbiyalash yo`llarini belgilab olsa – shundagina unda professional burch shakllana boshlaydi. Shundagina muallim belgilangan xatti-harakatlarni o`z ixtiyori bilan amalga oshira boshlaydi, demak, unda burch hissi shakllangan deyish mumkin. O`qituvchining eng muhim burchlaridan biri o`z bilimlarini muntazam oshira borishdir.

## O`QITUVCHILIK MAS`ULIYATI

Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas`uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o`z burchini anglash va uni kishi hulqining raQbatiga aylantirish, odam o`z faoliyatini boshqalarga ko`proq yaxshilik qilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo`naltirishi mas`uliyat tushunchasining mazmunini tashkil etadi.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis kengashlarida so`zlagan nutqlarida O`zbekiston fuqarolarida ayiksa, rahbar xodimlarda onglilik darajasini oshirish va topshirilgan ish uchun mas`uliyat hissini o`stirish muhim ekanligini qayta-qayta ta`kidlamoqda. Mamlakatimizda demokratiyani yanada rivojlantirish to`Qrisida gapirib, demokratiya beradigan huquqlar mamlakatimiz xalqning manfaatlariga xizmat qilishi zarur, degan edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, islohotlarni amalga oshirish murakkab kechayotgan hozirgi davrda demokratiya bu – berilgan huquqlardangina iborat emas, balki yuksak fuqarolik mas`uliyati hamdir. Bu huquqlar qanchalik ko`p bo`lsa, fuqarolarning jamiyat oldidagi mas`uliyati ham shuncha yuksak bo`ladi.

O`qituvchining mas`uliyati – mas`uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta`lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o`z ichiga oladi. O`qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas`uliyatli yuklanadi. Muallim o`quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, alohida yondashishi, unda mavjud bo`lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o`stirishi lozim.

Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o`qituvchilar jamoasi bilan yo`lQiz o`zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o`qituvchining mas`uliyati uning hulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o`qituvchilarga ta`sir o`tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri-diydasi – farzandning taqdiri, kelajagi uning qo`liga ishonib topshirilgan. Muallim o`quvchilarning bilimiga baho qo`yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha`n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o`qituvchining mas`uliyatiga bo`liq. Shunisi ham borki, buni ko`pincha nazorat qilib ham bo`lmaydi. Bu muallimning vijdoniga havola qilinadi.

O`qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o`z zimmalariga qanchalik yuksak sharaflilik mas`uliyat olayotganliklarini tasavvur

etishlari lozim. Oliy yoki o`rta maxsus pedagogika o`quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o`quvchilarga o`zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy axloqiy namuna ko`rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

## **O`QITUVCHILIK SHA'NI VA QADR - QIMMATI**

Umuminsoniy va milliy axloqning muhim fazilarlaridan biri insonlik sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga qo`shayotgan hissasining salmoQi va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o`z mehnatining salmoQi va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi bilan, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi. Halol mehnat kishining qadrini, izzat-hurmatini oshiradi. Kishi o`z mehnatining qadriga yetishi, u bajarayotgan ish jamiyatda ahamiyatli ekanligini tushunishi lozim. Kishining umumiy ishga qo`shayotgan hissasining salmoQi, u qaysi vazifani bajarayotganligida emas, balki, o`z ishini qanchalik yaxshi, sidqidildan bajarishiga bo`liq. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko`ra ham ko`proq o`z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va hulq - atvoriga bo`liqdir.

Bu fazilat o`qituvchi odobida muallimning qadr - qimmati, sha'ni deb ataladi. U, avvalo o`qituvchidan o`z ishining ustasi, kamtar bo`lishni, shu bilan birga pedagoglar va o`quvchilar jamoasida o`zini tuta bilishini talab etadi. Sinfga maktab direktori, nazoratchi yoki boshqa kishilar darsni kuzatishga, tekshirishga kirgan paytlarida muallim «Qaflatda» qolmasligi lozim. Bunday paytlarda o`qituvchi, avvalo, o`z o`quvchilari oldida sinovdan o`tadi. Bunda o`qituvchi hovliqib, shoshilib qolsa, jahli chiqsa, o`z hulqini o`zgartirsa, o`quvchilar oldida uning burdi, qadri ketadi. Aksincha, muallim bunday hollarda o`zini mag`rur tutsa, darsni odatdagidek o`taversa, bolalarning hurmatini qozonadi. O`quvchilar bunday voqealarni uzoq vaqt esdaqoldiradilar, gaplashib, o`rtoqlariga aytib yuradilar. U katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`ladi.

Muallim maktab rahbarlari, hamkasblari va boshqalar bilan muomala, munosabatda kibr-havoga berilmasa, manmanlik qilmasa yoki o`rinsiz itoatgo`ylik,



hokisorlik, laganbardorlik qilmasa, uning o`quvchilar oldida obro`si, qadr-qimmatini ortadi.

O`quvchilar bilan muomalada ularning insoniy qadr-qimmatlarini hurmatlash, talabchanlikni insonparvarlik bilan uzviy bog`lay bilish, bolalarning qobiliyati va kuchiga ishonch bilan qarash, o`quvchilarga ular bajara oladigan va asta – sekin tobora murakkablashib boradigan vazifalar berish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu bolani shaxs sifatida va axloqiy jihatdan shakllantirib boradi, yaramas xatti-harakatlardan, xulqi buzulqilik yo`liga kirib ketishdan asraydi, bola o`z kuchiga ishonib harakat qiladigan bo`ladi, yomon qiliqlardan o`zini tiyadi.

Kishining sha`ni – yuksak insoniy fazilat bo`lib, o`z-o`ziga bo`lgan munosabati, unga atrofdagi kishilar va jamiyatning munosabatini ham bildiradi. Kishining sha`ni – shaxsning xizmatlarini jamiyat tomonidan tan olinishidir. Sha`n, kishining sha`ni deganda odamning yoki u mansub bo`lgan ijtimoiy guruhning qadr-qimmatini, yaxshi nomi, obro`si, shuhrati, dong chiqarishi kabilar ham nazarda tutiladi (Oila sha`ni, olimlik sha`ni, o`qituvchilik sha`ni, rahbarlik sha`ni kabi). «Biz ona O`zbekiston istiqbolini, uning shonu -shavkatini qanday himoya etishni ota - bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmoQimiz darkor» (I.A.Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». Oliy majlisning ikkinchi sessiyasida so`zlagan nutqi. «Xalq so`zi», 1995, 6 may).

Sha`n tushunchasi bilan qadr - qimmat uzviy bog`liqdir. Qadr - qimmat kishi tevarak - atrofidagi odamlarning hurmatiga sazovor bo`lgani jamoatchilik tomonidan tan olinishidir. Kishining sha`ni va qadr - qimmatini oyoq osti qilish mumkin emas. U bizning mamlakatimizda, davlatimizda qonun bilan ham, jamoatchilik fikri bilan ham himoyalanaadi. Jamoaning sha`ni va qadr-qimmatini, kasbning sha`ni va qadr - qimmatini kabi tushunchalar odamlar ongida mustahkam qaror topsa, ayrim kishilarning sha`ni va qadr - qimmatini ham tan olinadi.

O`qituvchi odobida muallimning shuhratparastligi va manmanligi qoralanaadi. Buning boisi shundaki, o`qituvchilik faoliyati avvalo, umumxalq baxt saodati uchun xizmat qilishga yo`naltirilgan. O`qituvchilik sha`nini jamoatchilik tan olgan

bo'lishi kerak, aks holda uning ma'nosi qolmaydi. Muallimning sha'ni va qadr - qimmatini uning xizmatlari va axloqiy fazilatlarini jamoatchilik tomonidan tan olishini hamdir.

Pedagoglik ishida boshqa kasblarga nisbatan sub'ektiv faktlar har bir kishining sha'ni va shaxsiy qadr-qimmatini e'tiborga olish ko'proq talab etiladi. O'qituvchi, avvalo, o'z qadr-qimmatini o'zi saqlay bilmog'i kerak, pedagoglar jamoasidagi urf-odatlar, an'analar, axloqiy munosabatlar ham o'qituvchilik sha'ni va qadr - qimmatini asrashga qaratilmog'i lozim. Pedagoglik sha'ni va qadr-qimmatini noto'g'ri tushunish ta'lim-tarbiya ishida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Masalan, ko'ra – bila turib o'quvchining bahosini oshirib qo'yish, maktabga nazoratchilar kelganda o'qituvchilarning faoliyati aktivlashib qolgan yoki hisobot uchun nomigagina tarbiyaviy tadbirlarning sonini ko'paytirish kabilar o'quvchilar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi, bu bolalarni qalbikichilikka o'rgatadi. O'quvchilar oldida o'qituvchining va jamoaning obro'siga ta'sir etadi. O'qituvchining pedagoglar jamoasi sha'nini o'quv yurti sha'nini saqlab qolaman deb sha'n, qadr-qimmat tushunchalarini noto'g'ri anglab qilgan xatti-harakatlari pedagogik odob normalarining buzilishiga olib keladi va o'quvchilar tarbiyasiga zarar yetkazadi. Bunday hodisalar ayrim hollarda uchrab turadi.

O'qituvchi odobida sha'n, qadr - qimmat tushunchasi o'qituvchining pedagoglar jamoasida egallagan hurmatini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilar va ota - onalar orasidagi hurmatini ham ifodalaydi. Muallimning o'quvchi qadr-qimmatini hurmat qilishi o'quvchilar orasida muallimlik hurmati va qadr - qimmatini oshirish shartlaridan biridir. Pedagoglik burchi xatti - harakatlari pedagogik odob normalarining muallimdan o'quvchilarda sha'n va qadr - qimmat hissini o'stirish talab etadi. Bu, o'z navbatida, bolalarga bo'lgan hurmatni ularga nisbatan ishonch va talabchanlik bilan bo'q'lab olib borishni taqozo qiladi.

### **O'QITUVCHILIK VIJDONI**

Vijdon kishining o'z xatti - harakati, qilmishi, yurish- turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyqusidir. U diyonat, insof, halollik, sofdillik

degan ma'nolarni ham bildiradi. Abdulla Avloniy: «Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv – tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytiladur» deb ta'rif bergan edi. (Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, «O`qituvchi», 1992, 27 bet). Uning fikricha vijdon kishining fe'l-atfori va harakatlarining yaxshi va yomonligini, foydali yoki zararliligini ko`rsatadi. Vijdon inson aqli va fikrning haqiqiy mezonidir. Uning yordamida ham bir kishi o`z kamchiliklarini va boshqalarning fe'l-atvorini o`lchaydi, baholaydi. «Agar ishlagan ishi shariat, aql hikmatga muofiq bo`lsa, muhabbat qilur, qobohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur» (O`sha asar, 27 bet). Vijdon yaxshi hulqlarning manbai bo`lgani uchun ham vijdonli kishilar har bir ishni beQaraz va xolis niyat bilan bajaradilar va bundaylar boshqalar nazarida maqbul va suyukli kishilar hisoblanadi. Vijdonsiz kishilar esa o`z qilgan amallari oqibatida hasrat va nadomat chekib, vijdon azobiga girifdor bo`ladilar. Vijdoni salomat kishilar iymonli va e'tikodli bo`ladilar. Shod va hurralikda umr kechiradilar.

Pedagogik faoliyatda o`qituvchining vijdoni ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy yo`l – yo`riqlarini va kasbiy burchni qanday bajarayotganini, nazorat qiluvchi ma'naviy kuchdir. O`qituvchi faoliyatida, axloqida, hulqida vijdon o`z-o`zini nazorat qilish vositasidir. O`qituvchilik boshqa kasblardan o`zining shu jihati bilan keskin ajralib turadi. O`qituvchilik vijdoni muallimning o`z bilimi, tajribasi va qobiliyatini to`la ishga solib, boshqalarni o`qitish, tarbiyalash bilan ma'rifatli qilishga da'vat etadi. Vijdonli o`qituvchi ta'lim-tarbiya ishlarini yuksak darajada amalga oshirish uchun qo`lidan kelgan barcha ishlarni qiladi.

Agar kishida o`qituvchilik qilishga qobiliyat, pedagogik faoliyatga qiziqish, iste'dod bo`lmasa, jamiyat talab qiladigan darajada bolalarni o`qita olmasa, agar u kun o`tkazish uchungina muallimlik qilayotgan bo`lsa, bu - o`qituvchilik vijdonining yo`qligini ko`rsatadi. Vijdonli o`qituvchi kechirimli bo`ladi. Agar u ta'lim berayotgan bolalarning bilimi past, hulqida qusur, kamchilik uchrayotgan bo`lsa, bundan o`qituvchi vijdonan qiynaladi. O`qituvchining vijdonini faqat uning o`zigina nazorat qilishi mumkin. Muallim nazoratchilar ishtirok etayotganda

o`quvchilar bilan oldindan tayyorlab, mashq qilib qo`ygan darsni qayta o`tishi, kuzatuvchilar buni sezmasligi yoki aniqlay olmasligi, farqlamasligi ham mumkin.

O`qituvchilik vijdoni muallimni bolalar bilan muomala – munosabatda oqilona tavakkal qilishga undaydi, pedagoglikka to`Qri kelmaydigan xatti - harakatlaridan tiyadi, bola o`qishni bo`shashtirib yuborsa, yoki hulqida biror salbiy o`zgarish ro`y bersa, beorom qilib qo`yadi; zarur bo`lib qolsa, uy – ro`zQor ishlarini ham yiQishtirib qo`yib, darsdan tashqari vaqtlarda ham maktabga borib sinfdan tashqari ishlar bilan shuQullanishga da`vat etadi. Pedagoglik vijdoni o`qituvchining sezgirligi, xushyorligini oshiradi. Pedagog uchun o`z xato, kamchiliklarini aql ko`zi bilan ham, qalb ko`zi bilan ham seza olish xislati juda muhimdir.

Ta`lim – tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o`qituvchining o`zigagina emas, balki ota-onalar, kasbdoshlari bilan hamkorlikka ham boQliqdir. O`qituvchilik vijdoni muallimni axloq qoidalariga o`zi amal qilish bilan birga boshqalardan ham axloq normalarini bajarishni talab qilishga undaydi. Vijdonli muallim o`zi yoki kasbdoshlari xato qilib qo`yganidan xijolat tortadi, nomus qiladi. O`qituvchi odobida bu tuyQu ayniqsa, ko`zga yaqqol tashlanadi. Haqiqiy pedagog kasbdoshi yoki o`quvchisi sodir etgan qo`pollikdan ham afsuslanadi, hijolat chekadi.

O`qituvchilik vijdoni axloqiy madaniyatlikning ifodasidir. U faol ta`sir o`tkazish xususiyatiga ega bo`lib, bolalarda vijdon, sha`n, qadr - qimmat haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi. Shuning uchun ham o`qituvchining vijdoni doimo pok bo`lmoQi kerak. Muallim hamma vaqt o`z-o`zini, o`z xatti-harakatlarini o`quvchilar va ota-onalar ko`zi bilan nazorat qilib borishi kerak. Muallim bolaning ko`z oldida kelajakning timsoli sifatida namoyon bo`lmoQi lozim. Chunki bugun undan saboq olayotgan o`kuvchilar o`n besh-yigirma yildan so`ng jamiyat hayotida, ijtimoiy mehnatda faol qatnashadi. Muallim bugun qanday yashab, qanday ishlab, o`quvchilarni qanday o`qitgan bo`lsa, uning timsoli o`quvchilari uchun ularning hayot yo`lini yorituvchi axloqiy nur bo`lib xizmat qiladi. Muallimning o`z vijdoniga xilof qilgan har bir ishi, nafaqat bugun uning atrofidagi

kishilar uchun, balki jamiyatning kelajagi uchun ham zararlidir. Pedagoglik vijdoni o`qituvchidan bugunni emas, balki o`z o`quvchilarining kelajagini ham o`ylab qadam bosishni talab etadi.

## **TALABCHAN VA ADOLATLI BO`LISH**

O`qituvchining professional axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo`lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo`lgan ishonch ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo`lishi, ya`ni rivojlanayotgan bola shaxsi to`Qrisida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to`Qrisidagi Qamxo`rlikdir. O`quvchilar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi.

O`qituvchi avvalo o`ziga nisbatan talabchan bo`lmoQi kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo`yayotgan talablari o`rinli, samarali bo`ladi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bo`liq bo`lmoQi zarur. Kuch adolat va haqiqatdadir! Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to`Qrilik, kuch-qudrat mujassamdir. Adolatlilik umuminsoniy va milliy axloqimizning muhim xislatlaridan hisoblanadi. Islom ta`limotida adolat, adolatli bo`lish fazilati yuksak qadrlanadi. Adolat kishilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarda odillik bilan ish tutishni taqazo qiladi. Adolatlilik kishida aql, sof mulohaza, olijanoblik va mardlik mavjudligini bildiradi. Adolatli bo`lish, o`z so`zida turish, qat`iylik demakdir. Adolatli kishi sofdil, ko`ngli xotirjam, xavf-xatar, kulfatdan uzoq bo`ladi, odamlarning ishonchini qozonadi.

Adolatlilik insoniylikning asosi hisoblanadi. Odobli va insonparvar bo`lish uchun adolatli bo`lish zarur. Adolat boshqa kishilarga muomala-munosabatda namoyon bo`ladigan fazilatdir. Adolatli kishi yaxshi xulqni odam hisoblanadi. Bunday odam o`ziga ravo ko`rmagan biror ishni boshqaga ravo ko`rmaydi. Adolatlilik va insoniylik kishini yomon ishlardan saqlash bilan birga boshqalarni ham xatoliklardan asrash, yaxshi yo`lga solish uchun zarurdir. Adolatli kishi

boshqa birovga yoki jonivorlarga ozor bermaydi, zulm qilmaydi. Aql idrok bilan ish qiladi.

O`qituvchi odobida halollik fazilati pedagoglik faoliyatning o`ziga xos xususiyatlari bilan bo`liq holda namoyon bo`ladi. O`qituvchi odobida adolatlilik muallimning ob`ektivligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasi (insoniyligi, printsiptalligi, yaxshiligi)da, o`quvchilar hulqini, jamoat ishlariga munosabatini, bilimni baholashda namoyon bo`ladi. Demak, adolatlilik bir tomondan o`quvchilarga o`tkazilgan tarbiyaviy ta`sirni baholashning mezoni hisoblanadi. Muallimning o`quvchilarga va pedagogik jarayon qatnashchilariga bo`lgan munosabati manmanlikdan, noxolislik, o`zboshimchalikdan xoli bo`lishi lozim. Shundagina u adolatli hisoblanadi. Muallimlik ishini o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u har kuni o`quvchilar bilan uchrashadi, ularning bilimni, hulqini baholaydi. Yaxshi ishlarini raQbatlantiradi, nojo`ya xatti-harakatlari, sho`xliklari uchun tanbeh beradi. Albatta, muallimning fikri, mulohazalari, baholarida nisbiylik, sub`ektivlik belgilari mavjud. U hamma bolalarga aynan birdek, juda to`Qri munosabatda bo`la olmasligi mumkin. Lekin o`qituvchi hammaga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, bolalarning kelajigi, taqdiri to`Qrisida Qamxo`rlik qiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barcha o`quvchilarning ishonchi komilbo`lmoQi darkor. O`quvchilarda muallim «yoqtiradigan», «yoqtirmaydigan» bolalar bor degan fikr tuQilmasligi kerak.

O`quvchining savollarini, javobini, ba`zan juda Qalati bo`lib tuyuladigan mulohazalarini diqqat bilan tinglash, unga to`Qri yo`l ko`rsatish, maslahatlar berish, javobini odilona baholash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. O`qituvchi bolaning mustaqil ijodiy fikrlarini, to`Qri javoblarini ma`qullashi, qo`llab-quvatlashi, raQbatlantirib borishi lozim. Bolaning javobi noto`Qri, fikrlari chalkash, xato bo`lsa, muallim buni o`quvchiga yetarli asoslar bilan isbotlab ko`rsatishi kerak. U o`z obro`sini pesh qilib, «men shunday dedimmi, demak shunday» deb turib olmasligi, balki o`z fikrini faktlar, ilmiy dalillar bilan isbotlashi talab etiladi.

O`qituvchining ta`lim-tarbiya sohasidagi ijtimoiy qimmatli xatti-harakatlari adolat mezonini bilan baholanadi. Adolatli muallim, odil ustoz degan nomga sazovor bo`lish har bir o`qituvchining sharaflari burchidir. Bunda muallimning ishchanlik va axloqiy fazilatlari o`z ifodasini topadi. Adolatlilik boshqalarga yaxshilik qilish fazilati bilan chambarchas bog`liq. Adolat bo`lmasa, yaxshilik bo`lmaydi. Shuningdek yaxshiliksiz adolat ham bo`lmaydi. Pedagogik odob nuqtai nazaridan adolatlilik, bu, ta`lim-tarbiya jarayonini normal amalga oshirishning sharti hamdir. Pedagoglik ishida adolatli bo`lish bu o`qituvchining ishonchini qozonishdir. Buning uchun esa bolaning qalbidagina, dilidagina bilmoq, tushunmoq kerak.

O`qituvchining adolatliliigi bolaning bilimni baholashda ko`proq namoyon bo`ladi. Ma`lumki, umumta`lim maktablarida o`qituvchining bilimni besh ballik tizim asosida baholanadi. Dastur materialini to`liq o`zlashtirgan o`qituvchiga «besh» baho qo`yiladi, mutlaqo bilmagan bolaga «ikki» baho qo`yiladi. Ma`lumki, bolalarning bilimni o`zlashtirishga bo`lgan qobiliyati, qiziqishlari bir xil emas. Masalan, zehni o`tkir o`qituvchi dars materialini hech qiynalmay, bir pasta o`zlashtirib olishi mumkin. Ikkinchi bola esa buning uchun ko`p muhtat qilishi, intilishi kerak bo`ladi. Muallim ana shu holatni e`tiborga olmay ish tutsa, o`qituvchiga nisbatan adolatsizlikka yo`l qo`ygan bo`ladi, uning qo`ygan bahosi ayrim bolalarni o`lQa intilishga da`vat etmasligi mumkin. Zehni o`tkir bo`lgani uchun mehnat qilmay, kuch sarflamay yuqori baho olish bolaning axloqiga salbiy ta`sir etib, aqliy rivojlanishiga to`squinlik qiladi. Ayrim zehni o`tkir bolalar dars jarayonida o`qituvchining fikrlarini to`liq o`zlashtirib oladi va shu bilan cheklanadi. Uyda dars tayyorlamaydi. Natijada uning aqliy rivojlanishi sekinlashadi. Va aksincha, intiluvchi, harakat qiluvchi bolaga bahoni past qo`yish ham unda o`z qobiliyati va kuchlariga, yaxshi o`qiy olishiga ishonmaslik tuyqusini vujudga keltiradi.

Bolaning bilimni baholashda muallimning adolatliliigini o`qituvchilar ham o`zlaricha muhokama qilib, baholab boradilar. Muallim o`z fanidan biror bolaga hadeb «ikki» yoki «uch» baho qo`yaversa, bu bilan o`qituvchini qobiliyatsizga chiqarib qo`ygan bo`ladi, bolada o`zining insoniy qadr-qimmatiga ishonchni, bilim egallashda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga intilish tuyqusini barbod qilgan

bo`ladi. Muallim o`kitish jarayonida boladagi o`zgarishlarni, yutuqlarni payqab, raQbatlantirib, uni ruhlantirib borishi kerak. Ayrim muallimlar ilQor o`quvchining bilim o`zlashtirish darajasiga qarab boshqa o`quvchiga ham baho qo`yadi. Bir maktabda a`lochi bo`lib o`qigan bola boshqa maktabga o`tganda «uch» oluvchilar safiga tushib qolishi ham mumkin. Muallim o`quvchilar bilimni baholashda adolatli bo`lish uchun har bir bolaning bilim o`zlashtirishga sarflangan kuch - Qayrati, intilishlarini hisobga olishi kerak.

O`quvchining hulqini baholashda ham muallimdan adolatli bo`lish talab etiladi. Agar muallim bolaning hulqini, xatti-harakatlarini baholashda shu xatti - harakatlarga sabab bo`lgan motivlarni e`tiborga olmasa adolatsizlikka yo`l qo`yadi. Muallim yoki ota-onaning bolaga nisbatan adolatsiz xatti-harakati, munosabati bolaning ruhiyatiga salbiy ta`sir etib, nevrozga sabab bo`lishi ham mumkin. (Nevroz – markaziy asab sistemasining buzilishi natijasida yuzga keladigan ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik). Bola bilan bo`lgan muomala – munosabatlarda uning taqdiriga nisbatan loqaydlik, unga o`rinsiz baqirish, hulq, jahil qilish kabilar shunga olib keladi.

Agar o`qituvchi qo`ygan bahoni bola adolatsizlik deb qabul qilsa va muallim bolaning kundalik daftariga shu bahoni quyib, ota-onasiga: «Tegishli chora ko`rishni» so`rab yozib yuborsa, bunday paytlarda o`qituvchi muallimdan nafratlanishi o`qishdan ko`ngli sovib, maktabni tashlab ketish ham mumkin. Adolatsizlik qilish boshqa sohalarga nisbatan ta`lim-tarbiya ishiga katta ma`naviy-axloqiy zarar yetkazadi. Muallimning adolatsizligi bolani qalbini jarahatlaydi, maktabning sha`niga putur yetkazadi, kattalarga bo`lgan ishonchini yo`qqa chiqaradi. Shuning uchun ham muallimning har bir xatti-harakati, amaliy ishlari adolatlilik namunasi bo`lmoQi kerak.

### **BILIMDONLIK, HALOLLIK, ROSTGO`YLIK**

Bilimdonlik, halollik, rostgo`ylik - o`qituvchining muhim axloqiy fazilati, ma`naviy boyligi hisoblanadi. Bu fazilatlar insoniy munosabatlarni go`zallashtiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari cheklangan bo`ladi va to`la qondirilishi mumkin. Lekin ma`naviy ehtiyojlar ma`naviy boyliklar singari



cheksizdir. Kishi yaratgan ma'naviy boyliklarni qanchalik ko'p o'zlashtirsa, uning shaxsi shunchalik barkamol bo'ladi.

O'qituvchining boyligi, bilimdonligi xalq manfaatiga, yoshlarning baxti, istiqboli, kelajagiga qaratilishi, xizmat qilishi zarur. Mashhur mutafakkir aytganidek, agar kishi faqat o'zi uchungina ishlasa, u mashhur olim, uluq donishmand, ajoyib shoir bo'lishi mumkin, lekin u hech qachon haqiqiy barkamol inson bo'la olmaydi. Buyuk kishi bo'lishi uchun avvalo jamiyat taraqqiyoti yo'lida, insoniyatning buyuk orzu – istaklarini ro'yobga chiqarish yo'lida xizmat qilmoq va buning uchun zarur bo'lsa, o'z hayotini ham qurbon qilishga tayyor turmoq kerak.

Muallimning bilimdon bo'lishi, insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarni ko'paytirishi va uni yoshlarga astoydil o'rgatishi, o'z ishidan qanoat hosil qilishi, o'z kasbini, bolalarni dildan sevib, berilib ishlashi – bularning barchasi o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir etadi.

Har tomonlama bilim va yuksak madaniyatga ega bo'lish o'qituvchi odobining talablaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat kishisining ideali insonning aqliy barkamol, ma'naviy boy, ishbilarmon, axloq-odobli, halol, rostgo'y, o'zini tuta oladigan bo'lishini taqazo qiladi. Maktab o'quvchilari bu idealga intiladilar. O'quvchiga axloqiy ta'sir o'tkazishining samarasi o'qituvchining chuqur bilimli, yuksak ma'daniyatli, barkamol inson bo'lishiga bo'liq. Muallim-o'zi o'qitadigan fanini yaxshi bilishiva undan tuzukkina dars berishi bilangina bunga erisha olmaydi. Haqiqiy ustoz o'z predmetini bilish bilangina cheklanib qola olmaydi. U juda ko'p narsalarni bilishga, tushunishga, his etishga intilishi lozim. Mafkuraviy hayot, badiiy adabiyot, tasviriy san'at, teatr, kino, televideniya, musiqa, arxitektura, sport – muallim bularning barchasidan xabardor, ularni tushunadigan, qadrlaydigan bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi hamma narsaniko'ra oladigan bo'lishi zarur, lekin har joydan bir shingil emas, balki, avvalo, o'z ishini, o'zi o'qitadigan fanni puxta bilishi, shu bilan birga bilimlarning boshqa sohalariga ham qiziqishi, ulardan xabardor bo'lishi kerak.

O`qituvchilik faoliyati uchun bu sifatlari zaruriy hisoblanadi. Ilm – fan rivojlanib, yangi texnologiyalar joriy etilayotgan hozirgi davrda bolalar bilim oladigan manbalar yil sayin ko`payib bormoqda. Badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, gazeta, jurnal, radio va televizion eshittirishlar, muzey va ko`rgazmalarga bolalar juda qiziqadilar, shuning uchun ham muallim juda ko`p narsani bilishi, hamma narsadan xabardor bo`lishi kerak. O`qituvchi madaniyatning biror sohasidan ham xabarsiz qolishi mumkin emas. U bolani qiziqtiradigan barcha savollarga to`qri, o`rinli javob qaytarishi lozim. O`z fanidan boshqa hech narsaga qiziqmaydigan muallim o`qituvchilar uchun ideal bo`la olmaydi. Jamiyat hamma vaqt o`qituvchining umumiy madaniyatiga juda katta talabalar qo`yadi.

O`qituvchining ma`naviy qiyofasida halollik, rostgo`ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik muhim fazilatlardan hisoblanadi. Bu fazilatlar kishiga ichki go`zallik, ma`naviy poklik baqishlaydi, kishining qadr - qimmatini oshiradi. Halollik muallimning ichki va tashqi dunyosining birligini, so`zi bilan xatti-harakati to`qri kelishini, o`quvchilarga, hamkasblariga, ota - onalariga ochiq ko`ngil va samimiy munosabatini ifodalovchi axloqiy fazilatdir. U inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqadi. O`qituvchining halolligi o`z vazifasini vijdonan va ongli ravishda bajarishida namoyon bo`ladi.

O`qituvchi axloqida halollik, to`qrilik, rostgo`ylik,, mafkuraviylik, printsiptiallik, o`ziga, o`quvchilarga va boshqalarga bo`lgan ishonchni, samimiylkni, so`z bilan ish birligini, oddiylik va kamtarlikni taqozo qiladi. Rostgo`ylik o`qituvchining ma`naviy qiyofasini xarakterlaydigan axloqiy fazilat bo`lib, kishining so`zida, gapida ifodalanadi. Rostgo`ylik kishilarga doimo haqiqatni gapirishni, to`qri ma`lumot berishni, aldamaslikni talab qiladi. “Quadratli insonda doimo rostlik, zaiflikdan erur yo`lqonu pastlik”, degan edi Abulqosim Firdavsiy, Markaziy Osiyo xalqlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarida rostgo`ylik va shirinso`zlik o`ta qadrlanadi.

O`qituvchining halolligi, rostgo`yligi, pokligi Vatanga, xalqqa, yoshlarga munosabatida namoyon bo`ladi. Halollik va rostgo`ylik – kamtarlik va oddiylikni taqozo qiladi. Halol va rostgo`y odam oddiy va kamtar bo`ladi. O`ziga ko`rsatilgan

izzat-hurmatdan taltayib, gerdayib manmanlikka berilib ketmaydi. Bu fazilatlar o`qituvchining axloqi kishi sifatida obro`sini oshiradi. Aksincha muallimning ikkiyuzlamachiligi, soxta, qalbaki xatti - harakatlari, printsiplsizligi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etib ba'zan juda oQir oqibatlariga olib keladi.

Voqeiy hikoya. Maktabni bundan o`n yilcha oldin bitirgan kishi bunday hikoya qiladi: "Shu yil maktabga kelgan rus tili o`qituvchimiz D. darsni yaxshi o`tardi, bizga har kuni nasihat qilardi. Insonning burchi, axloqiy poklik, yuksak printsiplar haqida ko`p gapirardi, ko`tarinki ruh, balandparvoz so`zlar bilan doim biror tarixiy faktni yoki mashhur kishilarni misol keltirib gapirardi. OchiQini aytsam bizlarga uning bu gaplari juda yoqardi. U nasihat qilganda biz qandaydir biror yangilikni bilib olardik. Lekin bir kuni xuddi shunday nasixatgo`ylikdan so`ng qarasaq, muallimimiz bizga qanday yashashni o`rgatar ekanu, o`zi ichuvchi ekan. Kechqurunlari uning uyida ichkilikbozlik, qimor o`yini ham bo`lib turar ekan. Sinfdozlarimizdan biri bir kuni qishloqdagi katta to`ydan so`ng o`qituvchimiz mast bo`lib, uygacha yetolmay yo`lda yiqilib qolganini ko`ribdi. Shundan so`ng bu o`qituvchi biz uchun eng obro`siz kishi bo`lib qoldi. U hamon bizga nasihat qilar, lekin uning gaplariga endi hech kim quloq solmas ishonmasdi. Esimda, bir kuni maktab ma'muriyati shu o`qituvchini mukofotladi. Men bilan partada birga o`tirgan bola o`ylanibroq qoldi va "Balki, shunday yashash kerakdir?" dedi. Bu juda xavfli mulohaza edi.

Muallimning yomon hulqi ta'sirida bola axloqsizlik yo`liga kirib ketishi mumkin. Chunki bunday voqealar bolaning qalbida chuqur iz qoldiradi. Ayrim oilalarga sofdillik, xushaxloqlikdan ko`ra ikkiyuzlamachilik ustun keladigan ba'zi holatlar ham uchrab turadi. Buning ustiga yana muallim maktabda bir xil gapirib, turmushda, uyida boshqacha hayot kechirganini, boz ustiga bunday muallimni maktab direktori mukofotlaganini o`quvchi ko`rib tursa, buning oqibatini bir tasavvur qiling. Bu axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan juda xavfli. Buning natijasida bola muallimga ham, boshqalarga ham ishonmaydigan, kattalarni hurmat qilmaydigan, tartibbuzar bo`lib ketishi mumkin.

Pedagogik jarayonda muallimning halolligi, rostgo`yligi, o`zini tuta bilish, shirinso`zlik kabi axloqiy sifatleri uning shaxsiy ishi emas, balki ijtimoiy qiymat va ahamiyat kasb etadi, professional zaruriy fazilatlarining tarkibiy qismi bo`lib qoladi. Ijobiy axloqiy sifatlar bo`lmasa o`qituvchining bilimi, mahorati va boshqa xislatlari o`z qiymatini yo`kotadi. Chuqur bilim, pedagogik mahorat va ruhiy-ma`naviy xislatlar bilan bir qatorda mas`uliyat, qadr-qimmat, adolat, yaxshilik istash, halollik, rostgo`ylik, kamtarlik, vijdonlilik kabi axloqiy fazilatlar muallimning obro`sini oshiradi.

Xullas, agar muallim o`quvchilar unga xushaxloq, eng barkamol inson deb qarayotganliklarini qanchalik yodda tutsa, bolalarga uning ta`siri shunchalik kuchliroq bo`ladi, uning har bir maqtangani bolaga zavq baqishlaydi, uning har bir tanbehi bola qalbida shunchalik chuqur iz qoldiradi, barcha tarbiyaviy ishlar ta`sirli va samarali bo`ladi. O`zining biror noo`rin xulqi bilan bolalarga yoqmay qolgan muallimning ahvoli voy bo`ladi. Muallim axloqining pokligiga ishonch yo`qolsa, yoki unga putur yetsa, o`sha zahotiy o`qituvchi nutqining burdi ketadi – uning maqtashi ham, tanbehi ham o`z ahamiyatini yo`qotadi, avvallari bolalarning unga hurmati va muhabbati tufayli ko`ngilxushlik bilan osongina bitadigan ishlar endi bolalarni qiynash, majbur etish va jazo berish bilangina bajarilishi mumkin.

O`qituvchining axloqiy fazilatlaridan yana biri - o`z kuchiga ishonch, lekin manmanlik, maqtanchoqlik qilmaslikdir. Muallim har doim oldinga qarab intilishi, o`z ishiga, o`z-o`ziga nisbatan talabchan bo`lib, o`z darslariga tanqidiy qaray olishi lozim. O`quvchilar, hamkasblari, nazoratchilari uning darslarini yuqori baholasalar ham muallim bundan maqrurlanib ketmasligi kerak. U yaxshi o`tgan darsidan qanoat hosil qilgan paytlarida bundan ko`ra ham tuzukroq ishlashga intilsa, bu – ijodiy kamolot sari borishning to`qri yo`lidir.

Qo`rqoqlik, o`z kuchiga ishonmaslik, birovning ko`magiga muhtojlik, o`qituvchi axloqiga, muallimlik kasbiga mutlaqo to`qri kelmaydi. Shuningdek, o`ziga bino qo`ygan, maqtanchoq, olifta muallimni ham bolalar xush ko`rmaydilar. O`qituvchi o`z kuchiga ishonib, o`z fanini, bolalarni, pedagogik ishini sevgan,

o`zining butun kuchini, qalb ko`rini unga sarflagan taqdirdagina o`quvchilarning hurmatiga sazovor bo`la oladi.

Ma'lumki, o`qituvchining faoliyatida ayrim juz'iy xatolar, istisnolar, ba'zan biror noo`rin xatti-harakat uchrab qolishi ham mumkin. Muallim bunday paytlarda o`z xatosini tushunib, uni tan olishi, kechirim so`rashi lozim. Bu yaxshi muallimning qadr-qimmatini tushirib yubormaydi, balki aksincha, o`quvchilar muallimning jur`atiga, uning yuksak axloqiy fazilatlariga ishonch bilan qaraydigan bo`ladilar.

O`qituvchi o`zi ikkilanadigan ayrim masalalarni, hatto o`quvchilar bu haqda so`rab qolsalar ham, bolalarga iloji boricha, aytib qo`ymasligi maqsadga muvofiq. Chunki, mujmal, xato javob bergandan ko`ra, bu masalani hozircha chetlabroq o`tish ma`qul. Navbatdagi darsgacha uni aniqlab, bilib olishi va so`ngra asosli javob qaytarishi mumkin.

Boshqa kasblarga qaraganda pedagogik faoliyat odobli bo`lishni taqozo qiladi. Odatda, inson axloqi uning odobida ifodalanadi. O`qituvchining har bir so`zi, har bir bosgan qadami ibrat, tarbiya, o`rnakdir. Uning katta-kichiklar, o`quvchilar bilan qanday salomlashishi, kattalarga, kichiklarga, xotin-qizlarga munosabati, muomalasi, maktab oshxonasida ovqatlanishidan tortib, ko`chada yurishigacha tarbiya omili hisoblanadi. Har bir ishni o`z paytida, aniq bajarishi, bergan va`dasining ustidan chiqishi, o`zini tuta bilishi, irodasi – bularning barchasi o`quvchilar xulqiga ta`sir etibgina qolmay, bolalarda axloqiy fazilatlarining shakllanishiga ham yordam beradi.

Professional pedagogik axloq, shaxsning axloqiy ongi singari, axloqiy bilimlarni egallash asosida hosil bo`ladi. O`qituvchining kasb axloqi uning hissiy kechinmalari, axloqiy ideallar va e`tiqod bilan uzviy birlikda yaxlit holda shakllanadi. Pedagoglik faoliyati va pedagogik ong bilan chambarchas bog`liq bo`lgan axloqiy bilimlar, axloqiy his-tuyg`ular, axloqiy e`tiqod o`qituvchi odobining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

## **Savol va topshiriqlar**

- 1. O`qituvchi odobining tarkibiy qismlari o`z ichiga qanday xususiyatlarni qamrab oladi?**
- 2. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati nimalardan iborat?**
- 3. O`qituvchi odobini shakllantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur?**

### **III BO`LIM. PEDAGOGIK TEXNIKA PEDAGOGIK MAHORATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA**

#### **9 – Mavzu. PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI**

Pedagogik texnika o`qituvchiga o`quv faoliyatida ham, o`qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo`lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi. Xo`sh, o`qituvchining pedagogik texnikasi qanday malakalarni o`z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta`sir ko`rsatishdagi roli qanday?

Pedagogik vaziyatlarning haddan tashqari xilma-xilligi pedagogdan ijodiy xulq-atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika o`kituvchi malakalarining xuddi shunday yig`indisidirki, u o`kituvchining eng yaxshi ajodiy xulq-atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta`sir ko`rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika o`qituvchiga o`zini pedagogik faoliyatda chuqurroq va yaqqolroq ko`rsatish, bolalar bilan muomala qilganda o`z shaxsiyatidagi kasbiy jihatdan barcha yaxshi, ahamiyatli narsalarni ochib berishga yordamlashadi. Mukammal pedagogik texnika pedagogning vaqti va kuchlarini ijodiy ish uchun bo`shatib beradi, pedagogik o`zaro ta`sir ko`rsatish jarayonida o`kuvchilar bilan muomala qilishda zarur so`zni topish yoki muvaffaqiyatli chiqmagan gap ohangini tushuntirishga o`z fikrini chalg`itmaslik imkonini beradi. Pedagogik texnikani egallab olgan o`kituvchi ovozi bo`g`ilganidan yoki o`zining ish bilan bog`liq bo`lmagan qandaydir kechinmalarini unutishni bilmasligidan azoblanib yurmaydi. Demak, pedagogik texnikani egallash o`kituvchining o`z kasb faoliyatidan qanoatlanish darajasining o`shishiga olib kelishi mumkin.

Pedagogik texnika malakalarini bir butun tarzda qarab chiqish zarur. Bu malakalarning birligini ta`minlovchi umumiy xususiyatlar nimalardan iborat?

Avvalo pedagogik texnikaning hamma uchun umumiy bo`lgan malakalarini tatbiq etish sohasini pedagogning bolalar bilan bevosita muomilasini qayd qayd qilib o`tamiz. Xuddi ana shu narsa pedagogik texnika malakalarining namoyon

bo`lishini ma'lum darajada vaziyat taqozosi bilan, ichki sabab natijasida vujudga keladigan- aytish mumkinki, to'satdan bo`lgan narsaga aylantiradi. Rivojlangan pedagogik texnika o`qituvchiga o`kuvchilar bilan muomala qilganda zarur so`z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o`tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalikni va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Bundan tashqari, haqiqiy pedagogik ta'sir ko`rsatishda o`kituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir vaqtda namoyon bo`ladi. Nutq, imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo`ladi, uzluksiz o`zini tuta bilish ta'sirchan vositalarni tanlashga, muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Pedagogik texnika malakalarining boshqa muhim xususiyati shundan iboratki, ularning hammasi aniq ifodalangan individual-shaxsiy tusda bo`ladi, ya'ni pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat – salomatligi, anatomik – fiziologik xususiyatlariga ko`p jihatdan bog`liq bo`ladi.

Pedagogik texnika malakalari o`qituvchining individual – shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog`liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo`lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog shaxsiga ta'sir ko`rsatishida ham namoyon bo`ladi. Yuqorida ta'kidlab o`tilganidek, pedagogik texnika malakalari vaziyatga bog`liq ravishda, pedagogning xulq-atvorida ayni bir daqiqada namoyon bo`ladi. Shu ma'noda gapirganda, bu malakalarni egallash o`qituvchining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq xulq-atvorini tashkil etish vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Pedagogik texnikaning shakllanishi shaxsning unchalik payqab bo`lmas sifatlariga ham rivojlantiruvchi ta'sir ko`rsatadi. Chunonchi, nutqning ifodali, sof, savodli bo`lishi ustida ishlash fikrlashning ravon bo`lishiga ta'sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash fe'l – atvor belgisi bo`lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik texnikaning uchinchi muhim xususiyati shuki, pedagogik ta'sir ko`rsatishdagi xuddi ana shu malakalar orqali pedagogning ma'naviy va estetik



nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi. Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy madaniyat darajasini, ya'ni shaxsining pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi, desak to'g'ri bo'ladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bo'lar – bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda “eng to'g'ri” so'zlar ham, eng “kerakli” tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql – idrokiga, na hissiyotiga ta'sir qiladi.

Pedagogik texnika o'kituvchining fe'l – atvori, yurish – turishini tashkil etuvchi usullar majmuasidir. Uning vositasi- verbal kommunikatsiya ya'ni nutq orqali va noverbal kommunikatsiya – ya'ni imo – ishora, mimika va pantomimika orqali ifodalanadi, o'kituvchi biror shaxs bilan munosabatga kirishish, aloqa o'rnatish jarayonida ana shulardan foydalanadi.

Pedagogik texnika tushunchasi ikki tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchining o'z xulq - atvorini boshqara olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmasi: o'z tanasini /mimika, pantomimik va his – tuyg'usini, kayfiyatini boshqara olish/ ortiqcha ruhiy tanglikdan, keskinlikdan holi bo'lish va ularni kamaytirish hamda yo'qota olish, ijodiy holatni tashkil etish/: o'qituvchining ijtimoiy – pertseptiv qobiliyati /diqqati, kuzatuvchanligi, tasavvur etishi/: nutq texnikasi / nafas olish, ovozni yo'lga qo'yishi, tovlanishi, talaffuzi, nutq sur'ati/.

2. O'qituvchining yakka shaxs va jamoaga ta'sir etishi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmasi, o'kitish va tarbiyalashdagi texnologik jarayonni ifodalayodi: didaktik ko'nikmalar, tashkilotchilik ko'nikmasi konstruktiv va kommunikativ qobiliyati; pedagogik munosabatni boshqarishi; jamoaning ijodiy ishini tashkil eta olishi va boshqalar.

O'qituvchining kasbi aloqa qilish, muomala va munosabatga kirishish bilan bog'liq faoliyat deb qaraladi. Shu sababdan uni yakka shaxsga ta'sir etishdangina iborat deb emas, balki jamoa bilan birgalikdagi faoliyatga bog'liq deb ham qarash zarur va buning uchun shunga doir ko'nikmalarni ham egallash kerak bo'ladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'kituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish)va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan

o`z - o`zini tarbiyalash)dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o`z - o`zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o`zida mohir o`kituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o`ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari bu harakatda ham pedagogik texnikani egallash muhim rol o`ynamog`i lozim.

Tashkiliy – metodik jihatdan pedagogik texnika mashg`ulotlari individual, guruh yoki ketma – ketlikda o`tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma`ruzalarda yoki tegishli adabiyotni (xususan, mazkur qo`llanmani) mustaqil o`qishda egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (to`g`ri artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma – ket ko`rsatilishi mumkin. Tegishli ko`nikmalarni ishlab chiqish individual ishlashni – dastlab o`kituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlashni talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda guruh tarzda ish olib borish alohida rol o`ynaydi. Pedagogik texnika mashg`ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqs adga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o`qituvchilar uchun mo`ljallangan o`kuv va metodik adabiyotlarda yetarli darajada ko`rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda pedagog oldida o`zini boshqa kishilar ko`zi bilan ko`rish, xulq - atvor va muomalaning yangi shakllarini izlash va sinab ko`rish, o`zining odamlar bilan birga qiladigan ishi xususiyatlarini anglash va kasbi faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo`ladi. Guruh shaxsning o`z - o`zini bilish va o`z -o`zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko`riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo`lib qolishi mumkin.

Psixologlarning pedagogik texnikani guruh bo`lib o`rgatish ishida bunday guruhlarning eng qulay miqdori 10 -14 kishidan iborat bo`lishi belgilab berilgan. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini to`liq ravishda aniqlab, hal

etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm – farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z - o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z - o'zini tarbiyalash bo'yicha jiddiy ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik texnikasi - shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beradi.

### **Savol va topshiriqlar**

- 1. Pedagogik texnika qanday malakalarni o'z ichiga oladi?**
- 2. Pedagogik texnika o'qituvchi faoliyatida qanday rol o'ynaydi?**
- 3. Pedagogik texnika bilan pedagogik mahorat qanday nisbatda bo'ladi.**

## **10 –Mavzu. O`QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI MAHORATI.**

O`quvchilik iste'dodi, ixtisosligiga layoqati to`g`rsida gap borganda muallimlarni shartli ravishda uch toifaga ajratamiz. Izlanuvchan, ijodkor o`qituvchilar birinchi toifani tashkil etsa, ikkinchi toifaga o`z vazifasini nimadan boshlanishi bilmay qiynalayotgan o`qituvchilar, ta'lim va tarbiya ishiga tasodifan kirib qolgan o`qituvchilar esa uchinchi toifa doirasida «faoliyat» ko`rsatadilar.

Maktab xalq ta'limi ishida birinchi toifaga kiruvchi, to`la ma'nodagi ijodkor muallimlar hal qiluvchi kuch hisoblanadilar.

Darsning bilim berishdagi rolini, uning mas'uliyatini sezgan har bir ilg`or pedagog mashg`ulotga puxta tayyorlanib, uni mazmunan boyitadi, tinmay izlanib, o`qitishning yangi usullarini yaratib, maktab ta'limida qo`llashga intiladi. Shu yo`l bilan 45 daqiqa darsni yaxshi bir asar yanglig` o`z o`quvchilari ongiga singdiradi. Bunday fidoyi ziyobaxsh qalb egalari shaxsiy ijodiy qobiliyati va boy tajribasi bilan ta'lim jarayonini boyitishiga munosib hissa qo`shadilar. Shu tariqa har bir ijodkor o`qituvchi o`zining haqiqiy muallimlik mahoratini yaratadi.

O`qituvchi orttirgan tajribasini dars berish jarayonida qo`llashi bilan birga yuksak pedagogik madaniyatini ham yorqin namoyon eta bilishi kerak. Ammo ba'zi bir o`qituvchilarda tadbirkorlik, siyosiy bilim, munozara olib borish madaniyati yetishmaydi. Buning o`rniga haddan tashqari hissiyotga berilishi, toqatsizlik hollari yuz bermoqda. Jamiyat madaniyat bo`lmas ekan aloqiylik ham bo`lmaydi. Odob, madaniyat bo`lmasa ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy qonunlar amal qilmaydi, zamonaviy ilm – fan, xususan ta'lim rivoj topmaydi.

Ta'lim – tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni pedagogik ta'limning tarkibiy qismiga aylantirishda o`qituvchi ma'naviy – axloqiy qiyofasi yetakchi o`rin tutadi. Binobarin, o`qituvchi faoliyatining ana shu yo`nalishi uning pedagogik bilim va mahorati bilan uyg`unlashib borishi lozim. Shu sababli o`qituvchilarni tayyorlash mazmuni ularning professional madaniyati bilan uzviy bog`liqdir. O`qituvchi uchun zarur bo`lgan narsa bu pedagogik madaniyatdir. Mazkur tushuncha mohiyat – e'tibori bilan o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi

hamkorlik aloqasini izohlaydi. Shunga ko`ra ta'limni insonparvarlashtirish masalasi mazkur masalada hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Dasr jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar shaxslararo muloqat va munosabatlarni, o`zaro hurmat va ishonch hamkorligini yo`lga qo`yishga erishildi. Garchi bu jarayon oson yo`l bo`lib hisoblansa ham, biroq ana shu usul asosida ish ko`rgan o`qituvchi o`zi xohlamagan holda ta'lim mazmunini va sifatini ilmga moslashtirishga intildi. Bunda o`qituvchi va o`quvchilarni didaktik hamkorligi ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Dars davomida ta'lim mazmuni, shakli orqali axloqiy sifatlar shakllanib boradi. O`quvchlarda madaniy, irodaviy zo`r berish sifatlari tarbiyalab boriladi.

Psixologik madaniyat ham pedagogik madaniyatga mazmun jihatdan yaqin turadi. bu tushuncha mazmuni o`quvchi va o`qituvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi asosini belgilaydi. Ushbu ma'rifiy jarayon «inson – shaxs - rivojlanish», «shaxs – jamiyat», «shaxs - kasb», «shaxs – mahorat -ijodkorlik» ko`rinishlarida amalga oshadi.

Pedagogik va psixologiya o`qituvchidagi uyg`unlik metodik madaniyat qirralari bilan bog`lanib ketadi. O`quvchining ongi, qobiliyati, iste'dodiga kuchli ta'sir ko`rsatilib, axloqiy – madaniyatli yangi inson shakllantiriladi. O`qituvchi bu masalalarni hisobga olib, o`z madaniyat saviyasi, bilimi orqali o`quvchilarning qiziqish va ma'naviy ehtiyojlarini o`stirishga intiladi.

Bo`ljak o`qituvchi uchun metodik madaniyat juda muhimdir. Mazkur ta'limiy jarayonni egallashi uchun yosh o`qituvchi muayyan tushuncha, bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirib borishi kerak. «O`qituvchining metodik mahorati», «Chet tili (fizika, ximimya va boshqa fanlar) o`quv predmeti sifatida», «Muayyan fanlar o`qitish metodikasi», «Ta'limning texnika vositalaridan foydalanish metodikasi» kabi o`quv qo`llanmalaridan keng foydalanishga to`g`ri keladi.

U yoki bu predmetdan sinfdan tashqari ishlarni uyushtirishga tayyorgarlik ko`rish, maktabda o`quv amaliyotini o`tkazish ham metodik madaniyatning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyat o`qituvchi madaniyat saviyasini o`stirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu madaniyatni bilish orqali hisoblanadi. Ushbu madaniyatni bilish orqali o`qituvchilardan ijtimoiy – siyosiy bilimlar hajmi yanada ortadi.

Ma'naviy madaniyat o`z ichiga ko`pgina tushunchalarni qamrab oladi. Masalan, musiqa san'atiga doir mashg`ulotlar amaliy ahamiyat kasb etadi. muayyan fan o`qituvchilari rasm chizish bilan ham mashg`ul bo`ladilar. Shuningdek devoriy gazetalar chiqarish, turli ko`rsatmali qurollar yasash ham ko`zda tutiladi.

Jismoniy madaniyat ko`nikmasini singdirib borish barcha turdagi mashg`ulotlar chog`ida amalga oshiriladi, albatta. Ochiq havoda mashq qilish lo`killab chopish, sayr etish mashg`ulotlarda toliqqan ishlarga bardamlik, tetiklik va yaxshi kayfiyat baxsh etadi.

Ko`rinib turibdiki, o`qituvchining professional madaniyati ko`p qirrali bo`lib, bir – biri bilan o`zaro bog`liq holda rivoj topadi. U pedagogik mahorat, ma'naviy axloqiy kamolatning muhim sharti yanglig` o`qituvchi madaniyati qirralarini rivojlantirishga kuchli ta'sir ko`rsatadi. Bunday faoliyat yordamida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Madaniyat olamiga moyillik o`qituvchi ma'naviy qiyofasini o`stirishga yordam beradi.

2. O`qituvchilik o`z fani bo`yicha darsda va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda rivoj topgan pedagogik mahoratni yanada o`stiradi.

3. Madaniylik estetik faoliyatning predmeti sifatida yosh o`qituvchining ijodiy qobiliyati va romantik tuyg`usini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Go`zal hissiyot, nafosat tuyg`usi, ongli estetik ta'sir o`qituvchining ma'naviy – madaniy boyligiga aylanadi.

Pedagogik professional madaniyat o`qituvchi shaxsida ma'naviy – estetik tuyg`uni, did va idrokni tarkib toptirishni rivojlantirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. ana shu tadrijiylikni takomillashtirib borish ma'anviy boylikni madaniy qiyofa bilan uyg`unlashtirishning hal qiluvchi asosiy sharti bo`lib xizmat qiladi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan katta aql – zakovat, sabr – matonat, o'qituvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr – muhabbatli bo'lishlikni talab etadi.

O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilmi va tajribasini orttirib boruvchan bo'lishi, o'quvchilarni chuqur tushunishi, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borish va zarur paytda so'z, ish yoxud amaliy harakat bilan yordam berolish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

Mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar xalq ta'limi sohasiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Xalq ta'limida uzoq yillardan buyon saqlanib qolgan turg'unlikka barham berish yo'llaridan biri o'quvchi va o'qituvchining ijodiy – faolligini oshirishdir.

Ijodiy faollik haqida gap ketganda, avvalo, ijodkorlikning mohiyatini anglamoq zarur. Tafakkur va faoliyatning izlanish yakuni bo'lgan yangilikning yaratilishida oldingi tajribalardan ham keng foydalanadi.

Inson oldida tayyor yechilish qoidasiga ega bo'lmagan masala turganda ijodkorlika ehtiyoj paydo bo'ladi. ta'lim – tarbiya jarayoni ana shunday xususiyatga egadirki, uni yechish o'qituvchining mahoratiga, masalaga ijodiy yondosha bilishiga bog'liq.

Pedagogikada ikki xil ijodkorlik mavjud: ilmiy ijodkorlik va amaliy ijodkorlik. Ilmiy ijodkorlikda ta'lim va tarbiyada ilgari bo'lmagan qonuniyatlar aniqlanadi, yuqori samarali nazariyalar va metodikalar yaratiladi, ularning rivojlanish istiqbollari belgilanadi.

O'qituvchi amaliy faoliyatda ishlaganda ba'zi bir muammolarni yechishga nostandart yondashadi, o'qitishning yangi usul, yo'l va vositalarini qo'llaydi yoki bor tajribalaridan ijodiy foydalanadi. Amaliy faoliyatdagi ijodkorlikning yuqori darajasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning printsipial va yangi yuqori samarali majmuasini yaratishdir. Maorif rahbar xodimlari o'qituvchilar faoliyatidagi ana shunday tomonlarni ko'ra bilishlari va har tomonlama rag'batlantirishlari lozim. Shundagina o'qituvchilarning ijodiy ishga yo'llash

mumkin. Lekin bunda odatdagi pedagogik ishlardan haqiqiy pedagogik ijodkorlikni farq qila bilish lozim. Pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar ham ko'pincha o'z ishlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar. Ular turli ko'rsatmali qurollar tayyorlaydilar, pedagogik ishini yaxshi tashkil etadilar. O'qituvchilarning o'zlashtirish darajalari ham yomon bo'lmaydi. Lekin bu har bir o'qituvchi intilishi, bajarishi lozim bo'lgan odatdagi ish.

O'qituvchi agar ijodkor bo'lsa, ta'lim tarbiyaviy ishini tashkil etishda nostandart yo'ldan boradi. Ya'ni u ishni odatdagi ishdan boshqacharoq tashkil qiladi.

Pedagogik ijodkorlik haqida gap ketganda har qanday hayoliy tuzilgan loyihalarni haqiqiy ijodkorlikdan farq qila bilmoq zarur. Chunki bunday xayolparastlar ilmiy asoslarga ega bo'lmagan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan g'oyalarni ijodiy deb tiqishtirishlari mumkin. Bundaylar pedagogik ish uchun juda havfli. Chunki amaliyotda sinab ko'rilmagan xayoliy g'oyalar ba'zan pedagogik ishga katta ziyon yetkazish mumkin.

Pedagogik ijodkorlik deganda o'qituvchilarni anarxiyaga olib keladigan ortiqcha erkinlikni ham tushunmaslik lozim. O'qituvchilar faoliyatidagi ba'zi bir kamchiliklarni, ya'ni o'z ustida ishlamaslik, metodik g'o'rlik kabilarni ham «ijodkorlikka» qo'yimaslik lozim.

O'qituvchi agar ijodkor bo'lsa, ta'lim – tarbiyaviy ishni tashkil etishda nostandart yo'ldan boradi. Ya'ni u ishni odatdagi ishdan boshqacharoq tashkil qiladi. Pedagogik ijodkorlik haqida gap ketganda har qanday hayoliy tuzilgan loyihalarni haqiqiy ijodkorlikdan farq qila bilmoq zarur. Chunki bunday xayolparastlar ilmiy asoslarga ega bo'lmagan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan g'oyalarni ijodiy deb tiqishtirishlari mumkin. Bundaylar pedagogik ish uchun juda xavfli. Chunki amaliyotda sinab ko'rilmagan xayoliy g'oyalar ba'zan pedagogik ishga katta ziyon yetkazish mumkin. Bizning nazarimizda, «ikki» siz va ikki yilliksiz o'qish mumkinligi ana shunday g'oyalardan biri edi. bu g'oya maorif taraqqiyoti, fan va texnika, ayniqsa, odamlar dunyoqarashiga juda katta ziyon yetkazish mumkin. Bizning nazarimizda «ikki» va «ikki yilliksiz» o'qitish



usulining oqibati birinchidan, o`quvchilarning o`qishga bo`lgan ma'suliyatini pasaytirib yuborgan bo`lsa, ikkinchidan, o`qituvchi shaxsiga baho berishda ko`pgina chalkashliklarni ham o`zgartirib yubordi. Hammadan ham ayanchlisi bunday o`qitish jamiyatga ko`plab chalasavodlarni yetkazib berdi. Aftidan, qarama - qarshiliksiz rivojlanish bo`lmasligi falsafaning oddiy qonuni ekanligini bu g`oya tarafdorlari unutib qo`yganlar shekilli.

O`qituvchi o`z bilimini o`quvchilarga bera bilishi, eng muhim, ularda bilimga qiziqish uyg`otishi, mustaqil o`qish ko`nikmalarini tarbiyalash va bu borada bola faoliyatini tashkil etaishga rahbarlik qilishi kerak. buning uchun o`qituvchi tarbiyashunoslikni, ruhiyatini va o`z fanining metodikasini chuqur egallashi, fanining yangi yutuqlari bilan izchil qurollanib borishi zarur.

Pedagogik ijodkorlik deganda o`qituvchilarni anarxiyaga olib keladigan ortiqcha erkinlikni ham tushunmaslik lozim. O`qituvchilar faoliyatidagi ba'zi bir kamchiliklarni, ya'ni o`z ustida ishlamaslik, metodik g`o`rlik kabilarni ham «ijodkorlik» va qo`ymaslik lozim. Ijodkorlik ta'lim – tarbiya jarayonini yaxshilashga qaratilgan bo`lmog`i lozim.

Tarbiya mahoratining muhim bir tomoni o`quvchini faollashtirish bilan bog`liq. Chunki ta'lim – tarbiya jarayoni – ikki yoqlama jarayon. O`qituvchi ta'lim beradi, o`quvchini uni o`zlashtiradi.

Ba'zi o`qituvchilar o`quvchilar bilan uncha fikrlash va izlanish talab qilmaydigan oson masalalarni hal etish bilan cheklanadilar. Buning oqibatida o`quvchining kamolati hayot taraqqiyotidan orqada qoladi. Bu tarzda dars bergan o`qituvchi bolani oldinga tomon emas, orqaga tortadi. Tarbiya mohorati bolaning miyasini dalil va raqamlar bilan to`ldirishdan iborat bo`lmay, balki bolaga ularni tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara bilishni o`rgatishdir. Endilikda butun o`qitish faoliyatimizda bola kamolatini rivojlantirishni tezlatish eng muhim masala bo`lib qoladi.

Mohir o`qituvchi shogirdlarini hayotdan rang – barang hodisa va voqealarni sinchikovlik bilan kuzatadigan, tahlil qila oladigan, ilmiy tadqiqot ishiga

kuzatadigan, qiziqadigan bir umr o`zi o`qitgan fanining sehri bilan yashaydigan qilib tarbiyalaydi. Unday mohir ustozlarni shogirdlar bir umr eslaydilar.

Tarbiya mahoratining muhim bir ko`rsatkichi nutq madaniyatidir. So`zda nuqtadonlik, mantiq va mazmundorlik tarbiyachi uchun eng zarur sifatidir. Buning uchun o`qituvchi o`z nutqi ustida muttasil ishlashi, qisqa ifodada ko`p fikr ayta bilish mahoratini egallashi lozim. Chinakam mahoratli o`qituvchining sehrli aytadigan so`z durdonalarini shogirdlari mushtoqlik va ishtiyoq bilan tinglaydi. Bunaqa o`qituvchi bo`lish uchun tinim bilmay izlanish va o`z ustida ishlash zarur.

Dars deb bevosita o`qituvchining rahbarligida muayyan o`quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta`lim mashg`ulotiga aytiladi. Dars - o`quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Hozir maktablarimizda qo`llanilayotgan sinf – dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarida olib boriladi.

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko`ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo`ladi.
2. Dars mashg`uloti asosan 45 minutga mo`ljallangan bo`lib, qat`iy jadval orqali olib boriladi.
3. Dars bevosita o`qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
4. Dars o`tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma – xil usulda olib boriladi.

Bir soatga mo`ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg`ulot turi dars turlari deb yuritiladi. Ta`lim tizimida eng ko`p qo`llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O`tilayotgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O`qituvchilarning bilim, malaka va ko`nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

## 5. Aralash dars.

Har bir dars turining ma'lum tuzilish va xususiyatlari bor narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushintirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishga yordam beradi.

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi hatto, uchinchi bir dars turining elementlari bo'lishi mumkin. Masalan, maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turi quyidagicha tuziladi, ya'ni yangi bilimlarni bayon qilish darsi:

- a) yangi bilimlarni bayon qilish;
- b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
- s) yangi bilimlar ustida mashq qilish;
- d) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalari topshirish.

Demak, dars boshdan - oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish, uyga vazifa kabi boshqa elementlarning ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'sundiriladi. Shuning uchun bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Dars tuzilishining o'zgarish bilanoq dars olib borish usuli ham o'zgaradi.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi.

Masalan, aralash dars turining tuzilishi

- 1) Uy vazifalarini so'rash, tekshirib ko'rish;
- 2) Yangi materialni bayon qilish;
- 3) Yangi materiallarni mustahkamlash;
- 4) Uy vazifalari topshirishni o'z ichiga oladi.

Bunda:

- a) uy vazifalarini ko'rish suhbat va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining 1- qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o`qituvchi, tushuntirish hikoya qilish, maktab ma`ruzasi, suhbat kabi usullarda foydalanishi mumkin. Bu - dars tuzilishining ikkinchi qismi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash.

Usullaridan foydalanish mumkin.

Bu – darsning uchinchi bosqichi;

g) Uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu darsning to`rtinchi bosqichidir. Boshlang`ich va V-IX sinflarda ko`pincha aralash dars, mustahkamlash va bilimi, ko`nikma, malakalarni tekshirish kabi dars turlari qo`llaniladi. Yuqori sinflarda esa ko`pincha yangi bilimlarni bayon qilish, takroriy – umumlashtiruvchi dars turlari qo`llaniladi. Takroriy – umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma`lum bir qismi yoki yirik mavzu o`tib bo`lingandan so`ng ishlatiladi.

2. Turli – tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma`lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo`lmog`i lozim;
2. Har bir dars mustahkam g`oyaviy – siyosiy yo`nalishga ega bo`lmog`i lozim.
3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog`langan bo`lmog`i lozim.
4. Har bir darsda xilma – xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalanmoq lozim.
5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.
6. Har bir dars o`qituvchi va o`quvchilarning faolligi birligini ta`minlamog`i lozim.
7. Darsda o`quv materiallarining mazmuniga oid ko`rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterdan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8. Dars mashg`ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o`quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib. Xalqimizning boy pedagogik merosiga murojat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko`p jihatdan mashg`ulotni to`g`ri tashkil etishga bog`liq. Maktablarimizda darsning boshlanishi davrini – darsning tashkiliy daqiqalari deb yuritiladi. Bunda sinfning darsga tayyorgarligi kuzatiladi. Ayni paytda o`qituvchi oldida ikki vazifa turadi, ya`ni butun sinf o`quvchilari diqqatini o`ziga jalb qilish va butun sinf o`quvchilarini tezlik bilan mashg`ulotga faol kirishishlarini ta`minlash vazifalari turadi.

O`qituvchi har qanday darsga tayyorgarlik ko`ra turib, qo`yilgan o`quv maqsadiga erishmoq uchun darsning strukturasi haqida bosh qotiradi. Har bir bosqich uchun o`qish ishining tegishli mazmun va metodlarini tanlab oladi. Dars tuzilishining aniqligi yaxshi darsning belgilaridan biridir.

Agar dars yaxshi tayyorlanmagan bo`lsa, tegishli sistemada o`tilmaydi, natijada o`quv maqsadiga erishib bo`lmaydi.

Darsning sifati pedagogning bu darsga qanday tayyorgarlik ko`rganiga bog`liq bo`ladi. Faqat yosh o`qituvchilar emas, balki mazkur fan bo`yicha bir necha bor dars bergan tajribali o`qituvchilar ham darslarga tayyorgarlik ko`rishlari lozim. Har bir yangi dars, hatto, aynan bir mavzu yuzasidan bo`lsa ham, hech qachon oldingisiga o`xshamaydi. Bu bir qator sabablar bilan, avvalo o`quvchilar guruhi, ularning tayyorgarlik darajasi, darsning moddiy jihatdan ta`minlanganligi va hakazolar bilan izohlanadi.

Darslarga dastlabki tayyorgarlik o`quv yili boshlanguncha tugallanadi. U shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo`linadi.

1. Kvalifikatsiya xarakteristikasini, fan bo`yicha programmani va unga oid izohnomani o`rganish; o`quvchilarning har bir tema bo`yicha egallab olishlari lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalari hajmini aniqlash.

2. Darsliklar, o`quv qo`llanmalar materialini va fan bo`yicha yoki ishchilar tayyorlanayotgan tegishli ishlab chiqarish tarmoqlariga oid nazariy asarlarni o`rganish.

3. Fan, uning ayrim mavzu va masalalari yuzasidan darslarni o`tkazish tajribasini va metodikasiga oid nazariy masalalarni yorituvchi yangi metodik materiallarni, jurnal va to`plamlaridan olingan maqolalarni o`rganish.

4. Jihozlarni tekshirish va tartibga keltirish, ularni remont qilish va va yangilash, yetishmayotgan va yangi asoboblarni sotib olish. Jihozlarni saqlash va hisobga olish, ishlatish uchun ularni o`quvchilarga berish tartibini aniqlash.

5. Ko`rsatmali qurollar va o`quv xujjatlarini ko`zdan kechirish, ularning kamchiliklarini bartaraf etish, yetishmayotgan qo`llanmalarni sotib olish yoki tayyorlash.

6. Dastur talablariga mavjud jihozlarga, u yoki bu buyumlarga bo`lgan talablarga, shuningdek didaktik va metodik talablarga muvofiq, o`quv ishlab chiqarish ishlari va buyumlari ro`yxatini ishlab chiqish.

Har bir mavzu bo`yicha darslar tizimini o`ylab topish va taqvim rejasini tuzish fan bo`yicha o`tkaziladigan darslarga dastlabki tayyorgarlikni yakunlovchi bosqichdir.

So`ngra dars temasi bo`yicha o`quvchilarga ma`lum qilinish kerak bo`lgan material tanlab olinadi, ularga tushuntirilishi lozim bo`lgan yangi atama va tushunchalar belgilab qo`yiladi, ularni qanday yangi mehnat usullari bilan tanishtirish belgilanadi.

Darsning tuzilishini belgilash va ayrim bosqichlarini o`tkazish metodikasi o`ylab qo`yish keyingi bosqich bo`lib hisoblanadi. Agar o`qituvchi ilgari o`rganilgan material bo`yicha bilimlarni tekshirishga qaror qilgan ekan, u aynan qaysi materialni tekshirishni belgilab olishi, savollarni tuzib chiqishi va yozib qo`yishi, tekshirish uchun o`quvchilardan qaysi birini chaqirishni mo`ljallab qo`yish zarur. Bundan tashqari u yangi materilni bayon qilish metodini, bu bayon qilishning izchilligini aniqlab olishi, darsning mazkur bosqichi uchun kerak bo`ladigan ko`rsatmali qurollarni tayyorlab qo`yish lozim.

O`qituvchi bu ishni tamomlab, darsning rejasini yoki konspektini tuzadi. Reja bor bo`lganda dars ancha aniq o`tadi, o`qituvchi uni ancha xotirjam olib boradi. Bundan tashqari, reja, o`qituvchining haqiqatdan darsga tayyorgarlik ko`rganining dalili bo`lib xizmat qiladi, ya`ni plan konspekt o`qituvchining dars o`tishda asosiy hujjatdir. Hech bir o`qituvchi plankonspektsiz dars o`tishga haqli emas. Konspekt yozilganda yaxshi o`ylab, mantiqan mazmunli, hech qanday xatoliklarsiz bo`lishi kerak.

Mavzuni o`rganish rejasi mavzuning xususiyatlarini, uning o`quv predmeti mundarijasidagi o`rni va ahamiyatini, shuningdek, muayyan sinf o`quvchilarning bilim va rivojlani darajasini hisobga olgan holda tuziladi. O`qituvchi butun mavzuni o`rganishdagi umumiy yo`llarni belgilaydi. Bu yo`llar har bir alohida darsda o`rganilishi kerak bo`lgan masalalarni yaxlit birlikka bog`laydi, darsning tuzilishini, ulardan har birining mavzuni o`rganish umumiy sistemasidagi o`rnini, o`quv ishlari metodlarining tizimini belgilaydi. O`qituvchi mavzuni o`rganish planini ishlab chiqqan, har bir alohida darsning o`rni,, maqsadi va rejasini osongina belgilab oladi.

O`qituvchining darsga tayyorgarligi har bir aniq dars rejasini ishlab chiqishni o`z ichiga oladi. Rejani tuzish mavzuni o`rganishda darsning o`rnini belgilashdan boshlanadi, so`ngra uning maqsadi va mazmuni aniqlanadi, o`qitish metodlari ishlab chiqiladi.

Rejada darsning mavzusi va maqsadi yoziladi, takrorlash, yangi materialni bayon qilish qanday o`tkazilish qanday metodlardan foydalanishni ko`rsatiladi. O`qituvchi bayon etishning asosiy yo`nalishini ko`rsatadi, dalillar va misollarni yozib oladi, materialni mustahkamlash qanday o`tkazishni, kimdan so`rash kerakligini yozib qo`yadi. Reja oxirida uyga beriladigan topshiriq yoziladi.

4. Kam butlangan maktablarda navbatma – navbat ish olib borganligi tufayli ko`pgina ish vaqti bekorga ketadi. Ko`pchilik vaqti ketadi o`qituvchilar bunga ko`nikib qolganlar. O`qituvchi bir sinfga yo`l – yo`riq berayotganida boshqa sinf o`quvchilari bekor o`tiradilar.

O`quv reja tuzayotganida vaqtini vaqtini ish turlari bo`yicha hisoblab chiqishi muhimdir. Rejada sinflardan biri o`qituvchi bilan, boshqasi esa mustaqil ravishda shug`ullanadigan dars bosqichlari belgilangan bo`lsagina, vaqtini aniq hisoblab chiqish mumkin. Shuning uchun dars rejasini tuzish vaqtida avval har bir sinf o`qituvchi bilan yoki mustaqil ravishda qachon va qancha vaqt davomida shug`ullanishini aniq belgilab olish ma`qulroqdir. Mustaqil mashg`ulotlar vaqtini hisobga olgan holda topshiriqlar tanlanadi, O`qituvchi o`z rahbarligi ostida o`tadigan mashg`ulotlar va bolalarning mustaqil ishiga ajratiladigan vaqtini asta – sekin baravarlantirishga erishsa juda yaxshi bo`ladi.

O`qituvchi bilan ishlash va o`quvchilarning mustaqil mashg`ulotlari uchun vaqtini taqsimlash vaqtida bir qancha vaziyatlarni e`tiborga olish lozim. Quyi sinfda, shuningdek, hajmi va murakkabligi jihatidan katta material o`rganiladigan sinfda o`qituvchi rahbarligi ostida o`tkaziladigan mashg`ulotlar uchun ko`proq vaqt ajratishga to`g`ri keladi. Rejalashtirish vaqtida har bir sinfning tayyorgarlik darajasi va material qay darajada o`zlashtirishganligi hisobga olinadi. O`qituvchilarning mustaqil mashg`ulotlari ham puxta planlashtiriladi. Darsda vaqtning behuda ketishiga yo`l qo`ymaslik maqsadida bu topshiriqlarni olindan tayyorlab qo`yish tavsiya etiladi. Topshiriqning aniq va puxta ta`riflanishi, o`quvchilarni mustaqil ishning turli usullarini bajarishga o`rgatish, tez ishlaydigan o`quvchilar uchun rezerv topshiriqlar tayyorlash katta ahamiyatga ega. puxta o`ylab berilmagan topshiriqlar o`quvchilarda faollikni keltirib chiqarmaydi.

Barcha mustaqil topshiriqlar u yoki bu shaklda nazorat qilinishi kerak. nazorat qilib turish formalari xilma – xil bo`lish mumkin.

Ko`chma doskaga yozilgan namuna bo`yicha o`quvchilarning o`z - o`zlarini tekshirishlari, o`quvchilar yoniga borib darsda ish qanday borayotganligini tekshirish, daftarlarni puxta tekshirib chiqish shular jumlasidandir.

Bu xil butlangan maktab sharoitida o`quvchilarning o`qituvchi rahbarligi ostida ishi bilan ularning mustaqil ishini yaxshiroq birga qo`shib olib borish uchun rejani har bir sinf uchun alohida emas, balki kompleks tarzda tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.



Xulosa qilib shuni aytish joizki, o`qituvchilik kasbi sharaflı kasblardan biri bo`lishi bilan birga juda ma`suliyatli ham kasbdır.

Har bir o`qituvchi darsga tayyorgarlik ko`rar ekan, unga yengil – yelpi, yuzaki qaramasdan, balki uning mas`uliyatini bilan holdasidqidildan yondashish kerak. bu mas`uliyat, ayniqsa, boshlang`ich sinf o`qituvchilaridan talab qilinadi. Chunki bolalarga ilk poydevorni boshlang`ich sinf o`qituvchilari quradilar. Berilgan ta`lim, qurilgan poydevor qanchalik mustahkam bo`lsa, kelajakka ishonch shunchalik ortaveradi. Zero, hurmatli Prezidentimiz ta`kidlaganidek, kelajagimiz – yosh avlod qo`lida. Yosh avlodni to`g`ri tarbiyalash, ilmli, zukko, ma`naviyatli qilib yetishtirish esa o`qituvchi va murabbiylar qo`lidadir. Shunday ekan, har bir o`qituvchi ilm berar ekan, avvalo bolalarni sevib, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalab, o`z fanini chuqur bilgan holda sidqidildan dars o`tmog`i kerak.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Pedagogik ijodkorlik nimalarga bog`liq bo`ladi?
2. Darsga qanday didaktik talablar qo`yiladi?
3. Ijodiy faollik deganda nimalarni tushunasiz?

## **O`QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI MAHORATI.**

Mamlakatimizda xalq ta'limi sohasida o`rtaga qo`yiladigan vazifalarni bajarish ko`p jihatdan o`qituvchi – tarbiyachilarga bog`liq. Tadbiiq etilayotgan yangi ta'lim tizimini to`laqonli amalga oshirish, o`quvchilarning xilma –xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odob- axloqli, mehnatkash, talabchan va umuman komil inson bo`lib yetishishlarida, hozirgi zamon talabidagi bilimlarni berish mohir tarbiyachi - o`qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan.

Tarbiya bola tug`ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Bolalarga tarbiya berish tarbiyachining burchidir. Mana shu vazifani bajarish uchun o`qituvchilar pedagogik jihatdan mahoratli bo`lishlari lozimdir.

Pedagogik mahorat – tarbiyachi ish faoliyatining muvaffaqiyatli bo`lishi ko`p jihatdan uning pedagogik tayyorgarligi hamda mahoratiga bog`liq. Pedagogik mahorat tarbiyachilarning o`z pedagogik malakalarini oshirish, siyosiy hamda madaniy dunyoqarashlarini kengaytirish orqali muntazam tarzda ish olib borishlari natijasida vujudga keladi. Tarbiyachi mahorati ko`p qirralidir. Mahorat kasbiy tayyorgarlikdan, nazariy bilim va ish tajribasini doimo oshirib borishdan, bolalarga bo`lgan muhabbatidan kelib chiqadi. Tarbiyachi mahorati – bu yosh avlodga ta'lim – tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san`atidir.

Tarbiyachi mahoratini ayrim pedagoglarga egallamaydilar, balki, bu san`atga intilgan har bir pedagog egallashi mumkin.

Har bir tarbiyachi pedagogik texnika va texnologiyalarni, qobiliyatlarni rivojlantirib, yangi bilimlar bilan boyitib borsalargina pedagogik mahoratni muvaffaqiyatli egallashga yordam beradi. Tarbiyachi mahoratini o`stirish va takomillashtirishda tarbiyaviy ish tajribasi hamda shaxsiy pedagogik tajriba muhim rol o`ynaydi. Tarbiyachi mahorati pedagogning o`z predmetini mutlaqo yaxshi bilishini, tarbiya va ta'limning qonuniyligini tushuntirishni, unda zaruriy pedagogik malaka va ko`nikmalar mavjudligini ko`zda tutadi. har qanday pedagogik ishning ustasi bo`lgan pedagog, bolalar bilan, ularning ota - onalari

bilan, o'z hamkasblar bilan haqiqiy axloqiy, chuqur insoniy munosabatlar o'rnata biladigan kishigina o'quvchilar uchun namuna bo'ladi.

O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish samaradorligi ko'p jihatdan sinf bilan to'g'ri munosabat o'rnata bilish juda qiyin, deyarli muhim bo'lmaydigan holdir. Buning uchun vaqt kerak bo'ladi.

Pedagogik ixtirologiyani egallash mahoratli tarbiyachi uchun o'z fanini zamonaviy fanlar darajasida yaxshi bilishi va pedagogning uslubiy qurollanganligini, pedagogik tabiatini shakllantirishni va unda tarbiyalanuvchilar bilan muloqatda zarur bo'ladigan hulq - atvor va malakalarining egallashini nazarda tutadi.

Pedagoglik mahoratini shakllantirishga bolalar bog'chasi va maktab pedagoglar jamoasi, kadrlar tayyorlashni maqsadga muvofiq oshirsa, pedagoglar jamoasida yosh hamkasbga talabchan bo'lishadi. o'z bilim va faoliyatini tanqidiy baholaydi. Muvaffaqiyat va xatolarini ko'ra olishiga hamda o'z xatolarini bartaraf etishga o'rgatiladi.

Mohir tarbiyachi bolalar bilan ishlash mazmunini yetarlicha egallaydilar. Bu anglash o'qituvchilarning o'qish bilan doimiy shug'ullanganlaridan yuzaga keladi. Tarbiyachining jamoa bilan kirishib ketishi o'z ishidagi kuchli va zaif tomonlarini bilishi: bilimlarni doimo to'ldirib borish tarbiyachining mahorat yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a siljishini ta'minlaydi.

Mohir tarbiyachi ta'lim – tarbiya ishlarini yaxshi usullaridan foydalanadi va yangi usullarni izlaydi. Bu vaqtda u o'z o'rtoq, hamkasblarining, buyuk ma'rifatparvarlarning ulkan tajribalariga va ularni baholash usullariga tayanadi. Har doim tarbiyachi va o'qituvchining e'tibori o'zi bayon qilayotgan narsalarning mazmuniga emas, balki materialni qanday o'zlashtirayotganligiga yoxud o'zlashtirganliklariga, qiyinchilik va bolalarning xatolari nimalardan kelib chiqishiga qaratiladi.

Har bir mohir tarbiyachi quyidagi pedagog shaxs xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi:

-mahoratni egallashga jon – dildan intilish;

- o`z mehnat natijalari, bolaga o`z ta`siri uchun mas`uliyat, o`z ishiga sodiqlik;
- mustaqil ijodiy intilishga qiziqish;
- manmanlik, bamaylixotirlikning yo`qligi;
- xayrixohlik va ishda o`rtoqlarcha yordam berishga hozirlik. Bu pedagogning o`z muassasasi, shahri va uslubiy ishlarda faol qatnashishida namoyon bo`ladi.

So`z mohir tarbiyachi ustida borar ekan, uning tashqi ko`rinishi haqida gapirib o`tishimiz lozimdir:

Avvalambor, tarbiyachining tashqi ko`rinishi estetik talablarga javob berishi kerak. O`z ko`rinishi bilan bolalarning har birini o`ziga jalb qila olishi lozim, shuningdek, haddan tashqari o`ziga oro berish yarashmaydi.

O`qituvchi – tarbiyachining sochlari, pardozli, kiyim – kechagiyu undagi bezaklar pedagogik maqsadni yechishga bo`ysungan holda o`quvchi va tarbiyalanuvchi shaxsiyatining shakllanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatish kerak. Shuningdek, tarbiyachi tashqi ko`rinishining go`zalligi uning yurish – turishidagi chiroyli xatti - harakatlari va tuzilishidagi muloyimligi, shirinso`zligi, xarakteridagi o`ta bosiqlik bilan ifodalanadi.

Tarbiyachilarning bolalar oldiga kirishi, ularga qarashi, salomlashishi, stul (kursi)ga o`tirishi, sinfxona bo`ylab yurishi bu kabi ikir – chikirlarning hamma - hammasi bolaga nisbatan ta`sir kuchi hisoblanadi.

Imom Buxoriyning «Al – jomi` as –sahih» (Ishonarli to`plam) hadislar to`plamining «Ilm kitobi» bobida ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o`rganish va o`rgatish odobi to`g`risida ma`lumotlar berilgan. Ushbu bobda payg`ambrimiz Muhammad (S.A.V)ning ilm o`rgatish va o`rganishga doir hadislar keltirilgan. Ularning tahlili, ilm o`rgatuvchiga nisbatan quyidagi didaktik talablar pedagogik - axloqiy g`oyalarni ifodalashga imkon beradi:

Masalan: - ilm beruvchi tinglovchilarga berayotgan ilmini ravon, tiniq va o`z iste`dodini namoyon etgan holda notiqlik san`atiyla yetkaza olishi kerak;

-biror ta`limiy yoki tarbiyaviy masalani o`rtaga tashlab, muhokama, munozara yo`li bilan o`rgatish;

- ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o`rganish, esda mustahkam saqlash kabi pand – nasihatlar bayon etilgan.

O`qituvchi tarbiyachilar uchun o`quvchilarni o`rganish asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O`qituvchilarni o`rganish mahoratli o`qituvchi bo`lish uchun ham juda muhimdir. Tarbiyachilarning o`quvchilarni o`rganishlaridan maqsad o`quvchilarning bilim olishini, komil bo`lib yetishishini ta'minlashdir, zotan, ustoz o`z yo`lidan adashsa, jamiyat o`zligini yo`qotadi, ya'ni yomg`irli kunlarning birida o`z zamonasining ulamolaridan biri yo`lda ketayotsa, 9-10 yoshlardagi bir bola uning yonidan yugurib o`tib qolibdi, shunda u kishi ketayotgan bolani «Ehtiyot bo`l! Loyga yiqilib tushasan!» deya ogohlantiribdi. Ushbu gapdan so`ng bola to`xtab, ulamoga yuzlanibdi va «Ey ustoz! Men yiqilsam faqat ustim loy bo`ladi, ammo siz yiqilmang! Siz yiqilsangiz butun jamiyat «loy» bo`ladi!» deya javob qilibdi. Insonni bir zum bo`lsa-da, falsafiy fikrlashga majbur etadigan ushbu holat «jamiyat tarbiyachisi» bo`lgan ustozlar zimmasida naqadar mas'uliyatli vazifa turganligini ko`zgu yanglig` akslantiradi. Tarbiyachi uchun har bir o`quvchining ruhiyatini tushuna olish, ular bilan muomala qila olish jamiyatni «loy»ga botishlikdan asraydigan omildir.

O`quvchilarni o`rganishga qo`yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

O`quvchilarni o`rganish qator talablarga javob bergan taqdirdagina, u o`z oldiga qo`yiladigan maqsadga erishadi va lozim bo`lgan natijalarni beradi. maktablar tarbiyaviy ishlarining tashkil etilish, tajribalarini o`rganish va tahlil qilish asosida o`quvchilarni o`rganishda amal qilinishi lozim bo`lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin:

1. Bolalarni o`rganish, ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo`ysundirilmog`i darkor. O`quvchilarni muntazam tarzda o`rganish asosida boshlang`ich jamoaga hamda alohida o`quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondoshish mumkin. Bu o`rganish asosida, o`quvchilarning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O`z o`quvchilarini yaxshi o`rganish – demak, o`z tarbiyaviy ishini ko`p darajada yengillashtirish, bu

tarbiyaviy ishni yanada aniq va maqsadga yo`naltirilgan tarzda olib borish zarur ekanligini har bir tarbiyachi bilmog`i lozimdir.

2. O`quvchilarni o`rganib, ularga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish. O`quvchi shaxsini o`rganish ham pirovard maqsad emas, balki ularga tarbiya va ta`lim berish uchun zaruriy shart – sharoitdir. Odatda tajribali sinf rahbarlari o`rganayotib tarbiyalab borish va tarbiyalayotib o`rganib borish qoidasiga amal qiladilar. O`qituvchilarni o`rganish – bu tarbiyachilar uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning zarur shart sharoiti bo`lib xizmat qiladi, tarbiyalash esa o`z navbatida o`quvchilarni kamol toptirish jarayonida ularni o`rganishning asosiy yo`llaridan biri sifatida foydalaniladi.

3. O`quvchilarni o`rganishni rejali tarzda va muntazam olib borish darkor. O`quvchi hulq - atvoridagi yakka – yarim uchraydigan va tasodifiy voqea emas, balki uning shaxsida ko`p uchraydigan xususiyatlarni o`rganmoq kerak. Shuni hisobga olish mumkinki, o`quvchilar hamma vaqt o`sib, kamol topib boradilar, ularning qiziqishlari doimo o`zgarib boradi, ularning ichki dunyolari doimo boyib boradi. Shuning uchun ham o`quvchilarni faqat rivojlanishdi o`rganmoq va bu rivojlanishni faol boshqarib borish zarur.

4. O`quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyat sharoitida o`rganish. O`quvchini ta`lim jarayonida ijtimoiy – foydali mehnatda va jamoat ishida o`rganish lozim. O`quvchilarning o`qituvchilar va o`quvchilar jamoa bilan, ota – onalar va tevarak – atrofdagilar bilan kirishadigan munosabatlarini o`rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. O`quvchilarni xilma – xil metodlar bilan o`rganish.

O`rganish usullari qanchalik turli – tuman bo`lsa, o`quvchilarni shunchalik to`la va asosli o`rganish mumkin bo`ladi. O`quvchi shaxsini o`rganishning asosiy usullaridan biri uning ish faoliyati va xatti - haraktini o`rganishdan iboratdir. Ayni bir vaqtda qo`shimcha usullar sifatida o`quvchilar bilan mazkur sinfda ish olib boradigan o`qituvchilar va o`quvchilarning ota – onalari bilan suhbatdan foydalanadi. O`quvchilarning insholarini tahlil qilish va ular ish faoliyatlari natijalarini tahlil qilish singari usullar ham qo`llaniladi.

6. O`quvchilarni o`rganib, ular hayoti va turmush sharoitlari bilan tanishish. O`quvchilarni faqat o`quv – tarbiya jarayonida mehnatda o`rganish bilangina cheklanib qolish mumkin emas. O`quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutuqlari va kamchiliklari eng avvalo uning ta`lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy – foydali faoliyatda namoyon bo`ladi.

7. Shaxsning alohida xususiyatlarini emas balki butun shaxsini o`rganmoq darkor. Tarbiyachilar tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o`quvchi hulq - atvorining ayrim tomonlarini o`rganishga e`tiborni qaratish mumkin. Masalan, uni o`quvchilar qunt - hafsalasi, uyushqoqligi, mustaqil ishlash masalasi va shu kabilar qiziqtirish mumkin.

O`quvchilarni har tomonlama o`rganishga erishmoq uchun, o`rganish rejasini oldindan yaxshi o`ylab tuzish, o`quvchilarning o`rganish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularini tayyorlab olish zarur.

### **O`QUVCHILARNI O`RGANISH REJASI**

Nimani o`rganmoq darkor? Tarbiyachilar o`quvchilarni o`rganishga kirishar ekan, nimani o`rganishini, nimaga asosiy e`tiborini qaratishi lozimligini aniq tasavvur qilib olmog`i kerak. O`quvchilar keng va har jihatdan o`rganilgan bo`lsa, keyin ularga o`rganish jarayonida o`quvchining umumiy va siyosiy kamoloti, uning ma`naviy qiyofasi, xarakteri, xususiyatlari, o`zlashtirishlari va tartib – intizomi, mehnatsevarligi, madaniy xulq - atvori va uning shaxsidagi boshqa jihatlar aniqlanadi.

### **O`QUVCHILARNI PEDAGOGIK KUZATISH.**

O`quvchilarni pedagogik kuzatish – bu usul o`quvchilarni o`rganishning asosiy usulidir. Kuzatish o`quvchilar hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitlarida ularni sistematik tarzda o`rganishga qaratmog`i darkor. Bu ish darslarda, darsdan iashqari vaqtlarda ijtimoiy – foydali mehnat sharoitlarida olib boriladi. O`quvchilarni o`rganish tarbiyachidan o`z ishiga talabchan bo`lishini taqazo etadi.

odatda, sinf rahbari o`quv yili oxirida taynilanadi. Agar o`qituvchiga yangi, unga tanish bo`lmagan sinfdan rahbarlik qilish topshirilsa, u o`quv yili boshlanguncha mazkur sinf o`quvchilari bilan tanishishga kirishadi.

Dastlabki tanishishning usullari qanday?

1. O`quvchilarning shaxsiy ma`lumotlari bilan tanishi. O`quvchilarning shaxsiy ma`lumotlaridan o`quvchilar to`g`risidagi salomatligi haqidagi, ularning tarbiyalanganligi to`g`risidagi dastlabki ma`lumotlarni topish mumkin.

2. O`tgan yilgi sinf jurnalini ko`rib chiqish. Bu o`quvchilarning o`zlashtirishi va hulqi bilan tanishishga yordam beradi. shu bilan birga, sinf rahbari shu jurnal asosida o`z sinfidagi o`quvchilar ro`yxatini tuzadi va o`quvchilarni dastlabki o`rganish hamda ularni bundan keyingi kuzatishni yozib borish uchun o`z kundalik daftaridan har qaysi o`quvchiga ikki – uch bet ajratib qo`yadi.

3. Oldingi sinf rahbari bilan sinfda ishlaydigan o`qituvchilar bilan suhbat olib borish. Sinf faoli to`g`risida, xususan sinfdagi o`quvchilar to`g`risida, shuningdek, o`ziga alohida e`tibor berilishini talab qiladigan intizomsiz va to`polonchi o`quvchilar to`g`risida ma`lumotlar to`plash ayniqsa muhimdir.

4. Maktab direktori va ilmiy bo`lim mudirining axborti maktab direktori va ilmiy bo`lim mudiri ham sinfga hamda alohida o`quvchilarga umumiy xarakteristika berishi mumkin. Shuning uchun, sinf rahbari yangi sinfni qabul qilar ekan, ular bilan, albatta, suhbatlashishi kerak. bu suhbat vaqtida butun sinf to`g`risida umumiy axborotlar olishgina emas, balki qaysi o`quvchilarga alohida ahamiyat berish kerakligini aniqlab olish ham mumkin.

5. O`quvchilar bilan o`quv yili boshlangunga qadar shaxsan uchrashuvlar uyushtirish. O`quv mashg`ulotlar boshlangunga qadar sinf rahbari o`z sinfining bo`lg`usi o`quvchilari bilan bir muncha hollarda maktabda yoki ularning uylarida uchrashishi mumkin. O`quvchilarning ayrim guruhlari sinf xonalarini tartibga solishlari, maktab uchun yoqilg`i g`amlashda, o`quv – ko`rgazmali qurollar tayyorlashda va boshqa ishlarda yordam berishlari mumkin.

6. O`quvchilarning ota – onalari bilan suhbat. Ba`zi bir sinf rahbari ba`zan o`quv yili boshlangunga qadar va birinchi o`quv choragining boshlanishidayoq ayrim o`quvchilarning uylariga borib, ularning hayot sharoitlari va turmushlari bilan oldindan tanishadilar.



O`quvchilarni o`rganish jarayonida ularning xatti - harakati hamda qiliqlarini keltirib chiqargan sabablarga ham e'tibor bermoq lozim. Tarbiyachilar o`z tarbiyalanuvchilarini faqat ayrim darslarda kuzatmasdan, doimiy nazoratga olishlari lozimdir.

Tarbiyachi mahoratining tizimi – bu tarbiyachilarning o`zlarida mujassamlashtirgan ijobiy xislatlari majmuasidir. Bu xislatlar tarbiyachining mahorat egasi ekanligini yaqqol namoyon etadi. Mahoratli tarbiyachi haqiqiy mahoratni egallashi uchun tinmay izlanishda bo`lmog`i, mana shu izlanish jarayonida esa estetik, axloqiy xususiyatlarni o`rganishi, bilishi lozimdir. Tarbiyachining estetik, axloqiy xislatlari – bu tarbiyachining ma'naviyatli, madaniyatli, go`zallikka intilgan, odob – axloq qoidalarini yaxshi biladigan, muomala madaniyati, kiyinish san'atini, milliy urf- odatlarimizni, o`qituvchilik burchini yaxshi o`rganib, mana shu ijobiy fazilatlardan foydalana oladigan insonlardir.

O`qituvchilik burchi. Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o`z vazifasini to`liq bajarishi, boshqalarga (to`liq) to`g`ri munosabatda bo`lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo`lgan munosabati namoyon bo`ladi. ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o`qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallimning bolalarga o`rgatadigan g`oyalari uning qalbidan joy olib, dunyoqarashining asosi bo`lishi zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug`orilgan bo`lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, o`z xatti - harakatlarini nazorat qila, bilish, kamtarlik, insonparvarlik, o`z qadr - qimmatini to`g`ri bahlolay olishiga imkon beradi. Fuqarolik burchini his etish butun xalq va O`zbekiston davlatining buyuk kelajagi to`g`risida g`amxo`rlik qilishini taqazo etadi. Davlat oldidagi burchni teran anglagan, mafkuraviy barkamol muallim insonga izzat - hurmatli, yoshlarga g`amxo`r, mehribon, boshqalarga yordam qo`lini cho`zishga doimo tayyor turadigan kishidir. O`qituvchi axloqida burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun g`amxo`rlik qilishni talab etadi.

Tarbiyachining milliy urf - odatlarni bilishining ahamiyati kattadir. Milliy urf – odatlar o`zligimizni anglashimizda, ota – bobolarimizdan qolgan milliy merosimizni o`rganishimiz uchun o`zbekka xos odatlarni bilishimizda asos bo`lib xizmat qiladi. Mahoratli tarbiyachi har bir tarbiya jarayonini milliy an`analarimizga mos olib borishi lozimdir.

O`qituvchining nutqi uning qanday mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. O`qituvchining nutqi o`quvchilarning ta`lim – tarbiya talablarini bajarishi kerak. O`qituvchi o`z nutqini mazmuniga va ta`sir etishiga javob berishi kerak.

Tarbiyachi nutqi quyidagilarni ta`minlab berishi lozim:

1. Pedagog va o`quvchilar orasida o`zaro ta`sir etish va muloqotning natijaliligi;
2. Tushunchalarni to`g`rilash va shakllantirish maqsadida o`qituvchi bolalarning tafakkuriga, his – tuyg`ulariga ijobiy ta`sir etish kerak;
3. Ta`lim berish jarayonida bilimlarni to`liq tushunish va mustahkamlash, o`zlashtirib olish;
4. O`quvchilarning amaliy va o`quv faoliyatini samarali tashkil etish.

O`qituvchining muomala madaniyati – bu ularning atrofdagi insonlar bilan to`g`ri, go`zal va ta`sirli muomalasi bilan belgilanadi. O`qituvchi – tarbiyachilar o`quvchilar, maktab jamoasi, ota – onalar, mahalladagi kishilar bilan yaxshi muomala bilan munosabatda bo`ladilar. Ular har qanday hollatda ham o`z muomalalarida yomon so`zlarni ishlatmaslik, o`ylab, mazmunli gapirishga harakat qiladi. Tarbiyachi muomalasining boshqa kishilar muomalasidan farqi ham shu tomonlamadir.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Tarbiyachi mahoratini o`stirish va takomillashtirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur?
2. O`qituvchining nutqiga qanday talablar qo`yiladi?
3. O`qituvchi muomala madaniyatini egallashda nimalarga e`tibor berishi zarur?

## 11 – Mavzu. PEDAGOGIK TA’SIR KO`RSATISH

Pedagogika o`z usullarini yo`q narsadan yaratmaydi, ularni o`ylab topmaydi. U hayotdan kishilar xulq - atvorining aniq omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ta'lim- tarbiya ishida pedagogik ta'sir ko`rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta'sir ko`rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy – foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo`lib, bolalarning xulq - atvorini rag`batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvonch ijodiy zavq manbaiga, xar bir tarbiyalanuvchi o`kuvchining shaxsiy muddaolariga aylantiradi.

Pedagogik ta'sir ko`rsatishning asosiy usullari talab, istiqbol, rag`batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

Talab – tajribada juda keng tarqalgan usul bo`lib, ta'lim- tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo`lishi yo`li bilan u yoki bu xatti – xarakatlarning rag`batlantirilishi yoki to`xtatilishini ta'minlaydi.

Pedagogik ta'sir ko`rsatish usuli bo`lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni bir – biridan farqlash kerak. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag`batlantirish mazmunini va jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo`llarini ta'minlasa, talab esa xulq - atvor va faoliyat normalarini bolalarning xatti - harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Istiqbol – ta'sir ko`rsatishning juda ta'sirchan usuli bo`lib, u bolalarning xatti - harakatlarini ular oldiga maroqli maqsadlar qo`yish yo`lini ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul maktab o`kuvchilarida shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri bo`lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Rag`batlantirish va jazolash – tarbiyaning eng an’anaviy usuli bo`lib, bolalar xulq - atvoriga tuzatish kiritishni, ya’ni foydali xatti - harakatlarni qo`shimcha rag`batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noma’qbul xatti - harakatlarini to`xtatishni ta’minlaydi, bunda ularning huquq burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta’sir ko`rsatish yo`lidan foydalaniladi.

Rag`batlantirish va jazolash metodi o`ziga xos xususiyatga ega bo`lganligi sababli uni qo`llanish alohida ehtiyotkorlikni, pedagoglarning sezgirligi va xushmuomalaligini talab qiladi.

Jamoatchilik fikri- ta’sir ko`rsatishning qudratli usuli bo`lib, bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag`batlantirib borishni ta’minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to`liq amalga oshiradi. Bu usul jamoa a’zolarining ijtimoiy faolligini va o`rtoqlarcha birdamligini rivojlantirishga yordam beradi

Pedagogik ta’sir ko`rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogning bolalarga bo`lgan munosabatlarning chinakam insonparvarligidir. Pedagogik ta’sir ko`rsatish usullari o`z tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo bo`lgan kishilar qo`lida sof kasb – korlik vositalari mavjud emas, bu usullar bir jamoa bo`lib, yagona intilishlar, umumiy mas’uliyat bilan birlashgan jonli kishilarning jonli munosabatlaridir.

Pedagog bilan tarbiyalanuvchi o`rtasidagi munosabatlarning mohiyatini «Agar mendan biror kishi: siz qisqa formulada o`z pedagogik tajribangiz mohiyatini qanday qilib ta’riflab berolgansiz, deb so`rasa, men: insonga iloji boricha ko`proq talab qo`yish va uni iloji boricha hurmat qilish kerak deb javob bergan bo`lardim», - degan edi buyuk rus pedagogi A.S.Makarenko.

Pedagogik ta’sir ko`rsatishni amalga oshirishda bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi umumiy printsiplarni izchillik bilan o`tkazish ham muhim ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytib o`tilganidek, ta’lim – tarbiya jarayonining u yoki bu usulini to`g`ri tanlash va uni qo`llashning muvaffaqiyati pedagogdan pedagogik vaziyatni bilish va hisobga olishni talab qiladi. Pedagogik vaziyat pedagogik ta’sir ko`rsatish

usullari uchun o`ziga xos xususiyatlarga egadir. Pedagog o`z faoliyati davomida pedagogik ta`sir ko`rsatish usullarini muvaffaqiyatli qo`llashi uchun zarur bo`lgan hal qiluvchi shari-t – sharoitlarni ko`rsatib o`tamiz. Bu avvalo tarbiyalanuvchi bilan pedagogning munosabatlaridir. Bu munosabatlar doimiy bo`lib qolmaydi, ular o`zaro muomala jarayonida birgalikdagi faoliyatda rivojlanadi va boyib boradi. Shu narsa ravshanki, o`rtoqlarcha munosabatlarda ta`sir ko`rsatish usullaridan biri ta`sirchan bo`ladi, betaraf yoki salbiy munosabatlarda boshqa usul, boshqa shakl kerak bo`ladi.

So`ngra tarbiyalanuvchilarning pedagog taklif qilgan faoliyatga munosabati muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ma`lumki, o`kuvchini oson va yoqimli ish bilan shug`ullanishga majbur qilish – boshqa gap, uning jiddiy, odatdan tashqari mehnatni bajarishiga erishish esa butunlay boshqa gap.

Nihoyat, hamisha bolalarning ruhiy holatini hisobga olishga to`g`ri keladi, pedagog ularga biror topshiriq bilan murojaat qiladi: bolalar quvnoq va vazmin bo`lishlari, biror narsadan ranjib jahllari chiqqan bo`lishi ham mumkin. Bu ham yana ta`sir ko`rsatish shaklini tanlashga ta`sir qiladi.

Pedagogik vaziyat bilan u taqozo qilgan pedagogik ta`sir ko`rsatish usulining biror shakli o`rtasidagi bog`lanish muhim ahamiyatga egadir. Bu aloqadorlikni tushunish tarbiyachilarga o`z haraktlarida ko`proq samaradorlikka erishish, ularni ongli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

## **12- Mavzu. PEDAGOGIK XAYOL PEDAGOGIK TA'SIR KO`RSATISHNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA**

Xayol ong faoliyatidir, bu faoliyat ilgari biz idrok qilmagan, tajribamizda uchratilmagan narsa va hodislarning obrazlarini mavjud tasavvurlarimiz asosida miyamizda yaratishda ifodalanadi. Xayol pedagogik faoliyatda ham juda katta ahamiyatga ega bo`lgan psixologik jarayondir.

Pedagogik xayolning mavjud bo`lish jarayonini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1) bo`lajak pedagogik faoliyatga hozirlik ko`rish bosqichidagi xayol (u faoliyat manzarasini tasavvur qilishga yordam beradi) va sinfning materialni idrok etishini kutish:

2) bevosita tadbir, dars va shu kabilar oldidan uning ehtimol tutilgan xususiyatlarini tasavvur qilishga yordam beradigan pedagogik xayol, kutilayotgan muomala va materialni idrok etish:

3) bevosita faoliyat oldidan pedagogning ijodiy kayfiyatini rag`batlantiradigan, bo`lajak faoliyatni oldindan aytib berish jarayonida o`zida ijodiy kayfiyatni hosil qilishga yordam beradigan pedagogik xayol:

4) bevosita faoliyat jarayonida fahm – farosatga asoslangan izlanishni, fikriy tajribani amalga oshirishga, bolalarda vujudga keladigan u yoki bu qo`zg`alish sabablarini, tarbiyalanuvchilar xulq - atvorini bilib olishga yordam beradigan va Ayni vaqtda pedagogning ijodiy kayfiyatini qo`llab- quvvatlaydigan pedagogik xayol;

5) pedagoga faoliyatning bir qismi tamom bo`lgandan keyin uning mumkin bo`lgan natijalari va samaradorligini oldindan aytib berish va tasavvur qilishga yordam beradigan pedagogik xayol.

Kasb – korga oid pedagogik xayolning o`ziga xosligi shundan iboratki, unga ilmiy ijodkorlikda ham, badiiy ijodkorlikda ham mavjud bo`ladigan xayol xususiyatlari xosdir. Shu bilan birga pedagogik xayol - bu ilmiy ijodkorlikning ham, badiiy ijodkorlikning ham shunchaki quramasidan iborat emas. Bu masalani

izchilroq tahlil qilib ko`rishga harakat qilamiz. Ilmiy faoliyatda ijodiy xayolning ishi aqliy – mantiqiy tafakkur ma'lumotlariga asoslanadi, san'atdan farqli o'laroq uning samaradorligi mantiq qoidalari bilan tekshiriladi. Lekin tafakkurning tuzilishida dastlabki ilmiy izlanish bosqichida aql – idrokning jiddiyligi qanchalik zarur bo'lsa, ijodiy xayolning ishtiroki ham shunchalik zarurdir. Pedagogik xayolning badiiyligi bayon qilinayotgan materialni obrazli, ko`zga tashlanadigan qilish qobiliyatidan iboratdir. Pedagog faqat obrazlar bilan fikrlashni bilib qolmay, shu bilan birga, bu obraz – xayollarni pedagogik faoliyat mazmuniga singdirib yuborishi kerak.

Pedagogning ijodiy jarayonida pedagogik xayol mohiyati va o`ziga xos xususiyatlarini belgilaganda shuni ta'kidlash kerakki, u murakkab qotishma, ilmiy va badiiy xayol tarkibiy qismlarining birligidan iborat bo`lib, sifat jihatidan yangi psixologik ta'limda ro'yobga chiqadi. Bir tomondan, pedagogik xayol, shakl – shubhasiz, pedagogik mantiqqa tayanadi va aqliy vazxifalarning qo'yilishi bilan bog`liqdir, ikkinchi tomondan esa, u obrazlilik, ta'sirchanligi, badiiy- obrazli tafakkurning ko`zga chalinishi bilan xarakterlidir, bular pedagogik izlanishning muayyan bosqichlarida zarurdir. Pedagogik xayolning o`ziga xosligi ko`p jihatdan ana shunday o`zaro harakatda namoyon bo`ladi.

Pedagogik xayolning quyidagi yo`nalishlarini alohida ajratib ko`rsatish mumkin:

1) pedagogik vaziyatni tahlil qilishda qatnashadigan va uning sabablarini bilib olishga yordam beradigan xayol:

2) paydo bo`lgan pedagogik vazifani qulay hal qilishni izlashda qatnashadigan xayol:

3) ta'sir ko`rsatishning mumkin bo`lgan natijalarini oldindan ko`rishga yordam beradigan xayol:

4) tarbiyalanuvchining his – tuyg`ularini oldindan bilib olish imkonini beradigan xayol.

Xayolning mana shu ilgariyama – batamom bitkazuvchi vazifasini alohida ta'kidlash kerak, chunki pedagog xamisha o`z ijodining faqat juz'iy natijasini

qo`lga kiritadi, u ana shu natija asosida o`quvchi shaxsini yanada axloqiy rivojlantirish istiqbolini o`zi uchun ishlab chiqishi lozim.

Tabiiyki, pedagogik xayolning hamma aytib o`tilgan yo`nalishlardagi harakatining samaradorligi ko`p jihatdan uni rivojlantirish darajasiga bog`liq bo`lib, uning ustida ishlash zarur.

Pedagogik jarayon pedagogning o`kuvchi shaxsini his qilish, uning kechinmalarini sezish, bola bilan o`zaro harakatning borishida uning shaxsida sodir bo`ladigan jarayonlarni doimo takroriy esga tushirish qobiliyatini taqozo qiladi. Tarbiyaviy kuch - g`ayratlar o`quvchi yoki jamoaning psixologik holatidagi o`zgarishlarga doimo monand bo`lishi uchun tarbiyachi yuksak darajada rivojlangan *empatiyaga* ega bo`lishi lozim.

Empatiya deganda, tarbiyalanuvchini faqat oqilona idrok etish, uning ichki dunyosiga kirib borish emas, balki uni hissiy idrok etish, unga achinish qobiliyati tushuniladi. Bu tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish jarayonida o`ziga xos hissiy o`xshatish bo`lib, uni A.S. Makarenko qattiq turib talab qilgan edi. U bunday yozgan edi: «Ko`rishni, oddiy jismoniy ko`rishni rivojlantirish mumkin va kerak. Bu tarbiyachi uchun zarur. Inson yuzidagi, bola yuzidagi narsani o`qiy olish zarur. . . Yuziga qarab ma`naviy harakatlarining ayrim belgilarini bilib olishda hech qanday mug`ombirlik, hech qanday haqiqatdan yiroq narsa yo`q».

Tarbiyalanuvchining hissiy olamiga kira bilish tarbiyaviy jarayonning ishonchliligini oshiradi, chunki u o`kuvchining sabab – ehtiyoj sohasiga chiqishini ta`minlaydi, xudi shu sohada tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish natijasida muayyan o`zgarishlar sodir bo`lishi lozim. Xudi shunday muomala jarayonida o`qituvchi bilan o`kuvchining bir – biriga ta`sir ko`rsatish samaradorligi degan hodisa sodir bo`ladi, u pedagog bilan bolalarning xissiy birligi asosida vujudga keladi va tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishning mazmun va jarayon tomonlariga jiddiy ta`sir qiladi. Gap o`ziga xos pedagogik kechinma – tarbiyaning ikki tomonlamaligi bilan belgilanadigan ikki tomonlama psixologik jarayon haqida boradi. Haqiqatda pedagogik kechinma tarbiya jarayonining umumiy psixologik muhiti sifatida maydonga chiqadi va pedagog bilan tarbiyalanuvchilarning haqiqiy psixologik



aldoqasini ta'minlaydi. Kishi o'zini bola bilan hissiy o'xshata olishi kerak, uning hissiyotlari va fikrlari ilan yashash, demak, uning fikrlari va kechinmalarini bir xilda tushunish – murakkab vazifadir.

Hissiy o'xshatish pedagogik ta'sir ko'rsatishni tuzatish, joriy va bo'lajak muomala xususiyatlarini anglab yetish, pedagogning ta'sir ko'rsatish ob'ektining o'ziga xos holatlari: ham umumiy, barqaror holatlari, ham joriy, vaziyatga xos holatlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi.

Xissiy o'xshatish tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismi bo'lib, unda ko'p tomonlama rol o'ynaydi. U tarbiyaviy jarayonning turli bosqichlarida o'ziga xos tarzda mavjud bo'ladi. Birinchi bosqichda – pedagogik niyat paydo bo'lish bosqichida – pedagogning auditoriya bilan hissiy o'xshashligi umumiy tarzda namoyon bo'ladi. Pedagog bo'lajak dars, tadbir, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning mumkin bo'lgan tamoyillari, metodik va o'zaro fikr almashish mazmunini o'ylab ko'rar ekan, tinglovchilarini ko'rib turganday bo'ladi, o'zini ularga o'xshatish orqali materialning bo'lajak idrok etilishini, shaklning qulayligini, muomalaning mumkin bo'lgan variantlarini va shu kabilarni mo'ljallab ko'radi. Ijodiy jarayonning ana shu bosqichida hissiy o'xshatish niyatini aniqlashga yordam beradi, pedagogning bolalar bilan bo'ladigan munosabatini nazarda tutadi.

Niyatni ishlab chiqish deb nomlangan ikkinchi bosqichida - hissiy o'xshatish endi ancha faol harakat qiladi, chunki pedagog faoliyat tizimini, uning metodik va o'zaro fikr almashish tuzilishini, pedagogik ta'sir ko'rsatish shakllari va metodikasini rejalashtirar ekan, hissiy o'xshatish asosida o'kuvchilar taqdim etilayotgan materialni idrok etishining, muomalaning shakllari va shu kabilar samaradorligining mumkin bo'lgan variantlarini olishi, shu bilan birga umuman auditoriyaning emas, balki ayrim tinglovchilarning ham umumiy imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Sinf bilan bevosita muomala jarayonida niyatning gavdalanishi va amalga oshuvi deb nomlangan uchinchi bosqichida - hissiy o'xshatish pedagogning muomaladagi teskari aloqani saqlashning umumiy tamoyili sifatida namoyon

bo`ladi, ta'sir ko`rsatishning muayyan natijalarini his qilish va ilgari rejalashtirilgan va tuzatish kiritadigan usullarni va joriy pedagogik vaziyatda yo`l topishga yordam beradigan vaziyatli nodir xodisa sifatida tanlash imkonini beradi.

Pedagogik ijodkorlikning to`rtinchi bosqichida hissiy o`xshatish pedagogik amalga oshirilgan faoliyat va muomalaning mumkin bo`lgan natijalarini tasavvur etish va sezish, ularning yo`nalishini, ta'sir ko`rsatishning teranlik darajasini tushunishga, binobarin, ana shu ma'lumotlar asosida yangi tarbiyaviy ta'sir ko`rsatishni aniqroq va maqsadga muvofiqroq rejalashtirishga yordam beradi.

Aktyorlik ishida bo`lgani kabi, pedagogik ta'sir ko`rsatishda ham empatiya emas, balki refleksiya – pedagogning o`zi bolalar tomonidan qanday qabul qilinayotganligini bamisoli chetda turib ko`rish qobiliyati ham muhim xisoblanadi.

Buning uchun pedagog kasbiy o`z - o`zini anglash ko`nikmalarini egallashi lozim, bu hol unga sinf bilan o`zaro harakat jarayonida o`zining ob`ektiv «men»ini doimo his qilib turishga yordam beradi.

## **Savol va topshiriqlar**

- 1. Pedagogik vaziyat pedagogning qanday xolatlarini qamrab oladi?**
- 2. Pedagogik ta'sir ko`rsatish usullari qanday xususiyatlarga ega?**
- 3. Pedagog o`z faoliyati davomida pedagogik ta'sir ko`rsatishning qanday usullaridan foydalanadi?**
- 4. Pedagogik xayol nima va u nima uchun kerak?**

## **IV BO`LIM. O`QITUVCHI MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI VA SHART – SHAROITLARI.**

### **13 – Mavzu. O`QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH.**

"Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir" – deyiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida.

Umumiy ta'lim, jumladan, boshlang'ich ta'lim tizimida o`quvchilarni o`rta ta'lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o`qish, mehnat qilish, tashabbus ko`rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni taraqqiy ettirish kabilar ham amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat standarti talablari asosida hamda ta'lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo o`qituvchilar, murabbiylar shaxsni har tomonlama mukammal bo`lishni talab qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o`qituvchisining ma'suliyati katta, u umumiy ta'lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir.

Barcha yaxshi ishlar, bolani ezgulikka yetaklash, o`qituvchining pedagogik mahoratiga ko`p jihatdan bog`liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu ali Ibn Sino o`zining "Tib qonunlari" asarida shunday fikr bayon qiladi:

"O`qituvchining barcha xatti - harakatlari ezgulikdan iborat bo`lmog`i lozim".

Ezgulik avvalo bola qalbiga yo`l topishdan boshlanadi. U bilan hamkor, homnafas bo`lish, beg`ubor qalb egasini hurmat qilish, hohish - istaklariga befarq bo`lmaslik, bir so`z bilan aytganda bolajon bo`lish zarur.

Yangilanayotgan boshlang'ich ta'limda davlat va jamiyat tomonidan qo`yiladigan talablar ta'lim sohalari bo`yicha o`zaro muvofiqlik va mutanosiblik to`la ta'minlanishi lozim.

Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirishda yangi zamonaviy bilimlarni keng ko`lamli olib borilishi kerak.

Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to`g`ri samarali foydalanish esa o`qituvchilarning, tarbiyachilarning vazifasidir.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yoyatgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim - tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma - xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z - ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borilishi lozim.

Yangi metodik mahorat, bu yangi pedagogik texnologiya deganidir.

Pedagogik texnologiya pedagogik maxorat to'g'risidagi fan. Shunga ko'ra pedagogik texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega:

Birinchi, o'quv - tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda ko'rishga yo'naltirilgan;

Ikkinchi, o'qitishning axborot vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

1. Mahoratli o'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim - tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilishi mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv - tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur hollashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratni ilmiy - texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borish lozim.

«O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashini o'rganmog'i lozim» - degan edi A. Jomiy.

O'z bilimlarini mustaqil oshirish uchun quyidagi bo'limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etiladi.

1. Ҷойaviy - siyosiy saviyani oshirish.
2. Ilmiy - nazariy bilimni oshirish.
3. Metodik bilim va mahoratni oshirish.
4. Pedagogik va psixologik nazariyani yanada puxta o`rganish.

O`qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagi metod birlashmalar hamda kabinetlarning xizmati katta. Metod birlashmalarda o`qituvchilar fikr almashadilar: o`zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o`qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg`or tajribalarni keng ommalashtiradilar.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg`or pedagogik tajriba deganda biz o`qituvchining o`z pedagogik vazifasiga ijodi yondoshishni, o`quvchilarning ta`lim - tarbiyasida yangi, samarali yo`l va vositalarni qidirib topishni tushinamiz.

Ilg`or pedagogik tajriba o`qituvchi tomonidan qo`llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o`quv - tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg`or pedagogik tajribani o`rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o`quv tarbiya jarayoniga sifatli o`zgarishlar kiritadi, o`quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko`rinishdagi o`quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo`ladi.

Fan - texnika taraqqiyoti o`qituvchining ijodkor bo`lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o`quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o`quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o`rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o`qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O`qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi davomida omillarni to`playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o`zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o`qituvchisi uchun zarur bo`lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Maktabda pedagogik mehnatni ilmiy asosda tahlil qilish muammosi ko`pincha darsda vaqtdan unumli foydalanish, sinfdan tashqari tadbirlardan va o`qituvchi tarbiyachilarning ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi.

Pedagogik mahoratni ilmiy — asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo`lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to`g`ri tanlash va joy – joyiga qo`yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qo`llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta`lim - tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Ta`lim metodlaridan foydalanishning samaradorli-gi va muvaffaqiyati ular o`quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog`liq. O`qituvchi o`quvchilarga mustaqillik ko`rsatish uchun sharoit yaratsa, o`quvchilar bilimlarini bamisoli o`zlari olayotgandek tuyulsa, mazkur metod samarali bo`ladi.

Ta`lim metodlarida o`qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik - pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarlik namoyon bo`ladi. Xuddi ana shu omillar ta`lim metodlarini samaradorligini belgilaydi. Muayyan metod yaxshi tayyorgarligi bo`lgan o`qituvchida o`z afzalliklarini namoyon qilsa, tayyorgarligi zaif bo`lgan o`qituvchida shu metodning o`zi salbiy jihatlarini namoyon qiladi. Shu sababi ta`lim metodlarini samaradorligini oshirish uchun o`qituvchining tayyorgarlik darajasi printsipial ahamiyatga ega. O`qituvchi ijodiy pedagogik faoliyati va o`quvchilar ijodiy faoliyatining ta`lim metodida o`z ma`lumoti, madaniyati, kasbiy tayyorgarligi darajasini qanchalik aks ettirishiga bog`liq. Bunda ijodiyot uchun qancha imkoniyatlar bor.

Bilim faoliyati xususiyatlarini, uning ziddiyat-larini o`qituvchining anglab olish izlanish xarakteridagi o`quv vaziyatini shakllantirishi va ularni hal etish jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Ilg`or o`qituvchilarning ish tajribasi ta`lim metodlarini takomillashtirishga katta ta`sir ko`rsatadi. Bunday tajribani umumlashtirish va yoyish - o`quv jarayoni sifatini oshirishning muhim shartidir.

O`qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o`z ishlarining chinakam ustalariga aylanadilar. Sog`lom fikr yurituvchi har bir kishi mahoratli tarbiyachi bo`la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi.

Pedagogik faoliyatning nazariy asosiy kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o`z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o`zlashtirishi va ularni muntazam to`ldirib borishi lozim. Ilmiy psixologik - pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o`qituvchiga faqat o`z sinfini hamda ayrim o`quvchilarni o`rganish va ularning to`g`ri xarakteristikasini tuzishgina emas, balki o`quvchilar jamoasi bilan va uning har bir a`zosining rivojlanishi istiqbollari ham belgilash imkonini beradi. O`qituvchi - tarbiyachining amaliy faoliyati bu ko`plab pedagogik vazifalarni beto`xtov hal qilishdir. O`zining kasbga doir bilimlar to`plamidan ijodiy foydalangan o`qituvchigina ularni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin.

Pedagogik odobini egallash o`qituvchidan o`z ustida puxta, o`ylab ishlashni talab qiladi. O`qituvchi o`z xatti - harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi, ishorasi bilan o`quvchilar xatti -harakatiga o`z munosabatini bildira bilish kerak. Ya`ni pedagogik odobi o`qituvchida o`z tuyg`ularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari mavjud bo`lishini ham nazarda tutadi. Malakalarning bunday majmui pedagogik mahoratning tarkibiy qismi bo`lib, u pedagogik texnikasi deb ataladi. O`qituvchining pedagogik mahorati uning intellekti va madaniyatiga "Umumta`lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari" da jiddiy e`tibor beriladi va bu o`rinda o`qituvchi o`z pedagogik mahoratini, kasbga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo`lidan kelishini doimo tekshirib borishi bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo`llarni axtarishi kerakligi ta`kidlab o`tiladi. O`quvchilarga o`z xatti - harakati, turmush tarzi, o`z qiyofasi va bilimi bilan ta`sir qiladi. Uning madaniyati, haqqo`yligi va ma`naviy sifatlari o`quvchilar tomonidan har xil tarzda qabul qilinadi. Shuning uchun ham o`qituvchi u qaysi fanni olib

borishidan qat'i nazar, o`quvchilar uchun ma'naviylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o`rnak bo`lishi kerak.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Maktabda pedagogik mehnatni ilmiy asosda tahlil qilishda qanday ishlarni amalga oshirish zarur?
2. Pedagogik ijodkorlik manbai nima?
- 3.** O`qituvchi o`z bilimlarini mustaqil oshirish uchun qanday ishlarni bajarishi zarur?



## **14 –Mavzu. O`Z - O`ZINI TARBIYALASH VA O`Z USTIDA ISHLASH.**

Tarbiya bu shaxsda ijobiy xislat va fazilatlarni namoyon bo`lishidir. Tarbiya juda keng kamrovli tushuncha bo`lib, uni bir ta`rif bilan ifodalab bo`lmaydi. Uning sirasiga turli xil tomonlama yo`naltirilgan tarbiya, ya`ni estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, siyosiy tarbiya va aqliy tarbiyalar kiradi. Lekin ulardan ko`zlangan maqsad, har tomonlama ma`naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shaxsning aqliy, axloqiy, xis – tuyg`uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish, imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g`oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi.

Tarbiyaviy jarayonni mustahkamlash, yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, usullarni, g`oyalarni qaytadan ko`rib chiqish, bola shaxsiga e`tiborni qaratish, yillar davomida to`plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarur.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta`sir ko`rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir - biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o`zaro ta`sir ko`rsatishi ekanligi alohida ta`kidlanadi.

O`qituvchi yoshlarga ta`lim - tarbiya beruvchi insondir. O`qituvchida o`qituvchilik kasbiga xos layoqat, qobiliyat bo`lmog`i darkor. Avvalo u bolalarni sevishi, ijodkor, ishbilarmon bo`lishi, ma`naviy barkamol bo`lishi, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo`lishi lozim. Bundan tashqari, o`qituvchi har bir o`quvchisi ulg`ayib yaxshi odam bo`lishiga chin ko`nglidan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishga ko`maklashadigan asosiy kuch bo`lishi talab etiladi. O`qituvchi o`quvchilarga ta`lim - tarbiya berar ekan, avvalo, uning o`zida tarbiyaviy xislatlar tarkib topgan bo`lishi darkor. O`qituvchi odobli bo`lishi kerak. Uning odobi, madaniyati yuksak bo`lsagina, odamlarga

nisbatan mehribon, sahovatli bo`la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun ochiqko`ngil, qat`iy bo`lishi, o`zini tuta bilishi, bardoshli bo`lishi kerak. Bolalarga nisbatan talabchan bo`lish bilan birga o`z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazardan qaray olishi kerak.

O`qituvchi pedagogik etikaning normalarini o`zlashtirib olishi, tajribada qo`llashi, o`zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikralsh va his etish, turmushda sinab ko`rish natijasida pedagogik etikaning qoidalari o`qituvchining o`z e`tiqodiga, intilishiga, o`z axloqiy sifatiga aylanadi.

Bu axloqiy e`tiqod o`qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o`quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarda, muomalasida, kundalik turmushda o`zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta`sir o`tkazishda ko`zga tashlanadi. Muallim axloqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta`sirining samaradorligida namoyon bo`ladi. Shaxs axloqining xarakterlaydigan belgilaridan biri ma`suliyatdir. O`qituvchining ma`suliyati - ma`suliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta`lim - tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o`z ichiga oladi. O`qituvchi zimmasiga bola shaxsini har tamonlama kamol toptirish ma`suliyati yuklanadi.

Pedagogik odobga ega bo`lgan o`qituvchi o`quvchilar orasida obro` qozanadi. O`qituvchi qanchalik ko`proq obro` qozonsa, ta`lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatliroq bo`ladi.

O`qituvchining asosiy maqsadi hamma o`quvchilarning muvaffavqiyatli o`qishiga erishishidir. Buning uchun o`quvchilardan o`z ustida ishlashi, o`z - o`zini tarbiyalashi talab etiladi.

O`z - o`zini tarbiyalash o`z faoliyatini tahlil qilishdan va o`z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O`quvchilarda shu hislatga ehtiyoj paydo bo`lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo`ladi.

O`z - o`zini tarbiyalash o`quvchilarning o`zini - o`zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqini shakllantirishning ta`sirchan vositasidir.

O`quvchilar o`qishda, tarbiyada, dam olishda u - o`zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o`z - o`zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O`z - o`zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo`lganda, u o`zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko`rsata boshlagan vaqtda paydo bo`ladi. O`z - o`zini tarbiyalashda maslahat va ko`rsatmalar berilishi lozim. Bunda o`quvchilarni o`zlariga, xatti - harakatlariga tanqidiy ruhda munosabatda bo`lishga o`rgatish juda muhimdir.

### **O`Z - O`ZINI TAHLIL QILISH.**

O`z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti -harakatlari haqida o`ylashga o`rgatadi. O`z - o`zini nazorat qilish uchun o`quvchi o`zining yurish - turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi, va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

### **O`Z - O`ZINI BAHOLASH.**

O`quvchining qobiliyatini o`z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O`z - o`zini baholash qiyin, lekin o`quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o`quvchi irodali bo`lishi, o`z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sabablar bo`lishiga intilishi lozim.

O`quvchilar o`z - o`zini tarbiyalash bilan birga o`z ustida ishlab boradi. O`z ustida ishlash asosan o`spirinlikdan boshlanadi. Bunda ularning nazariy tafakkurini shakllantirishda to`g`arak va fakultativ mashg`ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga o`quvchining badiiy asarlarni o`qishi va tushunishi orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga va munozaraga o`rganib boradi. Unda asta - sekin tabiat va jamiyat haqida o`zining nuqtai nazari, e`tiqodi, qarashi shakllanadi. Bu esa unda mustaqil o`ylashi, to`g`ri hukm va xulosa chiqarishi, qat`iy qaror qila olish fazilatlarini o`stiradi.

O`quvchilar o`z ustilarida ishlash jarayonida ularning qobiliyati, iste`dodi rivojlanadi. Ularda o`tiladigan darslar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg`ulotlar, referat, konspekt yozish kabi ta`limiy faoliyat turlari o`zlari o`zlashtirishi zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi.

Bu esa o`z ustida ishlashning muhim omili sanaladi.

Yuqorida keltirgan fikrlarimizning barchasi o`quvchi faoliyati bo`yicha yozilgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o`z - o`zini tarbiyalash, o`z ustida ishlash faqatgina o`quvchi faoliyatida emas, balki butun bir shaxs faoliyatida namoyon bo`lishi kerak. Shaxs o`z - o`zini tarbiya etmasa, o`z ustida ishlamasa, u bir joyda qotib turgan toshga o`xshab qoladi. Toshni esa kimdir vaqti kelib, yo tepib, yo uloqtirib tashlaydi.

Agar shaxs izlansa, o`z qobiliyatlari ustida ishlasa, o`zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro`si, mavqei ham shu darajada yuksaladi, doimo el nazarida bo`ladi. Uni hech kim uloqtirib yo chetga chiqarib qo`ya olmaydi.

Men aynan o`z sohali misolida oladigan bo`lsam, har bir o`qituvchi doimiy ravishda o`z - o`zini tarbiyalashi, o`z ustida ishlashi kerak. U "men allaqachon tarbiyalanganman, menda hamma axloqiy sifatlar tarkib topgan" deb, yoki "men o`z fanimda hamma yutuqlarga erishganman, o`z fanimni chuqur bilaman" deb bir xilda bir joyda qotib tura olmaydi. U doimo intilishda, izlanishda bo`lishi kerak.

Hozirgi paytda maktablarda dars berayotgan o`qituvchilarni kuzatib, ikki xil xulosaga kelasan. Birlari juda faol, intiluvchan, ijodkor o`qituvchilar bo`lsa, ayrimlari esa hech bir intilishi yo`q, doimo bir xilda dars beruvchi o`qituvchilardir. Bularni ko`rib bir quvonsang, bir qo`l siltaging keladi. Axir yosh avlodni ta`lim - tarbiyasi o`qituvchilarga ishonib topshiriladi - ku! Nahotki, ayrim ertangi kun bilan ishi yo`q o`qituvchilar bu mas`uliyatni his etmasalar. O`quvchilarning o`z ustilarida ishlashlari uchun ham o`qituvchi yo`llanmasi, ko`rsatmasi, topshiriqlari muhim rol o`ynaydi.

Shuning uchun o`qituvchi doimo izlanishda bo`lishi, fanga qandaydir bir yangiliklar olib kirishga intilishi, o`zining odobi, kasbiy sifatalri bilan boshqalarga o`rnak bo`lishi darkor. O`z ustida ishlaydigan ijodkor o`qituvchilarning obro` - e`tibori, martabasi ulug` bo`ladi. Ular doimo el nazarida, hurmatida bo`ladi. Xalq hurmatida, e`tiborida bo`lishining o`zi eng katta baxtdir.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O`z -o`zini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
2. O`qituvchida pedagogik odobni shakllantirish qachondan boshlanishi kerak?
3. O`z - o`zini tahlil qilish, o`z -o`zini baholash deganda nimani tushunasiz?.

## V-BO`LIM.

### 15 -Mavzu. PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONIDA O`QITUVCHINING O`Z PSIXIK XOLATINI O`ZI TARTIBGA SOLISH MAHORATI

Sabr – toqat, tashqi vazminlik nuqtai nazaridan o`z his – tuyg`ularini qo`lga olishgina nihoyatda muhim bo`lib qolmasdan, shu bilan birga turli hissiyotlar holatlarning ro`y berishi va kechinishini ma`lum darajada boshqara bilish, kechinmalarning ijobiy tusda bo`lishiga erishish ham muhimdir. Chunki hatto janjalli vaziyatlarga ham turlicha yondashish mumkin. Bu ko`p jihatdan kishining qanday yo`l tutishiga bog`liq bo`ladi.

Nohush hissiyotlarni yo`qotish yoki kamaytirishga, masalan, quyidagicha yo`l tutish yordam beradi: menga osoyishta, dadil ovoz Bilan dars olib borish, tarbiyaviy tadbirlar o`tkazish, sabr – toqat va o`zini tuta bilish namunasini ko`rsatish zavq bag`ishlaydi. Talabalar guruhida janjalli vaziyat chiqib qolguday bo`lsa, sabr- toqat va xushmuomalalik namoyon qilish, baqirib, asabiylashayotgan, qizishayotgan, qadr - qimmatini yo`qotayotgan kishidan yuqori turi shva shu kabilar menga huzur bag`ishlaydi.

O`qituvchining bu vaziyatlarda qanday yo`l tutishi va bu yo`l tutish nimalar berishi mumkin?

Shunday o`qituvchilar uchrab turadiki, ular o`zlarini mutlaqo har xil tutadilar va har qanday yo`l tutishlariga, masalan, boshliqqa yoki bo`ysunuvchi kishiga nisbatan qanday yo`l tutishlariga qarab, turli hissiyotlarni boshdan kechiradilar. Bunday kishi boshliq bilan bo`layotgan suhbat unchalik yoqimli bo`lmayotgan choqda ham odatda ancha vazmin, xushmuomala bo`ladi, muloyim kuladi. Bo`ysunuvchi kishiga nisbatan (o`kituvchi esa o`kuvchiga nisbatan) xolisonillo olib qaraganda ancha osoyishta sharoitda ham «qizisha» boshlaydi, asabiylashib, hayajonlanadi. Ko`pincha o`zidan qo`rqadigan va cho`chiydigan odamlar odida shunday qiladi.

Ba'zi bolalar kattaroq bo'lib qolgach, qari ota –onalariga mutlaqo toqat qilolmaydilar, ayniqsa ota- onalar ularga moddiy jihatdan bog'liq bo'lib, o'zlarini nochor sezsalar, bolalarning yaxshi muomalasidan, mehr – muhabbatidan mahrum bo'lib qolishdan juda xavotirlanib, o'zlarini mulozamatli tutsalar, o'zlarining yomon eshitishlari, xotiralari zaifligi va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklardan keksalarcha cho'chisalar shunday qiladilar. Lekin shu bolalar hatto ayni vaqtda o'z ota- onalarini sevadilar, hatto o'z qiliqlaridan achinadilar ham. Ammo qari ota- onalariga nisbatan paydo bo'lgan tajovuzkorlik yo'lini tutish hissiyotli chayqalishlarga, janjallarga, keraksiz jaldorlikka, muomaladagi keskinlikka sabab bo'ladi.

Kishi yetarli darajada madaniyatli bo'lmasa, buning ustiga o'zini ongli ravishda nazorat qilmasa, o'zidan qo'rqishayotganini ko'rsa, unda jo'shqin tajovuzkorlik yo'lini tutish paydo bo'ladi. Shu bilan birga ongli ravishda vazmin, o'ylangan, munosib xulq -atvorli bo'lish yo'lini tutish o'z hissiyotlarini jilovlay bilishga, ulardan eng noxush xissiyotlar - g'azab, jahl va shu kabilarga barham berish, ularning oldini olishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish asosiy o'rinda turadi. Inson o'zini yomon his qilganda, unda o'z -o'zini nazorat qilish zaiflashib qoladi, uning xulq- atvori vazmin bo'lmay qoladi, har xil beixtiyor va o'ylanmagan xatti - harakatlar, janjallar, axloqiy meyyorlarning buzilishi sodir bo'lishi mumkin. O'z - o'ziga ta'sir qilish hissiy jarayonlarning ijobiy holatiga, kishining salomatligi yaxshi bo'lishiga yordam beradi, uning irodasi va fe'l – atvoriga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'z -o'ziga ta'sir qilish o'zining har qanday variantida ham ijobiy hissiy holatni saqlab qolishning faqat yordamchi vositasi hisoblanadi. Ko'ngil xotirjamligining eng muhim sharti – aqliy va jismoniy mehnat, bili shva yaratuvchilik jarayonlaridan shod bo'lish, o'zining o'kituvchilik faoliyati natijalaridan zo'r qoniqish hosil qilishdir.

O'qituvchining ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsional kayfiyati: faoliyatga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga oshirish davrida,

muomala amalga oshgandan keyingi his qilinadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o`ynaydi. Shu tariqa biz kasbiy – pedagogik muomalani amalga oshirish uchun juda muhim bo`lgan pedagogning psixik holatlari va ularni faoliyat hamda muomala jarayonida boshqarish muammosiga yaqinlashib kelyapmiz.

Kasbiy – pedagogik muomala jarayonida ijodiy kayfiyatni boshqarish muammolari nihoyatda muhimdir. Darsga bo`lgan psixologik rag`bat, sinf bilan bo`ladigan muomalaga rag`bat, o`zaro fikr almashish ilhomi degan ilhomning vujudga kelishi va amalga oshirilishi murakkab jarayondir. Dastlab pedagogning mustaqil psixologik yul tutishi asosida, uning pedagogik ishga munosabati uni jalb qiladigan bo`lajak faoliyati materialiga munosabati natijasida, bolalar bilan bo`ladigan muomaladan qoniqishni oldindan his qilish asosida vujudga keladigan ilhom sinf bilan bevosita o`zaro hamkorlik qilish paytida xudi ana shu bevosita aloqaga muhtoj bo`ladi, bevosita muomala asosida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Pedagogning o`zaro fikr almashishidagi kayfiyati uning umumiy fikr almashish madaniyati darajasiga ham va eng asosiysi, uning shaxsining kasbiy – pedagogik yo`nalishi darajasiga, uning bolalar bilan ishlash istagiga bog`liq bo`ladi va shunday qilib, pedagogning kasbiy – axloqiy yo`l tutishi bilan bog`liq bo`ladi.

Pedagogning bolalar bilan muomaladagi ijodiy kayfiyati o`qituvchining ijodiy individualligining o`ziga xosligi, o`kuvchilar jamoasining xususiyatlari, faoliyat sharoitlari vash u kabilar bilan bog`liq bo`lgan ko`p qirrali jarayondir. Pedagogning muomaladagi kayfiyati pedagogik ta`sir ko`rsatishning ob`ektlari – sub`ektlari bo`lgan o`kuvchilarning ijodiy kayfiyati bilan ko`p jihatdan bog`liqdir. Buning ustiga o`kituvchining mustaqil psixologik yo`l tutishi asosida vujudga keladigan ijodiy kayfiyat uning sinf bilan o`zaro hamkorligi paytida aynan o`kuvchilar bilan uzviy muomalaga asoslanadi, binobarin, o`kuvchilar jamoasining ijodiy kayfiyatiga muqarrar ravishda tayanadi.

Bolalar bilan bevosita muomalada ijodga aniq rag`bat bildirish murakkab bo`lib, har bir o`kituvchida o`ziga xos tarzda kechadi. Pedagoglarning ko`pchiligi bo`lajak darsga psixologik rag`batni muntazam ravishda amalga oshirib turadilar,



bolalar bilan uchrashuvga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko`radilar. Pedagog ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish uchun amalga oshiradigan psixologik ishning yo`nalishlari xilma - xil bo`lib, uning aqliy tomonlarini ham, hissiy tomonlarini ham qamrab oladi. Bu - darsni fikran boshdan kechirishga intilish, tadbir va bo`lajak muomaladan iborat bo`lib, uning mumkin bo`lgan shakllarini oldindan aytib berish ana shu ish orqali zarur ijodiy kayfiyatni vujudga keltirishdir, u bo`lajak faoliyatni his qilib ko`rishga, unga hissiy jihatdan berilishga yordamlashadi. Bunday ishni amalga oshirish muqarrar ravishda faoliyat (dars, tadbir) materialiga o`zining hissiy munosabatini yangilash bilan bog`liqdir. Bu yangilash ba`zan tanish bo`ladi, chunki materialni bunday yangilash asosida idrok qilishsiz faoliyatning o`ziga mahliyo bo`lish qiyin.

Pedagogning ijodiy ish jarayoni uchun dars materialini o`zining shaxsiy tajribasi bilan qiyoslashga intilish ibratlidir, bu tajriba materialni hissiy yangilashga, undagi Yangi bog`lanishlar hamda vositalarni ko`rishga yordam beradi. Bunday intilish ayniqsa gumanitar mutaxassisliklar vakillariga xosdir. Chunki tahlil materiali, aytaylik, adabiy asar materiali pedagog tomonidan shaxsan chuqur vositalangan, tarixchining hayajonli hikoyasi kabi boshdan kechirilgan bo`lishi, unda Vatanimiz o`tmishining bolalar qalbiga yaqin manzaralari sezilarli ravishda jonlanishi lozim. Ko`pgina o`qituvchilarga shu narsa xoski, ular shaxsdan tashqari tajribaga, tabiiyki, shaxsan vositalangan tajribaga intiladilar. Pedagog ijodiy kayfiyat izlab, jon - dili bilan o`z bilimlariga, metodik tavsiyalarga, o`qigan va ko`rgan narsalaridan olgan taassurotlariga tayanadi, ular faoliyat materiallarini yangilashga yordam beradi.

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning alohida bir muhim muammosi bunday kayfiyatni bevosita faoliyat oldidan chaqirish va safarbar qilish noijodiy kayfiyatni yengish hisoblanadi.

K.S. Stanislavskiy tizimi asosida pedagogning ijodiy jarayonini o`rganish shunga ishonch hosil qildiradiki, ijodiy kayfiyatni, ayniqsa, bevosita insoniy muomla bilan bog`langan ijodiy faoliyat turlarida safarbar qilish uchun «jismoniy harakatlar» usulini qo`llanish juda istiqbolli bo`lib, u haqda alohida fikr yuritish

zarurdir. Bu usulning mohiyati «Muayyan hissiy holatga xos boʻlgan, kishida bu hissiyotlarning oʻzi keltirib chiqarishga qodir ulgan jismoniy harakatlarni bajarishdan iborat boʻlib, mazkur hissiyotlarni ana shu harakatlar taqozo qiladi». (Shu narsani esga olaylik: biz hayajonimizni yengmoqchi boʻlsak, birmuncha toʻxtab, nafasimizni rostlashga, sekinroq harakat qilishga intilamiz, yaʼni shunday harakat qilamizki, xudi mutlaqo xotirjam paytimizda qanday boʻlsak, oʻzimizni shunday tutamiz, natijada hayaxonlanish asta – sekin oʻtib ketadi.)

Aytaylik, darsga tayyorlangan, tadbirni va shu kabilarni hozirlagan pedagogning bugun sinfda ishlash istagi yoʻq - shunchaki yomon kayfiyatda. Bu oʻrinda jismoniy harakatlar usuli qanday yordam berarkin? «Bordi –yu» sehrli soʻz yordamga kelishi lozim. «Bordi-yu, men yaxshi kayfiyatda boʻlganimda, bunday boʻlishi mumkin edi: men tetik, epchil odim tashlab sinfga kirardis. Samimiy salomlashardim. . .» Ayni vaqtda pedagog yaxshi kayfiyatda boʻlgan oʻzining – pedagogning xatti - harakatlari butun mantiqini jismonan takrorlardi, bu holatga chinakamiga ishonishi kerak. Oʻzidan kayfiyatni siqib chiqarish kerak emas, balki izchil harakat qilish kerak. Harakatlar hamisha ham bizning nazorat qilishimizga bardosh beravermaydi va sekin- asta diqqatni ishga jalb qiladi, begona taʼsirlardan chalgʻitadi, bizni zarur his- tuygʻuga, bu oʻrinda ijodiy kayfiyatga olib keladi. Bir talaba qizning oʻz ustida olib borgan kuzatishini keltirib oʻtamiz:

«Shunday qilib, bugun ertalabdan kayfiyatim yomon edi. Hech narsa qilgim, ayniqsa dars bergim kelmasdi. Maktabga qoʻngʻiroq chalinishidan ikki minut oldin keldim, oʻqituvchilar xonasida u yoq- bu yogʻimga qarab olgunimcha kirish vaqti boʻldi. Oʻqituvchilar xonasidan chiqishim bilan kayfiyatim yaxshi, juda dars bergim kelyapti, sinfda meni kutishyapti - men ana shundayman degan qarorga keldim. Men endi yoʻlak boʻylab tetik, dadil odim tashlab boryapman, oʻzim juda samimiyman, salomlashaman va bolalarga tabassum qilaman, men koʻp narsa qilishim kerak, xavotirdaman, bugun oʻtadigan materialim qiyin, lekin qiziqarli. Oʻzim bilan birga koʻpgina qiziqarli va foydali narsalar olib kelganman. Hammasi yaxshi boʻladi. Sinfga kiraman, tetik va dadil: «Salom, bolalar» deyman. Oʻtiramiz. Bolalar ham gʻayratli, ozoda kiyinishgan. Dars boshlandi, oʻzimning

«bordi-yu» degan soʻzimni qachon tashlaganimni va darsga berilib ketganimni oʻzim ham sezmay qolibman. Oʻzimni juda yaxshi his qildim, kayfiyatim yomonligini va uni yengish kerakligini unutib yubordim. Hammasi ajoyib boʻldi»

«Jismoniy harakatlar» usulidan foydalanishda «bordi-yu» vaziyatida taklif etiladigan holatlarning yangiligi hissiy qoʻzgʻalishlarning qoʻdratli vositasidir. Bir vaqtlar qabul qilingan «bordi-yu» soʻzini har gal takrorlayverish kerak emas, balki uni Yangi vazifalar, nozik farqlar, tovlanishlar Bilan ochib berishga harakat qilish, har gall jozibadorroq qilish kerak. Tabiiyki, bu «jismoniy harakatlar» materialni, sinfni yaxshi bilishga, darsni tayyorlash sohasidagi butun dastlabki ishga, xususan maroqli vazifalar qoʻyishga taʼsir qilishi lozim.

Pedagogik ijodkorlikda «jismoniy harakatlar» usulini roʻyobga chiqarishning oʻziga xosligi shundan iboratki, u pedagoga faqat bevosita ijodkorlik (odamlar bilan muomala) boshlanishidan oldin oʻzining ijodiy tabiatini safarbar qilishning vositasi sifatidagina zarurdir, keyin esa «bordi-yu» holatidagi «jismoniy harakatlar» mantiqi ijodkorlik vaziyati bilan chinakamiga maʼnaviy moyillikka sekin-asta oʻsib oʻtadi, endi «bordi-yu» holatida emas, balki sinf bilan haqiqiy muomalada boʻladi.

Muomalada ijodiy kayfiyatni shakllantirish murakkab jarayondir. Bu yerda koʻpincha pedagog zoʻriqish tuygʻusini boshdan kechiradi, buni pedagogik ijodkorlikning omma oʻrtasidagi faoliyat, oʻzgarib boruvchi ijodkorlik holati, oʻzining psixik holatlarini boshqarish zarurligi, mehnatning oʻzaro fikr almashish jihatdan boyligi kabi xususiyatlari taqozo qiladi.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan bu zoʻriqishni, shuningdek, boshqa noxush holatlarni yengish uchun oʻz -oʻzini tarbiyalash yuzasidan doimiy ish olib borish zarur. Oʻz - oʻziga taʼsir qilishning bir qator usullari mavjud boʻlib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir: Oʻz- oʻzini ishontirish, oʻz - oʻziga buyruq berish, oʻz - oʻzini majbur qilish, oʻz - oʻziga majburiyat yuklash, oʻz -oʻzini ragʻbatlantirish, oʻz - oʻzini jazolash, oʻz - oʻzini mashq qildirish, nihoyat oʻz -oʻziga taʼsir qilishdir.

## **Savol va topshiriqlar**

**1. Pedagogik faoliyatda o`z - o`zini nazorat qilish deganda nimalar e`tiborga olinadi?**

**2. Ijobiy hissiy holatni saqlab qolish nima uchun yordamchi vositasi hisoblanadi?**

**3. O`z - o`ziga ta`sir qilishning qanday usullari mavjud.**

**Ularning eng muhimlari qaysilar?**

## **16-PEDAGOGIK DIQQAT VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI ROLI**

Ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga faol qaratilishiga diqqat deb ataladi.

Pedagogik diqqat pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida bir qator psixolog olimlar (N.D.Levitov, F.N.Gonobolinlar) ning asarlarida asosli holda o'rganib chiqilgan.

Diqqatning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi alohida rolini ta'kidlab o'tish kerak. Pedagogik faoliyatda pedagogning diqqati sovuq, mulohazakor diqqat emas, balki hissiy, faol diqqat bo'lishi zarur. Chunki hissiy, faol diqqat – barqaror diqqat holatini uyg'otishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyat, odatda, ko'p miqdordagi diqqat ob'ektlariga egadir, u ko'p tomonlama diqqat degan diqqatdir. Pedagogik faoliyada diqqatni boshqarish va unga rahbarlik qilish, zaruratga qarab uni ayni vaqtda barcha ob'ektlarga tarqatish va faqat bir nechtasiga jamlash – pedagogning murakkab vazifasidir. Uning diqqati ayni vaqtda ham barqaror, ham amaliy diqqat bo'lishi zarur. Ta'lim – tarbiya jarayonida pedagogning diqqatiga doimo ta'sir ko'rsatadigan ta'sirlar tizimi mavjud bo'ladi. Ular: auditoriyadagi o'quvchi bolalar yoki talabalar sonining ko'p miqdoda bo'lishi, ularning o'zaro gaplashuvi va tinglovchilarning ichki kechinmalari va shu kabilar.

Ijodiy pedagogik diqqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ular quyidagilardan iboratdir:

- 1) diqqat yo'nalishining ko'p ob'ektliligi:
- 2) faoliyat jarayonida diqqatning jo'shqinligi va amaliyligi (ob'ektlarning va shu kabilarning almashinib turishi):
- 3) diqqatning barqarorligi. Ko'rsatib o'tilgan bu xususiyatlarning o'ziyoq pedagogning ijodiy jarayonida diqqatning kasb – korlik mohiyatini anglash uchun nihoyatda muhimdir.

Agar shiddatli diqqat ijodiy ilhomning muhim tarkibiy qismi sifatida mehnat qilishga bo'lgan iroda va mehnat quroli bilan kuchli moyillik birligida o'zining

psixologik tabiatiga ega ekanligiga qo`shiladigan bo`lsak, u holda diqqatda aqliy, hissiy, irodaviy diqqatlarni ajratib ko`rsatish mumkin. Pedagogik diqqat muammolariga bag`ishlangan zamonaviy asarlarda, odatda, aqliy va irodaviy jihatlar qayd qilinadi, hissiy jihatlar kamroq ko`rsatiladi. Shu bilan birga ayni diqqatning hissiy jihatlari pedagogik ijodkorlikning ba`zi bir kam shakllangan muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bu jihatdan pedagogik diqqat tevarak – atrofdagi voqelikni idrok etish uchun hamisha ham qulay bo`lmagan estetik xususiyatlarni qamrab olishga qodir bo`lgan rassmning diqqatiga yaqindir. Rassom o`z diqqatining hissiy xususiyatlari estetik ta`sirchanligi asosida ularni ko`pchilik kishilar uchun xuddi «moddiylashtirganday bo`ladi». Pedagog ham ana shunday ish qiladi, u eng mayda – chuyda belgilarga qarab pedagogik vaziyatni va faoliyatning boshqa jihatlarini, boshqa kishining idrok etishi uchun kamroq qulayroq bo`lgan jihatlarini oldindan aytib berishga qodirdir. Diqqatning bu ijodiy samaradorligi, uning evristik yo`nalishi, belgilanayotgan narsalarning, yetilib kelayotgan pedagogik muammolarning yoki ularning belgilarini «Moddiylashtirish» ga qaratilgan yo`lni pedagogik diqqat tasvirlab beradi va uning hissiy madaniyatiga alohida talabalar qo`yadi. Ana shu asosda pedagogik fahm – farosat ham samarali ishlashi mumkin.

Pedagogik diqqatning ko`rsatib o`tilgan xususiyatlariga ma`lum darajada tasnif berib o`tamiz. Masalan, diqqatning ko`p ob`ektliligi haqida gapirar ekanmiz, bu xususiyatning uch darajasini nazarda tutishimiz kerak:

1. Diqqatni bir necha ob`ektga yo`naltirishni bilish.
2. Diqqatni bir nechta ob`ektga yo`naltirib, asosiy narsalarni ajratish va ikkinchi darajali narsalarni nazorat qila bilish.
3. Diqqatning yangi ob`ektlari paydo bo`lganligini his qilish va ularni diqqat maydoniga kiritish, shuningdek yangi ob`ektlarning paydo bo`lishini oldindan belgilab olish.

Diqqatning jo`shqinligi haqida gapirganda, bu jarayonning muayyan jihatlarini ham ajratib ko`rsatish zarur: 1) odatdagi faoliyat sharoitida diqqatni bir ob`ektdan ikkinchisiga o`tkaza bilish.

2) Yangidan – yangi pedagogik vazifalar paydo bo`lishi bilan doimo o`zgarib boruvchi sharoitda diqqatni bir ob`ektdan ikkinchisiga o`tkaza bilish va diqqatni ob`ektlarga taqsimlash darajasini qo`llab - quvvatlash, ularni o`zgartirish, nazorat qilish, diqqatni qayta taqsimlash.

Diqqatning barqarorligiga kelganda, quyidagi darajalarga ajratib ko`rsatish mumkin.

1. Diqqat barqoliyatdagi to`sqinliklarni yengishga qodir.
2. Diqqat faoliyatdagi to`sqinliklarni yengishga qobil bo`lib qolmasdan, shu bilan birga ularni oldindan payqash, ularga aks- sado berishga ham qobildir.
3. Diqqat barqaror va amaliy bo`lib, faoliyatning o`zgarib borayotgan sharoitida sinfnings barqaror diqqatini tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, katta yoshdagi kishilarda diqqatning hajmi 4 – 6 ob`ektga yetadi, undan ortiq bo`lmaydi. Shu sababli ob`ektlar soni ko`paygan sharoitda mashq qilmagan kishida nazorat yo`qolishi mumki, sarosimaga tushish holati boshlanadi. Kishilar ko`pincha ojizlikni his qiladilar, o`z diqqatlari va harakatlarini izchil boshqarmay qo`yadilar. Bu xildagi sarosimaga tushish boshlovchi pedagoglar uchun xosdir. Amaliyot o`tayotgan talabalar amaliyot vaqtida butun pedagogik ob`ekt tizimida diqqatni bir yerga jamlashning qiyinchiliklarini ko`rsatib o`tadilar. Bu holat ishni boshlayotgan kishilar uchun batamom tabiiydir, unda bevosita o`zaro fikr almashish faoliyati va unga rahbarlik qilish muhim rol o`ynaydi. Bunday qiyinchiliklarni tezroq bartaraf qilish uchun oliy o`quv yurtidayoq diqqatni boshqarish ko`nikmalarini egallash zarur.

## **Savol va topshiriqlar**

**1. Pedagogik diqqatning o`ziga xos xususiyati nimada va uni qanday rivojlantirish kerak?**

**1. Ijodiy pedagogik diqqat qanday xususiyatlarga bo`linadi?**

**2. Diqqatning barqarorligini qanday darajalarga ajratib ko`rsatish mumkin?**

**3. O`qituvchining diqqatiga qanday talablar qo`yiladi?**

## **17- PEDAGOGIK QOBILIYAT VA QIZIQISHLAR.**

Ta'lim – tarbiya ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga va qiziqishiga bog'liqdir. F. N. Gonobolinning ta'kidlashicha, o'quvchining ba'zi psixik protsesslari va xususiyatlari unda o'qituvchi shaxsiga xos sifatlarining shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyati va tasha mumkin. Pedagogik qobiliyat o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlarni – uning aql – zakovati, irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos va boshqa xususiyatlardan tarkib topadi. Bu xususiyatlar tufayli qobiliyatli o'qituvchi muvaffaqiyatli ishlaydi va oz mehnat sarflab, katta natijaga erishadi. Ta'lim – tarbiya kishiga bo'lgan qobiliyat tug'ma qobiliyat emas, odam tabiatdan shu qobiliyat kurtaklarini oladi. Qobiliyat shaxsining ongli faoliyatida rivojlanadi. Pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o'qituvchi ham yaxshi natijalarga erisha olmasligi mumkin. Buning sababi unda pedagogik qobiliyatning yo'qligi emas, balki pedagogik ko'nikmasi va malakasining yetarli bo'lmasligidir. Agar o'qituvchi havas bilan aql yuritib astoydil ishlasa, bunday ko'nikma va malaka albatta paydo bo'ladi. O'qituvchi o'quvchining ichki dunyosini tushinishi, yaxshi psixolog bo'lishi, o'quvchini qiziqitira olishi, o'quv materiallarini tushuntira bilishi, o'quvchini bilimlarini to'g'ri baholay olishi, bolalarga ijobiy - tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchilar jamoasining mehnatini tashkil etib, ularga rahbarlik qila bilishi, pedagoglarga xos odobga ega bo'lishi, har bir o'quvchi bilan alohida – alohida muomalada bo'la olishi kerak. Shundagina u qobiliyatli o'qituvchi hisoblanadi.

O'qituvchida bu qobiliyatlar bilan birga mehnatsevarlik xususiyati ham bo'lishi shart. Ishchanlik ya'ni ko'p va samarali mehnat qilishi, har bir darsga, har bir suhbatga, sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan har bir tadbirlarga puxta tayyorlanishi o'qituvchilik faoliyatining mutlaqo zarur shartidir. O'qituvchi o'z mehnatini ijodiy mehnatga aylantirganda, pedagogik ishining amaliy tomonlarini, nazariyasini astoydil o'rganib maliy tomonlarini, nazariyasini astoydil o'rganib ish tutganida, boshqalarning tajribasidan foydalanib, o'zi ham ijod qilib,



tashabbus ko`rsatib biron bir ish qilganida o`zining chinakkam ishchanlik qobiliyatini ko`rsatgan bo`ladi.

Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o`qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta rol o`ynaydi. Aslini olganda, odamdagi bu qimmatli sifatlar bir-biriga uzviy bog`liqdir. Qiziqish bilan bajariladigan faoliyat, u qanchalik murakkab bo`lmasin, hatto, muvaffaqiyatsizliklarga uchramasin, kishiga katta ichki qoniqish, mamnuniyatlik baxsh etadi. O`qituvchining bilimi qanchalik keng va chuqur bo`lsa, unda o`quvchilarga shu bilimni berish ishtiyoqi shunchalik zo`r bo`ladi. Bunday o`qituvchi eng yaxshi pedagog hisoblanadi, ularning ko`pchiligi o`z fanining ustalari, metodistlari bo`lib qoladi.

### **O`QITUVCHI NUTQINING XUSUSIYATLARI.**

O`quvchilar bilimlarni eng birinchi navbatda o`qituvchining jonli nutqi orqali oladi. Shuning uchun o`quvchilarning fanlarni puxta o`zlashtirish darajasi o`qituvchi nutqining sifatiga ham bog`liqdir. O`qituvchining leksika, fonetika, talaffuz, gaplarni to`g`ri tuzish, so`zlarda urg`ularni o`z joyiga qo`yib gapirish va hakazolar jihatidan to`g`ri bo`lishi kerak.

ta`lim – tarbiya ishida nutqining ta`sir kuchi nihoyatda kattadir. O`qituvchining nutqi o`quvchilarning o`zlarini tuta bilishlariga, xulq - atvorlari va fikr yuritishlariga ham ta`sir etuvchi kuchli vositadir. O`qituvchining nutqida uning hissi, intilishlari, iroda va e`tiqodi aks etadi. U nutq yordami bilan o`quvchilarda xursandlik, ruxlanish, muhabbat, sadoqat, g`azablanishi, nafratlanish hislarini tug`diradi. Nutqning ta`siri ko`rsatuvchi funktsiyasida intonatsiya katta rol o`ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar va harakatlar xususiyatlari, norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo`ladi. shuning uchun ham o`qituvchi o`quvchilarni dars materiallarini puxtaroq o`zlashtirib olishga da`vat etmoqchi, ma`lum bir harakatda yo`llamoqchi bo`lganda, o`z nutqida talaffuzga alohida e`tibor beradi.

### **O`QITUVCHI TAFAKKURINING XUSUSIYATLARI**

O`qituvchining tafakkuri asosan o`quv materiallarini mustaqil rejalashtirish va sistemali bayon etishda namoyon bo`ladi. O`quv materialini sistemali ravishda

bayon qilish uni aniqroq, ongliroq idrok qilishni va yaxshiroq esda qoldirishni ta'minlaydi. O`qituvchi o`quv materialini kitob tilida, darslikda bor bo`lganlargagina asoslanib bayon etmay, har doim ijodiy ish ko`rishi lozim. O`qituvchi keltirgan gapdagi fikrlarni isbotlay olishi, ilmiy asoslanmagan fikrlarni (isbotlay olishi) rad etish yo`llarini egallashi lozim. O`qituvchi bolalarga biror qoidani aytgach, unga darrov aniq misollar ham keltirish lozim. Dars vaqtida o`quvchilar tomonidan kutilmagan savollar berilib qolgan holda, o`qituvchi ustalik bilan o`ylab javob berishi yoki bu savolga keyinroq ishonarli dalillar bilan javob berajagini aytishi va albatta, bu va'dasining ustidan chiqishi zarur. O`qituvchi tafakkurining mazmunliligi, tezligi, kengligi kabi sifatlari bolalarga o`z bilimlarini aniq, mazmunli, tushunarli, qilib so`zlab berishda ham namoyon bo`ladi.

### **O`QITUVCHINING IRODAVIY SIFATLARI.**

Pedagogik faoliyat ta'lim tarbiya maqsadlariga muvofiq yo`naltirilgan hamda ko`pgina qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog`liq bo`lgan faoliyatdir. Shuning uchun ham bu faoliyat kishidan katta irodaviy kuch talab qiladi. Bu qiyinchiliklar darsga tayyorlanish, bolalarga bilim berish va ularni ishontirish va hakazolardir. Bu qiyinchiliklar darsga tayyorlanish, ko`rgazma qurollari tayyorlash, bolalarga bilim berish va ularni ishontirish, sifnda intizom uchun kurashish va hakazolardir. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun g`ayrat, chidam sabr – toqat, umuman kuchli iroda kerakdir.

O`qituvchidagi e'tiqod, dunyoqarash, burch hissi pedagogik ishidagi muvaffaqiyatlarning garovidir. Agar o`qituvchi ehtiros va qiziqish zo`r bo`lsa, u o`zini kuchli his qiladi, qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etadi. O`qituvchi faoliyatida eng muhim xususiyat maqsadga intilish yo`lida tinmay harakat qilishdir. Bu haqda shunday degan edi: «Har bir yaxshi, vijdonli o`qituvchi o`zining oldiga fuqaroni tarbiyalashni katta maqsad qilib qo`yadi. Bizning ajoyib yosh avlodlarimiz dunyoga keltirgan ijtimoiy – tarbiyaviy ishimizning chinakam olamshumul muvaffaqiyatining siri ana shunda».

O`qituvchining asosiy maqsadi hamma o`quvchilarning muvaffaqiyatli o`qishiga erishishdir. Mana shu asosiy vazifani bajarish yo`lida o`qituvchi qator

qiyinchiliklarni yengadi. Bunday qiyinchiliklardan biri, masalan darsda intizom masalasidir. Ba'zi sinflarda intizomning yomonligi o'qituvchilarning bu masalaga e'tibor bermasligi bu borada tegishli tadbirlarni ko'rsatishidir. Dars vaqtida yaxshi intizom bo'lishining asosiy shartlaridan biri o'qituvchining talabchanligidir. Sinfda intizomni saqlash vazifalarini bajarishi maqsadida o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi juda muhimdir. O'qituvchi o'z oldiga maqsadiga qanchalik intilsa, bolalarga shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatadi. Darsda intizom yomonlashma, uning sabablaridan bir o'qituvchining dangasaligi, sinfdagi tartibga beparvo qarashidir. O'qituvchilarga ta'sir etishda ishontirish alohida o'rinni egallydi. Forobiy o'quvchilarga ta'sir etishda ishontirishning roli haqida shunday degan edi: «...Ko'pincha shunday bo'ladiki, qat'iy suratda, dangaliga, rad qilib bo'lmaydigan talab qo'yishning o'ziyoq bolalarning sizning gapingizga ko'nishi va siz xohlaganingizcha amal qilishi uchun kifoya qiladi. Afsuski, ba'zi o'qituvchilar o'z o'quvchisiga ishonmaydi unga sen «Qobiliyatsizsan», «Qaysarsan», «Tuzalmaysan» - deb tanbeh beraveradi».

O'qituvchining irodasi o'z psixik jarayonlarini sharoit talabi bilan ongli ravishda tormozlantirishda ayniqsa keraksiz his – tuyg'ularni bosib turmushda ko'rinadi. Ba'zan bolaning hulqi o'qituvchida qonuniy ravishda g'azab tug'diradi. Lekin, bunday vaziyatda o'qituvchi o'zini tutishi, vazmin bo'lishi kerak.

O'qituvchining irodaviy sifatiga sabotlilik xosdir. Bu boshlagan ishni muvaffaqiyat bilan oxiriga yetkaza olishda namoyon bo'ladi. Bu iroda sifati o'qituvchining matonatida, qiyin holatda o'zini tuta bilishida, o'quvchilarga qat'iy talablar qo'ya bilishida ham ko'rinadi. Pedagogning talabchanligi uning o'quvchilarga bo'lgan mehribonligi va xushmuomalaligida o'z aksini topadi.

## **O`qituvchi - ustozlar haqida**

**Eng baxtiyor piri badavlat odamlardan biri o`qituvchi desa bo`ladi. Negaki, u dunyodagi har qanday gavhardan ham qimmatli bo`lgan inson farzandini voyaga yetkazib, uni ulug` ishlarga voris qilib qoldiradi.**

**\*\*\***

**O`quvchi o`qituvchidan doimo oqilona so`z kutadi. Agar o`qituvchi o`z nutqiga e`tiborsiz qarab, noo`rin iboralar, ifodalar ishlatgudek bo`lsa, uning o`zi beburd bo`ladi, o`quvchilar qoshida hurmati qolmaydi.**

**\*\*\***

**O`z ustozlarining qadr - qimmatlarini bilmagan va o`kituvchilik kasbining zavq - shavqini sezmagan kishi o`qituvchi bo`la olmaydi.**

**\*\*\***

**O`qituvchilik – eng murakkab san`at. Yosh bolalarning ishonch va hurmatini qozona bilish o`qituvchidan buyuk mahorat talab etadi.**

**\*\*\***

**Dilda kek saqlovchi g`arazgo`y kishi aslo o`qituvchi bo`la olmaydi. Bola eng adolatli va sofdil odamlarnigini hurmat qiladi.**

**\*\*\***

**O`qituvchining mahorati u tarbiyalagan shogirdlarining axloq -odobi va bilimdonligi bilan o`lchanadi.**

**\*\*\***

**Mohir notiq - o`qituvchining ta`limini olgan shogird ham so`zga chechan bo`ladi. Agar o`qituvchi xattot bo`lsa, shogird ham unga taqlid qiladi. Aksincha, o`qituvchi xunuk yozsa, o`quvchilar ham badxat bo`ladilar.**

**\*\*\***

**O`qituvchi darsga beparvo qaraydigan o`quvchini doimo ko`zdan kechirib turishi kerak, chunki bunday o`quvchi boshqa bolalarning ham diqqatini chalg`itadi.**

**\*\*\***

**Yaxshi o`qituvchi bo`lmoq uchun bolaning tilini va dilini bilmoq kerak.**

**\*\*\***

**Daryoga cho`milishdan oldin suvda suzishga qanchalik kuch va qobiliyating borligini chamalab ko`rganingdek, bolalar qoshiga o`qituvchi bo`lib kirishdan avval bu kasbga bo`lgan iqtidoringni va bilimingni yaxshilab o`ylab ol.**

**\*\*\***

**Bola qalbi ochilmagan tilsim, uni ochadigan kalitni topa bilish esa o`qituvchining – tarbiyachining mahoratiga bog`liq.**

**\*\*\***

**O`qituvchi qalbida quyoshning jo`shqin harorati, irodasida po`latning chidami, uzoqni ko`ra oladigan burgutdek o`tkir ko`zi, oynaning shaffof nuridek aql chirog`i, zilol chashmadek tunganmas mehr va bilim bo`lmog`i kerak.**

## **Boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik tavsiyalar.**

### **Mustaqillik bayrami.**

Bayram tantanasi o`tkaziladigan davra O`zbekistonimizning ramziy timsollari, gullar, tasviriy ko`rgazmalar bilan bezatiladi...

O': Ey, O'zg'on naslidan yaralgan o'zbek,  
Shavkati olamga taralgan o'zbek.  
Asli nasli toza buyuk millatsan,  
Uluslar ichida qutbi izzatsan.

O': Shajaring zevari oliy insonlar,  
Aqliga tan bergan ne-ne zamonlar.  
O'zbekiston buyuk kelajak sari,  
Qadim qo'ydi-omon bo'lsin sarvari.

O': Go'zal O'zbekiston, sensan Vatanim,  
Seni ololmaydi hech qanday g'anim!  
Yurtboshing, elboshing senga parvona,  
Jasur o'g'lonlaring kuchli, mardona.

O': Mustaqil yurtimsan, buyuk yurtimsan,  
Chamanlar bog'lari to'liq yurtimsan.  
Elim deb, yurtim deb yonib yashaymiz,  
Tuproq'ini ko'zga surtib yashaymiz.

(O'zbekiston madhiyasi yangraydi)

O': Assalomu aleykum azizlar!

Bugun yurtimizda ulug' bayram, serfayz tantana. O'zbekistonimiz  
mustaqilligining 15yillik bayrami nishonlanmoqda. Bayramingiz muborak, qadimli  
yurtdoshlar!

O': Biz- o'zbeklarmiz. Bizning tariximiz uch ming yillarga borib taqaladi, balki undan ham ziyodroq. Ikki daryo oralig'i bizning Vatandir.

O': Aylangandir ne davru davron

Ikki daryo oralig'ida,

Bugun istiqbolli hur zamon

Ikki daryo oralig'ida.

O': Haq taolo chin madadkori,

Sulton Uvays aziz yodgori

Ozod Vatan ko'zing tumori

Ikki daryo oralig'ida.

O': Bu yilgi Mustaqillik bayrami yangi asrda nishonlanayotgani bilan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Asrlar tutashganda bizlar porloq istiqbolimiz sari yanada shaxdam qadam tashlaymiz, aziz zamondoshim!

O': Nasib etmish bizga tongday istiqloq,

Mustaqillik degan oliy saltanat

Kelajak quyoshday ko'rsatur jamol,

Unga peshvoz chiqmoq kerakdir faqat.

Baxtimiz shundaki, zamondoshim, biz-

Asrlarni tutashtiryapmiz!

O': Davrlar orzusi edi Istiqloq,

Biz buni yaratdik O'zbekistonda.

Yaxshilik hech qachon bilmagay zavol,

Bizni tan oldilar jumla jahonda.

Baxtimiz shundaki, zamondoshim biz

Asrlarni tutashtiryapmiz!

O': O'n besh yil bo'ldi mustaqillikka! Bu davr ichida O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li, o'z mustaqillik mafkurasi vujudga keldi. Zamonamiz yoshlari o'z e'tiqodlari tamoyillarini mustaqil qasamday takrorlaydilar:

O': Biz o'z xalqimizni va ona Vatanimizni sevamiz.

O': Ona tilimiz, asriy milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz biz uchun muqaddasdir.

O': Xalq tinchligi, yurt odoblighi, mamlakatimizning taraqqiyoti yo'lidagi bunyodgorlik mehnati biz uchun sharaf.

O': Bugun bir necha bayramlarning mujassamidir. 1-sentyabr – Mustaqillik bayrami, bilimlar kuni, oltin kuzning birinchi kuni, barkamol avlodning o'quv yili ibtidosidir. Mustaqillik bayrami-barchamiz uchun eng shodiyona bayram. Shu kunda xushxon davralarda sho'x kuylar, quvnoq qo'shiqlar yangraydi. Biz istiqbol va yorqin istiqbol nashidasini suramiz.

(Davrada O'zbekiston bayrog'i hirpiraydi)

O': Mustaqillik-baxtning bayrog'i,  
Mustaqillik-yurtim chirog'i.  
Yurtim , bayrog'ingni asragin omon,  
Hilpirasin toki bor jahon!

O': Bayrog'imizga qarang.  
Yashil, oq va havo rang.  
Mustaqillikni yoqlab,  
Turibdi u hilpirap.

O': Yulduzlar va yangi oy  
Bayroqqa bergan chiroy.  
Osmon uzra yaltirab,  
Uzoqlardan ko'rinar.

O': Umrin osmonida porlagan quyosh,  
Ona yurt, oy kabi tanhosan, tanho!  
Elu yurt, oy kabi ko'rmay desak yosh,  
Sarbonim aytganday, bo'laylik ogoh.



O': Muhabbatga chorlab, vafoga chorlab,  
Bahorda ko'kargan yalpizdir Vatan.  
Ta'rifin yozmoqqa ojizdir qalam.  
Quyosh yagona –yolg'izdir Vatan.

(Davrani qizitish uchun Vatan haqida 4qator she'r yozish musobaqasi.

“O'zbekistonim”viktorinasi, “O'zbekiston Vatanim manim”deb nomlangan 5minutlik adabiy-musiqiy chiqishlar tanlovi o'tkazilishi mumkin).

(Davraga O'zbekiston gerbini olib chiqadilar)

(Xumoqush kiyimidagi qiz qanot qoqib yuradi).

O': Uchib kelgan Humo qush,  
Ko'chib kelgan Humo qush.  
Boshing tillomi,kumush,  
Qushim, xush kelibsana,xush.

O': Kel, mangu bog'larda qol,  
Gul ochur tog'larda qol.  
O'lkamga oshiyon sol,  
Quyosh misol, oy misol!

(Davraga bir bog' bug'doy, bir bog' paxtalari ochilgan g'o'za poyasi, patnisda meva ko'targan qiz yigitlar kirib keladilar).

O': Paxtasi, bug'doyi, mevalari mo'l  
Mehnat bilan ochar saodatga yo'l.  
Olg'a intiladi berib qo'lga qo'l  
Zahmatkash o'zbekim, doim omon bo'l.

O':Erkin yuraklarga iymon Vatandir.  
Toza ko'ngillarga darmon Vatandir.  
Halollik qasriga posbon Vatandir,  
Ozod, hur Turkiston, Turon-Vatandir  
Xalqimni olamda bor qil, xudoyim,  
Tolmas farzandlarni asragil doim!

## KELAJAGI BUYUK, HUR O`ZBEKISTON

(4-sinflar uchun)

Dars turi: Noan'anaviy.

Ta'limiy maqsad: O`quvchilarning O`zbekiston Respublikasi, uning Davlat ramzlari haqidagi bilimlarini, mavzu yuzasidan izohlash malakalarini oshirish. Mustaqilligimizning 15 yilligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: Vatanga muhabbat tuyg`usini tarbiyalash, ularni fidoiylik, himmat, olijanoblik kabi insoniy sifatlarni anglab borishga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Ularning so`z boyligini oshirish, nutqini o`stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Dars metodi: Savol-javob, sahna ko`rinishlari.

Dars jihozi: Davlatimiz ramzlarining rasmlari, "Oltin sanalap" tabloni.

Darsning borishi:

Ozbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi yangraydi. So`ngra Madhiya yuzasidan qisqa savol-javob o`tkaziladi.

O`qituvchi: — «Madhiya» so`zi qanday ma'noni bildiradi?

1-o`quvchi: — «Madhiya» lotincha so`z bo`lib, «tantana» ma'nosini anglatadi.

O`qituvchi: — O`zbekiston Respublikasi Madhiyasi qachon tasdiqlangan?

2-o`quvchi: — Davlatimiz Madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda tasdiqlangan.

O`qituvchi: — O`zbekiston Madhiyasining so`zi va musiqasi kimniki?

O`quvchilar: — O`zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasini O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan, musiqasini kompozitor Mutal Burxonov bastalagan.

O`qituvchi: — Madhiyamizda nima tasvirlangan?

3-o`quvchi: — Bag`ri keng O`zbekistonimizning so`lim vodiylari, osmono`par tog`lari, ufqlarga tutashgan vodiylari-yu keng dalalari tasvirlangan.

O`qituvchi: — 1-sentabr qanday kun deb elon qilindi?

4-o`quvchi: — 1-sentabr Mustaqillik kuni, Umumxalq bayrami deb elon qilingan kun.

O`qituvchi: — Siz Vatan deganda nimani tushunasiz?

5-o`quvchi:— Tug`ilib o`sgan yerimiz, kindik qoni to`kilgan joyni tushunamiz.

6-o`quvchi: Ona Vatanim, senga fidodir jonu tanim. Qorli tog`laring, serhosil bog`laring, cho`l-u biyobonlaring onamdek, otamdek qadrdondir. Yer usti, yer osti boyliklaring boyligimdir. Ey yurtim, Osiyoda yagonasan, bittasan. Shuning uchun ham seni quyoshli o`lka derlar.

7-o`quvchi: Ona Vatanim, senga fidodir jon-u tanim. Men jahon tan olgan donishmandlar: Al-Farg`oniy, Al-Buxoriy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Bahouddin Naqshbandiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, At-Termiziy nabirasiman.

8-o`quvchi: — Dunyoga doston bo`lgan To`maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi avlodiman. Olamni mahliyo etgan qadimiy shaharlar: Buxoro, Samarqand, Xorazm men uchun jonli bir kitob. Shuning uchun ham derlar:

*(O`quvchilar jo`rlikda):*

— Oxshashi yo`q bu go`zal bo`ston,

Dostonlarda bitgan guliston.

O`zbekiston deya atalur.

Uni sevib el tilga olur.

9-o`quvchi: — Ona Vatanim, bugun sen ozodsan, mustaqilsan, o`z doning, o`z neft-u gazing, o`z mashinang, o`z paxtang va oltining bor. Jahonda o`z o`rning, o`z obro`ing bor.

*(O`quvchilar Vatan haqida she`r aytadilar).*

O`qituvchi: — Hurmatli o`quvchilar, Davlatimiz ramzlaridan yana nimalarni bilasiz?

10-o`quvchi: — Bayrog`imiz va Gerbimiz ham davlat ramzlariga kiradi.

O`qituvchi: — To`g`ri aytdingiz. Bayroq biror tashkilot, millat va davlatning belgisidir. Bularning orasida millat uchun, eng muhimi, uning mustaqilligini va xalqaro hurmatga egaligini bildiruvchi ramz bu davlat bayrog`idir. Davlat Bayrog`i muqaddas hisoblanadi va u e`zozlab, asraladi. Bayroq odatda gazmol parchasidan iborat bo`lib, bo`yi enidan uzunroq bo`ladi va enining bir tarafi bir dastaga birlashtiriladi. Bayroqlar bir-biridan rangi va naqshlari bilan farq qiladi. Bizning

ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab o`zlarining bayroqlariga ega bo`lganlar.

Aziz bolajonlar, hozir bizga Bayrog`imizdagi ranglar, oy va yulduzlar o`zlari haqida ma'lumot berishadi.

*(Sahnaga Bayroq ko`targan tolalar chiqishadi.)*

1-o`quvchi: — Men moviy rang bo`laman — yurtim osmonining bir parchasi. Bu — olamda tinchlik bo`lsin deganidir. Yana men tip-tiniq suvgayam o`xshayman. Axir hayot oqin daryodir. Tilagim ana o`sha daryo hamisha tiniq va shaffof bo`lsin. Hech qachon loyqalanmasin.

2-o`quvchi: — Men qizil rangdirman. Bamisoli tomirlarda oqqan qondirman. Hamma-hammani Vatan bayrog`i ostida tinch, osuda, farovon yashashga, mehnat qilishga chaqiraman.

3-o`quvchi: — Men oq rangman. O`zim ham oq, ko`nglim ham oq, niyatim hamisha pok. Shuning uchun ham elga oq yo`l tilayman, deb Bayroqdan o`riin oldim va unda mangu qoldim.

4-o`quvchi: — Men yashil rangman. Yashillik yasharish-yashnatish, ertangi kunga ishonish deganidir. Non-u nasiba, sof havo, omonlik deganidir. Orzularim naqadar buyuk, yurtim hamisha yashnab tursin. Uning issiq bag`rida bolalar o`ynab kulsin.

5-o`quvchi: Oymomaman, oymoma. Eratklarda boy momo. Ko`rinishim uch yoki to`rt kunlikdir. Niyatlarim baraka, qut, to`kinlikdir. O`y sursalar o`ylariga sirdoshdirman. Yo`l yursalar, yonlarida yo`ldoshdirman. Tinch tunlami tinch kunlarga ulayman. O`zbekiston sharafini olam aro so`zlayman.

6-o`quvchi: — Biz o`n ikki yulduz — o`n ikki oymiz. Jamlasangiz, bir yilga joymiz. Yana biz o`n ikki burjmiz. Oy-u quyosh bilan harakatdamiz. Fasllar o`zgaradi. Yangi kun, yangi odamlar tug`iladi. Biz aks etgan yurt Bayrog`i ham, o`zi ham dunyo turguncha tursin, deymiz.

*(Sahnaga Gerb tasviri tushirilgan plakat ko`targan Quyosh, Xumo qushi, oy, yulduz, paxta, Amu va Sirdaryo timsdidagi bolalar tashrif buyurmshadi.)*

Bola:— Assalom, ey, chiroyli qush, qanotlari kumush!

Xumo: — Vaalaykum assalom, ey mustaqil yurt bolasi.

Bola: — Isming nima, ey qush, qanotlari kumush?

Xumo: — Men baxt qushi — Xumoman.

Bola: — E, ha, tanidim, sen haqingda ertaklarda o`qiganman. O`qib o`yga tolganman.

Xumo: — Nima uchun o`yga tolgansan, bolajon?

Bola: — Qadimda bir go`zal yurt va uning zo`ravon podshosi bo`lgan ekan. U o`zga yurtlarni bosib olib, boyligini talabdi. Odamlarini zindon, olimlarini gumdon qilibdi. Oxiri o`zining ham paymonasi to`libdi, olamdan o`tibdi. Yurt podshosiz qolibdi. O`shanda odamlar endi kimni podsho qilamiz, deb turishganida yurt osmonida Xumo qushi paydo bo`libdi. Donolar kengashib: «Shu qush kimning boshiga qo`nsa, o`sha podsho bo`ladi», deyishibdi. Jarchilar jar solibdi: — «Odamlar-u odamlar, eshitmadim demangiar, eshitganlar maydon sari yuringlar. Osmonda Baxt qushi charx urmoqda. Shu qush kimning boshiga qo`nsa, o`sha yurtga podsho bo`ladi».

Buni eshitganlar shoshib qolishibdi. Qanchadan-qancha puldor-u amaldorlar o`zini taxt uchun shaylabdi, tishlarini qayrabdi. Baxt qushini poylabdi. Ammo qush eng kambag`al, eng saxiy va adolatli, to`g`riso`z va dono kishining boshiga qo`nibdi. Mamlakatda adolat hukmron bo`libdi. Sen o`sha qushsan-a, Xumojon!

Xumo: — Yanglishmading, ey mustaqil yurt bolasi. Ko`p yurtlarni kezdin. Sening Vatanning xuddi ertaklardagi go`zal mamlakatga juda o`xsharkan. Shu bois yurting sari talpinib uchdim.

Bolalardan biri: — Xumo qushning aytganlari to`g`ri, bu yurtning odamlari qadoq qo`lli, bag`ri cho`g`li. Biz ham Gerbdan non-nasiba, qut-baraka ramzi bo`lib o`rin olganmiz.

Paxtaoy: — Biz Vatanning milliy boyligi, iftixori.

Quyosh: — Bu yurt — mening yurtim. Unga nurlarimni mo`l-ko`l sochgumdir. Har tong baxt eshiklarini yanada keng ochgumdir.

Amu va Sirdaryo: — Yurt — bir tan, bizlar uning jonimiz, tomirida oqqan hayot qonimiz.

Oymoma: — Gerb uzra turibman, osoyishdir osmonimiz.

Zuhro yulduzi: — Men sizga yo`lchi yulduz, adashmas hech karvonimiz.

*(Hamma jo`rlikda):*

Sizlar baxtiyor avlod,

Gullasin bog`, bo`stonimiz.

*(Ishirokchilar sahnadan chiqishadi).*

O`qituvchi: — Ana shunday, bu ko`hna zamin aro O`zbekiston degan buyuk davlat barpo etilgan. Bayrog`i, Gerbi, Madhiyasi shirin orzularga cho`milgan. Ular dunyo bo`ylab kezadilar, o`zlarini Xumo yanglig` sezadilar. Mana, bolajonlar, muqaddas Vatanimiz O`zbekiston va uning davlat ramzlari haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo`ldingiz. O`zbekiston tayanchi — siz yoshlarsiz. Vatanimiz mustaqilligini yovuz kuchlardan, terrorchilardan ko`z qorachig`iday asrab-avaylash, uni yanada gullab-yashnashiga o`z hissangizni qo`shish farzandlik burchingizga kiradi. Shuning uchun mustaqil yurtimizga munosib farzand bo`lishga intiling.

*(Vatan haqida qoshiq yangraydi).*

### **SHU AZIZ VATAN BARCHAMIZNIKI**

Vatanni ardoqlovchi noan'anaviy darslarni tashkil qilishda sinfdan tashqari o`qishda, dars jarayonida o`rgangan Vatan haqidagi she`r, hikoya, maqol, hadislar jamlanadi. Bunga buyuk allomalarimiz merosi ham kiradi.

**Dars maqsadi:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Dars jihozi:** O`zbekiston Bayrog`i, Gerbi, buyuk bobokalonlarimiz rasmlari, she`rlari, g`azallar, folklor namunalari, «Shashmaqom» kuylari yozilgan magnet tasmlari.

**Dars usuli:** noan'anaviy

**O`qituvchi:** — Aziz bolajonlar, Vatanimizning nomi nima?

**Bolalar:** — Mustaqil O`zbekiston.

O`quvchilar o`rinlaridan turib Davlat Madhiyasini ijro etadilar.

**O`qituvchi:** — Vatan deganda nimani tushunasiz?

**O`quvchi:** — Har kimning tug`ilib o`sgan joyi Vatandir. Ona bitta bo`lgani kabi, Vatan ham bittadir.

*Onajonimsiz mening,*

*Nur jahonim siz mening,*

*Men uchun jondan aziz,*

*Qaib madorim siz mening.*

Mana shu she'riy misralarda bayon etilgan ona haqidagi so'zlarni Vatan haqida ham aytgning keladi. Men Vatanimni onam kabi sevib ardoqlayman va onam yumushini qilganim kabi Vatanga xizmat qilaman.

**O`qituvchi:** — Qani, mustaqil O`zbekj'stonimizning ramziy belgilarini tasvirlab bering-chi?

**O`quvchi:** — (qo`lida bayroq ushlab) O`zbekistonimizning Bayrog`i haqida gapirmoqchiman. (Bayroq ko`targan 4-5 o`quvchi saf tortib turadilar) Bayrog`imizdato`rt xil rang bor:

*Havorang* — musaffo osmon va shaffof suvning, ya'ni hayot manbalarining ramzidir.

*Oq rang* — tinchlik elchisi, insonlarimiz qalbining pokligi timsolidir, u yana yaxshi niyat ramzi sifatida qo`yilgan.

*Qizil yo'llar* — bu har bir inson tomirida jo`shib turgan qutlug` qoni ramzidir.

*Yashil rang* — tabiatning ilk uyg`onish fasli — bahoriy maysalar, yasharish ramzi. Harakat timsoli ham yashil rang hisoblanadi. Buni yo`lchiroqlar misolida ko`rish mumkin.

*Yarim oy* — o`zbek xalqining ko`p asrlik an'alariga binoan yarim oy va yulduzlar tinchlik ramzlaridir. 12 yulduz mukammallik, 12 oy esa 12 muchalni ham anglatadi.

Davlatimizning bayrog`i o`tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir.

Hamma: — Bayrog`imiz olam uzra hilpirab tursin!

Bayroq oldiga chiroyli kiyingan bir o`quvchi keladi. Biroz ta'zim ila bayroqni o`pib qo`yadi. Bayroq ko`tarib turgan o`quvchilar asta yurib safga qo`shiladilar.

Yana 2 o`quvchi O`zbekistonimiz Gerbining rasmini ko`tarib o`rtaga chiqadi.

**O`qituvchi:** — Qani, bolalar, qaysi biringiz Gerbimizni chiroyli va ifodali qilib tasvirlab bera olasiz?

Bir o`quvchi Gerb oldiga keladi va unga quyidigicha ta'rif beradi:

— Tamg`aning markazida qanotlarini keng yoyib turgan Xumo qushi tasvinangan. Bu baxt-saodat, erksevarlik, saxovatpeshalik, ozodlik ramzidir.

Tamg`aning yuqori qismida respublikamizning sobitligi va barqarorllgining ramzi bo`lgan cakkiz qirrali yulduz tasvirlangan.

Quyosh tasviri davlatimizning hayot yo`li hamisha nurli bo`lishini bildiradi. Yana O`zbekistonimizning serquyosh o`lka ekaniga ham ishora.

Boshloqlar esa asosiy rizq-ro`zimiz bo`lmish g`allamiz timsolidir.

Oppoq paxta chanoqlari serquyosh yurtimizning dong`ini olamga taratgan asosiy milliy boyligimiz ekanini anglatadi.

Bug`doy boshloqlari va paxta chanoqlari davlat bayrog`iga o`xshash lenta bilan o`ylab qo`yilgan, bu respublikada yashayotgan xalqlarning yakdilligini bildiradi. Tamg`aning etak qismiga oltin harflar bilan «O`zbekiston» deb yozib qo`yilgan.

Bolalar o`rtadan chiqib, safga qo`shiladilar.

Bir o`quvchi Erkin Vohidovning «O`zbekim» she`ridan bir parchasini yoddan aytadi.

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o`zbekim,*

*Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon, o`zbekim.*

*So`yiasin Afrosiyob-u so`yiasin O`rxun xati,*

*Ko`hna tarix shodasida bitta marjon, o`zbekim.*

*Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farob avlodidan,*

*Asli nasli balki O`zluq, balki Tarxon, o`zbekim.*

*Tuzdi-yu Mirzo Ulug`bek Ko`ragoniy jadvalin,*

*Sirli osmon toqiga qo`ydi narvon, o`zbekim.*

*Mir Alisher na`rasiga aks-sado berdi jahon,*

*She`riyat mulkida bo`ldi shoh-u sulton, o`zbekim.*

*Mirzo Bobur — sen, fig`oning soldi olam uzra o`t.*

*Shoh Mashrab qoni senda urdi tug`yon, o`zbekim.*

*Menga Pushkin bir jahon-u, menga Bayron bir jahon,*

*Lek Navoiydek bobom bor, ko`ksi osmon, o`zbekim.*

*Qayga bormay boshda do`ppim, shuhratim, qadri buyuk,*

*Olam uzra dong`i ketgan O`zbekiston, o`zbekim.*

**O`qituvchi:** — Endi, aziz bolajonlar, Mustaqil O`zbekistonimizning bu yu<sup>k</sup> sanalari haqida so`z yuritamiz.

— O`zbekiston qachon mustaqil davlat deb e`lon qilingan?

**I-o`quvchi:** — O`zbekistonimiz 1991-yil 31-avgust kuni mustaqil davlat deb e`lon qilingan.

— O`zbekiston Madhiyasi qachon tasdiqlangan?



**2-o`quvchi:** — O`zbekiston Madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda tasdiqlangan. So`zlarini O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa marhum kompozitor Mutal Burhonov bastalagan.

— O`zbekiston Bayrog`i tasdiqlangan kun?

**3-o`quvchi:** — O`zbekiston Respublikasi Bayrog`i 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

— O`zbekiston Respublikasi Gerbi qachon tasdiqlangan?

**4-o`quvchi:** — 1992-yil 2-iyul kuni tasdiqlangan.

— O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

**5-o`quvchi:** — 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan.

— Davlatimiz BMTga qachon a`zo bo`lgan?

**6-o`quvchi:** — O`zbekiston 1992-yil 2-mart kuni BMTga a`zo bo`ldi.

— O`zbekiston o`zining milliy valyutasiga ega bo`lgan sanani ayting.

**7-o`quvchi:** — 1994-yil 1-iyul kuni milliy valyuta muomalaga kirdi.

— Kelajak avlodning sog`lig`i va salomatligini ko`zlab, Prezidentimiz Islom Karimov qanday orden ta`sis etdi?

**8-o`quvchi:** — «Sog`lom avlod» ordenini.

**O`qituvchi:** — Balli, bolajonlar, buyuk sanalarni juda yaxshi eslab qolibsizlar. Endi tarixga bir nazar solaylik. O`tmishda yashab, davlat arbobi hamda ijodkor sifatida o`zbek xalqining dovrug`ini olamga yoygan buyuk allomalardan kimlarin bilasiz?

**9-o`quvchi:** — O`tmishimizda yashab o`tgan allomalardan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobumi hamda Nodirabegimlarni sanab o`tishimiz mumkin.

**O`qituvchi:** — Qani, Alisher Navoiyning ijodi haqida qisqacha gapirib bering-chi.

**10-o`quvchi:** — So`z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug`ilganlar. 1501-yil 3-fevralda vafot etganlar.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida vazirlik qilgan. Hozir men shoir g`azallaridan birini yod aytib beraman:

*Ko`rib dardim, tarahhum qilmading hech,*

*To`kib ashkim, tabassum qilmading hech.*

*Firoqing o`ti ichra necha yig`lab,  
Fig`on chekdim, tarahhum qilmading hech.  
Jahonga oh-u ashkim soldi oshub,  
Bu to`fondin tavahhum qilmading hech.  
Sozing shavqidin erdim xasta umre,  
So`rarga bir takallum qilmading hech.  
Musallam ishq, ey ko`nglum, angokim,  
Ko`rib zulmin, tazallum qilmading hech.  
Muhabbat ahli qismin ne chun, ey charx,  
Qilib mehnat, tana`um qilmading hech.  
Navoiy sari, ey davri muxolif,  
Navo savtin tarakkum qilmading hech.*

**O`qituvchi:** — Balli. Endi ham shoh, ham shoir deb ta`rif bergan bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kunini aytig hamda Bobur g`azallaridan misol keltiring.

**11-o`quvchi:** — Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug`ilgan. 1530-yilda Xindistonda vafot etgan.

Bir necha yil Hind diyorida podshohlik qilgan.

*Kim ko`ribtur, ey ko`ngil, ahli jahondin yaxshilig`  
Kimki ondin yaxshi yo`q, koz tutma ondin yaxshilig.  
Bu zamonni nafe qilsam, ayb qilma, ey rafiq,  
Ko`rmadim hargiz netayin, buzamgndin yaxshilig.  
Dilrabolardin yombnlig` keldi mahzun ko`nglima,  
Kelmadi jonimga hech oromijondin yaxshilig.  
Ey ko`ngul, chun yaxshidin ko`rding yomonlig` asri ko`p,  
Emdi koz tutmoq ne, ya`ni har yomondin yaxshilig`.  
Bori elga yaxshilig` qilg`ilki, mundinyaxshi yo`q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig.  
Yashilig` ahli jahonda istama Bobur kibi,  
Kim ko`ribtur, ey ko`ngul, ahli jahondin yaxshilig.*

**O`qituvchi:** — Juda yaxshi, balli. Qani, Nodirabegimni ham yodga olaylik. Kim gapirmoq-chi?

**12-o`quvchi:** — Shoira Nodirabegim 1792-yili Andijonda tug`ilgan. 1842-yilda Qo`qonda vafot etgan. Men hozir shoiraning «Etib ket» g`azalini yod aytib bermoqchiman.

*Kel, dahri imtihon etib ket,*

*Sayri chamanijahon etib ket.*

*Bedardlaring jafolaridin*

*Faryod chekib, fig`on etib ket.*

*Dunyo chamanini bulbulisan,*

*Gul shoxida oshyon etib ket.*

*Ey ashk, kozimni maktabidin*

*Hayrat sabaqin ravon etib ket.*

*Maqsad ne edi jahona kelding?*

*Kayfiyatini bayon etib ket.*

*Kel, ishq yolida ko`zlaringni*

*Ey Nodira, durfishon etib ket.*

**O`qituvchi:** — Barakalla, g`azallarni maza qilib tingladik, hammamizni ulug` bobolarimizning ruhlari qo`llasin.

O`quvchilar Amir Temur hayoti, qilgan ishlari haqida ham gapirib beradilar. Amir Temurga bag`ishlangan vatanparvarlik ruhidagi she`rlar ifodali o`qiladi. Shundan so`ng bolalar hadislardan, maqollardan, rivoyatlardan namunalar keltiradilar. Xattaxta yoniga Samarqand, Buxoro kabi qadimiy shaharlarda qurilgan va hozirgi kunda qurilyotgan ko`rkam binolar surati tushirilgan plakatlar, rasmlarni ko`tarib chiqadilar. Ular haqida so`zlab ham beradilar.

### **“Navro`z bayrami” tarbiyaviy tadbirning o`tkazilishi.**

Kuy, Bahor haqida qo`shiq, “Bahor vals”, Karnay bazmi.

O`qituvchi; Turg`unlik zaxrini chekkan “Navro`zim”

Quvg`inlik qaxrini chekkan “Navro`zim”

G`alabang – tantanang muborak bo`lsin,

Ming oqlab, maqsadga yetgin “Navro`zim”.

Kalbatin gumrohlar yurtni surdilar,  
Bo'larga, bo'lmasga xukmin bo'ldilar.  
Xor aylab xalqimning odat-odobin,  
Toptap an'analar-davron surdilar.  
Chekilgan azoblar hurmati haqqi,  
Topilgan taqdirlar izzati haqqi,  
Haqiqat mash'ali qildi tantana  
Bag'ri keng xur xalqim himmati haqqi.  
"Navro'zim" tantanang muborak bo'lsin,  
Qadaming chechaklar, gullarga to'lsin.  
Nuroni bobolar urfu-odatin,  
Kelajak avlodlar ko'zlarga sursin.

Boshlovchi: Hurmatli mehmonlar, aziz bolajonlar. Qutlig' ayyom "Navro'z" bayramingiz muborak bo'lsin. Qalbingiz bahor nafasidek sof, orzu-umidlar bahor nafasidek musaffo bo'lsin.

Sarvikor kezmoqda o'lkamda ko'rkam,  
Bahor nafasila yashirmish o'lkam  
Dillarda xonidhu tabiatda noz,  
Qanotli orzular etgusi parvoz.  
Navro'z demoqdamiz, orzular deymiz  
Davramiz kentikdir, nedir etmaydi.  
Jajjilar, o'ylangiz kim bo'ldi ekan?  
Usiz bayramingiz to'kis o'tmaydi.

O'quvchilar: Yetmas Bahoroy.

Boshlovchi; To'g'ri bolajonlar, Bahoroysiz bayramingiz qanday o'tishi mumkin? Chaqirdik bo'lmasa...

O'quvchilar; Bahoroy, Bahoroy, Bahoroy... (musiqa sadolari ostida Bahoroy kirib keladi. Atrofni qo'l silkitib aylanib chiqadi).

Bahoroy; Salom, aziz bolajonlar.

O'quvchilar; Salom, Bahoroy.

Bahoroy: Qorli tog'lar bag'ridan,

Keng vodiylar satxidan,  
Uchib keldim o'lkamga,  
Fayz beray deb ko'klamga.  
Unda gullar ochilsin,  
Ko'ksidan nur sochilsin.  
Durga aylansin dalam  
Qirga to'shalsin gilam.  
Bolajonlar bazmiga,  
Tilaklarim bir olam.

Boshlovchi; Rahmat, Bahoroy. Biz seni juda intizorlik bilan kutdik. Qishli-qirovli kunlarni o'tkazdik va nihoyat bugungi quvonchli kun-Navro'zi olamga erishdik.

Bahoroy; Juda to'g'ri. Bugun Navro'z bayrami. Ijzatingiz bilan shu bolajonlarga bir-ikki savol bilan murojat etsam.

Boshlovchi; Marhamat.

Bahoroy; Navro'z bayrami haqida nimalarni bilasiz?

1-o'quvchi: Navro'z qachon, qanday vujudga kelgan, kim tomonidan joriy qilinganini aniq aytish qiyin bo'lsa-da, bu bayramni buyuk va dono xalqimiz o'ylab topgani ravshandir. Chunki Navro'z koinot va tabiat qonuniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan. Quyoshning xamal burjiga kirishi, kech va kunduzning vaqt jixatdan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya borishi, yorug'likning ko'payishi, bahorning boshlanishi, tabiatning jonlanishi Navro'z deb qabul qilingan. Navro'z- "yangi kun" degan ma'noni bildiradi.

Bahoroy; Barakalla, juda dono bola (qiz) ekansan. Yana bir savol. Navro'z taomlarini bilasmi?

2-o'quvchi; Ha, sumalak, xalim, yalpiz, ko'k somsa, har xil ko'katlar solingan taomlar pishiriladi. Chuchmoma va ravoch kabi ne'matlar tanavvul qilinadi.

Bahoroy; Juda soz.

O'qituvchi; Bahoroy, Navro'zni biz xalq sayli dedik. Bilaylik-chi, xalqimiz ana shu qutlug' ayyomda qanday o'yinlar o'ynagan ekanlar? Qani kim aytadi?

3-o'quvchi; Katta-kichik maydonlarda milliy o'yinlar ijro etilgan.

Ular” Katta masxarabozlik”, “Chavqi”, “Xatarli o'yin” kabilardir. Qiziqchilik, masxarabozlik avj olgan. Kurash, uloq, bedana, xo'roz, qo'chqor urishtirishlar ham o'tkazilgan.

O'qituvchi; Bahoroy bizda ham shunday xo'rizlardan bir jufti tayyorlanib turishibdi. (“Xo'roz “ kiyimida o'quvchilar chiqadi. “Lazgi”kuyi jo'rligida urshishadi).

Bahoroy: Barakalla. Sumalakning tarixini kim biladi?

4-o'quvchi; U haqida ko'p rivoyatlar mavjud. Mana ulardan biri.

Dehqon bahor kelishi bilan urug'likka olib qo'yilgan oxirgi donini suvga ivitib qo'yadi. Lekin birdan havo buziladi (harakatda ko'rsatish) yomg'ir yog'adi... urug' unib chiqadi, o'sadi, dehqon uni qiymalab, qozonga soladi... (O'choqli qozon oldiga kelib, sumalak solganday xarakat qiladi. Qozon atrofida “Nuroniy kampirlar” kapkir bilan qozon kovlay boshlaydilar).

1-kampir; Xoy egachixon, sumalak sayliga kelgan mehmonlarimiz nimga tayyorlanishyapti?

2-kampir; Baxri-bayt aytmoqchi.

3-kampir; Uni qarang-a?

4-kampir; Ha, qadimiy urf odatlarimiz qanday fayzli –a?

(bolalar birma-bir o'rinlaridan turib baxri-bayt ayta boshlaydilar).

Baxri-bayt aytmoqqa keldik,

Davrani tor olmangiz.

Bellashuvlarda dog'da qolib,

Sovrindan kech qolmangiz.

Zar gilamga mehri qo'yib,

Risq urug'in qadadim.

Bahoroydan madad kutib,

Barakaga qaradim.

Menda bitta orzu bordir,  
U ham bo'lsa to'kinlik.  
Karvon-karvon hosil bitsin,  
Tinchlik, bo'lsin omonlik.  
Imom ila saxovatni  
Unitmasin insonlar.  
Go'daklarning kulgusi-la,  
O'taversin zamonlar  
Alyor ayting do'stlar bu kun,  
Navro'z ayyomi keldi.  
Sipqoringiz, do'stlar,mehr-  
Sadoqat jomi keladi.

Boshlovchi; Yashanglar-o, baraka topinglar. Qani endi navbat topishmoqlarga.

1. Zar gilam zargal gilam,ko'taray desam, og'ir gilam (yer)
2. Ko'k ko'ylakka ko'l yetmas (osmon)
3. O'zi bor, soyasi yo'q. (suv)
4. Jonon kosa ko'zi o'ynar, sochlari jilva-jilva.(buloq)
5. Ko'zga ko'rinmas,qo'lga tutilmas.(havo)
6. Biri sepadi, biri ichadi, biri o'sadi.(yomg'ir,yer,o'simlik)
7. O'tmas pichoq, yer kovlar.(tomchi)
8. Yorug'i bor , dovrug'i bor,o'zi yo'q, ovozi bor. (yashin, momaqaldiraq)

Boshlovchi; Xov anavi yerda o'tirgan kim ekan?

Bahoroy; Iye, boychechak-ku, bahorning birinchi darakchisi.

Davramizga qo'shdik uni ham. (boychechak ashulasi aytiladi. "Boychechak" kiyimidagi qiz davrani aylanib o'ynaydi)

Boychechagim bolasi,  
Qulog'ida donasi  
Donasini olay desam  
Chiqib qoldi onasi.

n-t

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechagim boylandi,  
Ko'chama-ko'cha aylandi.  
Boychechakka ko'k somsa  
Cho'ntaklariga joylandi.(naqorat)

Boychechagim boylandi,  
Qozon to'la ayroni.  
Ayroningdan bermasang  
Qozonlaring vayroni.(naqorat)

(Ashula va o'yin tugaydi. Bahoroy bilan Boshlovchi "Boychechakni" ko'zlariga surtib  
"Omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik" deyishadi).

Kampirlar; Kelinglar-o, sumalak pishdi. (Sumalak kosalarga suzilib, mehmonlarga non bilan  
tutiladi. Mehmonlar, ishtirokchilar sumalakdan tatib ko'radilar )

Bahoroy ; Barakalla. Rosa maza qildim-da... Iya, bolajonlar bobodehqonimiz qanilar?  
Hamma; Mana shu yerdalar(Bobodehqon kirib keladi, haqiqiy dehqoncha kiyimda).

Bobodehqon; Hamal keldi –amal keldi,  
Yerimizga jamol keldi.

Bahoroy; Ayyom muborak, aziz bobodehqon!

Bobodehqon; Rahmat, qizim. Mana endi mening ham ishlari qizib ketadi. Yurtimning  
Risq-ro'zi mening qadoq qo'llarimga bog'liqdir.

5.-o'quvchi; Himmatinga balli bobo- dehqonim,  
Yurt g'ami yelkangda azizim –jonim.  
Qadoq qo'llaringni ko'zga urgum men,  
Labzingga ofarin, tanti dehqonom.

("Boychechak chiqibdi" ashulasi va o'yni).  
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan,  
Hamma bir biriga jigar so'z ekan.



Olam ham barobar kech-kunduz ekan,  
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.  
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo,  
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo,  
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy ona,  
Boychechak chiqibdi bugun Navro'z ekan.

Dehqon; Yer ayni taftida urug' sepay men,  
Kiydiray, yediray, obro' topay men.

Boshlovchi; Shoshmang , boboginam, xalqim naqli bor,  
Baraka boboning izzat, qadri bor.  
Chorlayin boboni fotixa bersin,  
Qadilmish urug'dan risqim –dur bitsin.

Hamma; Baraka bobojon , bayramga kelig,  
Hosillar mo'l bo'lsin, fotixa bering.

(Baraka bobo kirib keladi, nuroniy qo'lida xassa)

Bahoroy; Bobojon –xush kelibsiz, Ayyomingiz muborak.

Baraka bobo; Rahmat, azizim. Hammalaringizni bayram bilan tabriklayman.

Hamma; Rahmat bobojon.

Bahoroy; Bobojon ,dehqonga fotixa bering. Qadagan urug'i mo'l hosil bersin, yurtimiz tinch-farovon, kunlarimiz osuda, farzandlar insof-diyonatli bo'lsinlar.

Baraka bobo; Dehqonim haydayver , rizqing urug'in ,  
Bitsin undan avval mehru oqibat.  
Go'daklar kulgusi yangrasin unda  
Onalar allasi taralsin kunda,  
Xandon kulaversin yurtim jamoli.  
Kundan-kun mavj olsin do'stlik kamoli  
Yoqolsin adovat, ham fitna, kulfat  
Yomonlar yo'qolsin, ko'paysin ulfat.  
Xirmoning tog' bo'lsin, baxting bor bo'lsin,  
Beshiging –ona yurt, taxting bor bo'lsin.

(Ikki o'quvchi xo'kiz yer xaydashga taqlidan yuradilar, ketidan dehqon xaltadan urug'larni sepish ishorasi bilan yurib boradi. O'quvchilar ashula boshlaydilar)

Hayda, hayda, hayda-yo, hayda.

Hosiling elga foyda, hayda-yo hayda,

Risq urug'in qadaylik, hayda-yo, hayda

Unga suvlar taraylik, hayda-yo, hayda

Hosilim mo'l bo'lguncha, hayda-yo, hayda

Quvonchimdan yayrayman, hayda-yo, hayda

Naqorat

Omon bo'lsin, xalqimiz, hayda-yo, hayda

Yashnayversin baxtimiz, hayda-yo hayda

Tinchlik sozi yangrasin, hayda-yo, hayda

Qutli bo'lsin taxtimiz, hayda-yo, hayda.

Naqorat

Boshlovchi; Urug' qadalsin, unung unib o'sishi uchun nima kerak?

Hamma; Yomg'ir kerak.

Boshlovchi; Chaqirdik bo'lmasa(Qo'lida yasama qo'g'irchoq ko'targan qizcha va ikki o'yinchi davrani aylana boshlaydilar. Qo'shiq boshlanadi)

Sust xotin, suzma xotin,

Ko'lankasi maydon xotin.

Yomg'ir- yog'dir ho'l bo'lsin,

Yeru –jahon ko'l bo'lsin.

Maysalar quloq yozsin,

Sutu qatiq mo'l bo'lsin.

Yomg'ir yog'dir ko'l bo'lsin,

Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin.

Arpa, bug'doy bosh tortsin

Yomg'ir yog'dir ho'l bo'laylik.

Ko'klamda o'ynab –kulib,

Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.

Sust xotin, suzma xotin,

Ko'lankasi maydon xotin.

Qizcha Qo'g'irchoqni suvga oqizamiz (Suvga oqizganday xarakat qiladi)

Baraka bobo; Baraka urug'i qadaldi do'stlar,

O'yin-kulgu ko'kka yuksaldi do'stlar.

(Shodon kuy, davomli o'yinlar )

Bayram nixoyasida ota-onalar o'z farzandlari bilan maktab xovlisiga ko'chat ekadilar.

## RAQAMLAR MAMLAKATIDA

(2 sinfdan matematikadan ertak-dars)

Mavzu: «Bo'lish va ko'paytirishga doir mustahkamlash uchun mashqlar». 1-8-misol va masalalar.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarning ko'paytirish va bo'lish yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, misol va masalalar yechish malakasini o'zlashtirish.

2. Iqtisodiy va ekologik tarbiya berish. Ularda do'stlik, bir-biriga hurmat hissini tarbiyalash.

3. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: raqamli kartochkalar, masala sharti yozilgan lavha, jadval, testlar, kitob, magnitofon, «LETI - 2000» apparati.

Dars turi: noan'anaviy.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism o'tkazilib, navbatchining axboroti tinglanadi. Darsga «Matematika» kitobi kirib keladi.

- Assalomu-alaykum, bolajonlar. Meni tanidingizmi?

— *Mening ishim — hisob-kitob,*

*Hamda berish nuri oftob.*

*Ishlamasam agar bir kun,*

*Dunyo bo'lar zim-ziyotun.*

*O'rgan meni erta-yu kech,*

*«Yomon» baho olmagan hech.*

*Kimki bilsa meni a'lo,*

*U bilimii hamda dono.*

«Matematika» kitobi o`quvchilarga test topshiriqlari tarqatadi.

*(Shu choq eshik taqillab, ertakchi momo kirib keladi).*

Ertakchi momo: - Assalomu-alaykum, bolajonlar. Kichkintoylar huzurida bo`lib, biroz kechikdim, buning uchun uzr.

Bolalar: - Ayni vaqtda keldingiz. Qani, marhamat!

Ertakchi momo:- Bolalarim, ertak eshitishga tayyormisizlar? Bo`lmasa, quloq solinglar.

Qadim zamonda, tog`lar ortida, dengiz tomonda, raqamlar mamlakati bo`lgan ekan. Unda juda ham inoq sonlar yashagan ekan.

Kunlardan bir kuni, ular uzoq bir yurtida Matematika mamlakati va uning odil shohi borligini eshitib qolishibdi. Shoh o`z xizmatiga barcha raqamlarni taklif etibdi. Raqamlarning hammasi shoh xizmatini bajarishga rozi bo`libdi. Raqamlar mamlakati bilan Matematika shohi davlati orasida juda katta vodiy bor ekan. Bu vodiyda esa 4 ta daryo bo`lib, ularning nomi «Qo`shish», «Ayirish», «Ko`paytirish» va «Bo`lish» ekan.

Raqamlar qanday qilib Matematika shohi mamlakatiga borishni maslahatlashishibdi. Ular hammalari birgalikda borishga qaror qilibdilar, chunki shunday qilinsa, har qanday qiyinchilikni oson yengish mumkin, ekan-da.

Ertalab quyosh o`zining zarrin nurlarini yerga sohib, atrof yorisha boshlaganda raqamlar yo`lga chiqishibdi. Ular uzoq yurishibdi va nihoyat, «Qo`shish» daryosi bo`yiga yetib kelishibdi. Barcha raqamlar daryo bo`yiga yig`ilishibdi, daryo suvidan ichib, chanqog`ini bosmoqchi bo`lishibdi, ammo «Qo`shish» daryosi ularga suv bermabdi. «Agar suv ichmoqchi bo`lsangiz, avval, mening quyidagi shartimni bajarishingiz lozim. Juft-juft bo`lib saflaning va qo`shiling, shundagina suv ichasizlar», debdi.

Shartga ko`ra bir o`quvchi chiqib magnit taxtasidagi jadvalni to`ldiradi.

10	2	4	3	5	1	6	8	9	7

Qolgan o`quvchilar bilan qo`shishga doir «Son ketidan son kelar» o`yini o`ynaladi. Bu o`rinda bir o`quvchi qo`shishga doir misol aytadi, javobi necha chiqsa, boshqa o`quvchi o`sha javobdan boshlab yana misol aytishda davom etadi.

Masalan :  $15+32=47$   
 $47+23=70$   $70 + 20 = 90$  va hokazo.

Ertakchi momo:- Bolalar, matematik diktantni ham to`g`ri bajara olsak, «Qo`shish» daryosi raqamlarga suv beradi.

38 ni 22 ta orttiring va 50 taga kamaytiring; 80 ni 50 ta kamaytiring va 30 ta orttiring.

- Raqamlar suv ichib, yo`lga tushishibdi. Quyosh yana ham qattiqroq qizdiribdi, raqamlar horib-tolib, zo`rg`a «Ayirish» daryosi bo`yiga yetib kelishibdi. Bu daryo ham chanqagan raqamlarga o`z shartini qo`yibdi. Ayirishga doir misolami to`g`ri yechsangiz, suv beraman, debdi u.

«LETI- 2000» apparati yordamida quyidagi jadval ekranga tushiriladi va bolalarga uni mustaqil to`ldirish topshiriladi.

b	25	48	77	0
90-b				

Topshiriq bajarilgach, misollar javoblari tahlil qilinadi.

Ertakchi momo: - Barakalla, bolalar, raqamlarga juda yaxshi yordam berdingiz. Shunday qilib, raqamlar Matematika shohi mamlakatiga qarab yurishni davom ettirishibdi. Olisdan «Ko`paytirish» daryosi ko`rinibdi. Bu daryo ham ularga ko`paytirishga doir misollar yechish shartini qo`yibdi. Mustahkamlash uchun mashqlardan 1-4-6-misollarning ko`paytirishga doirlari yechiladi.

1-misol.

$$2 \times 9 - 9$$

$$2 \times 7 - 8$$

$$2 \times 8 - 7$$

$$2 \times 4 + 73$$

$$2 \times 5 + 56$$

$$2 \times 6 + 35$$

4-misol.

$$3 \times 5 + 64$$

$$3 \times 7 + 15$$

$$3 \times 6 - 11$$

$$3 \times 8 - 16$$

$$3 \times 2 + 90$$

$$3 \times 3 - 9$$

6-misol.  $X \times 3 = 24$

Bu tenglamani mustaqil ish qilib berish mumkin.

Ertakchi momo:- Raqamlar suv ichib, yana yo'lga tushishibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yursa ham mo'l yurishibdi. Endi oldilaridan «Bo'lish» daryosi chiqib qolibdi. Raqamlar ko'p yurib chanqagan ekanlar. Suv so'rashsa, u ham o'zining shartini qo'yibdi: «Bo'lishga doir misollarni yechib berasizlar, keyin suv beraman».

Mustahkamlash uchun

mashqlardan 3-5-6-misollarning bo'lishga doirlari yechiladi.

6-misol.  $21 : x = 3$

Ertakchi momo: - Barakalla, bolalar. Sizlarning yordamingiz bilan raqamlar Matematika shohi mamlakatiga eson-omon yetib borishibdi va u yerda ahil bo'lib yashay boshlabdilar.

«Matematika» kitobi: - Bolalar, endi men ham sizlarning bilimingizni sinab ko'rmoqchiman. Darslikdagi 8-masalani yecha olsangiz, sizlarga qoyil qolardim.

Masala sharti o'qitiladi, tahlil qilinadi va qisqacha sharti yozilgan lavha xattaxtaga ilinadi.

1-yashikda - 8 kg pomidor

2-yashikda - 4 kg ortiq pomidor

jami —? Echilishi:  $8 + 4 = 12$ ,  $8 + 12 = 20$ . *Javob: 20 kg*

Pomidor va uning salomatlik uchun foydasi haqida suhbat o'tkazilib, o'quvchilarga iqtisodiy va ekologik tarbiya beriladi.

«Matematika» kitobi: Rahmat, bolajonlar. Endi mana bu savollarimga ham javob topa olsangiz, Matematika shohining sovg'alariga ega bo'lasiz

1. Bitta tuxum 4 minutda 2 ta tuxum-chi?
2. Uyda uchta chiroq yonmoqda 1 tasini o'chirsak nechta chiroq qoladi?
3. Ikki aka-uka yashaydi. Bir-birini ko'rmaydi?

Dars jarayonida o`quvchilarga tarqatilgan testlar yig`ib olinadi va natijalari ko`rib chiqiladi. Faol o`quvchilar rag`batlantiriladi. 7-misolning ko`paytirish va bo`lishga doirlari uyga vazifa qilib beriladi.

«Matematika» kitobi: Rahmat, bolajonlar! Siz zukko bilimdon ekansizlar. Men bundan juda xursand bo`ldim.

Ertakchi momo:- Mening aziz bolajonlarim, ertagim davomida siz aqlingizni charxlab, bilimingizni oshira borib, o`zingizning hozirjavobligingiz bilan meni lol qoldirdingiz. Kelgusida ham sizlarga bundan-da qiziqarli ertaklar aytib berishga va`da beraman. Hozircha xayr. (*Ertakchi momo va «Matematika» kitobi xayrlashib, chiqib ketishadi*).

## QUVNOQ ALIFBE

“A”

Alifbeda yigirma to`qqiz harf

Ahil aka- ukamiz.

Ajratolmas bizni hech kim,

Asil aka- ukamiz.

\*\*\*

“B”

Bog`imizning bir chetida

Bobom ekan bodom bor.

Bu bodomni ko`rsak, go`yo –

Bog`imizda bobom bor.

\* \* \*

“V”

Voy-voy, deyman, voy, tishim,

“Voy- voy” lamoqdir ishim.

Vaqtida tish yuvmadim,

Voy, qo`ymas hech og`rishin...

\*\*\*

“G”

Guldirak qaro tunda  
Gumbirlaydi damo- dam.  
Go`yo nimadir izlar  
Gugurt chaqib bir odam.

\* \* \*

“D”

Daraxt shoxida maymun  
Doira chalar “bum- bum”.  
Deydi: “Do`stlar, tushingiz  
Davraga o`ynatib dum”.

\*\*\*

“E”

Etmish yoshli bobomning  
Elkasida ketmoni  
Eng shimarib ishlasa,  
Erning kirar naq joni.

\* \*

“ Yo”

Yomg`ir “shitir-shitir”lab,  
Yog`ayotir o`tlarga.  
Yomg`ir bir she`r shivirlab,  
Yoqayotir o`tlarga.

\* \*

“J”

Jamol bilan Jononni,  
Jumla jon- u jahonni,  
Jo`ja hamda jayronni,  
Jannat, Jamshid-u jomni,



Barining g`amin yerman,  
Qalqon bo`layin derman.

\* \*

“ Z ”

Zo`r emas polvon bo`lib,  
Zo`rg`a “ikki”, “uch” olgan  
Zo`rdir o`qib “a`lo”ga,  
Zuhra, Marsga ucholgan.

“ I ”

Ish desang kasal bo`lar,  
Inqillab “uh, boshim”, der.  
Ishtaha desang karsnay,  
Ikkovlonning oshin yer.

\* \* \*

“ M ”

“Miyov... miyov, kuydi tumshuq  
Ta`zirini yedi mushuk.  
Har narsaga tiqsang tumshuq  
Bo`lajaksan shunday shumshuk.

\* \* \*

“ N ”

Nonvoyxona to`libdi  
Nonning xushbo`y isiga.  
Nonvoy tang`ib chakkasin,  
Non uzar ust- ustiga.

\* \* \*

“ Y ”

Yo`lga chiqdik, Qayoqqa?  
Yiroq yulduzlar yoqqa.  
Yig`lab ergashar ukam,  
Yo`l bo`lsin- yey yig`loqqa

\* \*

“K”

Ko`klam gulli ko`ylak kiyar  
Ko`k, qizil, oq, sariqdan.  
Kuylar oqib yotgan kabi  
Kumush, billur ariqdan.

\* \* \*

“ L ”

Lola lolani uzmas,  
Lolazor husnin buzmas.  
Lola ham yashasin, der,  
Loladan yashnasin yer.

\* \* \*

“ R ”

Rasmga qarab,  
Ranjidi ko`zim.  
Rostini aytsam,  
Rassomi o`zim.

“ S ”

Sichqon jajji, sariq,  
Ko`zlari misli tariq.  
Chopib chiqdi uyadan,  
Der qo`rqmaymn tuyadan

“ T ”

Traktorga qarasang,  
“Trr...”illab men “zo`r...” deydi.  
Tuproqni qilib talqon,  
Tashlashimni “ko`r...” deydi.

\* \*

“ U ”

Uyg`otmasalar oyim,  
Uxlab darsdan qolardim.  
Uyquga baho yo`q- da,  
Undan “to`rt”, “besh” olardim.

“ F ”

Fillar futbol o`ynardi,  
Filbon: “Yaxshi”, deb kular.  
Faqat darvozalarin  
Farqiga bormas ular.

\* \* \*

“ O ”

Men “O”- man so`lay ozroq.  
Olma kabi dum- dumaloq.  
Na oyog`im, qo`lim bor.  
Oshayin-mi? do`mboloq.

\* \* \*

“ P ”

Paqir boshda, turishim  
Polvonlarday, to`g`rimi?  
Polizda qo`riqchiman,  
Poylayapman o`g`rini.

\* \* \*

“ S ”

Sa`va, desa, savalama,  
Ma`nosi boshqa, boshqa.  
Da`vo dardga davo bo`lmas.  
Ta`na – tana emas, oshna.

“X”

Xatim chiroyli, deysan,  
Xursand bo`lmas o`qigan.  
Xunuk- xato harfingni,  
O`qimas, xatto qarg`a ham.

\* \* \*

“Ch ”

Chumchuq chuq- chuq aytadi,  
Tutni cho`qib ketadi.  
Cho`qisa ham mayliga,  
Yerga to`kib ketadi.

\* \* \*

“Sh”

Shamol, shamol, shoshma-ey,  
Shovqin solma, oshna- yey.  
Shox- shabbani sindirma,  
Sho`hligingni tashla- yey.

\* \* \*

“Yu ”

Yulib oldi Yulduzxon,  
Sekingina yuzimni.  
Yumdalab qo`ymasin, deb.  
Yumib oldim ko`zimni.

\* \* \*

“O`”

O`zi yerda- yu  
Aqli quyoshda.  
Sirli jumboqlar  
Echilar boshda.

Qalbim quyoshga  
Ko`chirsam, deydi.  
Shunday o`ylaydi  
To`lqinjon tinmay.

Raketa yasab  
Uchirsam, deydi.

“ Q ”

Qoq –qoq, deb kuylar tovuq.  
O`zim qanday kuylayman.  
Qoq- qog`imni eshitib,  
Qanot yoyib yayrayman.

\* \* \*

“ G ”

G`uv- g`uv uchar bolari,  
Duv- duv uchar bolari.  
Guldan gulga qo`nishib,  
Sharbat ichar bolari,

Bolari,, hoy bolari,  
G`uv- g`uv nag`mang chal,  
ari!  
Bog`imizda yayrashib,  
Uchib o`yin sol, ari!

**Boshlang`ich sinflarda xalq og`zaki ijodi janrlari bo`limini o`rganish  
yuzasidan tavsiyalar**

### **ERTAKLAR MAMLAKATIDA**

Xalq ozaki ijodi janriga mansub bo`lgan ertaklar xalqimizning asrlar mobaynida orttirgan boy xayotiy tajribasi, kuzatishlari, xulosalari asosida yaratilgan bo`lib, insonni ma`naviy barkamollik, axlokiy poklik, xushyorlik, ziyraklik ruxida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Insondagi fazilat va kamchiliklar ba'zi ertaklarda xayotdagi real qahramonlar orqali ko'rsatilsa, ayrim ertaklarda hayvonlar, parranda-yu darrandalar misolida yoritiladi.

Ertaklardagi sirli, sehrli voqealar tasviri o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, asarning mazmun-mohiyatini o'zlashtirishlariga imkon yaratadi.

## **MAVZU: ITTIFOQLIK — BA DAVLATLIK ASOSI**

**O'quv material.** «Davlat» ertagi.

**Darsning maqsadi.** 1. O'quvchilarga ertak, uning kelib chiqishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ertakni ifodali, rollarga bo'lib o'qish ko'nikmasini o'stirish. O'quvchilar lug'atini *sharofat, tanob, beqiyos, huzur, ijozat, musibat, xushnudlik* so'zlari bilan boyitish. Ertak matnini qismlarga bo'lish, reja tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

«Davlat» ertagi orqali o'quvchilarda hamjihatlik, inoqlik, do'stlikni qadrlash tuyg'ularini o'stirish. Halol mehnat qilishga undash.

Ertakni o'qib qissadan hissa chiqarishga, uni do'stlari bilan mushohada etishga o'rgatish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

**Darsning metodi.** Deduktiv, suhbat metodi.

**Darsning jihozi.** Ertak kitoblari, tarqatma materiallar, ertakka ishlangan rasmlar.

**Darsning borishi.**

**I. Uyga berilgan «Ho'p hayda», «Chori chambar» xalq qo'shiqlarini so'rash va baholash.**

*Xalq qo'shiqlari yuzaasidan suhbat.*

◆ Xalq qo'shiqlarining qanday turlarini o'randingiz? (Bolalar: Bolalar qo'shiqlari va mehnat qo'shiqlarini o'rgandik).

◆ Qanday: bolalar qo'shiqlarini bilasiz? («Boychechak», «Tuyalar», «Oftob chiqdi olamga», «Yomir yog'aloq», «Chori chambar» qo'shiqlarini bilamiz.)

◆ Qo`shiqlarda qanday badiiy vositalar qo`llanar ekan? Misollar bilan tushuntiring («Ko`chama-ko`cha aylandi» misrasida jonlantirish; «Pring keltir, ko`rayin, Oltin sochib yuvayin» misralarida o`xshatish qo`llangan).

◆ «Ho`p hayda» qo`shig`i qaysi mehnat turi jarayonida kuylangan? («Xo`p hayda» donni po`stidan ajratish paytida kuylanadigan qo`shiq.)

◆ «Qo`shiqlar qanotida» bo`limida olgan qo`shiqlaringizni yod ayting.

## II. Yangi mavzu bayoni.

1. *O`quvchilarni ertak o`qishga tayyorlash.* O`quvchilardan qaysi ertaklarni o`qiganliklari, ulardan olgan taassurotlari so`raladi.

O`qituvchining hikoyasi: — Ertaklarni o`qish sevimli mashg`ulotingizdir. Ertaklardagi qiziqarli voqealar — uchar gilamda sayohat, ur to`qmoq, ochil dasturxon, qaynar xumchaning sehrli fazilatlarini sizni o`ziga tortadi. «Ertaklar ham xalq qo`shiqlari singari xalq ozaki ijodi mahsulidir. Ertaklarda xalqning orzu-umidlari, o`y-fikrlari, xohish-istaklari o`z aksini topgan.

2. *Ertaklar qanday gaplar bilan boshlanib, qanday tugaydi?*

(Ertaklar quyidagicha boshlanib: «Bir bor ekan, bir yo`q ekan. Och ekanda, to`q ekan. Bo`ri bakovul ekan, tulki yasavul ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Qirovul qizil ekan, quyrug`i uzun ekan...»). «Hammalari murodmaqсадlariga yetibdilar», deb tugallanadi).

3. *Lug`at ishi.*

tanob — qadimgi yer o`lchovi;

beqiyos — o`xshashi yo`q;

huzur — halovat, rohat;

4. *Guruhlarga bo`linib ertak matni ustida ishlash.* Jami o`quvchilar 4 ekspert guruhiga bo`linadi.

O`qituvchi ularni ekspertlar deb nomlaydi. Har bir ekspert guruh o`ziga tegishli matn qismini o`qib o`rganadi. So`ng ekspertlar boshqa guruhlarga tarqalishadi. Yangi tashkil qilingan guruhlarda har bir ekspert guruhdan bittadan vakil bo`lishi

shart. Matnning boshlanich qismi qaysi ekspertga tegishli bo`lsa, o`qib mazmunini so`zlab beradi. Shu tariqa barcha guruh a`zolari o`ziga tegishli qism bilan boshqa o`quvchilarni tanishtiradi. Guruh a`zolari eng yaxshi tushuntirgan ekspertni tanlaydi. Qaysi ekspert guruh ko`p ovoz to`plasa g`olib chiqadi.

5. **Savol tuzish mashqi.** Guruhlar qaytadan ekspert guruhlariga birlashib, o`ziga tegishli qism asosida savollar tuzishadi. Bunda o`qituvchi ularga yordam berib turadi. Quyidagicha savollar tuziladi. Kimning sharofati bilan dehqon boyib ketadi? Davlat nima deb dehqondan ruxsat so`rabdi? Deqon Davlatga nima uchun ruxsat bermabdi? Dehqon kimlarni yig`ib maslahatlashibdi? Dehqonga kichkina kelin nima deb javob beribdi? Oila a`zolari kelinning gapiga ko`nishibdimi? Nima uchun Davlat dehqonning uyida umrbod qolishga jazm qilibdi? Davlat qanday oilada bo`lar ekan?

6. **Har bir guruh o`z qismining rejasini aytadi.**

**Reja.**

vlat dehqonning hovlisida yashagan ekan.

Dehqon Davlatdan sabr qilishni so`rabdi.

Kelin birgalikda mehnat qilishlarini aytibdi.

Davlat inoq oiladan ketmabdi.

7. **Rollarga bo`lib ertakni o`qish mashqi.** O`qituvchi har bir ekspert guruhdan bittadan ishtirokchi tanlashni buyuradi. Har bir ishtirokchiga rol taqsimlab beriladi. Rollarga bo`linib o`qishda tinish belgilariga rioya qilish uqtiriladi. Eng yaxshi o`qiydigan o`quvchi g`olib sanaladi.

8. **Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash:** ♦ Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan? (Dehqonnikidan Davlat bir necha yil yashar ekan. Shuning uchun xonadoni rohat-faroatda, boy-badavlat yashar edi: Dehqonning mollari, yerlari, oltinlari behisob ekan). ♦ Nima uchun Davlat dehqonning uyidan ketishni xohlamadi? (Kelinning gapi bilan hammalari ahil bo`lib mehnat qilishga kirishishadi. Bunday inoqlikni ko`rib, Davlat dehqonning uyidan ketmabdi).



**9. Mavzuga oid maqollar topish va rebus tuzish.** Har bir guruhga biror maqol asosida rebus tuzdirish mumkin. O`qituvchi rebus tuzishda yordam berib turadi.

Quyidagicha rebuslar tuzish mumkin:

Ayрилganni ayiq yer, bo`linganni bo`ri yer. ,



«Davlat» ertagini o`qish orqali qanday xulosaga keldingiz? Sizning oilangizdagilar bir-birlariga qanday munosabatda bo`ladilar? Ular qanday kasb-hunar bilan mashg`ul?

**11.Uyga vazifa.** «Davlat» ertagini ifodali o`qib, gapirib berishga tayyorlanish. Ertak asosida rasm chizish.

**12. O`quvchilarni rag`batlantirish.**

## **MAVZU: BILIM OL, HUNAR TANLA**

**O`quv materiali.** «*Ilm afzal*» ertagi.

**Darsning maqsadi.** 1. O`quvchilarning ertak janri haqidagi bilimlarini boyitish. Ularning ertak matnini ifodali o`qish, qismlarga bo`lib reja tuzish, savollar tuzish ko`nikmalarini takomillashtirish. Ertakda qo`llangan badiiy san`at turlari haqida ma`lumot berish.

2. O`quvchilarni ilm olishga qiziqtirish. Ertak matni, ilmga oid maqol va matallar orqali ilm olishning afzalligini tushuntirish.

3. O`quvchilarni guruhda ishlash, yangi mavzuni guruhda munozara orqali anglab yetish ko`nikmasini shakllantirish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, ertak o`qish darsi.

**Darsning metodi.** Induktiv, suhbat, yarim izlanishli metod.

**Darsning jihozi.** Asar mazmuniga ishlangan rasm, rebuslar to`plami.

**Darsning borishi.**

## 1. O`tilgan mavzu yuzasidan suhbat o`tkazish.

- ◆ Ertaklarni kim ijod etadi?
- ◆ «Davlat» ertagi nima haqida? («Davlat» ahil, inoq bo`lib mehnat qilish haqidagi ertak.)
- ◆ Ertakning bosh qahramonlarini sanab bering. (Davlat, dehqon va uning kenja kelini).
- ◆ Sizlarga qaysi qahramon yoqadi? Nima uchun?
- ◆ Ertakdan qanday xulosaga keldingiz? (Ahil, inoq yashash, boylikni halol mehnat qilib, orttirish kerak).

## 2. Ertak janri bo`yicha qo`shimcha ma`lumot berish. Qadimda o`zbeklar orasida ertaklar «Cho`pchak» deb yuritilgan.

Ertaklarda xalqning orzulari ifodalangan. Ularda urto`qmoq, ochildasturxon, qaynar xumcha, uchar gilam orzu qilingan. Ulardan ayrimlari so`zlatiladi.

3. **Guruhlarga bo`linib ishlash.** O`quvchilar 5 guruhga bo`linadilar. Guruh ishtirokchilariga rollar bo`lib beriladi. Har bir rol egasiga biror vazifa yuklatiladi. Guruh ishtirokchilarg`ining rollari:

*Matndan parchalar topuvchi* — bu o`quvchilarning vazifasi matndan biror talab asosida parcha tanlaydi.

*Tadqiqotchi* — matndan har qanday savolga tegishli ma`lumotni taqdim qiladi.

*Savollar beruvchi* — munozara uchun asar matni asosida savollar tuzadi.

*So`zlar axtaruvchi* — bu o`quvchi lug`at ishi uchun material to`playdi.

*Nazoratchi* — guruhdagi o`quvchilarga yordam beradi, o`quvchilar bir-birining so`zini bo`lmasligini, o`yinda qatnashishini ajratilgan vaqtga rioya qilishni nazorat qiladi.

*Qahramonlarning tafsilotchisi* — matn qahramonlariga tavsif beradi va ular qandayligi haqida boshqa o`quvchilar bilan muhokama qiladi.

*Namoyishchi* — matnga doir rasmlar chizadi.

O`qituvchi o`zining yoki o`quvchilarning xohishiga ko`ra yangi rollar o`ylashi mumkin. Guruh ishtirokchilari rollarni o`zaro guruh ishida taqsimlaydilar.

O`qituvchi rollarni taqsimlashda guruhga yordam berib turadi.

Ertak matni 5 qismga bo`linadi va 5 guruhga bittadan qism ajratiladi. Har bir guruh o`ziga ajratilgan qism bo`yicha rollarga bo`linib ish olib boradi.

Matnni o`qituvchi oldindan o`zi yoki o`quvchilar bilan birgalikda qismlarga bo`ladi:

«Ilm afzal» ertagi taxminan quyidagicha qismlarga bo`linadi:

1. Otaning qizidan maslahat olishi yoki aqlli qiz maslahati.
2. Ota va o`g`illar munozarasi.
3. To`ng`ich o`g`ilning javobi.
4. O`rtancha o`g`ilining javobi.
5. Kenja o`g`ilning javobi.

Quyida bir guruh ishtirokchilar bajaradigan ishlar tavsilini keltiramiz.

1. Matndan parchalar topuvchi — guruhga berilgan qismning boshi va oxiri — chegarasini aniqlab guruh ishtirokchilariga o`qib beradi. Ular bilan qism chegarasini to`ri belgilaganligi yuzasidan munozara uyushtiradi: 1 qismning chegarasi — ertak boshidan «o`illar otasining bu gaplarini eshitib, hayron bo`lishibdi...» joyigacha belgilanadi.
2. So`zlar axtaruvchi — o`qib berilgan matndan ma`nosi tushunarsiz so`zlarni yozib boradi. Guruh ishtirokchilari bilan ularning izohini topadi.

*Qariya* — keksa kishi; *omi* — o`qimagan, savodsiz; *badbaxt* — baxtsiz; *moli padar, pasi padar* — ota moli o`zi bilan (tojik maqoli).

*Savollar beruvchi* — guruh ishtirokchilarining e`tiborini qism yuzasidan savollar tuzishga qaratadi. Bu savollar ertak parchasini gapirib berishga yordam berishi kerakligi uqtiriladi.

1 qism bo`yicha taxminan quyidagi savollar tuziladi: Qariya qaysi qishloqda yashagan ekan? Boboning nechta farzandi bor ekan? Ota qiz bilan qanday qarorga kelishdi? Cholning o`g`illari savollarga qanday javob berishdi?

*Tadqiqotchi* — matndagi badiiy til vositalarini aniqlash va guruh ishtirokchilarini ularni izohlashga da`vat etishi lozim.

Matnda qo`llangan badiiy til vositalari iboralar: mehnat qilishga bo`yni yor bermaydi; bu dunyodan ko`z yumsam — vafot etsam.

*Qahramonlarning tafsilotchisi* — cholning o`g`illariga tavsif berishadi, munozara uyushtiriladi.

◆Chol, o`zim omiligimcha qoldim, qani endi o`g`illarim o`qib odam bo`lsa, deb orzu qilarkan.

*Namoyishchi rassom* — matndan foydalanib suhbatlashayotgan chol va qizning rasmini chizadi.

*Nazoratchi* — guruh ishiga ajratilgan vaqtni, ishning aniq va to`liq bajarilayotganini, guruh a`zolarining o`z vazifasini qanday bajaryotganligini nazorat qilib turadi.

**4. Taqdimot.** Guruh a`zolari o`zlari bajargan ishni sinf hukmiga taqdim etadi.

**5. Baholash.** Guruhlar jadval asosida baholanadi. Jadvaldagi barcha baholar yig`indisi 5 ga bo`linadi. Baholanayotgan guruh o`ziga ham baho qo`yadi.

Darsda agar vaqt qolsa rollarga qarab eng yaxshi tadqiqotchi, eng yaxshi savollar beruvchi va hokazo rol egasi aniqlanib, taqdirlanishi mumkin.

**6. Uyga vazifa.** «Ilm afzal» ertagini o`qib kelish. «Nima uchun ilm afzal?» savoliga yozma javob yozish. Ilimning afzalligi haqida maqollar topib to`plash.

**Izoh.** «Ilm afzal» ertagining 2-bo`limi ham shu tarzda o`rganilishi mumkin.

— Hunarsiz kishi o`limga mahkum.

## ***ABADIY ERTAKLAR***

### **MAVZU: ZULM JAZOSIZ QOLMAS**

***O`quv materiali.*** Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak.

(I, II, III bo`lim) Anvar Obidjon.

**Darsning maqsadi.** 1.O`quvchilarning ertak janri haqida nazariy bilimlarini aniqlash, boyitish. Ularning matnni ifodali o`qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko`nikmalarini shakllantirish.

O`quvchilarning rostgo`ylik, to`riso`zlik fazilatlarini haqidagi tasavvurlarini boyitish, yolg`onchilik, ochko`zlikka qarshi nafrat uyg`otish.

O`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bolanishli nutqini o`stirish, nutqlarining ta`sirchan bo`lishiga erishish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, ertak o`qish darsi.

**Darsning borishi.**

I. **Da`vat bosqichi. Maqsad.** O`quvchilarda mavzuni o`rganishga va izlanishga rag`bat uyg`otish.

**Metod.** Izlanish, suhbat metodi. Ertak janri haqida suhbat.

Ertaklar qanday janr? (Ertaklar xalq ozaki ijodi janri.)

Ertaklarni qadimda qanday nomlashgan? (Ertaklarni cho`pchak deb atashgan.)

◆ Ertaklarda xalqning nimasi hikoya qilinadi?

◆ Ertaklarni kimlar ijod etadi? (Ertaklarni xalq va yozuvchilar ijod qiladi.)

**O`qituvchi hikoyasi:** Bolaligida eshitgan ertagidan ilhomlanib shoir va yozuvchilar bolalarga atab ertaklar yozishadi. Sizlar sevib tomosha qiladigan «Oltin baliqcha», «Shoh Saltan haqida»gi ertaklarni ham rus shoiri Aleksandr Sergeevich Pushkin yozgan. Bugun o`qib o`rganadigan

◆«Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak»ni esa bolalar shoiri Anvar Obidjon yozgan. Ertakni Anvar Obidjon she`r shaklida bitgan.

2. Anvar Obidjon haqida ma`lumot berish. Anvar Obidjon haqida nimalar bilasiz? savoliga javob olinadi.

II. **Anglash bosqichi. Maqsad.** O`quvchilarni «Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak» asari bilan tanishtirish, ifodali o`qishga, ertak mazmun-mohiyatini to`g`ri va to`liq anglab, mulohaza yuritishga, o`zaro muhokama qilishga o`rgatish.

**Metod.** Mustaqil ish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash metodi.

O`quvchilar 3 guruhga bo`linadi. Har bir guruhga bir darsga ajratilgan ertak bo`limi qismlarga bo`lib beriladi.

**Topshiriqlar ustida ishlash.** Quyida berilgan topshiriqlar konvertga solinib, har bir guruhga beriladi.

**1-topshiriq.** Berilgan parchani o`qing, ifodali o`qib berishga tayyorlaning. Bu topshiriq bo`yicha ifodali o`qish musobaqasi uyushtiriladi; 5 ta guruhdan 2 tadan o`quvchi chiqib, matni ifodali o`qiydi.

**2-topshiriq.** O`qigan matn parchasida ifoda etilgan ma'lumotlarni bilib oling. Izohlashga tayyorlaning. O`quvchilar taxminan quyidagicha fikr bildiradi:

1-guruh: Anvar Obidjon jahonda qiziq ishlar bo`ladi, yer teskari aylanib hayvonlarni yeydigan bo`ri ularni davolaydigan tabib bo`ladi, — deydi. Tabib bo`lsa ham yirtqichligini tashlamaganini quyidagi misralarda ifoda etgan:

Ana qarang

Tish qayrab

O`tirar shum shifokor.

Yo`lga boqar jovdirab,

Tezroq kelsa deb bemor.

2-guruh: Bo`ri yirtqich bo`lishi bilan birga, bilimsiz tabibdir. U quyoning biqini qolib chap ko`zini tekshiradi. Oshqozon og`riqni tumov deb ataydi.

Bunga mana bu misralar misol bo`lishi mumkin:

Bo`ri yaqin o`tirdi, — Kechikamiz dingquloq,

Biqin qolib Ko`rmasak tez chora gar

Tekshirdi — Oshqozoning sal chatoq

Quyoning chap ko`zini. Buni «tumov» deydilar...

3-guruh: Bo`ri tabib bo`lib bemorlardan faqat o`z foydasini ko`zlaydi. To`ng`izning kasalini davolash go`shtini kesib olish kerak deydi:

Tomoq og`riq boshlanar O`ng oyoqning payidan Kesib olsak soz bo`lar Go`shtlikkina joyidan.

**3-topshiriq.** Lug`at ustida ishlash. Har bir guruh o`ziga tegishli parchadagi tushunarsiz so`zlar lug`atini tuzadi. Darslikdagi lug`atdan foydalanib ma`nosini izohlaydi.

1-guruh quyidagi soʻzlarni doskaga yozadi: *ters* — teskari, chap; *yirtqich* — vahshiy; *bemor* — kasal, betob.

2-guruh: *inim* — ukam; *gar* — agar; *muolaja qilamiz* — davolaymiz.

3-guruh: *payi* — elastik toʻqima; *rostlab qoldi juftagin* — qochib qoldi.

**4-topshiriq.** Berilgan parchadan oʻxshatish, jonlantirish, koʻp maʼnoli soʻzlarni aniqlang.

Namuna. 1-guruh: *dingquloq* (quyon maʼnosida) — koʻchma maʼnoda ishlatilgan.

3-guruh: *Rostlab qoldi juftagin* (qochib qoldi) — ibora koʻchma maʼnoda.

**5-topshiriq.** Berilgan parcha asosida savollar tuzing.

Namuna. 1-guruh: Boʻri kim qilib saylandi? Shum shifokor nimalarni oʻylab oʻtiribdi?

2-guruh: Quyon tabib oldiga qanday kirib keldi? Uning qaeri ogʻriyotgan edi? Boʻri unga qanday tashxis qoʻydi? U quyonga qanday davoni qoʻllamoqchi boʻldi?

3-guruh: Toʻnizcha boʻrining oldiga qay holatda keldi? Boʻri Toʻnizchaning kasali sababini nima deb koʻrsatdi? Nima uchun Toʻniz juftakni rostlab qoldi?

**6-topshiriq.**—Har bir boʻlimga mos sarlavha toping.

Namuna.

1. Shum shifokor.

2. Bemor quyoncha.

3. Juftakni rostlagan Toʻngʻizcha.

**III. Fikrlash bosqichi. Maqsad.** Darslikda berilgan savol topshiriqlar orqali egallangan bilimlarni aniqlash. Oʻquvchilarning xulosa chiqarish koʻnikmalarini shakllantirish.

**Metod.** Suhbat, test usuli.

1. Darslikda berilgan 1—2 savollar ustida ishlash:

◆ Quyon bilan toʻniz nima uchun qochib qolishdi?

◆ Boʻrining huzuriga kimlar shifo izlab keldi? Qoʻshimcha savollar.

◆ Boʻri nima maqsadda tabib boʻldi?

◆ Tabiblar qanday boʻlishi lozim?

- ◆ Sizning ichingizda shifokor bo`lishni istovchilar bormi?
- ◆ Shifokor bo`lish uchun nima qilish kerak deb o`ylaysiz?

## 2. Test sinovi.

Uyga vazifa. Ertakni ifodali o`qishga tayyorlanib kelish.

## 4. Guruhlar to`plagan ball e`lon qilinadi.

**Izoh.** Ertakning 2 bo`limi ham shu tarzda o`rganilishi mumkin. Guruhlar quyidagi so`zlar ustida lug`at ishi olib boradi.

*Tul kampir* — beva kampir;

*muttaham* — aldoqchi, shum;

*dil xushlab* — xursand bo`lib;

*notetik* — og`rib;

*darg`azab* — g`azabnok, azabli;

*ozor* — tashvish;

*quvvatdori* — quvvat beruvchi dori;

*xapdori* — tabletka.

## MAVZU: TOPISHMOQLAR

### O`quv materiali. Topishmoqlar.

**Darsning maqsadi.** 1. O`quvchilarga topishmoqlarning janriy xususiyatlari haqida ma`lumot berish. Ularning topishmoqni ifodali o`qish, javobini tez topish malakalarini oshirish, ziyraklikka o`rgatish.

2. O`quvchilarning muomala madaniyatini oshirish.

3. O`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Ijodiy faoliyatga yo`llash.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, topishmoq o`qish darsi.

### Darsning borishi.

- I. **Da`vat bosqichi.** Maqsad. O`quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuga qiziqish uyg`otish.

**Metod.** Suhbat, izlanish metodi.



**1. O`quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash.** O`qituvchi doskaga osmondagi yulduzlar, yonoq, yeryonoq, arra rasmlarini ilib qo`yadi.

Doskaga quyidagi topishmoqni yozadi: 1. *Tunda ko`rib, cho`g` deysan, Tongda ko`rib yo`q deysan.*

◆ Shu rasmlar ichidan topishmoqning javobini toping. Qaysi so`zlar orqali topishmoqlarning javobi *yulduz* ekanini bildingiz?

2. *Qo`shaloq tovoq, Ichi to`la yog`.* Qaysi belgilariga ko`ra topishmoqning javobini topdingiz?

3. *Pilla kabi bo`indor. Har bo`g`inda mag`zi bor.* Yeryonoqning qaysi belgilari topishmoqda keltirilgan?

4. *Og`zi yo`g`u tishi bor, Duradgorda ishi bor.* Javobini qaysi so`zlar orqali topdingiz?

*O`qituvchi.* Topishmoqlarni topishda sizga nimalar yordam berdi? Topishmoqda narsaning belgilarini ifodalovchi so`zlar bo`ladi. Topishmoqlarda ko`pincha kim? nima? so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlar yashirinadi.

**2. Topishmoqlar haqida ma`lumot berish.**  
O`qituvchining hikoyasi. Topishmoqlarni ham xalq yaratgan. Topishmoq matnida yashiringan narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa xususiyatlari berilgan bo`ladi. Topishmoqlar qadimda jumboq, top-top deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o`ziga xos rasm-rusmlari bilan bog`liq bo`ladi.

**II. Anglash bosqichi. Maqsad.** Darslikda berilgan topishmoqlar bilan tanishtirish. Mustaqil o`qishga, topishmoqlar yuzasidan o`zaro muhokama qilishga o`rgatish.

**Metod.** Mustaqil ish, krossvord yechish, suhbat metodi.

**1. Topishmoqni ifodali o`qish va javobini topish.**

**2. Topishmoqlar yuzasidan savol-javob o`tkazish.**

◆ Birinchi topishmoqning javobi nimaga o`xshatilgan? (g`o`zaga.)

- ◆ Tun cho`kkandagi osmon nimaga o`xshatilgan? (Ko`k ko`ylakka.)
- ◆ 2 topishmoqda oy nima deb ta`riflangan? (Patir.)
- ◆ 3 topishmoqda karamni qaysi belgilariga ko`ra topdingiz? (Karamning qavat-qavat bargi qat-qat to`nga o`xshatilgan.)

### 3. Krossvord yechish.

O`qituvchi krossvordni vatmanga oldindan quyidagicha tayyorlashi mumkin. Krossvord savollari topishmoqlar ko`rinishida bo`ladi. Sinfni 3 guruhga bo`lib, har bir guruhga yechish uchun bitta krossvord beradi. Bu, bolalarning topishmoqni tez topishiga ishtiyoqini oshiradi.

1 guruh uchun krossvord. *Bo`yiga:*

1. *Keragida suvga o`tasan,*

*Qimirlashin poylab yotasan.*

3. *Kasbi doim taqir-tuqur,*

*Qayda ilon ko`rsa cho`qir.*

6. *Birlashtirib kiyimni,*

*Issiq tutadi sizni.*

Eniga:

2. *Qo`lsiz, oyoqsiz eshik ochar.*

4. *Katta oppoq dasturxon Yer yuzini qoplagan.*

5. *Og`zi yo`g`u, tishi bor, Duradgorda ishi bor.*

**Javoblari:**

**1. Qarmoq. 8. Laylak. 6. Tugma. 2. Shamol. 4. Qor. 5. Arra.**

2-guruh uchun krossvord.

Bo`yiga:

1. *Tikuvchimas,*

*Bichuvchimas,*

*Ignasi ancha ekan.*

4. *Kundalik tarix o`zi*

*Har yerda uning so`zi.*

5. *Bir onadan yuz bola,*

*Yuzovi ham bo`z bola.*

*Eniga: 2. Uyning shiftida ini,*

*Kuylab berar har kuni*

*Bahorda kutib olib*

*Kuzatamiz kuz uni.*

*4. Xo`ppa semiz, bir tuki yo`q.*

*6. Uzun terak, ichi kovak.*

**Javoblari. 1. Tipratikan. 3. Gazeta. 5. Uzum. 2. Qaldirg`och. 4. Tarvuz.**

**6.Qamish.**

3-guruh uchun krossvord. Bo`yiga:

1.Pishirsang osh bo`lur,

Pishirmasang qush bo`lur.

2. Gulsiz meva qiladi,

Ko`p yesang — til shiladi:

3. Fir g`ildirak oy kulcha,

Bu nima, kim biladi?

4. Chopsa chopilmaydi,

Ko`msa ko`milmaydi.

5. Bodom kabi yaprog`i,

Sollanadi butog`i,

6. O`zi shirin, tukligina,

Mazasi ham totligina.

Eniga:

1. Ikki ajib qulog`i bor:

Biri tinglar, biri so`zlar.

2.O`zi qizil, go`zal biram,

Qirga yozar qizil gilam.

3.Pakpakana bo`yi bor,

Etti qavat to`ni bor.

*Javoblar: 1. Tuxum. 3. Anjir. 4. Soya. 5. Shaftoli. 2. Telefon trubkasi. 6. Lola. 7. Piyoz.*

**III. Fikrlash bosqichi. Maqsad.** Darslikdagi savol-topshiriqlarga javob olish orqali egallagan bilimlarini aniqlash. O`yinlar orqali ijodiy izlanish ko`nikmasini shakllantirish.

**1.Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.** Topishmoqlarni kim yaratgan? Topishmoqlar qadimda nima deb atalgan? Topishmoqning qanday foydasi bor? O`zingiz qanday topishmoqlar bilasiz?

**2.O`quvchilar bir necha qatorlarga ajratiladi.** Qator sardorlari o`quvchilarga biror narsa rasmini beradi. O`quvchi rasmga oid topishmoq aytadi. U aytmasa, orqadagi o`quvchiga uzatadi. O`quvchilarga shunga doir topishmoqni o`zingiz to`qishingiz ham mumkin deb aytiladi. Qaysi qator topishmoqni birinchi bo`lib aytsa, o`sha qator g`olib sanaladi.

**3.Uyga vazifa.** Darslikda berilmagan yangi topishmoqlar topib, daftarga yozib kelish.

**4.O`quvchilarni rag`batlantirish.**

### **Mavzu: TOPGAN TOPALOO**

**O`quv material.** «Buni toping, qizlarim». *Fafur Fulom.*

**Darsning maqsadi.** 1. O`quvchilarning topishmoqlarni ifodali o`qishni, topishmoq matnini tahlil qilish ko`nikmalarini shakllantirish. Fafur Fulom ijodi haqida ma'lumot berish. Narsa, voqea, hodisalarni tasvirlay olishga o`rgatish.

2. O`quvchilarda tabiat in`omlaridan bahra olish, uni isrof qilmaslik tuyg`ularini o`stirish.

3. O`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`stirish, ijodiy faoliyatga yo`llash.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi dars.

**Dars shakli.** Noan`anaviy.

**Darsning borishi.**

**I. Da`vat bosqichi. Maqsad.** O`quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash va boyitish ularda mavzuga qiziqish uyg`otish.

Fafur Fulom ijodi bilan tanishtirish.

**Metod.** Suhbat, aqliy hujum metodi.

**1. Mavzuni o`rganishga o`quvchilarni tayyorlash.** O`qituvchi darsga oldindan 2 o`quvchini Muxtorjon va Munisa obrazlariga tayyorlaydi. «O`ylashni o`rganamiz» she`rini 2 o`quvchi rollarga bo`lib yoddan aytadilar.

*O`qituvchi:* Sizlar eshitgan bu she`rga qanday sarlavha qo`yish mumkin? (♦«O`ylashni o`rganamiz») deb nomlanadi. Sizlar ham tog`day morojniyni, gilos bog`ni, bir qozon qaymoqni, qo`g`irchog`-u o`yinchoqlarni orzu qilsangiz kerak. Kichkintoy bolajonlarning orzusini yaxshi bilgan, shunday quvnoq she`rni yozgan shoir kim bilasizmi? «Shum bola» kinosini sevib tomosha qilasiz. «Shum bola» qissasini kim yozgan? Shoir F. Fulom yozgan.

F. Fulom yoshlikdan otadan yetim qolib, azob-uqubat, qiyinchilik bilan hayot kechirdi. Oilani tebratishda onasiga yordam berish uchun turli yumushlarni bajarishga majbur bo`ldi.

Fafur Fulom Toshkentdagi «Urfon» internatida tarbiyachi hamda mudir bo`lib ishladi. U bolalarga atab «Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi», «Avval o`qi», «Ikki yoshlik», «O`rdak va Turg`un», «Kekaymachoq Sobir», «Ola buzoq» degan she`rlar yozgan. Bugun darsda shoirning «Buni toping, qizlarim» nomli she`riy topishmog`ini o`qiymiz.

### **1. Topishmoq janri haqida suhbat.**

- ♦ Topishmoq ertak she`rlardan nimasi bilan farq qiladi?
- ♦ Topishmoqlar qadimda qanday nomlangan?
- ♦ Yod bilgan topishmoqlaringizdan ayting.
- ♦ Topishmoqni topa olmagan odamdan nimalar so`raladi?..
- ♦ Topishmoq yozgan yana qanday shoir va yozuvchilarni bilasiz? (P. Mo`min, Abdurahmon Akbar, Habib Rahmat, Quadrat Hikmat...)

**II. Anglash bosqichi. Maqsad.** O`quvchilarning she`rni ifodali o`qish, uning matnini tahlil qilish ko`nikmalarini shakllantirish.

**Metod.** Yarim izlanishli metod.

Sinf 4 guruhga bo`linadi. Har bir guruhga she`riy topishmoqning bir bandi bo`lib beriladi. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq.** Ifodali o`qing.

Har guruhdan 2 o`quvchi chiqib, parchani ifodali o`qib beradi. O`qituvchi guruhlarni baholab boradi.

**2-topshiriq.** She`r tuzilishini tahlil qilish.

Topishmoq necha misradan iborat? Topishmoqdagi qofiyadosh so`zlarni toping. Masalan, 1-guruh taxminan quyidagi so`zlarni aytadi: Topishmoq 6 misradan iborat. *Tuki, po`ki, ko`ki* so`zlari o`zaro qofiyadosh.

**3-topshiriq.** She`riy topishmoqda yashiringan poliz ekinini tasvirlovchi so`zlarni toping.

Guruhdagi o`quvchilar taxminan quyidagilarni yozadilar:

Tarvuz — to`ni silliq, tuki yo`q. Hammasi to`q, po`ki yo`q. Ichi qizil, ko`ki yo`q.

Uzum — marjonmarjon, yumaloq, yaproqlari shapaloq. Qora, qizil, sariq, oq.

Behi — malla, tukli, sap-sariq, murabbosi mazali, palovga bossa bo`lur, omborga ossa bo`lur.

Anor — mayday, yoqutday qizil, shirin, nordon, xilma-xil, qalin, taxir po`sti.

**4-topshiriq.** Tasvirlangan mevalarning foydali tomonlarini ayting.

**III. Fikrlash bosqichi. Maqsad.** Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlarga javob olish orqali o`quvchilarning egallagan bilimlarini aniqlash. Mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o`stirish.

**Metod.** Aqliy hujum, suhbat, mustaqil ish metodi.

**1. Aqliy hujum.** Savol: Topishmoqlarni kimlar yaratadi? Topishmoq yaratgan shoir, yozuvchilar nomini ayting. Ularning javobi tarmoqlash usulida yozib boriladi.

— *Topishmoqning asosiy xususiyatlari nima?*

**2. Topishmoq aytish ([guruhlararo](#)) musobaqasi.**

**3. Mustaqil ish.** «Buni toping, qizlarim» topishmoqda foydalanilgan soʻzlar yuzasidan krossvord tuzish. Taxminan quyidagicha krossvord tuziladi.

*Boʻyiga:*

1. Qishda kiyiladigan ustki kiyim.

3. Kichkina qush.

*Eniga:*

2. Qizlar ismi.

4. Poliz ekini.

Javobi: 1. Toʻn. 2. Qunduz. 3. Chumchuq. 4. Tarvuz.

*Boʻyiga:*

1. Meva turi.

3. Qizlar sevadigan taqinchoq.

*Eniga:*

2. Qizlar ismi.

4. Rang turi.

Javobi: 1. Uzum. 2. Mamlakat. 3. Marjon. 4. Qora.

**4. Guruhlarning toʻplagan ballarini eʻlon qilish.** Faol ish tirokchilarni baholash.

**5. Uyga vazifa.** Sheʼriy topishmoqni yod olish. Oʻqish daftariga topishmoqlar yozib kelish va ijod qilish.

### **Mavzu: XALQ HIKMATLARI**

**Oʻquv materiali. Maqollar.**

**Darsning maqsadi.** 1. Oʻquvchilarga maqollarning xususiyatlari haqida maʼlumot berish. Maqollarni ifodali oʻqish, mazmunini toʻliq anglab yetish koʻnikmasini oshirish.

2. Maqollar orqali oʻquvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqkoʻngillik tuygʻularini singdirish.

3. Oʻquvchilarni koʻrgan-bilgan, eshitgan, oʻqiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, oʻz nutqida maqollardan foydalanishga oʻrgatish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, maqol o`qish darsi. Darsning borishi.

I. **Da'vat bosqichi. Maqsad.** O`quvchilarda yangi mavzuni o`zlashtirishga ishtiyoq uyg`otish. Maqollarnig xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

**Metod. Suhbat metodi.**

1. **O`quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash.** O`qituvchi doskaga quyidagi maqollarni yozib qo`yadi: Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar. Avval o`yla, keyin so`yla.

*O`qituvchi:* Abdulla Avloniyning «Yaxshilik yerda qolmas» hikoyatini bilasizmi?

*O`qituvchining hikoyasi:* Yaxshilik yerda qolmas. Doskaga hikoya mazmuniga mos rasmlar ilinadi.

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari ho`l bo`lib ucharga kuchi yetmadi. O`lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko`rib, ariga rahmi kelub darhol bir cho`pni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho`pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Arodan ko`p o`tmadi. Bir bola tuzoq qo`yib, kabutarni tutmoqchi bo`ldi. Ari buni ko`rgan zamon kelub, bolaning qulog`ini chaqdi. Bola quloig`ning alamidanda tuzoqni tashlab, qulog`ini ushladi. Kabutar vaqtni animat bilib, uchib ketub, o`limdan qutuldi.

2. **Hikoyat yuzasidan topshiriq.** ♦ Doskadan siz tinglagan hikoyaga mos maqolni topib, belgilang. (O`quvchilar «Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar» maqolini belgilaydilar.)

♦ Qolgan maqollarga mos qanday hikoya, ertaklar o`qigansiz? («Bilim — aql chiroyi» maqoli mazmuniga mos «Ilm afzal» ertagini o`qiganmiz).

♦ Maqollarni yana qanday nom bilan atash mumkin? («Dono filer» deb atash mumkin).

♦ Bugungi darsda nimalarni o`rganar ekanmiz?

♦ Maqollar nima haqda bo`ladi?

♦ Maqollar nima maqsadda yaratiladi?

3. **O`quvchilar javobi to`ldirib, umumlashtiriladi.** Nazariy ma'lumot. Maqollar — xalqning hikmatli ifodalari. Hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan



dono fikrlarning ixcham shakli. Maqollar she'riy va nasriy tuzilishga ega. Maqollar ona — Vatanni sevishga, uning har bir qarich yeri uchun kurashga, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga, to'g'ri so'z odobli va olijanob xulqli bo'lishga chaqiradi.

**II. Anglash bosqichi. Maqsad.** Maqollarni ifodali o'qish, mazmunini misollar bilan ochib berishga o'rgatish.

**Metod.** Suhbat, guruhlariga bo'linib ishlash.

**1. Guruhlarda ishlash.** O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uchun ma'lum mavzudagi maqollarni o'qib o'rganish topshiriladi.

**1-topshiriq. Ifodali o'qish mashqi.** Guruhdagi har bir ishtirokchi bittadan maqolni ifodali o'qib beradi.

**2-topshiriq. Mustaqil ish.** O'quvchilar darslikdan o'qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tinglab, maqolning ma'nosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bog'liqligini izohlab beradilar. Masalan, «Elidan ayrilgan yetti yil yillar, Vatandan ayrilgan o'lguncha yig'lar» maqoliga Bobur haqidagi «Hidi tilimi va mazasidan» asarini misol qilib keltiradilar. Darslikdan *El boshiga tushgan ish — er boshiga tushgani* maqoliga mos asarni eslang. Shu maqol qaysi asar oyasiga mos keladi? *Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar* maqoliga qaysi asar g'oyasi mos? (Mardlik va aql yoruligi) va hokazo.

**III. Fikrlash bosqichi. Maqsad.** O'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash. Nutqida maqollardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish. Xulosa chiqarishga o'rgatish.

**Metod.** Aqliy hujum, suhbat metodi.

**1. Aqliy hujum.** Maqollar qaysi mavzularda bo'ladi? Maqollar qanday paydo bo'lgan?

**2. Maqollardan yod aytish musobaqasi.**

1-guruh. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan yod ayting.

2-guruh. Vatanparvarlik haqida maqollar yod ayting.

3-guruh. To'ri so'zlik haqidagi maqollardan yod ayting.

4-guruh. Do'stlik haqidagi maqollardan yod ayting.

**3. Ijodiy mustaqil ish.** Har bir guruhga bitta maqol beriladi. Guruh ishtirokchilari birgalikda oxiri berilgan maqol bilan xulosalanadigan hikoya tuzib yozishadi. O`qituvchi guruhlarga quyidagi maqollarni bo`lib berishi mumkin:

Hamjihatlik — davlat, Yolg`izlik kulfat.

Ilmi yo`qning ko`zi yumuq.

Odobli — elda aziz.

Hunar bo`lsa qo`lingda, non topilar yo`lingda.

Hikoyani ertak tarzida yoki hayotda uchraydigan biror voqea tarzida yozish bo`yicha maslahat va yordam beriladi. Masalan, «Odobli — elda aziz» maqoli asosida taxminan quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

Odiljon oyisi, dadasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pistabodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho`xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo`l cho`zavermadi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni «Odobli bola ekan» deyishdi. Odiljon «Odobli — elda aziz» ekanligini bilib oldi.

Bu uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

4. Mavzu yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bugungi maqollarni o`rganish darsi sizga yoqdimi? — Maqollar bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi deb o`ylaysizmi? Qanday ta'sir o`tkazishi mumkin? Siz bugun o`zingizga qanday xulosa chiqardingiz? O`qigan qaysi maqolimiz sizga ham tegishli?

5. Guruhlar to`plagan ballarni e`lon qilish. O`quvchilarni rag`batlantirish.

6. Uyga vazifa. Maqollarni ifodali o`qish va yod olish. Darslikdan o`qigan ertaklar mazmuniga mos maqollar topib, daftarga yozib kelish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. T.,1997.
2. O`zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».T.,1997.
3. Karimov. I.A. «Ma`naviy yuksalish yrlida» T.1998 y.
- 4.I. A. Karimov. I.A. «Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori»T.,1998.
- 5.Ochilov M., Ochilova M. «O`qituvchi qalb me`mori» Toshkent.,
- 6.Mavlonova R.,Xoliqberdiev K.. To`raeva O. Pedagogika  
Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, «O`qituvchi» 2002 y.
- 7.Quziev B., U. Dolimov. Ma`rifat darg`alari.T., «O`qituvchi» 1999y.
- 8.Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi.T., 1996 y.
- 9.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.,1993.y.
- 10.Umumiy psixologiya.T.,1995 y.
- 11.Navoiy A. «Mahbub- ul-qulub» T., 1983 y.
- 12.Kaykovus. «Qobusnoma». T., 1967 y.
- 13.Yunusov T. Yosh o`qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish.
- 14.B.L.Farberman va boshqalar. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. T., 2002
- 15.Xasanov R. Saodatnoma., T., 1997 y.
- 16.Efimova A. «Pedagoglik kasbi». M., 2002 y.

## MUNDARIJA

**Kirish.** . . . . .5

**I – BO`LIM.** Pedagogik mahoratning nazariy asoslari hamda uning o`qituvchi faoliyatida tutgan o`rni va ahamiyati.

- O`qituvchi atamasi, uning shaxsi, kasbi va pedagogik faoliyati . . . . .  
. . . . . .. 6- 31
- Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o`qituvchi faoliyatida tutgan o`rni va ahamiyati . . . . . 32-36
- Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o`qituvchi mahorati masalalari. . . . . 37-55
- O`qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat . . . . . 56 -64
- O`qituvchining kommunikativ qobiliyati . . . . . 65 - 73

**II BO`LIM.** Muloqot – pedagogik mahoratning namoyon bo`lish jarayoni ob`ekti sifatida.

- O`qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi . . . . .  
. . . . . 74- 78
- O`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi muloqot . . . . .79 - 129
- Pedagogik nazokat va pedagogik odob – axloq . 130 -150

**III BO`LIM.** Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida.

- Pedagogik texnika haqida tushuncha.Pedagogik texnikani shakllantirish uslublari . . . . . 151- 155
- O`qituvchining ta`lim jarayonidagi mahorati . . . 156 -178
- Pedagogik ta`sir ko`rsatish . . . . .179 – 181
- Pedagogik xayol pedagogik ta`sir ko`rsatishning tarkibiy qismi sifatida . . . . . 182-186

**IV BO`LIM.** O`qituvchi mahoratini takomillashtirish yo`llari va shart – sharoitlari.

- O`qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish . . . . .187 -192
- O`z -o`zini tarbiyalash va o`z ustida ishlash . . . . 193- 197

**V BO`LIM.** Pedagogik faoliyat jarayonida o`qituvchining o`z psixik holatini o`zi tartibga solish mahorati. . . . .198- 204

- Pedagogik diqqat va uning pedagogik faoliyatdagi roli .....205-207
- Pedagogik faoliyat va qiziqishlar .....208- 211
- O`qituvchi - ustozlar haqida . . . . . . . . . . . . . . .212 -213
- Boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik tavsiyalar .....214-266

